ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

3-maxsus son

(maxsus son)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

TAHRIRIYAT

	4	Boshlang‘ich ta’lim – kelajakka qo‘yilgan qadam

TA’LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

A. Nurmanov, Y. Turganov	6	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilim, ko‘nikma va malakalarini baholash tendensiyalari
F. Raxmatova	9	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning ahamiyati
M. Tilakova D. Norbekov	12	Uzluksiz ta’lim tizimda tarixiy-madaniy yodgorliklarni idrok qilishva texnologik-konstruktiv yondashuv
B. Boltayeva	15	“Pirls” xalqaro tadqiqotiga o‘quvchilarni tayyorlashda o‘zlashtirish malakasining o‘rni
A. Usmonov	18	Ijodkorlik fazilatlariga ega shaxslarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni
D. Kulboyeva	21	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini texnologiya darslari orqali kreativlik qobiliyatini takomillashtirish
J. Isoqov, Z. Jalolova	24	Yosh avlodni barkamol shaxs qilib shakllantirishda ma’naviy tarbiyaning roli
M. Sheranova	27	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda milliy -ma’naviy qadriyatlardan foydalanish
D. Abduraxmonova	30	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini pirls dasturiga tayyorlash
F. Oripova	34	Talabalarni ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirishning ijtimoiy asoslari
M. Soliyeva	37	Ta’lim muassasalarida o‘qituvchi va o‘quvchilarning jonli muloqotini tashkil etish
Sh. Sindorov	40	Tarbiyada xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlaridan foydalanish
L. Turaqulov	43	Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoiylashuvining psixologik hususiyatlari

TA’LIM VA TARBIYA METODIKASI

G. Xolboyeva	46	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mutolaa madaniyati orqali intelektual salohiyatini takomillashtirish
R. Atamurodova	49	Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tafakkurini shakllantirish (adabiyot darslari misolida)
H. Sodiqov	52	Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyati xususiyatlarini nazarda tutuvchi badiiy-etik matnlarni tanlash mezonlari
D. Haydarov	55	Axborot ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini loyihalash kompetensiyasini shakllantirish
Sh. Siddiqova, O. Nuraliyeva	58	“Fe’l” mavzusini o‘tishda lug‘atlarning ahamiyati
S. Temurov D. Nusratova	61	Kadrlar salohiyatini oshirishda individual ta’lim metodining afzalliklari
H. Shukurova	65	Kasbiy faoliyatda metodik yondashuvni takomillashtirish
D. Mustafaqulova, O. Ismatullayeva	68	Biologiya darslarida o‘quvchilarning tizimli tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish

ZAMONAVIY TA’LIM TEXNOLOGIYALARI

M. Usmonov, B. Suvankulov	73	Ta’lim sifatini oshirishda interfaol elektron o‘quv kurslarni yaratish ahamiyati



DAVLAT TILI: BURCH VA MA’SULIYAT

Sh. Siddiqova, S. Nuriddinova	76	Navoiy badiiy olami xususida muxtasar fikrlar



MADANIYAT, SAN’AT VA MUSIQA TA’LIMI

N. Xasanova	79	Musiqa fanini o‘qitishda innovatsion texnologiyalarning ta’limda samaradorligi
E. Abdukarimova	82	Oliy pedagogik ta’limda bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini mumtoz musiqa vositasida amaliy faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirish
M. Mo‘minova	85	Bolalar folkloridagi axloqiy tarbiya xususiyatlari



MAKTABGACHA TA’LIM

X. Akramova I. Aralova	89	Maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq nuqsonlarni korrektsiyalashda tasviriy faoliyatdan foydalanish metodlari
G. Davurova	93	Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga – hayotga tayyorlovchi ko‘nikmalar
N. Abduqodirova	96	Maktabgacha ta’lim tashkilotlarda madaniy- ma’rifiy tadbirlar samaradorligini oshirish omillari



PSIXOLOGIYA

N. Boyto’rayeva	99	Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda kadriyatlar motivatsiyasi
D. Sodiqova	102	Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirishning o‘ziga xos afzalliklari



KORREKSION PEDAGOGIKA

X. Akramova	105	Aqli zaif o‘quvchilar mehnat ko‘nikmalarini shakllantirishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo‘llari
G. Temurova	108	Eshitishida nuqsoni bor nutqiy bo‘lmagan tovushlar orqali eshitish idrokini rivojlantirish usullari
X. Akramova, D. Ropijonova	111	Aqli zaif bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda oila va maktab hamkorligini amalga oshirish yo’llari
X. Akramova, D. Zokirova	115	Professional ta’limda aqli zaif bolalarning nutqini o‘stirish bo‘yicha korreksion-pedagogik texnologiyaladan foydalanish



XALQ PEDAGOGIKASI

D. Farsaxonova	119	Boshlang‘ich sinf “tarbiya” fanini o‘qitishda ajdodlar merosidan foydalanish masalalari
M. Soibnazarova	123	Abdulla Avloniy qarashlari asosida yoshlarda ijobiy sifatlarni shakllantirish
K. Pardayeva	126	Abdulla avloniy faoliyatining ijtimoiy-ma’rifiy jihatlari
U. Uktamova	129	Talaba qizlarda tazyiq va tajovuzga qarshi dunyoqarashni rivojlantirishning tarixiy asoslari
D. Farsaxonova S. Asrorova	132	Bola tarbiyasida psixologiyaning o‘rni va ahamiyati borasida mutafakkirlar qarashlari



ТЕОРИЯ ВОСПИТАНИЯ

Т. Абсаломов	135	Развитие образование билингвальной профессиональной компетенции педагога
У. Зокирова	138	Духовность и эстетичность как ценностное содежания сознания



СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ

Г. Куттибекова, Н. Абдукарима	141	Педагогические основы применения арт-педагогических технологий в эстетическом воспитании младших школьников

BOSHLANG‘ICH TA’LIM – KELAJAKKA QO‘YILGAN QADAM

Ta’lim va tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, fan, texnika, madaniyatning obyektiv talablariga asoslanadi. Ta’lim va tarbiya mazmuni tabiat, jamiyat, inson va uning mehnati to‘g‘risida ijtimoiy tartibga mos keladigan bilimlar tizimi sifatida tushuniladi, ularning o‘zlashtirilishi yosh shaxsning aqliy, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy tarbiyasini ta’minlaydi. Ta’lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “...Yosh avlodni barkamol, ma’naviy va jismonan sog‘lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalash, ularni mustakil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy saloxiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hyech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”, degan mulohazalardan ko‘rinib turibdiki, yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Davlatimiz rahbari bolalar tarbiyasi jarayonida o‘z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalb qilgan holda, ularni go‘daklardan fikr va tafakkurni to‘g‘ri shakllantirib bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma’naviyatga ega bo‘lgan barkamol avlodni tarbiyalash, yosh avlodni tarbiyalashning asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan boshlang‘ich ta’lim tizimini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiliщi lozimligini ta’kidlaganlar. Zamonaviy boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ushbu vazifalarni hal etish uchun tashkiliy jihatdan ham, mazmuniy jihatdan ham boshlang‘ich ta’limning integrativ xarakterini, o‘zining bo‘lajak kasbiy faoliyatining integrativ yo‘nalganligini aniq his qila olishi zarur. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida integratsiyalash zarurati unda kasbiy kompetentlikni shakllantirish samaradorligini belgilab beruvchi asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish – bolalarga ta’lim va tarbiya berishning sifat jihatidan yangi konsepsiyalarini amaliyotga joriy etilishini talab qilmoqda. Eng muhim ustuvor yo‘nalish sifatida boshlang‘ich ta’lim oluvchilarning bilimi, malakasi, ko‘nikmasi, qobiliyatlarini yangicha yondashuvlar asosida shakllantirish, ularning o‘rganish istaklari, talablarini inobatga olgan holda o‘quv fanlarini unifikatsiyalash; chet tillarini erta o‘rganish, axborot va axborot texnologiyalarini kafolatlangan tarzda o‘zlashtirish, ta’lim oluvchilarning individualligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini himoya qilish va mustahkamlashdan iboratdir.

Biz doimiy ravishda ta’lim oluvchilarga “nimani o‘rgatish kerak?”, “nimaga o‘rgatish kerak?”, “qanday o‘rgatish kerak?” degan savollarga javob topib, ularning yechimlari haqida izlanishimiz kerak.

Bizning fikrimizcha, bilim, malaka va ko‘nikmalar mazmunini tanlash uchun quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

– shaxsning har tomonlama rivojlanishini shakllantirish vazifalari ta’lim-tarbiya mazmunida aks etishi;

– ilm-fan, texnika, madaniyat, ijtimoiy munosabatlarning asosiy yutuqlarini ta’lim-tarbiya mazmuniga kiritish;

– ta’lim-tarbiya mazmunini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining xususiyatlari, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda shakllantirish va doimiy muvofiqlashtirib borish;

– boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirishda xalqaro tajribalarni o‘rganish hamda ularning taxlillari asosida, eng maqbullaridan foydalanish;

– fanlararo aloqalarni inobatga olish, o‘quv materiallarining takrorlanishini oldini olish, boshqa fanlarni o‘rganish jarayonida shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayanishni ta’minlash.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan vazifalardan kelib chiqib, yana bir, “O‘qituvchi faoliyatidagi eng muhim narsa nima?” degan savolga qanday javob bergan ma’qul? Nazarimizda, bu – o‘quvchilarni o‘rganishga o‘rgatish. O‘quvchilarning o‘rganishi kerak bo‘lgan narsalari esa cheksiz ko‘p – eng muhimi, ular mehnatdan qochmaslikka, ongli, samarali, ijodkorona va mas'uliyat bilan mehnat qilishga o‘rganishlari lozim. Bugungi kunda o‘qituvchilar oldiga qo‘yilayotgan talab ham shu: o‘quv-tarbiya jarayonini muntazam takomillashtirib borish, ta’lim, tarbiya bilan bog‘liq, rivojlantiruvchi va, albatta, amaliy masalalarni sifatli hamda majmuali tarzda hal etish zarur. O‘rgatishga intilish izlanishga undaydi. O‘qituvchi har bir o‘quvchisining maksimal darajadagi faolligini, ayniqsa, jadal fikrlay olish qobiliyatini o‘stirishni ta’minlovchi ish shakllarini izlashi, yangi ko‘rgazmali qurollar yaratish, yangi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash yo‘lida ish olib borishi shart. Shu tariqa u yangi ish usullari, o‘yinlar, guruhlarda faoliyat yuritishdan foydalanish uchun o‘quvchilarning hayoti, ularni o‘rab turgan real borliq bilan bevosita bog‘liq original, qiziqarli vaziyatlarni topishi, o‘rgatayotgan fani haqiqatan ham muloqot tili, o‘zaro fikr almashish vositasi bo‘ladigan shart-sharoitlarni yaratishi joiz. Bu esa dars jarayoniga chuqur o‘ylangan, butun usuliy tizimga muvofiq bo‘lgan o‘zgarishlar kiritilishini talab qiladi. O‘qituvchi mehnati bilan o‘quvchilar mehnati albatta bir-biri bilan uyg‘unlashib, chinakam ijodiy faoliyatga aylanib ketishi kerak, shundagina u har ikkala tomonda qoniqish hissini paydo qiladi. Faoliyat orqali biz muayyan maqsadga, natijaga erishishni istaymiz. Shuning uchun ham o‘quvchilarga ular nimalarga erishganliklarini namoyish etish, o‘z yutuqlarini tuyish imkonini berish, shu tariqa keyingi xatti-harakatlarga rag‘batlantirish, ularni o‘z ishlari va o‘rtoqlari faoliyatini nazorat qilishga o‘rgatish lozim.

Endi o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchiga tayyor bilim berish emas, balki bilimlarni mustaqil egallashlariga ko‘maklashishdan iborat. Buning uchun o‘quvchilarning o‘z qobiliyati va imkoniyatlarini to‘la-to‘kis namoyon etishlari va butun kuch-g‘ayratlarini bilim olishga sarflashlari uchun imkon beradigan darajada ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy ta’lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, shu bilan bir qatorda bunday muhit ta’lim tizimini takomillashtirishga, ta’lim jaraeniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish mashg‘ulotlarni interfaol rejimda olib borishga imkon beradi.

Abdunazar NURMANOV,
pedagogika fanlari doktori,
Jizzax davlat pedagogika instituti, ‘‘Rus tili va uni o‘qitish metodikasi’’
fakulteti dotsenti
Yodgor TURGANOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, tayanch doktoranti

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALARINI BAHOLASH TENDENSIYALARI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv yutuqlarini baholash borasida xorijiy tajribalar tahlil qilingan va sohadagi yetakchi tendensiyalar aniqlangan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchilarning o‘quv yutuqlari, xalqaro tadqiqotlar, ta’lim sifati, ta’lim sifatini baholash, milliy tizimlar.

В статье дается анализ зарубежного опыта по оценке учебных достижений учащихся начальных классов, определены ведущие тенденции в этой сфере.

Ключевые слова. Учебные достижения учащихся, международные исследования, качество образования, оценка качества образования, национальные системы.

This article provides an analysis of foreign experience in assessing the educational achievements of primary school students, identifies the leading trends in this area.

Key words. Educational achievements of students, international studies, quality of education, assessment of the quality of education, national systems.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ 4623-son Qarorida “mamlakatimizda pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, oliy pedagogik ta’limga raqamli texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta’lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta’minlash pirovardida pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish, yuksak madaniyatli, amaliy kasbiy ko‘nikmalarga ega, tarbiya, o‘qitish metodlari va baholash mezonlarini puxta egallagan zamonaviy pedagogik kadrlarni tayyorlash” kabi ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilab berildi.

Umumiy o‘rta ta’lim, jumladan, boshlang‘ich ta’lim sifatini baholash orqali yoshlarga sifatli ta’lim xizmatlarini taqdim etish, ularda asosiy kompetensiyalarni shakllantirish borasida bugun dunyoning yetakchi mamlakatlarida ustuvorlik qilayotgan xalqaro qiyosiy tadqiqotlar mohiyati va ahamiyatiga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Bunday tadqiqotlarga, asosan, quyidagilarni keltirish mumkin: PISA – (Programme for international student assessment) o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur, PIRLS – (Progres in international reading literacy study) matnni o‘qish va tushunish bo‘yicha xalqaro loyiha. IEA (o‘quv yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro assotsiatsiya tomonidan o‘tkaziladi).

TIMSS – (Trends in mathematics and science study) – 4, 8, 11-sinf o‘quvchilarining matematik va tabiiy fanlar bo‘yicha ta’lim sifatini monitoring qilish bo‘yicha xalqaro

tadqiqot. IEA tomonidan tashkil etiladi.

ICCS (international civic and citizensip study) – IEA tomonidan o‘tkaziladigan 8-sinf o‘quvchilarining fuqarolik ta’limi bo‘yicha xalqaro tadqiqot.

TALIS (Teaching and learning international survey) – iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o‘qituvchilar korpusidan o‘tkaziladigan o‘qitish metodikasi bo‘yicha xalqaro tadqiqot.

ICILS (international computer and information literacy study) – IEA tomonidan tashkil etiladigan kompyuter va informatsion savodxonlik bo‘yicha xalqaro tadqiqot. 8-sinf o‘quvchilarining axborot asrida o‘qish, ish va hayotga tayyorgarlik darajasini baholash amalga oshiriladi.

TEDS (teacher education and development study in matematics) – boshlang‘ich va o‘rta maktab matematika o‘qituvchilarining tayyorgarlik darajasini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda dunyo ta’lim tizimlariga xos bo‘lgan yetakchi tendensiyalar asosida yaratilgan zamonaviy ta’lim paradigmalari va konsepsiyalari o‘z ifodasini topadi. Jumladan, bugungi kunda umumta’lim maktablari o‘quvchilarini turli xil madaniyat va millat vakillari bilan birga yashash va ishlash, boshqa g‘oyalar va ehtiyojlarni qadrlash; bir biriga ishonch va hamkorlik qilish; milliy chegaralardan tashqariga chiquvchi muammolarni hal qilishga o‘rgatishi zarur. Bugun maktablar iqtisodiy va ijtimoiy hayotda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga tayyorlashi, hali yaratilmagan ish joylarida mehnat qilishga, ixtiro etilgan texnologiyalardan foydalanishga, kelajakda paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy muammolarni hal qilishga o‘quvchilarni tayyorlashi kerak. Rivojlangan davlatlar ta’limida intellektual tafakkur ko‘nikmalaridan foydalanishga, ijodiy faoliyat va tanqidiy tahlil, muammolarni yecha olish va mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga alohida urg‘u berilmoqda. O‘quvchilarda jamoada yashash va mehnat qilishga yordam beruvchi ijtimoiy va emotsional malakalar shakllantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy mamlakatlarda standartlar quyidagi maqsadlarda ishlab chiqiladi:

– o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan ta’lim mazmunini aniqlash;

– mamlakatda ta’lim darajasini ko‘tarish va takomillashtirish;

– o‘quvchilar yutuqlarini o‘lchash va baholash asoslarini yaratish;

– o‘qituvchilar, o‘quvchilar, ularning ota-onalarini hamda jamoatchilikni o‘quvchilar yutuqlariga nisbatan kutganliklari to‘g‘risida xabardor qilish.

Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha taniqli xalqaro ekspert va tadqiqotchilardan Vinsent Grini va Tomas Kellagan o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro va milliy tizimlarning maqsad va vazifalari, o‘ziga xos xususiyatlari, yutuq va kamchiliklari, baholash texnologiyalarini AQSh, Hindiston va boshqa bir qancha mamlakatlar misolida ochib bergan.

Tadqiqotchilarning xulosalariga ko‘ra, o‘quvchilarning o‘quv yutuqlarini baholash bo‘yicha milliy tizimlar uchun quyidagi umumiy xususiyatlar taalluqli: o‘quv jarayoni qanchalik yaxshi tashkil etilgan (o‘quv rejalarga va o‘quvchilarni hayotga yoki o‘qishning keyingi bosqichiga tayyorlashga nisbatan); qo‘yilayotgan baholar qanchalik o‘quvchilar bilim va ko‘nikmalarining kuchli va kuchsiz jihatlarini namoyon etadi; test natijalariga ko‘ra o‘g‘il bolalar va qiz bolalar, shahar va qishloq o‘quvchilari, mamlakatning turli xil mintaqalari o‘quvchilari o‘rtasida farq bormi; ta’lim natijalariga qanday omillar ta’sir etmoqda? O‘quvchilarning o‘quv yutuqlari ta’lim muhitining qaysi xususiyatlariga ko‘proq bog‘liq (maktab resurslari, o‘qituvchilarning kompetentligi, maktabning turi

va h.k.); zarur resurslar bilan ta’minlashda (darslik, malakali o‘qituvchilar va boshqa kiruvchi ma’lumotlar sifati) davlat standartlaridan foydalaniladimi; vaqt o‘tishi bilan o‘quvchilarning o‘quv yutuqlari o‘zgaryaptimi?

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘quv yutuqlarini baholash borasida xalqaro PIRLS tadqiqoti milliy baholash tizimlari uchun bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining baholash kompetensiyalarini takomillashtirish borasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqot ta’lim yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro Assotsiatsiya tomonidan 1991-yildan buyon o‘tkazilib kelinmoqda. 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi “Jamiyat yoki individ tomonidan talab qilingan yozma til shakllaridan foydalanish va tushunish qobiliyati” sifatida talqin etiladi.

PIRLS matnlarni tushunishning to‘rtta jarayonlari bilan kesishadigan ikkita maqsadlarni o‘z ichiga qamrab oladi:

1. Adabiy maqsadlar. Adabiy tajriba orttirish uchun o‘qish jarayonida o‘quvchi matndagi voqea-hodisalar va xarakterlarga kirishib, tilni egallaganligidan lazzat oladi.

2. Axborot olish maqsadi. Real dunyo voqeliklari bilan o‘quvchini tanishtiruvchi xronologik matnlar (biografiya, retsep va instruksiyalar) yoki noxronologik matnlar (muhokama va ishontiruvchi)ni o‘qish.

Matnni tushunish uchun o‘quvchilar quyidagilarga alohida e’tibor berishlari talab etiladi:

– fikrni bir joyga to‘plash va taqdim etilgan ma’lumotni aniqlashtirish. Masalan, ma’lum g‘oyalarni ajratib olish, mavzu va asosiy g‘oya ifoda etilgan gaplarni topish;

– to‘g‘ri xulosalar qilish. Masalan, voqealarning biri boshqasiga sabab bo‘lishi, matnda xulosalarni birlashtirish;

– g‘oya va ma’lumotlarni talqin etish va birlashtirish. Masalan, matndagi eng asosiy mavzu umumlashtirilgan axborotni aniqlash;

– matnning mazmuni, tili va boshqa elementlarini baholash. Muallif voqea-hodisalarni qanday qilib kutilmaganda yakunlaganligini tasvirlab berish;

– matndagi ma’lumotning tugallanganligi yoki tushunarliligi to‘g‘risida fikr yuritish.

Turli mamlakatlarda mutaxassislarning faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida bir nechta maslahatlashuv qo‘mitalari tashkil etilgan bo‘lib, tadqiqot jarayoni Boston kollejida joylashgan Xalqaro muvofiqlashtirish markazi tomonidan muvofiqlashtirib boriladi (ISC – International Stuny Centr, Boston College, FQSh). Mazkur tadqiqotni amalga oshirish maqsadida maxsus konseptual hujjat “TIMSS Assessment Frameworks and Specifications” ishlab chiqiladi hamda barcha ishtirokchi mamlakatlar bilan kelishiladi. Mazkur hujjatda baholashdagi yondashuv, baholash texnologiyasi va metodologiyasi, tekshiriladigan ta’lim mazmuni, baholanadigan o‘quvchilarning faoliyat turlari, o‘rganiladigan omillar, ta’lim jarayoni ishtirokchilari va jamoatchilik vakillari uchun so‘rovnomalar va boshqalar batafsil bayon etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 4623-son Qarori.

2. Nurmanov A.T., Turgunov Y.I. ON THE POSSIBILITIES OF USING MODERN INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN IMPROVING // Science and world. 2020. № 7 (83). P.52-54.

3. Nurmanov A.T., Mustafakulov A.A. Oliy ta’lim muassasalarida TQM-sifatni yalpi boshqarish tizimi. Uslubiy-qo‘llanma. –T.: TDPU, 2019. –160-b.

Feruza RAXMATOVA,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, Jizzax davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika ta'limi nazariyasi” kafedrasi mudiri

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARIDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlili keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Axborot, seminar, o‘quv-reja, o‘quv-bilish faoliyati, bilim, ko‘nikma, malaka, tadqiqotchi, kompetensiya.

В статье представлен анализ исследовании, посвященных проблемам развития исследовательской деятельности у будущих учителей начальных классов.

Ключевые слова. Информация, семинар, учебный план, учебно-познавательная деятельность, знания, умения, квалификация, исследователь, компетенция.

The article presents an analysis of studies devoted to the problems of the development of research activities in future primary school teachers.

Key words. Information, seminar, curriculum, educational and cognitive activity, knowledge, skills, qualification, researcher, competence.

Oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy jihatdan tayyorlash tizimiga innovatsiyalarning joriy etilayotganiga qaramasdan, u o‘zida yaxlit ko‘rinishda quyidagi didaktik xususiyatlardan iborat bo‘lgan “bilimli” yondashuvni aks ettiradi: tayyor bilimlar tizimini o‘zlashtirish (bilim, ko‘nikma, malakalarni o‘zlashtirish maqsadiga yo‘naltirilganlik); o‘quv dasturlarining reproduktiv mazmunda ekanligi; o‘qitishning markazlashgan shakli va pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi; kasbiy tayyorgarlik darajasining bilim, ko‘nikma va malakalar orqali baholanishi va boshqalar.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish muammolariga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlili quyidagi ta’riflarni aniqlash imkoniyatini berdi: bilimlarni egallashga yo‘naltirilgan faoliyat; muammoning qo‘yilishi, g‘oya va farazni shakllantirish, tadqiqot metodlarini tanlash va asoslash, olingan natijalarni asosli ravishda rasmiylashtirish.[1]

– o‘qituvchilarning faol ishtirok etishida, shaxsiy namuna va birgalikdagi tadqiqot yo‘li bilan inson, madaniyat va jamiyat haqidagi bilimlarni kengaytirish va yaxshilashga, bakalavrlarni tizimli ravishda ta’lim olishga tayyorlash uchun yo‘naltirilgan tizimli, mustaqil va ijodiy faoliyat;[2]

[1]Канторович Н.Я. Технология личностно-ориентированной подготовки будущего учителя начальной школы к самореализации в профессиональной деятельности: монография.– Новокузнецк, 2005. – С.158.
[2]Еремина О.В. Развитие научно-исследовательской деятельности бакалавра юриспруденции: автореф. дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.08. – Оренбург, 2011.– С.22.

– ma’lum bir maqsadga qaratilgan, shaxsiy va kasbiy ahamiyatli, kasbiy-pedagogik masalalarning yuqori samaradorligini ijodiy hal qilish, shaxsiy o‘z-o‘zini takomillashtirishga yo‘naltirilgan faoliyat;[3]

– yechimi oldindan noma’lum bo‘lgan tadqiqotchilik masalalariga javob izlash bilan bog‘liq faoliyat;[4]

– olamning yaxlit manzarasi haqidagi bilimlarni, ilmiy bilishning ko‘nikma va malakalarini, uning natijalariga qadriyatli munosabat va uning o‘z-o‘zini belgilashi va o‘z-o‘zini rivojlantirishni ta’minlaydigan, shaxsning integrativ komponenti;[5]

– hodisa va jarayonlarni tushuntirishga yo‘naltirilgan ilmiy xarakterdagi faoliyat, ularning aloqalari va munosabatlarini aniqlash, dalillarni tajribalar asosida nazariy jihatdan asoslash.[6]

Tadqiqotchilik faoliyatini o‘z sohasida bashorat qiladigan o‘zgarishlarni ta’minlovchi subyekt tomonidan anglanganlik, maqsadga qaratilganlik, bilishga yo‘naltirilganlik, bilimlarni egallashga mo‘ljallanganlik tahlillar asosida tadqiqotchilik faoliyati tushunchasi mualliflar tomonidan turlicha talqin etilganligi aniqlandi. Bir-biridan tubdan farq qiluvchi yondashuvlardan kelib chiqqan holda ta’kidlash joizki, tadqiqotchilik faoliyati birlashtiruvchi sifatida tushunilishi mumkin.

I.A. Zimnyayaning ta’kidlashicha, tadqiqotchilik faoliyati shaxs ongi va faolligi bilan bog‘lanadigan, bilish va intellektual ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan, natijalari yaqqol namoyon bo‘ladigan maqsadga muvofiq olingan yangi bilim va maqsadlarning haqiqiyligi va egallanishini aniqlaydigan obyektiv qonunlar va mavjud holatlarga muvofiq keladigan maxsus inson faoliyati tushuniladi.

A.N. Leontev tomonidan shakllantirilgan inson bilish faoliyatining psixologik konsepsiyasi qoidalarga tayanib tadqiqotchilik faoliyatining asosiy tuzilmaviy komponentlariga quyidagilarni kiritish mumkin: ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar; operativ harakatlar, mavjud shart-sharoitlar.[7]

Tadqiqotchilik kompetentligi faoliyatli, dolzarb namoyon bo‘lishda aniqlanadigan, bilim, tasavvurlar, harakat dasturlari, qadriyatlar tizimida ifodalanishi, atrof-olamga va borliqqa nisbatan bilim, ko‘nikma, malakalar va faoliyat usullari sifatida, atrofdagi-olam muammolariga nisbatan ta’sirchanlik asosida ifodalanadigan, turli nazariy va empirik axborot manbalaridan foydalanib istalgan ixtiyoriy obyekt yoki atrofdagi hodisalar orqali muammoli vaziyatning bilish jarayonida bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va faoliyat usullariga asoslanib faoliyatning mazmunli kontekstini funksional darajada yaratuvchanlikka o‘tkazish natijasida, yangi bilimlar tizimini mustaqil o‘zlashtirishi; o‘qituvchining pedagogik vaziyatlarda ijodiy masalalarni yechish qobiliyati. Bu holatlarda vaziyat deganda, tadqiqotchi analitik tadqiqot mantig‘ini ijodiy o‘zlashtirish doirasida nazarda tutiladigan psixologo-pedagogik muhit tushuniladi.[8]

Bundan kelib chiqadiki, tadqiqotchilik kompetensiyasi nafaqat tadqiqotchilikka oid

[3]Сельдимирова Р.А. Формирование готовности студентов педагогического колледжа к исследовательской деятельности в системе дошкольного образования: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08.– Новокузнецк, 2004. – С.342.

[4]Никитина Е.Ю. Научно-исследовательская работа студентов в высшей школе. – М., 2009. – С.134.

[5]Шипилова Т.Н. Формирование исследовательских умений и навыков будущих учителей технологии: автореф. дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08.– М., 2001.– С.24.

[6]Чикишева А.С. Исследовательская деятельность студента колледжа как фактор его личностно-профессионального становления: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.01.– Хабаровск, 2006. – С.178.

[7]Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность.– М., 2004. – С.352.

[8]Талманова Т.М. Формирование исследовательской компетенции учителя начальных классов в системе непрерывного образования: дис. ... канд.пед. наук: 13.00.01.– М., 2003.– С. 217.

bilim, ko‘nikma va malakalar, balki faoliyat predmetiga va uning shaxsiy munosabatlarini tavsiflaydigan keng tushunchalar hisoblanadi.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar, ma’lum bir kasb mutaxassisi o‘z kasbiy faoliyati doirasidagi kompetensiyalarni egallashi zarur. Ular davlat ta’lim standarti va malaka talablarida belgilab qo‘yilgan. Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilar o‘z sohasidan kelib chiqib, loyihalash, ilmiy tekshirish va tashkiliy boshqaruv, kommunikativ, tadqiqotchilik kompetensiyalarga ega bo‘lishlari zarur.

Ushbu muammoga bag‘ishlangan tadqiqotlar tahlili hamda natijalarni umumlashtirib quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

– tadqiqotchilik kompetensiyasini ma’lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat uchun bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni qo‘llash qobiliyati sifatida tushunish, shuningdek, uchta asosiy komponent (motivatsion, kognitiv, texnologik) asosida aniqlanuvchi tuzilmasini ajratish imkoniyatini beradi;

– kompetensiya va faoliyat tushunchalari orasida uzviy o‘zaro aloqa mavjud. Kompetensiyaning namoyon bo‘lishi faqat faoliyat jarayonida yuz berishi mumkin. Bu esa o‘z navbatida, “tadqiqotchilik kompetensiyasi” o‘z mazmuniga mos tadqiqotchilik faoliyatida namoyon bo‘ladi degan xulosa chiqarish imkoniyatini yaratadi;

– tadqiqotchilik kompetensiyasi ilgaridan berilgan, mustaqil bilish faoliyatiga ijtimoiy ahamiyatli talablar, nostandart vaziyatlarda harakat usullarini egallash jarayoni sifatida e’tirof etiladi;

– tadqiqotchilik kompetentligining bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik faoliyatida namoyon bo‘lishida nihoyatda dolzarbligi aniqlanib, bilim, tasavvurlar, harakat dasturlari, qadriyatlar tizimida ifodalanishi;

– tadqiqotchilik faoliyatining asosiy komponentlariga oid bilimlar va ko‘nikmalarni o‘z ichiga olgan tavsiflar sifatida tadqiqotchilik kompetensiyasi mazmuni aniqlashtirildi.

Mazkur maqolada barcha qayd etilgan mulohazalar ushbu tadqiqot masalalarini yechish uchun umumiy psixologik-pedagogik darajada ta’limga kompetentli yondashuvning ishlanganlik darajasi yetarli ekanligi haqida xulosa chiqarish imkoniyatini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O‘zbekiston, 2017. – 48-b.

2. Еремина О.В. Развитие научно-исследовательской деятельности бакалавра юриспруденции: автореф. дисс. ... канд. пед. наук: 13.00.08. – Оренбург, 2011.– С.22.

3. Зимняя И.А., Шашенкова Е.А. Исследовательская работа как специфический вид человеческой деятельности. – М., 2001. – С.170.

4. Ильенков Э.В. Философия и культура.–М.: Политиздат, 1991.– С.464.

5. Канторович Н.Я. Технология личностно-ориентированной подготовки будущего учителя начальной школы к самореализации в профессиональной деятельности: монография. – Новокузнецк, 2005. – С.158.

6. Леонтьев А.Н. Деятельностный ум (Деятельность. Знак. Личность). –М.: Смысл, 2001. – С. 392.

7. Ortiqov A. Nutq madaniyati va notiqlik san’ati. – T.: – Dono hamro ilmiy markazi, 2002. – 78-b.

Mavjuda TILAKOVA,
pedagogika fanlari doktori,
Jizzax viloyati XTXQTMOXM “Pedagogika, psixologiya va ta’lim texnologiyalari” kafedrasi mudiri
Doston NORBEKOV,
Jizzax viloyati XTXQTMOXM
“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrasi katta o‘qituvchisi

UZLUKSIZ TA’LIM TIZIMIDA TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARNI IDROK QILISH VA TEXNOLOGIK-KONSTRUKTIV YONDASHUV

Annotatsiya

Maqolada yosh avlodni kreativlik qobiliyatini rivojlantirish, birinchi navbatda, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni, emotsional-psixik kayfiyatni, faol, ijodiy tasavvurni, o‘z-o‘zini faollashtirish, mustaqillik, o‘z-o‘zini nazorat qilish, namoyon qilish, ifodalash, baholash, o‘quv jarayonida ta’limning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish kabi masalalar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Kreativ yondashuv, motivatsion yondashuv, sinfdan tashqari mashg‘ulot jarayoni tuzilmaviy mazmuni anglash algoritmlari, tarixiy-madaniy yodgorliklarni o‘rganish.

В статье анализируются такие вопросы, как развитие творческих способностей подрастающего поколения, прежде всего, индивидуально-ориентированный подход, эмоционально-психологический настрой, активность, творческое воображение, самоактивация, самостоятельность, самоконтроль, проявление, выражение, оценка, использование инновационных технологий воспитания в образовательном процессе.

Ключевые слова. Творческий подход, мотивационный подход, структурное содержание внеаудиторного учебного процесса, изучение историко-культурного материала, алгоритмы восприятия памятников истории и культуры.

The article analyzes such issues as the development of creative abilities of the younger generation, first of all, an individual-oriented approach, emotional and psychological attitude, activity, creative imagination, self-activation, independence, self-control, manifestation, expression, evaluation, the use of innovative technologies of education in the educational process.

Key words. Creative approach, motivational approach, structural content of extracurricular educational process, study of historical and cultural material, intellectual and creative perception, algorithms for perception of historical and cultural monuments.

Ta’lim jarayonida o‘quvchi ijodiy mahsulot yaratar ekan, qadimiy me’moriy obyektning me’moriy-timsolli ifodaliligini his etishi, ishning aniq bir maqsadga qaratilgani, mazmunan rejalashtirilganini anglashi, materialni mantiqiy va izchil idrok etishi, ijodiy tasavvuri keng bo‘lishi, yodgorlikning nafaqat tarixiy-madaniy, balki me’moriy-badiiy qiymatini bilishi, estetikasi, emotsional ta’sirini ochib berishi, o‘zining dadil mulohazasi va fikrini bildirgan holda, asosiy mazmunni umumlashtira olishi, intellektual-ijodiy mahsulotga kreativ yondashishi, o‘z-o‘zini namoyon eta bilishi, foydalanilayotgan adabiyotlar ro‘yxatini keltira olishi zarur. Ta’kidlash joizki, o‘quvchida kreativlik qobiliyatini rivojlantirish uchun yuqori emotsional-ijobiy kayfiyat, ehtiyoj bo‘lishi,

buning uchun ta’lim jarayonida zarur didaktik shart-sharoitlar ta’minlanishi zarur. Tarixiy-madaniy materialni idrok qilish jarayonida yuqori sinf o‘quvchilariga quyidagi talablar qo‘yiladi:

– umumiy, faol idrok va ijodiy tasavvur asosida qadimiy me’moriy yodgorliklarni badiiy-estetik tahlil qilish, asosiy va muhim jihatlarini ajratib ko‘rsatish;

– aniq-predmetli-material bayoni mantiqini anglash – uning jadvali, rejasi, tezislarini tuzish, asosiy masalalar, ayrim dalillariga e’tibor berish, tarixiy-madaniy materialning bayon qilinishi jarayonida munozarada ishtirok qilish, mulohaza qilish, o‘z fikriga ega bo‘lish;

– O‘zbekiston tarixi va madaniyatining eng buyuk yodgorliklari yaratilgan davr to‘g‘risida suhbatda ishtirok etish;

– emotsional idrok etish;

– yodgorlikning mazmunan va shaklan birligini anglash, uning me’moriy-badiiy komponentlarini ajrata olish;

– inshootning go‘zalligini his etish;

– o‘zaro uyg‘unlashtirish, strukturalashtirish usullarini egallash,

– umumlashtira bilish, xulosa chiqarish, o‘z fikriga ega bo‘lish.

Uzluksiz ta’lim jarayonida o‘quvchilarining kreativ rivojlanishidagi qadimiy me’moriy yodgorliklarni idrok etish, tahlil etish kabi masalalarga alohida to‘xtalib o‘tishni joiz deb hisoblaymiz. Tarixiy-madaniy yodgorliklarni idrok qilish va tahlil etishda o‘quvchilar oldin emotsional “his etish”ga, keyin aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan badiiy-mantiqiy o‘rganishga va shundan so‘nggina, tarixiy, madaniy, badiiy, axloqiy-ijtimoiy va estetik qadriyat, jahon e’tirofiga sazovor bo‘lgan milliy boylik sifatida qadimiy me’moriy inshootini yaxlit idrok etishga yo‘naltiriladi.

Ta’lim jarayoni orqali o‘quvchilarining O‘zbekistonning tarixiy-madaniy yodgorliklarini kreativ o‘rganishida zarur bo‘lgan intellektual-ijodiy qobiliyatlarni ajratib ko‘rsatamiz (“intellekt – ijod” shiori ostida).

I. Emotsional-ijobiy ijodiy kayfiyat:

– shaxsga, o‘quv-biluvga oid ijtimoiy mohiyatni “his etish”;

– ilhomlanish, ishqibozlik, qiziqish;

– natijaning o‘quv-biluv va ijtimoiy-shaxsiy mohiyatini “taxmin qilish”;

– idrok qilish faoliyati, diqqatning bir joyga to‘planganligi;

– xotira;

– bilimlar, atamalar, tushunchalardan foydalanish qobiliyati;

– rejalashtirish, jadvallashtirish;

– qadriyatli yo‘nalish;

– o‘z-o‘zini chog‘lash, o‘z-o‘zini nazorat qilish;

– yangi, o‘ziga xos inellektual-ijodiy mahsulot yaratish;

– yaratilgan mahsulotni ijtimoiylashtirish natijasidan qanoatlanish.

II. Intellekt – Tafakkur – Ijod.

Fikrlash:

– tez, faol, dadil, o‘ziga xos, ijodiy, individual;

– tushunchaviy-nazariy, amaliy, asliday qilib tiklovchi-ijodiy (badiiy idrok qilish asosida).

So‘zlar orqali tafakkur qilish:

– emotsional;

– ma’no-mazmunli;

– ifodali, yorqin-timsolli;

– mantiqiy izchil, tahliliy, isbotlovchi, umumlashgan;

– kreativ–individual-ijodiy, mulohazali, xulosali, predmetga o‘z munosabatini bildirish bilan;

– nutqiy savodli rasmiylashtirish, reja asosida jo‘yali taqdim etish, intellektual-ijodiy mahsulotni kreativ tavsiflash, bayon qilish.

III. Intellektual-ijodiy tafakkur–arxitektura asarining o‘ziga xosligi va badiiy xususiyatlarini badiiy-ijodiy ifodalashni talab etadi.

Tafakkur xususiyatlari:

– jiddiy, chuqur, hissiy-emotsional;

– badiiy-tahliliy, ijodiy-anglangan (tasviriy vositalar nuqtayi nazaridan bir butun va komponentli); badiiy-ijodiy, timsolli-hissiy, fikr-mulohaza hamda badiiy ijodiy tasavvurga asoslangan; badiiy obyekt(timsolning) mohiyati haqida umumlashma va yakuniy xulosa chiqarish imkonini beruvchi sintez–tahlil–sintez darajasidagi badiiy algoritmlangan tafakkur;

– emotsional-estetik(idrok qilinayotgan asarning estetik qiymatiga nisbatan) kabilar.

Kreativ qobiliyatlarning mezoniy asoslari, yuqorida belgilangan nazariy definitsiyalari ta’lim jarayonida o‘quvchilarning kreativ qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik jihatlari va pedagogik asoslarini hisobga olgan holda shakllantiriladi.

Uzluksiz ta’limda shaxsning intellektual-ijodiy yo‘nalganligiga quyidagi talablar qo‘yiladi:

– ijodiy ko‘tarinkilik, maqsad va vazifalarning aniq bo‘lishi;

– g‘oyaviy mazmundor asosga ega bo‘lish;

– tuyg‘u va fikr birligi;

– ijodiy mahsuloti turini bayon etish, shaklini aniqlash;

– materialni tanlash, uning ilmiyligi va haqiqiyligi, ijodiy anglab olinishi va undan oqilona foydalanilishi;

– ijodiy tasavvur va tafakkur dadilligi, o‘ziga xosligi, ijodiyligi;

– o‘quvchining o‘z munosabati va qarorini mantiqiy tizimli, savodli, ifodali-obrazli bayon etishi;

– ijodiy o‘z-o‘zini ifodalashi;

– o‘z-o‘zini nazorat qilishi, tekshirishi, baholashi;

– intellektual-ijodiy mahsulot yaratishi;

– o‘quvchining ijtimoiylashuvga shayligi kabilar.

Zero, kreativlik qobiliyatining ixtisoslashuvi o‘quvchining qiziqishlari va ish faoliyatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аннамуратова С.К. Возможности внеклассной работы в художественно-эстетическом и когнитивно-творческом воспитании старшеклассников. – С.82-89.

2. Бутенко В.Г. Школьникам о художественных ценностях памятников истории и культуры.– М., 1999.– С.113.

3. Лолуа В., Джикия Л.Л. Школьникам о памятниках культуры своей страны. – М., 1999. – С.99.

4. Немов Р.С. Психология. Учебник для студентов высш. учеб. Заведений. В 2-х кн. Кн.1 – “Общие основы психологии”. – М.: Владос, 1994. – С.217.

Barno BOLTAYEVA,
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchi

“PIRLS” XALQARO TADQIQOTIGA O‘QUVCHILARNI TAYYORLASHDA O‘ZLASHTIRISH MALAKASINING O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini “PIRLS” xalqaro tadqiqotiga tayyorlashda yaxshi o‘qish malakalarining o‘rni, e’tibor qaratiladigan jihatlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Boshlang‘ich ta’lim, matn, ifodali o‘qish, diqqatni jamlash, malaka, ko‘nikma, axborot, nutq o‘stirish.

В этой статье обсуждается роль хороших навыков чтения в подготовке учащихся начальной школы к международному исследование “PIRLS”.

Ключевые слова. Начальное образование, текст, выразительное чтение, концентрация внимания, квалификация, навыки, информация, развитие речи.

This article discusses the role of good reading skills in preparing primary school students for the “PIRLS” international research.

Key words. Primary education, text, expressive reading, concentration of attention, qualification, skills, information, speech development.

Ma’lumki, PIRLS tadqiqot dasturi matnni o‘qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot bo‘lib, mazkur tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

Bilamizki, matnni o‘qish va tushunishda, avvalo, o‘quvchining savodxonligi birinchi o‘rinda turadi. Chunki matn to‘g‘ri o‘qilgandagina unda berilgan ma’no anglashiladi. Demak, bola berilgan matnni xato qilmasdan, to‘g‘ri o‘qishi zarur. Bu o‘rinda to‘g‘ri o‘qish malakasini shakllantirishga diqqatni qaratish kerak. O‘qituvchi o‘quvchining tovush orttirmay, tovushni tushurib ketmay, so‘zning tarkibini buzmasdan o‘qishiga erishishi kerak bo‘ladi.

Ikkinchidan, tez o‘qish malakasining to‘g‘ri egallanishi ham muhim ahamiyatga ega. Sababi o‘ta tez ham, o‘ta sekin o‘qish ham matn mazmunini o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi. Ba’zan o‘qituvchilarning sinf o‘quvchilarining daqiqada qanchalik ko‘p so‘z o‘qiy olishlari orqasidan quvib bolalarning matnni tushunishlariga ikkinchi darajali masala sifatida qaraydilar. Agar bu kabi kamchiliklar to‘g‘rilanmasa xalqaro tadqiqot topshiriqlari o‘quvchilarimizga qiyinchilik tug‘dirishi tabiiy hol bo‘lib qoladi. Tez o‘qish me’yoriy tezlikda o‘qish bo‘lib, bunda o‘qish sur’ati matnning mazmunini tushunishdan ajralib qolmasligi kerak. Aslida, o‘qilayotgan asar mazmunini o‘zlashtirishni, matn mazmunini ongli idrok etishni ta’minlaydigan o‘qish tez o‘qish deyiladi. Tez o‘qish malaka-

sini shakllantirish uchun darsda va darsdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish, bolalarni turli xil kitoblarni o‘qishga jalb qilishni maqbul deb bilamiz. O‘qish sur’atini oshirishda tez aytishlarni, maqollarni yod oldirish va matnni ovoz chiqarib o‘qishni mashq qilish kabilar samarali usullardan hisoblanadi.

Ongli o‘qish yaxshi o‘qishning asosiy sifati hisoblanadi. Ongli o‘qish o‘qilgan matnning aniq mazmunini, asarning g‘oyaviy yo‘nalishini, obrazlarini va badiiy vositalarining rolini tushunib o‘qish, shuningdek, asarda tasvirlangan voqea-hodisalarga o‘z munosabatini ifodalay olishdir. Ongli o‘qish o‘z navbatida, o‘quvchilarning zarur hayotiy tajribasiga, so‘zning leksik ma’nosini, gapda so‘zlarning bog‘lanishini tushunishga va bir qator metodik shartlarga bog‘liq. Matnni ongli o‘qish uchun o‘quvchilar to‘g‘ri, me’yorida o‘qishni egallagan bo‘lishlari va o‘qish jarayonida qiynalmasligi talab etiladi. O‘quvchilar matnni ongli o‘qishlari uchun matn mazmuni va badiiy vositalari tahlil qilinadi.

PIRLS tadqiqotida foydalanilgan “Tomdagi gullar” matnining boshida shunday ma’lumot keltiriladi: “Uning qishloqdagi uyi o‘yinchoq uychaga o‘xshar edi. Uning mittigina derazachalari bo‘lib, tomida esa maysalar ko‘karardi. Shuningdek, tomda gullar ham o‘sar edi.

Ifodali o‘qish yaxshi o‘qish malakasining sifatlaridan biri bo‘lib, intonatsiya – ohang yordamida asarning g‘oyasi va jozibasini to‘g‘ri, aniq, yozuvchi niyatiga mos ravishda ifodalay bilishdir. Ifodali o‘qishning asosiy tamoyili o‘qiladigan asar g‘oyasi va badiiy qiymatini chuqur tushuntirishdir. Asarning mazmuni va g‘oyaviy yo‘nalishini tahlil qilish ifodali o‘qishga o‘rgatish bilan bog‘lab olib boriladi. Ifodali o‘qishga o‘rgatishda matn mazmunini tushunish, muallif hikoya qilgan voqealarga o‘z munosabatini bildirish asosiy vazifa hisoblanadi. O‘quvchilarda ifodali o‘qish malakasini shakllantirish uchun asarni o‘qituvchining ifodali o‘qishi muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan ifodali o‘qish voqealarning bola ongida gavdalanishiga katta turtki bo‘ladi. Ovoz xususiyatlari, urg‘u, tasvirlangan voqea-hodisalarga va qatnashuvchi shaxslarga munosabatni ovoz bilan ifodalay olish, matnning o‘quvchi yodida uzoq vaqt va obrazli saqlanib qolishiga hissa qo‘shadi.

Quyida 2-sinf o‘qish darsligidagi “Tulki va xo‘roz” ertagi asosida o‘quvchilarni PIRLS tadqiqotiga tayyorlashni ko‘rib o‘tamiz:

Qadim zamonda bir xo‘roz bo‘lgan ekan. U bir kuni tulkiga duch kelib, chinorning ustiga chiqib olibdi.

Tulki chinorning tagiga kelib debdi:

– Ey xo‘roz, nega chinorga chiqib olding? Hali xabaring yo‘qmi?! Podsho: “Bundan buyon hamma jonivorlar do‘st bo‘lsin”, – deb farmon berdi. Kel, birga sayr qilamiz.

– Ko‘pchilik bo‘lsa yaxshi bo‘ladi. Biroz to‘xta, itlar yugurib kelyapti. Yetib kelishsa, birga sayr qilamiz, – debdi xo‘roz.

Tulki buni eshitib, qocha boshlabdi.

– Nega qochyapsan? – so‘rabdi xo‘roz.

– Chunki itlar shohning farmonini eshitmagan bo‘lishlari mumkin. Tag‘in meni burdalab tashlashmasin, – deb tulki orqasiga qaramay qochib ketibdi.

MATN YUZASIDAN SAVOLLAR

1. Xo‘roz kimga duch keldi?

A. Itga

B. Otga

C. Sigirga

D. Tulkiga

2. Tulki nima uchun xo‘rozni birga sayr qilishga taklif qildi?
_____
_____

3. Tulkining podsho farmoni haqidagi yolg‘oni qanday fosh bo‘lib qolganini yozing.
_____
_____

4. Nima uchun tulki qochib ketdi?
A. U juda shoshayotgan edi.
B. Itlardan qo‘rqqani uchun.
C. Xo‘rozdan qo‘rqib qochib ketdi.
D. Tulki sayr qilishni xohlamadi.

5. Ertakdagi voqealar ketma-ketligini raqamlar bilan ifodalang.
1 raqami qo‘yilgan.
__1__ Xo‘roz bir kuni tulkiga duch kelibdi.
_____ Tulki orqasiga qaramay qochib ketibdi.
_____ Tulki xo‘rozga birga sayr qilishni taklif qilibdi.
_____ Xo‘roz chinorning ustiga chiqib olibdi.

6. Tulkining ayyorligini ko‘rsatadigan 2 ta misol keltiring.
_____
_____

PIRLS xalqaro tadqiqot dasturida o‘quvchi bu jarayonning faol qatnashuvchisi bo‘lib, ma’no yaratadi, matn ustida mushohada yuritadi va samarali o‘qish strategiyalarini ongli ravishda tanlab qo‘llaydi. Har bir matn turi odatiy shakl va qoidalarga amal qilgan holda o‘quvchiga matnni sharhlashga yordam beradi. Har qanday matn turli shaklga ega bo‘lishi mumkin. Bular an’anaviy kitoblar, jurnallar, hujjatlar va gazetalar, shuningdek, raqamli ko‘rinishdagi yozma shakllarni ham o‘z ichiga oladi. PIRLS boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinf va sinfdan tashqari o‘qishini baholashda ikkita keng qamrovli maqsadga, ya’ni “badiiy tajriba orttirish” va “axborotni olish va undan foydalanish”ga qaratiladi. O‘z navbatida, ushbu maqsadlarning har biri to‘rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko‘rsatilgan ma’lumotlarni topish; to‘g‘ridan-to‘g‘ri xulosalar chiqarish; kontent va matn elementlarini baholash va tanqid qilish; g‘oyalar va axborotni talqin qilish va uyg‘unlashtirish. Bu kabi vazifalarni to‘g‘ri bajarish uchun ham, avvalo, o‘quvchilarimiz yaxshi o‘qish malakasini to‘liq egallagan bo‘lishi darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlat ta’lim standarti. – T.: O‘qituvchi, 2017.
2. Abdullayeva G. Nutq o‘stirish. –T.: O‘qituvchi, 1981.

Abdujabbor USMONOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, dotsenti

IJODKORLIK FAZILATLARIGA EGA SHAXSLARNING JAMIYAT TARAQQIYOTIDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Maqolada insonlarning sinchkovligi, ijodkorlik fazilatlari, yaratuvchanligi, hodisalarga ilmiy yondashuvi, kishilarning loqaydligi, tafakkuri, ilmiy izlanishi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Sinchkovlik, ijodkorlik, yaratuvchanlik, ilmiy yondashuv, loqaydlik, ilmiy izlanish.

В статье рассматриваются чуткость людей, их творческие качества, креативность, научный подход к событиям, равнодушие людей, мышление, научные исследования.

Ключевые слова. Избирательность, творчество, творчество, научный подход, безразличие, научное исследование.

The state examines the sensitivity of people, ix creative qualities, creativity, a scientific approach to events, equal people, thinking, scientific research.

Key words. Selectivity, creativity, creativity, scientific approach, indifference, scientific research.

Fanning turli sohalarida shunday muammolar borki, ularning aksariyati haddan tashqari, ko‘p hisoblashlarni talab qilganligi uchun keyingi asrlarga qadar hal qilinmay kelgan masalan, ulug‘ matematik L.Eyler Quyosh sistemasida planetalar, jumladan, Oy orbitasini taxminiy hisobini chiqarish uchun 40 yil vaqt sarflagan. Vaholanki, elektron hisoblash mashinasi Quyosh sistemasidagi bunday 700 ta kichik planeta orbitasini bir necha kunda hisoblab chiqib ularning har biri 10 yildan keyin qayerda bo‘lishini ham aniq ko‘rsatib beradi. Yoki Ulug‘bekning faoliyatini olaylik, u o‘zining “Zij”ini tuzishga kirishganida avval, Jamshid, kitob tugallanguncha ustozi Qozizoda ham olamdan o‘tgan ya’ni taxminan umrining yarmini sarflagan. Bu tabiiy hol endi, chunki bunga yashagan davrini texnik darajasi imkon bermasdi. Shuning uchun bu o‘rinda masalani boshqacharoq qo‘yish kerak bo‘ladi. Agar Ulug‘bek va Eyler singari olimlar matematik hisoblarga yillab umrini sarflamaganida, bugungi kunda biz mukammal EHMga ega bo‘lmasdik.

Yuqoridagi fakt va raqamlarni keltirishdan maqsad, alohida ijodkor kishilarning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rnini chuqurroq tasavvur qilish edi. Bunday qaraganda biz tahlil qilayotgan XXasrda dunyo olimlari (ijodkor shaxslar) 3 million kishi bo‘lgan bo‘lsa, buni o‘sha paytda yer yuzida yashagan odamlar soni 5 milliardga nisbatan qiyoslaydigan bo‘lsak, haqiqatdan ham ularni alohida shaxslar desak xato qilmagan bo‘lamiz. Shu ma’noda yuqorida misol orqali aytganda, kishilik jamiyatdagi barcha turdagi taraqqiyotdagi bosh omili va asosi alohida (3 million) iqtidorli kishilarning o‘ta mashaqqatli va sharafli ijodkorlik mahsulidan qolgan. (4,997 milliard) insonlarni esa aynan ana shularning ijodkorlik fazilatlari evaziga farog‘atda yashayotgan o‘rtamiyona kishilar desak, ijodkorlarni ortiqcha maqtamagan bo‘lamiz. Fikrimizni yanada

mustahkamroq himoyalash uchun ikkita faraz bilan cheklanamiz:

1. Faraz qilaylik, ulkan halokat sodir bo‘lib, yer yuzidagi barcha narsa-yu, hujjatlar yo‘q bo‘ladi va taqdir taqozosi bilan millionlab o‘rtamiyona odamlargina omon qoldi deylik. Endi kechagi uyali telefon, televizor, yengil avtomobillardan va na boshqa narsalarda asar ham qolmagan. Xo‘sh, bunda ular qaytadan ularni tiklay oladimi? Bizningcha, ular buning uchun ularni yaratguncha ular bosib o‘tilgan yilning kamida yarmiga yoki taxminan o‘n ming yillar vaqt sarflaydi.

2. Faraz qilaylik, mazkur ulkan halokatdan faqat 50-100 nafar daholargina omon qolgan bo‘lsin. Ular darhol kechagi texnika-yu, sharoitni qayta tiklashga kirishib, buni qisqa vaqtda uddalay olishi bilan jamiyat taraqqiyotini oddiy (yoki ta’bir joiz bo‘lsa chalasavod) kishilarga nisbatan bir necha o‘n ming yillab oldinga surib yuboradi. Mazkur ikkita farazning o‘ziyoq ijodkorlik fazilatiga shaxslarning fan va texnika hamda madaniyat rivojiga hissalari beqiyosligini shundoq ko‘rsatib turibdi.

Boshqa misollar orqali yuqoridagi farazimizdan kelib chiqadigan xulosani tasdiqlash mumkin. Masalan, odamzod yuz yil oynaga qarab kelgan-u, shishani sal qabariq qilib ishlasa uni yordamida quyosh nuridan foydalanib hatto metalni eritish mumkinligini bilmagan. Kishilar ming yillar mobaynida ohangraboning g‘alati xususiyatlariga hayrat bilan boqishgan-u lekin bir parcha sim va magnit yordamida elektr toki hosil qilish mumkinligi hech kimning xayoliga kelmagan. Ota-bobolarimiz asrlar mobaynida uran tuzidan sopol idishlarni bo‘yashda foydalanishgan-u, ammo bu tuzda bitmas-tuganmas energiya yashiringanini yetti uxlab tushida ko‘rmagan. Osmonga irg‘itilgan narsa yerga qaytib tushgani hamma bilgan-u biroq, yerni tortish kuchiga ega ekanligi hech kimning xayoliga kelmagan.

Xo‘sh tabiatning buyuk sirlarini nega boshqalar (yoki hamma) emas aynan bir necha iqtidorli olimlar ochdi? Bu savolga javob topish uchun ana shunday oddiy tabiat tasodiflarida kashfiyot yaratgan ijodkor shaxslarning kim ekanligini bir ko‘zdan kechirib chiqing. Ularning deyarli hammasi muayyan fan sohasi kishilari bo‘lib, o‘sha sohadagi muammolarni hal qilish uchun kecha-yu kunduz bosh qotirib yurishgan? Arximedning “vanna”siyu, Nils Finzenning “Mushugi” yoki Nyutonning “olma”lari esa muammoni ochishda ularga turtki vazifasini o‘tagan yoki, boshqacha aytganda, kalavaning uchini topib bergan xolos. Binobarin, sof ma’nodagi tasodifiy kashfiyot yo‘q, bu o‘rinda tasodif so‘zini faqat shartli ma’nodagina qo‘llash o‘rinlidir.

Sinchkovlikni bizningcha, “Kishining tevarak-atrofdagi voqea-hodisa narsalarning o‘zi uchun (ba’zan hatto fan uchun ham) noma’lum jihatlaridan ta’sirlanib, nega shunday deya e’tiroz bildirish” – deb ta’riflash mumkin. Kishida sinchkovlik tuyg‘usi va e’tiroz o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi va shuningdek, ilm-fan taraqqiyotida faqat sinchkovlikning o‘zi ham yetarli emas, noxush yoki chiroyli narsalar va hodisalar sababini to‘g‘ri ilmiy asosda baholash, noxushliklarini bartaraf qilishga kirishish kishidan har tomonlama chuqur bilim, iqtidor va ijodkorlik mehnati talab qilinadi. Shu ma’noda, sinchikovlikni hali daholikning nurli cho‘qqisi tomon qo‘yilgan birinchi va zaruriy qadam deyish mumkin xolos. Cho‘qqini zabt etishdagi qiyinchilikni insonlarni yaratuvchilik mehnatini, ilm-fanning buyuk qudratini qadrlaydilar, jonkuyar, xullas, har tomonlama barkamol chinakam iqtidorli kishilarni voyaga yetkazish kabi muhim vazifani amalga oshirishda esa sinchkovlik tarbiyasi alohida o‘rin tutishini qayta-qayta ta’kidlash joiz.

Loqayd kishilar tabiat sir-asrorlarini yaxshi bilmaydilar, uning go‘zalligi-yu, alohida sinchkov odamlar qo‘li bilan yaratilgan narsa va buyumlar hamda noz-ne’matlarning ham qadriga to‘liq yetmaydilar. Shunday ekan, har tomonlama barkamol, ilm-ma’rifatli

iqtidorli ijodkor yoshlarni voyaga yetkazish uchun ularni maktabgacha ta’limdan tortib oliy dargohlargacha uzluksiz sinchkovlik ruhida tarbiyalashning ahamiyati katta. Shundagina ular har bir narsa, buyum, texnika, texnologiya, g‘oyalarning kishilar tafakkuri mevalari evaziga bunyod bo‘lajagini chuqur anglab yetadilar, bilimning kuchini va bilimli kishilarni qadrlaydilar mehnatdan qochmaydigan bo‘lishga intiladi.

Oldin so‘z yuritilgan Nyutonning “olmasi”ga qo‘shimcha yana Arximedning “vannasi” Nils Finzenning “mushugi” yoki “tilla qo‘ng‘izi”ni sinchkovlikning yorqin mahsuli sifatida misol qilib keltirish mumkin. Jumladan, Nils Finzen oftobda yotgan mushukning ustiga soya tushganda yana oftob tushib turgan joyga borib yotganini sinchkovlik bilan kuzatadi. Xuddi shu hodisaning davomini bahor kunlarida ko‘prik ustida xayol surib turganda kuzatadi, loyqa suvdagi xas-xashak ustida jon saqlab kelayotgan tilla qo‘ng‘iz jon holatda quyosh tomonga burilar, suv oqimi esa yana uni o‘zgartirib oqqizar edi. Ana shu sinchkovlik orqali yondashib u kishilarni quyosh nuri bilan davolash usuliga ilk bor asos solgan edi. Aytilganlarni ta’lim tizimiga joriy etadigan bo‘lsak, uni obrazli qilib quyidagi holatlarga qiyoslash mumkin.

Birinchi holat. Sinchkovlik ruhida tarbiyalashni – o‘quvchining ilmiy nurli baland cho‘qqisi sari o‘nqir-cho‘nqir, so‘qmoqli, tikonli, egri-bugri yo‘llar orqali borishga undashning pedagogik va psixologik jihatlarini ochib berishdan izlamoq zarur.

Ikkinchi holat. Bu holat hozirgi o‘quv va ilmiy ishlar tizimida ko‘proq kuzatilmoqda buni yuqori cho‘qqiga ravon tayyor osma yo‘l orqali osongina borishiga intilish avj olayotgani bilan izohlash mumkin.

Keyingi holatdagi shaxs oldingiga nisbatan izlanish kuzatish, kurashish, mehnat qilish kabi hayot sinovlarini bir necha o‘n marta kam his etadi. Ularda sinchkovlikdan ko‘ra soxtalik, tayyorga ayyor bo‘lish, kayfiyati bir necha o‘n marta ko‘proq bo‘ladi.

Ta’lim tizimida o‘quv reja va dasturlarni sinchkovlik ruhida tarbiyalashni e’tiborga olmasdan boshqarish nafaqat o‘quvchi yoshlarning, hatto yosh mutaxassislarning hamda olimlarning ham sifatli bo‘lishdagi jiddiy kamchiliklarga olib keladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlashni istar edikki, insonlarning barchasiga ko‘z, quloq, tafakkur ato etib, uning olam go‘zalliklaridan bahramand bo‘lishiga imkon beradi. Ammo inson ko‘zi, qulog‘i va miyasi qancha murakkab tuzilgan bo‘lmasin, ularni mukammal, bekamuko‘st deb bo‘lmaydi. Ko‘zimiz o‘tmaydigan, qulog‘imiz eshitmaydigan, qo‘limiz yetmaydigan, tafakkurimiz ojizlik qiladigan voqea-hodisa shu qadar ko‘pki, ularni sanab sanog‘iga yetish qiyin, ularni faqat o‘ta sinchkovlik va chuqur ilmiy izlanishlar orqali idrok qila olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog‘ayev X., Alimov N. Bo‘lajak agromuhandis-pedagoglarning texnik ijodkorligini rivojlantirish. Xalq ta’limi jurnali, 2002-yil, №4-son, 36-38-betlar.

2. Levi M. Uyquda yotgan imkoniyatlar. Fan va turmush. №11, 1967-yil 23-bet.

3. Tog‘ayev X. Sinchkovlik kashfiyotga eltadi. “Jizzax haqiqati” 2002-yil 10-aprel soni.

Dilnoza KULBOYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI TEXNOLOGIYA DARSLARI ORQALI KREATIVLIK QOBILIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini texnologiya darslari orqali kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish hamda ularni qo‘l mehnatining barcha turlari yuzasidan ma’lumotlar berish haqida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi, texnologiya, ijodkorlik, qobiliyat, qo‘l mehnati, ta’lim-tarbiya.

В статье рассказывается, как с помощью уроков технологии развивать творческие способности будущих учителей начальных классов, а также знакомить их со всеми видами ручного труда.

Ключевые слова. Ученик, будущие учителя начальных классов, учитель начальных классов, ученик начальных классов, технология, творчество, умение, ручной труд, образование-воспитание.

This article describes how to develop the creative abilities of future primary school teachers through technology lessons and provide them with information on all types of manual labor.

Key words. Student, future primary school teachers, primary school teacher, primary school student, technology, creativity, ability, manual labor, education-education.

Tarbiyada muhitning o‘rni muhimligidan kelib chiqib, biz mehnatning tarbiyadagi o‘rnini bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni doim kreativ qobiliyat egasi misolida ko‘rsatib o‘z fikrimizni bildirmoqchimiz. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarni mehnatga tarbiyalash uning mehnatsevarlik kabi xususiyatlarini shakllantirish nafaqat jamiyat uchun ijobiy yoki salbiy ko‘rinishdagi fuqaroni tarbiyalash, balki uning kelajak hayotiga asos yaratishdir. Oliy o‘quv yurti amaliyotida talabalar kreativlik qobiliyatlarini shakllantirish bilan bog‘liq pedagogik tadqiqotlar muallifni an’anaviy qaror topgan, shu jumladan, maktabda ham ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘quvchilar bilish faoliyatini reproduktiv sxemasini shunchalik mustahkam ildiz otishining sabablarini aniqlash zarurati haqidagi fikrga olib keldi.

‘‘Biz shaxs rivojlanishiga yo‘naltirilgan pedagogika zarurligi haqida gapirayapmiz, bu esa nafaqat pedagogik tadqiqotlarning yo‘naltirilganligi va mazmunini, balki butun ta’lim amaliyotini tubdan o‘zgartiradi”.

Ta’kidlash lozimki, yangi ta’lim paradigmasi shaxs rivojlanishiga, unda kreativ fazilatlarni shakllantirishga mo‘ljallangan yangi ta’lim maqsadlarini taqozo qiladi, bu esa yangi yondashuvlarni, yangi didaktik tamoyillarni ishlab chiqishni va mavjudlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Bunda biz texnologiya darslarida talabalarga didaktik tamoyillarni ketma-ketligini va nazariy tushunchalar berishimiz hamda qo‘l mehnati bilan ishlash jarayonida amaliyotga tatbiq etishimiz kerak. Shuningdek, yangi-yangi

maqsadlarga mos bo‘lgan kreativ innovatsion pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishni talab qiladi, kreativ qobiliyatlarni rivojlantirish (intellektual nafas rostlash, temirdan, yog‘ochdan, plastmassa va boshqa moddiy obyekt ko‘rinishida bajarilgan boshqotirmalar, tasavvurni lol qiladigan, hayrat uyg‘otadigan narsalar).

Oxirgi o‘n yillikgacha oliy o‘quv yurti pedagogika o‘z fanini yaxshi bilish va bu bilimlarni talabalarga berishni o‘zi yetarli, vaqti kelib talaba o‘zi fikrlashni o‘rganib oladi degan barqaror fikr mavjud edi. Amaliyot esa aslo bunday emasligiga ishonch hosil qiladi.

Oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari o‘rtasida o‘tkazilgan pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, oliy o‘quv yurtidan chiqish davriga kelib bitiruvchilardan ayrimlarigina murakkab ishlab chiqarish muammolarini hal qilishga qodir. Shunday qilib, bo‘lajak mutaxassisni zamonaviy bilim bera oladigan kadr qilib tayyorlash uchun fundamental va kasbiy bilimlar “o‘zagi”ni berishdan tashqari o‘quvchi va talabani umuman fikrlashga, jumladan, kreativ fikrlash va kreativ faoliyatga maxsus o‘rgatish lozim.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kelajakdagi kasbiy faoliyatida o‘quvchilarni mehnatga o‘rgatish va qobiliyatlarini rivojlantirishi ularning yosh xususiyatlari, imkoniyat darajalari va qiziqishlaridan kelib chiqqan holda murakkab bo‘lmagan yumushlarni bajarishga o‘rgatishlari ayni muddaodir. Zero, mehnat ta’limi va tarbiyasini qo‘llash orqali o‘quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish juda qo‘l keladi. Ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyati sharoitida mutaxassislikni egallash keng politexnik bilim va malakalar, qobiliyatlar mavjudligiga bog‘liq bo‘ladi. Bu borada birinchi qadamlar maktabda amalga oshiriladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari kelajakdagi kasbiy faoliyatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nafaqat ishlab chiqarish, balki mehnatning oddiy turlariga tayyorlashi va bundan uning har tomonlama o‘quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishini ko‘zda tutish lozim.

Texnologiya darslarining turli bosqichlarida bu – umumiy vazifa turlicha hal etiladi. Chunonchi;

– birinchi bosqichda eshitishda nuqsoni mavjud o‘quvchilar mehnat savodxonligini;

– ikkinchi bosqichda umumiy texnik tayyorgarlikni;

– uchinchi bosqichda professional mehnat bilimini oladilar.

Texnologiya darslarida umumtexnik ta’lim bosqichida o‘quv-tarbiyaning maqsadi asosida amalga oshadi. Bu esa mehnatning didaktik imkoniyatlarini kengaytirish va qo‘llash sharoitni yaratadi. O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish avval oilada, ota-onaning shaxsiy namunalari asosida, keyinchalik maktabda, texnologiya darslarida, darsdan tashqari tadbirlar, o‘quv-yurtlarida yo‘nalishlar kesimidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy fikrlash qobiliyatini yuksaltirishda sinf rahbarining vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Bilimga qiziqish va muhabbat uyg‘otish.

Bola bilimga qiziqmasdan turib, o‘qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o‘qiy olmaydi. Bolada o‘z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil qilish, o‘qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag‘batlantirish ayniqsa ahamiyatli. Boladagi o‘qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg‘otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi.

2. O‘quv mehnatiga ongli munosabatda bo‘lish va unga mas’uliyat bilan yondashish.

O‘quv mehnatiga ongli munosabatda bo‘lish ta’limning ijtimoiy, o‘qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Sinf rahbarlari o‘quvchilarga bilim berishdagi bosh

vazifasi – o‘qish ekanligini tushuntirishi kerak. O‘qishga mas’uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o‘qituvchilar, ota-onalar va o‘z oldidagi mas’uliyat, ularning fikrlari, ma’qullashlarini eshitishga intilish, sinf, o‘quv jamoasida munosib o‘rinni egallashga ham tegishlidir.

3. O‘quv madaniyatini oshirish.

O‘zlashtirishning past bo‘lishi aksariyat hollarda, o‘quv madaniyatini tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko‘nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

Sinf rahbarining va fan o‘qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o‘quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bog‘liq:

1. Faoliyatni reja asosiga qurish.
2. Qunt bilan ishlash.
3. Pala-partishlikka yo‘l qo‘ymaslik, saranjomlikka o‘rganish.
4. Bilim sifatini oshirish.
5. Qiyinchiliklarni yengish.
6. O‘quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish.
7. O‘qishda o‘rtoqlarcha o‘zaro yordam uyushtirish.

O‘rtoqlarcha o‘zaro yordam sinfda ulgurmovchilikning oldini oladi, sinf jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi.

8. Sinf o‘qituvchilari bilan hamkorlik.

Sinf rahbari ta’lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o‘zi emas, balki shu sinfda dars beruvchi boshqa o‘qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradi.

Ijodiy mehnat jarayonida faqat qandaydir buyuk ishlar yaratilib qolinmaydi, balki o‘quvchining o‘zi kiritgan yaqqol xususiyatlari ham namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, xususan, ijodiy qobiliyat ijodkorlik sifatlari va o‘quvchi xislatlarini shakllantirishning muhim omili hisoblanadi. O‘quvchilarda ijodkorlik qobiliyatlarini hal qilish ham subyektiv, ham obyektiv yangi ko‘rsatkichlar bilan xarakterlanishi mumkin. O‘quvchilardagi ijodkorlik ko‘nikmalarini o‘stirishda individual yondashish ta’limning eng muhim prinsiplaridan birini amalga oshirish yuqori darajadagi qiyin ijodiy qobiliyatlariga doir qobiliyatni rivojlantirish imkonini beradi. Bularning hammasi o‘quvchilarga o‘z qobiliyatiga yarasha o‘rnini belgilashda yordam beradi. Bular esa har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2009. 121-189-betlar.

2. Bekmurotova N.A. Texnikaviy ijod va dizayn. – T.: Fan va texnologiya, 2006. 131-148-betlar.

3. Bulatov S.S., Axmedov M.B. Badiiy ta’limning falsafiy asoslari. – T.: Fan va texnologiya. 2010. 12-154-betlar.

Jamshid ISOQOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, o‘qituvchisi
Zarnigor JALOLOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, o‘qituvchisi

YOSH AVLODNI BARKAMOL SHAXS QILIB SHAKLLANTIRISHDA MA’NAVIY TARBIYANING ROLI

Annotatsiya

Maqolada yoshlarni barkamol shaxs qilib shakllantirishda ma’naviy tarbiyaning roliga e’tibor qaratilgan. Shuningdek, yoshlar tarbiyasida bilim va tafakkur, sog‘lom dunyoqarashni shakllantirish, ma’naviy-axloqiy tarbiya taraqqiyot bosqichlariga atroflicha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Yoshlar, ma’naviyat, barkamol avlod, ma’naviy targ‘ibot, jamiyat, bilim, oliy ta’lim muassasalari, ko‘nikma, g‘oya.

В статье освещены вопросы нравственного воспитания молодёжи в национальном духе на современном этапе развития общество. Рассмотрены вопросы роли знаний и совершенствования молодёжи, здоровый образ жизни, на степени духовна нравственного воспитания.

Ключевые слова. Молодёжь, воспитание, гормонично-развитое поколение, нравственность, общество, знания, учреждения вышего образование, привыкание, идея.

This article is dedicated the problems of up bringing to youth in moral sprit of developing of modern society. Serutininired role of knowledge, completing youth, healthy type of life in sprit of reprinting of morality.

Key words. Youth, upbringing, harmonically developing of generation, morality, knowledge, higher education institutions, science, idea.

Bugungi kunda yoshlar tarbiyasiga e’tiborni qaratish har doimgidan ham dolzarbligi va muhimligi bilan ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni zamon bilan hamnafas qilib tarbiyalash uchun kattalar zamondan bir qadam oldinda yurishlari ya’ni kelajakni oldindan ko‘ra bilishlari, pedagoglar tili bilan aytganda, pedagogik bashorat qila olishlari kerak. Buning zaruriyati nimada degan savolga quyidagicha javob berish maqsadga muvofiq. Zamon shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Bu insonlarga bir qator qulayliklarni yaratib, ularning umrini farovon, uzoq, baxtli qilish bilan bir qatorda ularga ba’zi bir noqulayliklarni, noodatiy bo‘lgan ishlarni ro‘paro qilmoqda. Misol uchun bir zumning o‘zida sayyoramizning har qanday nuqtasida bo‘layotgan voqealarni bilishimiz, yaqinlarimiz bilan garchi ular juda uzoqda bo‘lsada, mobil aloqalar vositasida ko‘rib suhbatlashishimiz mumkin. Bu albatta insonlar uchun yaratilgan qulayliklar. Biroq, biz bu davrda aql va ma’naviyat bilan ish ko‘rmasak, yoshlar tarbiyasida juda katta xatoliklarga yo‘l qo‘ygan bo‘lamiz. Bu nimalarda o‘z aksini topishi mumkin:

Birinchidan, axborotning juda ko‘pligi.

Ikkinchidan, axborot xurujini aniqlashning imkoniyati kamligi.

Uchinchidan, ma’lumotlarning ma’naviy qiyofasi va darajasining xilma-xilligi.

To‘rtinchidan, ma’lumotlar yosh tanlamasligi kattalarni tashvishlantirishi kerak.

Shuning uchun ham bugungi kunda yoshlarni barkamol shaxs qilib, shakllantirish zaruriyati o‘z dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida

shakllantirishda internetning o‘ziga xos ta’sir kuchi borki, undan foydalanish madaniyatga ega bo‘lgan yoshlarni shakllantirish aynan bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri – desak xato qilmagan bo‘lamiz. Biz bilamizki, internetdan olinayotgan xabarlar yoshlar ma’nan yetuk shaxs qilib tarbiyalashda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agarda undan to‘g‘ri foydalana olmasak. Demak, bizlar yoshlarni har tomonlama talab darajasida shakllantirishimiz uchun ularning ma’naviy olamini boyitishga qaratilgan ishlarni amalga oshirib borsakgina ishlar o‘z samarasiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham biz yoshlarni ma’naviy jihatdan shunday tarbiyalashimiz kerakki, internetdan faqatgina Vatan uchun, yurtning ravnaqi uchun foydali, ma’naviy asoslarga daxl qilmaydigan ma’lumotlarni topsin va ulardan foydalanib o‘zining ma’naviy salohiyatini oshirib borsin. Prezidentimiz Xalq ta’limi vazirligi, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligiga 2021-yilgacha barcha maktablardagi kompyuter sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi internet tarmog‘i bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yishidan maqsad-joylarda kompyuter o‘yinlari markazlarini tashkil etish, ularda bolalar va yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar tezlikda ishga tushishi zarurligini ta’kidladi. Shu asnoda o‘sib – ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga kitob nima ekanligini anglatish bilan bir qatorda unga mehr uyg‘otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish davr talabi ekanligi ham ayni haqiqatdir. Shuning uchun ham Davlatimiz rahbari mutasaddi vazirlik va uyushmalarga “Ma’rifat karvoni” loyihasi doirasida badiiy, ma’rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish hamda joylarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo‘lmagan miqdorda yetkazib berish bo‘yicha topshiriq berganligining o‘zi ham yoshlarni ma’nan shakllantirish kerakligini anglatib turibdi.

Inson o‘ziga yuklatilgan vazifa – yer yuzini obod qilish, uni mukammal holatga keltirish uchun doimo komillikka intilmog‘i darkor” – degan dunyoqarashga ega bo‘lib boradi. Shu bilan bir qatorda yoshlar ma’nan yuksalish jarayonlarida o‘zligini anglab, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni o‘rganib, oilaning vatanning muqaddasligini anglab uning asoschilariga cheksiz minnatdorchilik hissi bilan yashay boshlaydi. Bu his shubhasiz, ma’naviy tarbiyaning oltin gultoji, go‘zal qalbning bebaho quyoshidir.

Yoshlarni har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllantirishda internetning o‘ziga xos ta'sir kuchi borki, undan foydalanish madaniyatiga ega bo‘lgan yoshlarni shakllantirish aynan bugungi kunnning dolzarb masalalaridan biri desak xato qilmagan bo‘lamiz. Biz bilamizki, internetdan olinayotgan xabarlar yoshlar ma’nan yetuk shaxs qilib tarbiyalashda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Agarda undan to‘g‘ri foydalana olmasak. ‘‘...sodda qilib aytganda, Internet bu katta bir do‘kon. Do‘konga borganda, odam xohlagan molini sotib oladi. Masalan, biz bozorga o‘zimiz istagan, manfaatimizga xizmat qiluvchi buyumni sotib olgani boramiz. Internetni ham kishilar ehtiyoji va manfaati uchun xizmat qiluvchi axborot bozori deb anglash kerak’’. Demak, bizlar yoshlarni har tomonlama talab darajasida shakllantirishimiz uchun ularning ma’naviy olamini boyitishga qaratilgan ishlarni amalga oshirib borsakgina ishlar o‘z samarasiga ega bo‘ladi. Shuning uchun ham biz yoshlarni ma’naviy jihatdan shunday tarbiyalashimiz kerakki, internetdan faqatgina Vatan uchun, yurtning ravnaqi uchun foydali, ma’naviy asoslarga daxl qilmaydigan ma’lumotlarni topsin va ulardan foydalanib o‘zining ma’naviy salohiyatini oshirib borsin. Prezident ta’lim vazirligiga, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirishga 2021-yilga kelib barcha maktablarda kompyuterlar

sinflarini zamonaviy texnologiyalar va yuqori tezlikdagi Internet tarmog‘i bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish vazifasi qo‘yishidan maqsad joylarda kompyuter o‘yinlari markazlarini tashkil etish, ularda bolalar va yoshlarning bilim va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladigan test, viktorina, rivojlantirish strategiyalari va boshqa foydali dasturlar tezlikda ishga tushushi zarurligini ta’kidladi. Shu asnoda o‘sib – ulg‘ayib kelayotgan yosh avlodga kitob nima ekanligini anglatish bilan bir qatorda unga mehr uyg‘otish, mustaqil fikr va keng dunyoqarashni shakllantirish davr talabi ekanligi ham ayni haqiqatdir. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari mutasaddi vazirlik va uyushmalarga ‘‘ma’rifat karvoni’’ loyihasi doirasida badiiy, ma’rifiy, ijtimoiy mavzularda kitoblar chop etish hamda joylarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarga 1 million nusxadan kam bo‘lmagan miqdorda etkazib berish bo‘yicha topshiriq berganligining o‘zi ham yoshlarni ma’nan shakllantirish kerakligini anglatib turibdi. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning ko‘rsatishicha ‘‘qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy til bilan aytsak, sharqona ahloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbida xaromdan xazar, nopoklikka, adolatsizlikka nisbatan murosasiz isyon bo‘lishi kerak’’. Demak, biz yoshlarni aynan o‘sha ruhda tarbiyalashimiz kerak. Bu tizimni amalga oshirish uchun birincha navbatda, yoshlarning ongi va qalbiga yaxshilik bilan yomonlikning asl mazmun mohiyatini, ikkinchi navbatda fazilat nima-yu, illat nima ekanligini, uchinchi navbatda ezgulik bilan yovuzlikning tubdan farqini, to‘rtinchi navbatda ma’rifat bilan jaxolatning mazmunini ta’lim – tarbiya jarayonlarida singdirib borishimiz kerak. Bularni yoshligidan farqlab biriga intilib, biridan qochib yurishni odat tusiga kiritib borgan yoshlar yovuzlik va jaxolat ustidan doimiy ravishda g‘olib bo‘ladi. Shu tariqa ular ‘‘Alloh taolo yaratgan barcha mavjudot orasida eng etugi va mo‘jizasi bu insondir. Inson o‘ziga yuklatilgan vazifa – yer yuzini obod qilish, uni mukammal holatga keltirish uchun doimo komillikka intilmog‘i darkor’’ – degan dunyoqarashga ega bo‘lib boradi. Shu bilan bir qatorda yoshlar ma'nan yuksalish jarayonlarida o‘zligini anglab, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarashni o‘rganib, oilaning Vatanning muqaddasligini anglab uning asoschilariga cheksiz minnatdorchilik hissi bilan yashay boshlaydi. Bu his shubhasiz ma’naviy tarbiyaning oltin gultoji, go‘zal qalbning bebaho quyoshidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularni bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha 5 ta tashabbus.

2. Mamatov X. Huquqiy madaniyat, uning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni. –T.: Yurist-media markazi, 2008. – 40-bet.

3. Valixo‘jayev B. “Komil inson-komil jamiyat: Alisher Navoiy talqinida” // “Ma’rifat” gazetasi, 2002-yil, 23-yanvar.

Mariyam SHERANOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi, katta o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI AXLOQIY TARBIYALASHDA MILLIY-MA’NAVIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini axloqiy tarbiyalashda milliy-ma’naviy qadriyatlarning shaxsni shakllantirishdagi o‘rni atroflicha tahlil qilib berilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, tarbiya, ma’naviyat, ong, aql, axloq, qadriyat, pedagogik meros, tarbiyalash, o‘qish, muhit, rivojlantirish.

В статье анализировано роли национально-духовных ценностей в формировании личности в нравственном воспитании младших школьников.

Ключевые слова. Образование, духовность, ум, разум, мораль, ценность, педагогическое наследие, воспитание, чтение, окружающая среда, развитие.

This article provides a thorough analysis of the role of national and spiritual values in the formation of personality in the moral education of primary school children.

Key words. Education, spirituality, mind, reason, morality, value, pedagogical heritage, education, reading, environment, development.

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma’naviy jihatdan rivojlanishi har tomonlama kamolga yetgan shaxsning shakllanishiga, uning siyosiy, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetukligiga bog‘liq. Odob-axloqli, madaniyatli barkamol inson, birinchi navbatda, o‘z Vatanini, milliy tili, urf-odati, tarixi, an’analarini sevadigan, avlod-ajdodlari yaratgan ilm durdonalarini mukammal egallagan va umuminsoniy qadriyatlarni e’zozlaydigan bo‘ladi.

Tarix, mafkura, ma’naviyat va bolalar tarbiyasi masalasi bir qarashda bir-biridan bo‘lakcha tushunchalardek ko‘rinsa-da, ammo ular bir-biri bilan o‘zaro uzviy bog‘liqdir. Milliy g‘oya milliy mafkuraviy asosga tayanadigan xalqning o‘z taraqqiyot yo‘li hisoblanadi. Milliy g‘oya mazmunini qamrab oluvchi bir qancha masalalar mavjudki, ulardan biri oila va uning madaniyati, bolalarning oila va jamiyatdagi roli, ya’ni yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalalariga borib taqaladi.

Demak, milliy g‘oya barkamol avlodning shakllanishi masalasida yetakchi o‘rinda turadi. Shu bois, hozirgi sharoitda ijtimoiy tafakkuri yetuk, yuksak umuminsoniy qadriyatlar bilan qurollangan, ma’naviy boy, axloqiy yetuk, intellektual rivojlangan, yuqori bilimli, har tomonlama kamol topgan sog‘lom avlodni tarbiyalashning o‘ziga xos falsafasi, pedagogikasi shakllanayapti.

Shu o‘rinda, falsafiy-tarixiy ildizlari boy va rang-barang xalq og‘zaki poetik ijodining ahamiyatini ham ta’kidlab o‘tishga to‘g‘ri keladi. Xalq og‘zaki ijodi azaldan yosh avlodning ma’naviy ehtiyojini ta’minlash, ularga ma’rifiy-tarbiyaviy, badiiy-ruhiy hamda axloqiy ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy vosita hisoblanadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A. Karimov o‘z nutqlarining birida, – “Biz ma’naviy qadriyatlarni tiklashni milliy o‘zlikni anglashning o‘sishidan, xalqning ma’naviy sarchashmalariga uning ildizlariga qaytishdan iborat uzviy, tabiiy jarayon deb hisoblaymiz”, – deya ma’naviy sarchashmalarga, ularning bugungi kundagi o‘rni va ahamiyatga juda katta baho bergan edi. Anglashiladiki, folklor o‘tmishning aks-sadosi bo‘libgina qolmay, balki hozirgi davrning yangiroq ovozi hamdir. Darhaqiqat, xalq og‘zaki ijodi o‘zining sermazmunligi, sodda va ayni chog‘da go‘zalligi bilan ijtimoiy turmushimizga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda.

Asrlar davomida bola tarbiyasida katta rol o‘ynab kelgan folklorning ahamiyati to‘g‘risida so‘z yuritgan olimlar ko‘p bo‘lgan. Ayniqsa, huquqshunos olimlar inson ruhining shakllanish jarayonini bosqichlarga bo‘lar ekanlar, ona allasi bilan milliy ertaklar, rivoyat, maqol, topishmoqlarchalik bolalar ruhiyatiga tez ta’sir etuvchi biror bir vosita yo‘qligini alohida ta’kidlaydilar.

Bolalar dastlab dunyoni alla va ertak orqali anglaydi. Xalq og‘zaki ijodi namunalari bolani o‘zi yashab turgan tor hovlidan keng dunyoga olib chiqadi. Devlarni mardona yenggan qahramonlar, ko‘p boshli ajdarhoni o‘ldirgan pahlavonlar-u turli yovuz kuchlarni mahv etib, sehrgar va jodugarlarni bandi qilgan qo‘rqmas, dovyurak yigitlar bilan tanishtiradi.

O‘zbek xalq folklori ko‘p asrlik boy tarixga ega. Alla – qo‘shiq, maqol, topishmoq, tez aytish, masal, ertak, dostonlar xalq og‘zaki ijodining eng qadimgi va keng tarqalgan janrlaridir. Bu haqda to‘xtalib, filologiya fanlari doktori, professor To‘ra Mirzayev, xalqimiz antik davr va o‘rta asrlarning klassik epopeyalari – “Illiada” va “Odisseya”, “Roland haqida qo‘shiq” va “Nibelunglar haqida qo‘shiq”, “Mahobxarat” va “Ramayana”, “Igor jangnomasi” va “Shohnoma”, “Manas”, “Jangar” va “qiz Jibek” kabi shoh asarlar bilan bellasha oladigan va ular bilan teng turgan hayratomus dostonlarga va rang-barang ertaklarga, badiiy go‘zal alla-qo‘shiqlarga, mehatkash ommaning hayot tajribalarini o‘zida mujassamlashtirgan ajoyib maqol va matallarga, juda ko‘p topishmoqlar, latifalarga egaki, ular ma’naviy boyligimiz, zo‘r iftixorimizdir, – deb o‘zbek xalq og‘zaki ijodining kuch-qudratiga, ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatiga juda katta baho beradi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, bir tomondan u yoki bu janr orqali xalqimizning bola tarbiyasi borasidagi qarashlari, tarbiyaning turli-tuman tomonlari – jismoniy, aqliy kamolot, axloqiy sifat, estetik did, maktab va kasb-hunar ta’limi aks ettirilsa, boshqa tomondan yana o‘sha janrda tarbiya tarkibini oshirish yo‘l-yo‘riqlari va vositalarining ham ko‘rsatilishidir. Bu xalqimizning qadim zamonlarda o‘ziga xos milliy tarbiya tizimiga ega ekanligidan darak beradi. Har bir oilada, har bir xonadonda, har bir qavmda ota-ona, buvi-bobolar; allachi-yu, ertakchilar tarbiyada asosiy vosita hisoblangan. Xalq og‘zaki ijodi – alla, qo‘shiq, topishmoq, maqol, ertak aytgan. Xalq jamiki moddiy boyliklarni yaratuvchi kuchgina bo‘lib qolmay, u ma’naviy boyliklarning ham birdan – bir yagona va bitmas tuganmas manbaidir. Xalq o‘z ijodining boy va go‘zalligi jihatidan birinchi faylasuf hamda shoir bo‘lib, u yer yuzidagi barcha alla, topishmoq, maqol, ertak, dostonlarning, shuningdek, jahon madaniyati tarixining yaratuvchisidir. Demak, ana shu yaratuvchining o‘zi tarbiyali bo‘lmog‘i kerak.

Tabiatning noyob in’om – ehsoni bo‘lgan hayotni odam bolasiga buyuk zotlar – ota-ona baxshida etadi. Har bir o‘g‘il va qiz yoshlik chog‘idanoq oila a’zolari, qarindosh – urug‘lari, qo‘ni-qo‘shnilari va o‘z yaqinlariga yaxshilik qilishga intiladigan, ularga quvonch baxsh etadigan, inson qadr-qimmatini yuqori ko‘rsatadigan sifatlarga ega bo‘lishi ota-onalarining ularga bergan ta’lim – tarbiyasiga bog‘liq. Bolalar yoshligida

taqlidchan bo‘lgani sababli ota-ona xarakteridan ibrat oladi. Bu g‘oyani ming bor sinovdan o‘tkazgan mehnatkash xalq o‘z farzandlari aql-idrokli, faxm-farosatli, tadbirkor, jismoniy sog‘lom, baquvvat, chidamli, qo‘rqmas va botir, mehnatsevar, mohir hunarmand, ma’naviy pok, chinakam vatanparvar, estetik didli kishilar qilib tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodi namunalaridan unumli foydalanib kelgan. Boshlang‘ich sinflarda ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarini tashkil etish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bolalarning aqli, idroki, tarbiyalanganlik darajasi, dunyoqarashi va boshqa qator sabablar ularni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda e’tiborga olinadigan xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ularga yondashib tashkil etilgan ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlari ko‘zlangan maqsadga erishishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirish tizimi bir qancha tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, uning asosiy tarkibiy qismlari sifatida oila-mahalla-maktab hamkorligi hamda “Ma’naviyat va ma’rifat markazlari” tizimini keltirish mumkin. Ushbu tizimda keltirilgan tarkibiy qismlarning barchasi ham ma’naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishda o‘z o‘rni va ahamiyatga ega. Tarkibiy tuzilmada oilaning asosiy o‘ringa qo‘yilishiga bir qator sabablarni ko‘rsatish mumkin. Birinchidan, bolada dastlabki tarbiya elementlari oiladagi muhit asosida shakllanadi; ikkinchidan, oiladan tashqarida o‘rganilgan tarbiya elementlari oilada mustahkamlanadi; uchinchidan, oila bolaning muqim yashash joyi bo‘lganligi sababli ota-ona shakllangan elementlarga amal qilinishini nazorat qilishi mumkin bo‘ladi va qator shu kabi sabablarni ko‘rsatish mumkin.

Umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma’naviy – axloqiy tarbiyalashni yo‘lga qo‘yishda pedagogik va psixologik tadqiqot natijalari asosida tavsiya etilgan usullarga amal qilish zarur. Bu o‘qituvchining o‘quvchilar bilan faol ish olib borishiga yordam beradi. Ma’lumki, pedagogika fani keng qirrali bo‘lib, uning aynan metodika shakli o‘ziga xos xususiyatga ega. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ularning tasavvuri doirasidagi tushunchalardan foydalanish yaxshi samara beradi, deb aytish mumkin. Jumladan, bola ongi, idroki, shuuri o‘ziga singdira oladigan ma’lumotlar bola xotirasida uzoq muddat saqlanib qoladi va keyinchalik, hayot yo‘lida ulardan bevosita foydalanib keladi. Aksincha, kichik yoshdagi bolalarning ongida gavdalanmaydigan tushunchalar haqida so‘z yuritish ularda noto‘g‘ri tasavvurlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T., 1998, 7-bet.

2. Zaripov M. Z. Ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning rivojlanishi “Pedagogik ta’lim”, –T., 2000.- №2.-6-9-betlar.

3. Isomiddinova M. O‘quvchilar dunyoqarashini shakllantirishda pedagogning faoliyati va o‘rni. Samarqand davlat chet tillar instituti.

4. Kushvaktov N. Milliy-ma’naviy qadriyatlarni o‘rgatishning hayotga tatbiq etilishi. “Boshlang‘ich ta’limda innovatsion texnologiyalar: muammolar, yechimlar” mavzusidagi respublika ilmiy – amaliy anjuman materiallari. Jizzax. 2006-yil - III-qism. 63-65-betlar.

5. Zunnunov Asqar Pedagogika nazariyasi. – T.: “Aloqachi” 2001- y. 163-bet.

6. Zunnunov Asqar Ulfat Maxkamov Didaktika (Ta’lim nazariyasi) Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv-qo‘llanma. – T.: Sharq nashriyot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. – T.: 2006-y. 125-bet.

Dinora ABDURAXMONOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI PIRLS DASTURIGA TAYYORLASH

Annotatsiya

Maqolada PIRLS – xalqaro baholash dasturi asosida 4-sinf o‘quvchilarida matnni o‘qish va tushunish malakasini rivojlantirish masalalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar. Xalqaro tadqiqot, PIRLS dastur, xalqaro baholash, xalqaro tajribalar, o‘qish savodxonligi, matn, tushunish, mustaqil fikrlash.

Данная статья посвящена вопросам развития навыков чтения и понимания текста учащихся четвертого класса в рамках международной программы PIRLS.

Ключевые слова. Международные исследования, PIRLS, программа, международная оценка, инспекция образования, национальный центр, международные практики, грамотность чтения, опыт искусства, сбор и использование информации.

This article focuses on developing reading and comprehension skills for fourth-grade students through the PIRLS InternationalAssessmentprogram.

Key words. International Research, PISA, PIRLS, Program, International Assessment, Education Inspectorate, National Center, International Experiences, Reading Literacy, Art Experience, Information Acquisition and Use.

O‘quvchilarni har tomonlama barkamol inson bo‘lib shakllanishida ta’lim-tarbiya jarayoni sifatini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv-tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, davlatimiz rahbari tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirib kelinmoqda. PIRLS tadqiqotida 50 dan ortiq davlatlar ishtirok etib kelmoqda. Mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta’lim tizimidan iborat bo‘lgan davlatlardagi boshlang‘ich maktab o‘quvchilarining matnni o‘qish va qabul qilish bo‘yicha tayyorgarligi hamda o‘quvchilarning har xil yutuqlarga erishishga sabab bo‘luvchi ta’lim tizimidagi o‘ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat. Albatta bunday tadqiqot xalq ta’limi sohasidagi ishchilar, olimlar, metodistlar, o‘qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

Jumladan, PIRLS (Progress In International Reading And Literacy Study) xalqaro baholash dasturining navbatdagi, ya’ni 2021-yil loyihalarida O‘zbekistonning ham ishtirok etishi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarning xalqaro tashkilotlar tarafidan ham e’tirof etilayotganini ko‘rsatadi.

PIRLS-dasturi bo‘yicha xalqaro arenada munosib o‘rin egallash, bu shunchaki raqam emas, balki, uning ortida mashaqqatli mehnat, ta’lim sifati, kadrlar salohiyati, o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalari, o‘quv dasturlari va darsliklar, ta’lim muassasalarining moddiy-texnik ta’minoti, bir so‘z bilan aytganda, milliy ta’lim tizimining qanchalik

tayyor ekanligi bilan bog‘liq masala yotadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida matnni o‘qish va tushunish malakasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Matnni o‘qish va tushunishga o‘quvchilar 1-sinfdan boshlab o‘rgatiladi. Ularni xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLSga qanday tayyorlash kerak degan savol tug‘ilishi tabiiy. Boshlang‘ich sinf darsliklari va internetdan o‘quvchining yoshiga mos kichik hikoya va ertaklarni, she’rlarni yoki axborot matnlarini olib, o‘qish darslarida hamda darsdan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlarda matnni ifodali o‘qish, matnning mazmunini tushunish malakalari shakllantirilib boriladi. Ayrim matnlar uyga vazifa qilib ham berilishi mumkin. Berilgan topshiriq matnlari asosida keyingi dars mashg‘ulotida savol-javob va tahlillar o‘tkaziladi. Matnni o‘qigach, o‘quvchilar matn mazmunini tushunish, xulosalar chiqarish, matn mazmunini tushuntirib berish, ma’lumotlarni izohlash, tahlil qilish, matn mazmunini baholash, matnda berilgan so‘zlarni tahlil qilish, matn qurilishi yuzasidan berilgan savollarga javob bera olish ko‘nikmalariga ko‘ra baholanadi.

Tadqiqot uchun tanlanadigan matnlar bayonining ravonligi va izchilligi; ularning realligi; faktlarni tahlil qilmay tavsiflanishi (ilmiy, amaliy va boshqa matnlar) va to‘qimaligi; badiiyligi (badiiy publitsistik va boshqa matnlar) kabi xususiyatlari juda muhim deb topilgan.

O‘quvchilar xalqaro baholash darajasini belgilovchi PIRLS dasturi har besh yilda amalga oshiriladi. Unda boshlang‘ich sinf bitiruvchilari PIRLS talablariga ko‘ra ikkita matn bo‘yicha baholanadi. Birinchi matn Nizomda ko‘tsatilganidek, san’at va madaniyatga oid bo‘lishi, qiziqarli tarixiy voqeaga asoslangan hikoya yoki ertak bo‘lishi mumkin. Ikkinchi matn esa aniq ilmiy ma’lumotlarni ifodalagan bo‘lishi kerak. O‘quvchilar bilimi shunga ko‘ra baholanadi.

Boshlang‘ich sinf bitiruvchi o‘quvchilarini PIRLS-baholash tizimi topshiriqlari asosida badiiy asarni tahlil qilishni o‘rgatishga harakat qilamiz. Unda 4-sinf o‘quvchilariga o‘qish darslarini inobatga olib, “Hidi, tilimi va mazasidan” hikoyasini tahlil qilamiz.

Hidi, tilimi va mazasidan hikoyasiga oid savollar:

1. Mirzo Bobur qaysi yurtga sulton bo‘ldi?

A) Hindiston
B) Samarqand
C) Buxoro
D) Xiva

2. Bobur “mendan yodgorlik qolsin deb” qanday joy barpo ettirdi?

A) Maqbara
B) Bog‘
C) Saroy
D) Machit

3. Xalq bu bog‘ga qanday nom qo‘yibdi?

A) Bog‘i Eram
B) Bog‘i Shamol
C) Bog‘i Boburiy
D) Bog‘i Baland

4. “Bog‘i Boburiy”ning bir chekkasidagi qanday rezavor bitmabdi?

A) Piyoz
B) Bodiring
C) Handalak va qovun

D) Sabzi

5. Bog‘bonlar qanday yo‘l tutishibdi?

6. Bobur shohning bog‘bonga qarab aytgan gapini yozing!

_____

7. Bog‘bonning qaysi gapi Bobur shohni ko‘nglini buzdi?

A) Bu qovun “Bog‘i Boburiyda” bitgan.

B) Bog‘dagi daraxtlar hosilga kirdi.

C) Farg‘ona viloyatidan olib keldik.

D) Sen meni aldayapsan.

4-sinf uchun mo‘ljallangan “O‘qish kitobi” darsligida berilgan hikoyalarni mutolaa qilgan o‘quvchi buyuk ajdodlarimizning ibratli hayot yo‘llari, amallaridan voqif bo‘lish bilan birga g‘urur va iftixor tuyg‘usini tuyishi, yuksak vatanparvarlik, to‘g‘rilik, saxiylik, yaxshilik, o‘zlikni his qila olish, mardlik va jasorat, xullas, chin insoniy fazilatlarni anglash, o‘rganish va yuqtirish darajasiga yetadi. Mazkur maqsadga erishish uchun esa o‘qituvchidan biroz ijodiy yondashuv kerak bo‘ladi. Shuningdek, o‘quvchining yosh xususiyatidan kelib chiqib mazkur hikoyalar asosida ishlangan multfilm, lavhalar ko‘rsatish hamda o‘quvchilar ijrosida sahna ko‘rinishlarini namoyish etish orqali ham o‘quvchining kitob o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish mumkin.

Keyingi matn 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorlik ko‘rish uchun 3-mashq daftaridagi “Kichik loy bo‘lagi” matnidan foydalanamiz.

Eski minoraning yuqori qismida ustaxona bor edi. Bu kulolchilik ustaxonasi bo‘lib, u yerda ko‘pgina rangli glazurlar, kulolchilik g‘ildiraklari, pishirish uchun pechka, quritish moslamasi va albatta loy bor edi. Deraza yonida og‘ir qopqoqli katta yog‘och sandiq turardi. Unda loy saqlanar edi. Quyi qavatning burchagida, eski loy bo‘lagi bor edi. U oxirgi marta qo‘lga olinib g‘ijimlanganligini zo‘rg‘a eslardi. Har kuni yog‘och qutining qopqog‘i ochilar edi. Qop yoki loy zuvalasini olish uchun qo‘llar cho‘zilar edi. Loy bo‘lagi ish bilan band bo‘lgan odamlarning quvnoq shovqinini eshitar edi.

“Qachon mening navbatim keladi?” degan savol uni qiziqtirardi. Har kuni qorong‘u qutida o‘tar va loy bo‘lagining umidi so‘ngan edi.

Bir kuni ustaxonaga bir guruh bolalar jamoasi o‘z ustozi bilan kelib qolishdi. Ko‘plab qo‘llar qutiga uzatildi. Kichik loy bo‘lagimizga eng oxirida navbat yetdi, nihoyat u tashqariga chiqdi!

“Bu menga katta imkoniyat!” – deb o‘yladi u, ko‘zlari nurdan qamashib.

Bir bolakay loyni kulolchilik g‘ildiragiga qo‘ydi va uni bor kuchi bilan aylantirdi. “Bu zavqli!” – deb o‘yladi kichik loy bo‘lagi. Bolakay g‘ildirakni aylantirar ekan, loyni tepaga cho‘zishga urinib ko‘rdi. Loy bo‘lagi biror-bir buyumga aylanib qolishidan hayajonlanar edi. Lekin kosa yasashga urinishdan so‘ng bolakay to‘xtatdi. U loyni g‘ijimladi va uni yumaloq shaklga keltirdi.

Savollar:

1. Quyidagi gaplarni hikoyada sodir bo‘lgan voqelik ketma-ketligida raqamlab chiqing. 1-raqam siz uchun qo‘yilgan.

“Qachon mening navbatim keladi?”

Ko‘plab qo‘llar qutiga uzatildi.

Loy bo‘lagi biror-bir buyumga aylanib qolishidan hayajonlanar edi.

Loy bo‘lagi qurib qoldi.

1. Loy bo‘lagi yog‘och qutida yotgan edi.

_____

1. Eski minora ustida qanday imorat bor edi.

_____

2. Nima uchun loy bo‘lagi yog‘och qutida uzoq vaqt davomida turgan edi?

_____

3. Hikoya boshida loy bo‘lagi nimani orzu qilgan edi?

_____

4. Nima uchun oxir-oqibat loy bo‘lagini yog‘och qutidan olishdi?

A) Qolgan barcha loy bo‘laklari allaqachon ishlatilgan edi.
B) tepada, boshqa loy bo‘laklarining ustida turgan edi.
C) Bolakay ushbu loy bo‘lagini oldi, chunki unga juda ham yoqdi.
D) O‘qituvchi bolakayga ishlashi uchun unga ushbu loy bo‘lagini olishni aytdi.

5. Bolakay qaysi ishni e’tiborsizlik bilan bajardi?

A) U loyni kulolchilik charxida qoldirdi.
B) U charxni bor kuchi bilan qoldirdi.
C) U loyni deraza yonida qoldirdi.
D) U loyni g‘ijimladi va urdi.

6. Bolakay loy bo‘lagini xavf ostida qoldirdi. Xavf nima edi?

O‘qish darsida o‘tiladigan bir soat dars davomida o‘quvchilarni matn bilan tanishtirish, uning asosiy mazmun-mohiyatini ochish, hikoyadan to‘g‘ri xulosa chiqarish va uni o‘z hayotida tatbiq qilishga o‘rgatishda yuqorida berilgan topshiriqlarni bajarish katta foyda beradi. Bunday topshiriqlar o‘quvchi bilim faoliyatini kengaytirib, tarbiyalanishiga yordam beradi.

Demak, o‘qish darslarida o‘quvchilar bilimini baholashda qo‘llangan savol, test va topshiriqlar o‘quvchining o‘quv materialini qanday o‘zlashtirayotganligini aniqlab bilim-ko‘nikmalar va malakalarini shakllantiradi.

Qisqacha qilib aytganda, xalqaro tadqiqotlar natijalari yoshlarimizning hayotga qanchalik tayyorlanayotgani va buning uchun ularga taqdim etilayotgan ta’lim dasturlari bugungi kun talabiga qanchalik javob berishini ko‘rsatib beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qib tushunish ko‘nikmalarini qay darajada rivojlanganligi haqidagi ma’lumotlarni xalqaro miqyosda taqqoslash imkonini beradigan, o‘qish va o‘qitishni yaxshilash uchun ta’lim sohasidagi davlat siyosatiga oid ma’lumotlarni taqdim etadigan yirik xalqaro baholash dasturidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xalqaro tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash.(Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari, metodistlar va soha mutaxassislari uchun metodik-qo‘llanma). Ta’lim inspeksiyasi huzuridagi Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi. –T., 2019-yil, 92-bet.

2. Matchonov S. va boshqalar. O‘qish kitobi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan oltinchi nashr. – T.: Yangiyo‘l poligraf servis, 2020-yil, 158-bet.

3. 4-sinf O‘quvchilarining o‘qish savodxonligini baholash bo‘yicha o‘tkaziladigan PIRLS xalqaro tadqiqotiga tayyorgarlik ko‘rish uchun 3-mashq daftari.

Feruza ORIPOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

TALABALARNI IJODIY QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarining pedagogik qobiliyatlarini takomillashtirish texnologiyalari hamda uning ijtimoiy asoslari haqida atroflicha fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Bilim, qiziqish, qobiliyat, ijodiy qobiliyat, ijodkorlik, pedagogik ijod, evristik.

В статье подробно рассматривается технология повышения педагогического мастерства студентов педагогических вузов и ее социальные основы.

Ключевые слова. Знания, интерес, способности, творчество, творчество, педагогическое творчество, эвристика.

The article discusses in detail the technology of improving the pedagogical skills of students of pedagogical universities and its social foundations.

Key words. Knowledge, interest, abilities, creativity, creativity, pedagogical creativity, heuristics.

Bugungi kun zamonaviy pedagogikasida oliy ta’lim muassasasi talabalarining ijodkorlik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri bo‘lib bormoqda. Bu ta’lim tizimidagi tub o‘zgarishlar bilan bog‘liq. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limga e’tibor qaratilmoqda. Bilim, qiziqish va qobiliyatlari bilan o‘sib borayotgan shaxs ta’lim-tarbiya ishlarining markaziga qo‘yiladi. O‘qituvchi va o‘quvchiga ta’lim-tarbiya ishlarining yo‘nalishlari, dasturlari va usullarini tanlash imkoniyati beriladi.Ta’limning rivojlantiruvchi funksiyasi birinchi o‘ringa chiqadi. Ayniqsa, bo‘lajak mutaxassisning ijodiy shaxsini rivojlantirishning sharti sifatida o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlari muhim ahamiyatga ega.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo‘lishi, eng avvalo, pedagogika oliy ta’lim muassasasi talabalarning yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o‘rgatish, ularga keng dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta’lim-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog‘liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug‘ ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta’minlash yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog‘liqdir.

Ijodkorlik nafaqat butun pedagogik faoliyatni qamrab oladi, balki, o‘qituvchining kasbiy mahoratining mezonlaridan biridir.[1] Bundan tashqari, kasbiy ijod uchun zarur deb qayd etilgan sifatlar asosan shaxsning ijodiy qobiliyatlari bilan mos keladi. Pedagogik

[1]Khakimova M. F. Oripova F.M. The Upbringing of competent generation is great development force of the societe. 2020/5 www.iejrd.com International Engineering Journal For Research & Development.

ijodkorlik uchun kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarning muhim o‘rni ham qayd etilgan.

Ijod insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo‘ladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug‘iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi, boshqalar bajargan ishlar tanqidiy ko‘rib chiqiladi, tahlil etiladi, kuzatishlar, tajribalar o‘tkaziladi, mantiqiy xulosalar chiqariladi, gipotezalar qilinadi, bular tajribada sinab ko‘riladi, noto‘g‘ri bo‘lsa yangilanadi. Mustaqil fikrlashning yuqori shakli bo‘lmish ijodiylik muammosi chet el psixologiyasida juda chuqur o‘rganilgan, bu asosan qobiliyatning kreativligi tarzida talqin qilingan. Biz bu ta’rifdan “ijodiy” deb foydalanmasligimiz sabab (“kreate”– inglizcha “ijod qilish” demakdir) ijodiy – bu intellektual faollikning yuksak bosqichi, degan tasavvur paydo bo‘lmasligi uchun “kretivlik” atamasidan foydalanamiz. Har qanday mavjudotdan farqli ravishda aynan insonga ijod qilish martabasi berilgan. Ijodkorlik mehnat ekanligi shubhasizdir. U davomli hodisa bo‘lib bu jarayonda ijodkorning shaxsiy xislatlari, fazilatlari katta rol o‘ynaydi. Agar ijodkor mehnatkash, har bir kunini muayyan reja asosida tashkil qiladigan, vaqtning qadriga yetadigan, dadil, qiyinchiliklardan cho‘chimaydigan, bo‘lsa u o‘z ishini oxiriga yetkaza oladi.

Tarixda XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyo hududidagi yangi ma’rifatparvarlik oqimi namoyondalari A.Avloniy, M.Behbudiy, A.Fitrat kabi pedagoglar o‘zlarining yangi usuldagi maktablarida ilk bor yoshlar ijodiy qobiliyatlari rivojlantirishning evristik usullarini tatbiq qildilar. Mohir pedagog Fitrat aqliy tarbiyaning o‘qish o‘rganish orqali amalga oshishini ta’kidlaydi va bunda tabiatan in’om etilgan ilm vositasida hosil bo‘luvchi kasbiy (komil) aqlni ajratib ko‘rsatadi.

U ta’limda quyidagi tamoyillarga amal qilish lozim:

1. Ta’lim va tarbiyaning birligi.
2. Beriladigan bilimlarning ilmiyligi.
3. Bilimlarning tizimli va izchilligi.
4. Beriladigan bilimlarning bola yoshi va bilim darajasiga bog‘liqligi.
5. Bolaning bilimlarni ongli o‘zlashtirilishiga erishish.
6. Bilimning bolaga moddiy va ma’naviy foyda keltirishi.

Ijodiy qobiliyatlar umumiy qobiliyatlar sifatida tasniflanishi kerak, chunki ular har qanday kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishi mumkin va ular aql bilan birga maxsus qobiliyatlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.[2] Insonning barcha maxsus qobiliyatlari, pirovardida ularning inson madaniyati yutuqlarini egallash va uni yanada rag‘batlantirish umumiy qobiliyatining turli ko‘rinishlaridir.

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish uchun quyidagi vazifalarini hal qilishimiz lozim:

– o‘quvchilarni ijodkorlik, pedagogik ijodkorlik, ijodiy faoliyat mexanizmlari haqida bilimlar bilan qurollantirish;

– bo‘lajak o‘qituvchilar o‘rtasida ijodiy faoliyatga ijobiy munosabatni shakllantirish;

– shaxsiy sifatlarni, shuningdek, ijodiy darajadagi faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalarni shakllantirish.

Tadqiqotchi olim Sh.Sharipov o‘z ilmiy izlanishlarida[3] ijodkorlik tushunchasini

[2]Zokirova U. I. Using the views of eastern thinkers in the spiritual and moral education of future teachers. SAARJ Journal on Banking & Insurance Research (SJBIR) 2020. May. P. 78.

[3]Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: Avtoref. Ped. fan dok. ilmiy darajasini olish uchun. – T., 2012.

ixtirochilik ko‘nikmalarini shakllantirish bilan tavsiflaydi va shu bilan birga ijodkorlik bo‘lajak o‘qituvchilarning bilish saviyasini oshiruvchi va mustahkamlovchi, faol va mustaqil fikrlash xislatlari, talabalarning ma’naviy ma’rifiy saviyasini sezilarli darajada o‘sishiga olib keluvchi jarayon ekanligi xususida fikrlari aynan ushbu mavzumizning nihoyatda dolzarbligini ko‘rsatadi.

O‘quv faoliyatida o‘quvchilarning ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirish bosqichlariga doir quyidagi tushuntirishlar berilishi kerak:

– ijodiy qobiliyatni shakllantirish hamda umuman ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning asosiy motivi ijodiy faoliyatining kasbiy ahamiyati hisoblanadi;

– o‘quvchilarning ijodiy ko‘nikmalarini shakllantirishni maktabda boshlash kerak, bu esa kirish bosqichini sezilarli darajada kamaytiradi;

– ijodiy ko‘nikmalar subyektiv emas, shuning uchun ular kontekstual yondashuv yordamida shakllantiriladi;

– ma’lum bir vaqtdan keyin yana ma’lum bir malakani shakllantirishni nazarda tutganimiz uchun shakllanish jarayonini o‘rganish diskret (uzlukli) bo‘ladi;

– o‘z-o‘zini esa bajariladigan harakatlarni mustaqil baholash ~~qo~~biliyatini bildiradi.

Shuning uchun o‘qituvchi pedagogik ijodda yuksaklikka erishishi uchun quyidagi mantiqiy zanjirni bosib o‘tishi lozim: shaxsning umumiy ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish->pedagogik ijod uchun qobiliyatlarni mustahkamlash->pedagogik faoliyatda professionalizmga yaqinlashish.

Xulosa qilib aytganda, oliy ta’lim muassasasi talabalarining ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish texnologiyalarini bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri sifatida qarashimiz mumkin. Bu jarayonda asosan pedagoglar zimmasida katta mas’uliyat va vazifalar turibdi. Ushbu vazifalarni bajarishda yuqorida ko‘rsatilgan tamoyillarga tayanib ish olib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shaxsning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish bo‘lajak o‘qituvchilarni yuqori sifatli kasbiy tayyorlashning zaruriy sharti vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Khakimova M. F. Oripova F. M. The Upbringing of competent generation is great development force of the societe.2020/5 www.iejrd.com International Engineering Journal For Research & Development.

2. Zokirova U. I.Using the views of eastern thinkers in the spiritual and moral education of future teachers.SAARJ Journal on Banking & Insurance Research(SJBIR) 2020. May. P.78.

3. Sharipov Sh.S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviyligini ta’minlashning nazariyasi va amaliyoti: Avtoref. Ped. fan dok. ilmiy darajasini olish uchun. – T., 2012.

Maftuna SOLIYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Pedagogika nazariyasi va tarixi”
mutaxassisligi 2-bosqich magistri

TA’LIM MUASSASALARIDA O‘QITUVCHI VA O‘QUVCHILARNING JONLI MULOQOTINI TASHKIL ETISH

Annotatsiya

Maqolada ta’lim muassasalarida o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro jonli muloqotini tashkillashtirish, muloqotni to‘g‘ri tashkil etish, muloqotni tashkil etishda pedagogik mahorat sirlaridan va tajribali ustoz o‘qituvchilarning yutuqlaridan foydalanish haqida bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Jonli muloqot, pedagogik mahorat, ma’naviy madaniyat, so‘z san’ati, aqliy tafakkur, tanqidiy fikrlash.

В данной статье речь идет об организации живого взаимодействия педагогов и учащихся в образовательных учреждениях, правильной организации общения, использовании педагогических навыков в организации общения и достижений опытных педагогов.

Ключевые слова. Живое общение, педагогическое мастерство, духовная культура, искусство слова, рациональное мышление, критическое мышление.

This article deals with the organization of live interaction between teachers and students in educational institutions, the correct organization of communication, the use of pedagogical skills in the organization of communication and the achievements of experienced teachers-teachers.

Key words. Live communication, pedagogical skills, spiritual culture, the art of speech, rational thinking, critical thinking.

Ta’lim-tarbiyaviy faoliyatni mukammal tashkillashtirish o‘qituvchining jonli muloqotni samarali tashkil etishiga bog‘liq. Bunda o‘qituvchi va o‘quvchining muloqoti ijobiy natijalar berishi uchun o‘qituvchida o‘quvchilar bilan erkin so‘zlashuv qobiliyati bo‘lishi kerak. Zero, o‘qituvchi bilan o‘quvchining muloqotini bog‘lovchi asosiy vosita – so‘zdir. O‘qituvchining so‘z boyligi qanchalik ko‘p bo‘lsa, muloqot olib borish qobiliyati tez namoyon bo‘lib, ijobiy natijalarga erishishi oson bo‘ladi.

Jonli muloqot – o‘qituvchi tomonidan tashkil etiladigan, har qanday ta’lim-tarbiyaviy tadbir mohiyatini og‘zaki so‘z bilan o‘quvchilarga yetkazadigan, o‘qituvchini ziddiyatli jarayonlardan olib chiqish qudratiga ega bo‘lgan faoliyatdir.

Yosh o‘qituvchilar uchun jonli muloqotni yaratishda quyidagi vazifalarga e’tibor berish talab qilinadi:

– o‘quvchilarning individual xususiyatlarini, psixik holatini chuqur o‘rganish, sinf jamoasining rasmiy va norasmiy liderlari faoliyati bilan tanishish, ularga nisbatan adolatli munosabatda bo‘lish;

– jonli muloqot asosida mustaqil fikrlovchi, o‘zining qadr-qimmatini anglaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga intiluvchi erkin shaxsga ta’lim-tarbiya berishi shartligini unutmaslik;

– jonli muloqotning pirovard natijasi o‘quvchilarni o‘z aqli, o‘z tafakkuri, o‘z mehnati

bilan mas’uliyatni his etishini ta’minlashi, ularni ongli ravishda ozod va hur fikrlovchi inson bo‘lib tarbiyalanishini ta’minlash;

– jonli muloqot tufayli o‘quvchilarning yuksak darajadagi intellektual salohiyatlarini, aql-zakovati qudratini yuzaga chiqarishga erishish.

Pedagogikada jonli muloqotning muhim jihatlaridan biri uning vositalaridir. Vositalar tashkilotchilik qobiliyati, baho beruvchi, intizomga undovchi bo‘lishi mumkin. Ilmiy adabiyotlarda o‘qituvchi o‘z ishining mohir ustasi bo‘lishi uchun tashkilotchilik qobiliyati asosida ta’sir ko‘rsatishga ko‘proq yondashishi lozimligi ta’kidlanadi.

O‘qituvchilarning jonli muloqoti uchta qarama qarshi shakllarga ega bo‘lgan faoliyatlardan birida namoyon bo‘ladi:

• ta’lim-tarbiyaviy faoliyatda o‘qituvchi bilan o‘quvchilarning birgalikda hamkorlik qilishlari;

• o‘qituvchining o‘quvchilarga tazyiq o‘tkazishi va ularning faolligini ro‘yobga chiqarmasligi;

• o‘qituvchining o‘quvchilar bilan o‘zaro muloqotda, nisbatan mo‘tadil munosabatda bo‘lishi va o‘quvchi jamoasi tomonidan hal etilayotgan barcha muammolardan o‘zini chetga olishi.

To‘g‘ri tashkil etilgan pedagogik muloqot davomida o‘qituvchi tanlagan vositalar ta’lim-tarbiya jarayonining vazifa va sharoitlariga muvofiq kelishini o‘lchovchi vosita sifatida tushuniladigan pedagogik nazokat mujassamlanadi. Pedagogik faoliyatda o‘qituvchi jonli muloqot orqali quyidagi funksiyalarni bajaradi:

Birinchidan, ta’lim-tarbiya jarayonining o‘qituvchi tomonidan yakka holda olib borilishi va bu faoliyatga yagona o‘zi javobgarligi.

Ikkinchidan, ta’lim-tarbiya jarayonida bir maqsadga yo‘naltirilgan ijtimoiy-psixologik tizimning bir maromda ta’minlashi.

Uchinchidan, ta’lim va tarbiyaning muvaffaqiyatini belgilovchi o‘qituvchi va o‘quvchilarning o‘zaro munosabatida muayyan bir tizimning tashkil qilinishi.

To‘rtinchidan, o‘quvchilarni mustaqil fikrlovchi erkin shaxs sifatida shakllantirish, yashirin iste’dodini ro‘yobga chiqarishga erishish imkoniyatlaridan foydalanish.

Beshinchidan, barkamol inson tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi sifatida o‘qituvchi pedagogik faoliyatining birlamchi vazifasi ekanligini unutmaslik.

Jonli muloqot jarayonida o‘quvchilarning xulqi ijtimoiy qonuniyatlar maromiga zid kelsa, u holda uning xatti-harakatiga tarbiyaviy ta’sir ko‘rsatiladi, ya’ni, e’tiroz, tanbeh, ogohlantirish kabi vositalar qo‘llaniladi. Jonli muloqot o‘qituvchilarning axloqiy namunalari muhim ahamiyatga ega bo‘lib, axborot almashinuv, o‘zaro ta’sir kabi muloqot vositalarining muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Ta’lim muassasalarida olib borilayotgan pedagogik faoliyatda o‘qituvchi muloqot jarayonida nojo‘ya xatti-harakati, qo‘polligi, o‘ylanmay bildirilgan noto‘g‘ri fikri, ortiqcha imo-ishoralari natijasida o‘quvchilar bilan bo‘ladigan jonli muloqotning buzilishiga, tuzatib bo‘lmas qaltis vaziyatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

O‘qituvchining o‘quvchilar bilan muloqoti samarali bo‘lishi uchun suhbatdoshni o‘ziga moyil qilib olish zarur. O‘zaro moyillikka erishish uchun amalda qo‘llanilib kelinadigan bir qator murakkab bo‘lmagan pedagogik ta’sir etuvchi usullardan foydalaniladi. Bularning eng muhimlari o‘quvchi ishonchini qozonish hamda ta’sir etish va ma’qullash usullaridir.

Ishonchini qozonish usuli nafaqat o‘qituvchi bilan muloqot jarayonida, balki ta’lim-tarbiyaviy faoliyatdan tashqari holatlarda ham o‘quvchiga ta’sir qiladi. O‘quvchi

ishonchini qozonish ijobiy yoki salbiy natijalar paydo qilishi ham mumkin. O‘qituvchi ishontirish bilan o‘quvchida ijobiy xislatlarni uyg‘otishi uchun tarbiyaviy metodlarni o‘z o‘rnida qo‘llashi shart. Tarbiya jarayonida har bir o‘quvchining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olishi zarur. Chunki bir xil yoshdagi o‘quvchilar psixik jihatdan turli xarakterga ega bo‘lishi mumkin. O‘quvchilarning qobiliyat va iqtidorlari, qiziqishlari, irodaviy xislatlari har xil bo‘lgani uchun bir o‘quvchiga nisbatan foydali bo‘lgan ishonchini qozonish usuli, boshqasiga zararli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun har bir o‘quvchining ruhiyatini, psixologiyasini, ichki dunyosini o‘qituvchi muntazam o‘rganib borishi, o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini, tarbiyalanuvchi temperamentining umumiy tiplarini o‘rganish metodikasini bilish lozim. Masalan, ko‘rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglashi, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg‘ayrat yoki g‘ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yoki ishga tez kirishib ketishi kabilar nerv faoliyati tizimiga bog‘liq bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilar ishonchini qozonishi uchun ularni bilishi va zarur bo‘lgan xulosalarni ishlab chiqishi shart.

O‘quvchilar ishonchini qozonishning yana bir muhim xususiyati o‘quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishida o‘z-o‘zini tarbiyalashidir. O‘z-o‘zini tarbiyalash o‘quvchining o‘zini-o‘zi idora qilishi, o‘zida erkinlikni, ijtimoiy mavqeini, tashabbuskorlik va mustaqillikni shakllantirishdir. O‘quvchining yashirin qobiliyatlari o‘z-o‘ziga ishonch orqali yuzaga chiqadi. O‘quvchi uchun o‘z-o‘zini baholash qiyin jarayon. O‘quvchi ta’lim-tarbiya berayotgan o‘qituvchilarga ishonch bilan ergashib, o‘ziga nisbatan ishonch ruhida tarbiyalanar ekan, unda avvalo, mustahkam iroda shakllanadi, o‘z burchini to‘g‘ri tushunadi, bilish va o‘rganishga qiziqishi kuchayadi, o‘z-o‘zini har tomonlama takomillashtirishga intiladi, o‘ziga atrof-muhitdagi o‘rtoqlari ko‘zi bilan xolisona baho beradi, o‘ziga ishonadi va unda qoniqish hissi paydo bo‘ladi. Xarakteridagi salbiy odatlarni, zararli sifatlarni tez anglab, ularni yo‘qotish va bartaraf etishga intiladi.

Ta’sir etish va ma’qullash usuli muloqotning umumiy jarayonidir. Ikki suhbatdoshning bir-birlariga ta’sir ko‘rsatishlari, tarbiyaviy maqsadni ma’qullattirish vositasi sifatida o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ushbu usul vositasida o‘qituvchi o‘quvchi ruhiyatiga va xulq-atvoriga tarbiyaviy maqsadni ko‘zlab sezilarsiz ravishda psixologik ta’sir ko‘rsatadi. O‘quvchi psixikasida nazoratsiz kiradi. Ushbu usul, muloqot jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarda axloqiy-irodaviy xislatlarni faol takomillashtiradi. O‘qituvchi xushmuomalaligi, muosharat odobining cheksiz qudrati bilan o‘quvchilar psixikasining anglanmagan qirralariga pedagogik ta’sir etadi, o‘qituvchi va o‘quvchining yaqindan muloqotda bo‘lishini, bir-birlariga ishonchini, topshiriqlarni ma’qullab vaqtida bajarish uchun javobgarlik hissini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxadjayeva N. Pedagogik texnologiya. – T., 2001.
2. Saidaxmedov N Q. Yangi pedagogik texnologiya. – T., 2008.
3. Ochilova M., Ochilova N. Oliy pedagogika. – T., 2008.
4. Ibragimov X. Pedagogika. – T., 2008.

Sherzod SINDOROV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, ‘‘Pedagogika nazariyasi va tarixi’’ mutaxassisligi 2 bosqich magistri

TARBIYADA XALQ PEDAGOGIKASINING DIDAKTIK IMKONIYATLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Xalq pedagogikasi farzand tarbiyasi borasida nodir va bebaho manbaa hisoblanadi. Shu maqsadda xalq pedagogikasini ilmiy o‘rganish, chuqur tahlil qilish hamda uni xalqchil tillarda keng omma iste’moliga moslashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Kalit so‘zlar. Meros, didaktika, hadis, e’tiqod, axloq, qadriyatlar, udumshunoslik, ta’limot, xarakter, falsafiy dunyoqarash, donishmandlik, estetika, yetuklik, an’ana, komillik.

Народная педагогика – редкий и бесценный источник воспитания детей. В связи с этим одной из самых актуальных проблем сегодня является научное изучение народной педагогики, ее углубленный анализ и ее адаптация для широкой публики на просторечии.

Ключевые слова. Воспитание, наследие, дидактика, хадис, вера, этика, ценности, традиция, доктрина, характер, философское мировоззрение, мудрость, эстетика, зрелость, традиция, совершенство.

Folk pedagogy is a rare and invaluable source of raising children. In this regard, one of the most pressing problems today is the scientific study of folk pedagogy, its in-depth analysis and its adaptation for the general public in vernacular. Indeed, the experience of our ancestors has found practical confirmation for many centuries.

Key words. Education, heritage, didactics, hadith, faith, ethics, values, tradition, doctrine, character, philosophical outlook, wisdom, aesthetics, maturity, tradition, perfectio.

Xalqning pedagogik qarashlari uzoq asrlar davomida shakllangan va ular asosan xalq og‘zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlarda va Qur’oni Karim hamda Payg‘ambarimizning hadislarida o‘z ifodasini topgan. Xalq pedagogikasining hozirgacha yashovchanligi asosan, og‘zaki tarzda bo‘lib, har bir avlod unga o‘z tajribasini, qarashlarini, fazilatlarini qo‘shgan holda bizgacha yetib kelgan.

Xalq pedagogikasida tarbiyaning birlamchi, ikkilamchisi bo‘lmaydi. Hamma narsa hisobga olinishi, hech bir soha chekkada qolmasligi, ayni chog‘da tarbiyaning nihoyatda nozik, injiq, murakkab tomonlari e’tiborga olingan holda yetti o‘lchab bir kesishga amal qilinadi. Shuningdek, xalq tarbiyasida kecha, bugun va ertani o‘ylab ish tutiladi, ya’ni tarbiyani o‘tmishni unutmaslik, bugunning qadriga yetishlik, kelajakka umid asnosida olib boriladi. Unda hayot, tabiat va jamiyatdagi har bir voqea-hodisa, predmet, ko‘rinish qisqasi jonli jonsiz neki bor undan mukammal foydalanadi.

Xalq donishmandligi va odobnomasining bu nodir sohasi ijtimoiy va maishiy-axloqiy hayotning barcha tomonlarini, xalq og‘zaki ijodi, qadrshunosligi, udumshunosligi va marosimshunosligining yetakchi yo‘nalishlarini, diniy-axloqiy ta’limotni qamrab olishi bilan xarakterlanadi. U xalqimizning asrlar davomida to‘plagan boy tajribalarini, ijtimoiy-siyosiy, axloqiy, falsafiy, ma’rifiy, estetik, ma’naviy hamda jismoniy yetuklik borasidagi qarashlarini, tajriba-xulosalarini lo‘nda, ammo bag‘oyat teran; donishmandnamo tarzda ifodalaydi. “O‘zbek xalq pedagogikasi” dono xalqimizning ta’lim-tarbiya, axloq, odob, inson qadriyatlari va uning ma’naviy ustuvorligi, iymon-e’tiqodi butunligi sohasidagi dunyo-

qarashi, amaliy faoliyati, usul-metodlari, an'analari tabarruk islomning odob-axloq, ilm-u fan haqidagi ta'limotiga bog'liq holda, muqaddas Qur'oni Karim va Payg'ambarimiz Muhammad rasulullohning muborak hadisi shariflariga suyanadi. Xalq pedagogikasida allohning ilohiy mo'jizasi – hayot sarvari insonning ona qornida paydo bo'lishidan tortib, to tug'ilganiga qadar, ilk tarbiyasidan tortib, to voyaga yetguncha hamda oila qurgunga qadar, yoshini yashab to omonatni topshirgungacha bo'lgan axloqiy, aqliy, estetik mehnat, ekologik tarbiyasi, shuningdek, jismoniy chiniqish bilan bog'liq o'yinlar, xalq pedagogik an'analarining hozirgi zamon yosh avlod ta'lim-tarbiyasida tutgan o'rni hamda ahamiyati aks etadi. Shu bilan birga o'zbek an'anaviy, ommaviy bayram-sayllari, rasm-rusmlari, odatlari va udumlarida aks etgan axloqiy qarashlar, ularning o'ziga xos odobnomasi, ibratnomasi kabi bag'oyat dolzarb mavzularni o'z ichiga oladi.

Xalq pedagogikasi xalq ommasi orasida hukmronlik qiluvchi tarbiyaning maqsadi va vazifalariga bo'lgan qarashlarni ifodalovchi amaliy pedagogik bilimlar va tajribasi sohasidir. O'zbek milliy maktabini yaratishda ta'lim-tarbiya ishiga xalq pedagogikasini joriy etish masalasi asosiy muammolardan biridir. Shunday ekan, xalq pedagogikasining zamonaviy maktab oldidagi maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda ularni mumkin qadar to'laroq amalga oshirishdagi imkoniyatlarini aniqlash juda muhimdir.[1] Yoki, xalq pedagogikasining o'quvchilarni tarbiyalashdagi va ularga ta'lim berishdagi imkoniyatlarini qay darajada ekanligini bilish lozim.

Xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari deganda, xalq tarbiya tajribasidan joy olgan empirik pedagogik bilimlar, ma'lumotlar, malakalar va ko'nikmalarning zamonaviy maktab va oila tarbiyaviy sistemasida bolalar va o'quvchi-yoshlarni tarbiyalash maqsad va vazifalarini hal etish uchun zarurligi (qulay shart-sharoit yaratishi) tushuniladi. Masalan, xalq maqollarining tarbiyaviy imkoniyatlari maktabda tarbiyaning asosiy maqsadidan kelib chiqadi. Tarbiyaning asosiy maqsadi – har tomonlama yetuk insonni(shaxsni) shakllantirish. Uning tarkibiy qismlari esa rivojlanayotgan va shakllanib kelayotgan shaxsning aqliy, jismoniy, axloqiy mehnat va nafosat tarbiyalaridir. Jumladan, xalq maqollaridan aqliy tarbiyaga oid, jismoniy tarbiyaga xos, axloqiy, mehnat va nafosat tarbiyalariga taalluqli o'nlab namunalarni tanlab olish mumkin. Ular esa o'qitishda, sinfdan tashqari, tarbiyaviy faoliyatda va maktabdan tashqari tarbiya ishida yuqorida keltirilgan shaxsni shakllantirishning o'zaro bog'liq bo'lgan barcha yo'nalishlarini amalga oshirish uchun lozim bo'lgan tadbirlarda keng qo'llanilishi mumkin.

Xalq pedagogikasinnig manbalari ma'lum tarbiyaviy imkoniyatlarga ega bo'lib, ular eng avvalo, maktabning (yoki oilaning) oldida turgan maqsad va vazifalaridan, so'ngra esa aniq pedagogik jarayonda hal etiladigan masalalaridan kelib chiqadi. Xususan, o'quv jarayonida yoki sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarda xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlariga murojaat etish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarda, aniqrog'i 3-sinfda o'zbek xalq maqollari o'rganiladi. Mazkur sinf uchun "O'qish" darslaridan birida "O'zbek xalq maqollari" mavzusi bor. Dars jarayonida foydalanish uchun xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlari aniqlanadi. O'qituvchi xalq tarbiya an'analari imkoniyatlarini aniqlashda darsning maqsadlariga e'tibor beradi. Ya'ni "O'zbek xalq maqollari" mavzusidagi darsning quyidagi maqsad va vazifalarini ajratib ko'rsatish mumkin: xalq og'zaki ijodi namunalari bilan tanishtirish, maqollarni o'rgatish va ular haqida tasavvur hosil qilish; maqollarning mazmunidan foydalanib, o'quvchilarni mehnatsevarlikka, kamtar va odobli bo'lishga, o'zidan kattalarni hurmat qilishga undash; xalq og'zaki ijodi namunalarini to'plash va ularni asrashga chaqirish. Keltirilgan maqsad va vazifalarni hal etishga

[1]Z.Mirtursunov "O'zbek xalq pedagogikasi" -T., Fan, 1973.

imkon beruvchi o‘zbek xalq maqollari tanlab olinadi va bular xalq pedagogikasining tarbiyaviy imkoniyatlarini tashkil etadi.

Xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari deganda xalq ommasining yoshlarga bilimlar va amaliy ko‘nikmalar berish, ularni ijodiy ishlash uslublari bilan qurollantirish, dunyoqarashlarini o‘stirish va axloqiy nafosat g‘oyalarini egallashlarida qo‘llab kelgan empirik pedagogik tajribasini zamonaviy milliy maktabda o‘qitish jarayonida qo‘llash uchun qulayligi tushuniladi. Masalan, milliy amaliy san’atga o‘rgatishning xalq orasida tarkib topgan uslubiyotini xalq pedagogikasining didaktik imkoniyatlari doirasiga kiritish mumkin. Xususan, ganch va yog‘och o‘ymakorligi, zardo‘zlik, musiqa asboblari yasash, kulolchilik va boshqa o‘nlab amaliy san’at turlarini egallashning xalq ustalari va chevarlari tomonidan tajribada yaratilgan o‘z usullari, uslub va vositalari mavjud. Ulardan milliy maktabdagi mehnat ta’limi darslarida yoki to‘garak mashg‘ulotlarida o‘quvchilarga bilimlar va amaliy ko‘nikmalar berishda foydalanish mumkin. Xalq doimo bolalarda to‘g‘ri xulq-atvorni tarbiyalash to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilgan va tarbiyalash usullarini o‘zi o‘ylab topgan. Odatda, xalqning dono fikrlarini esda saqlab qoluvchi, avloddan-avlodga o‘tkazuvchilar – keksalar bo‘lgan. Qariyalar kishilarning turmush tajribalaridan bahramand bo‘lib, donolik darajasiga ko‘tarilgan, xalq orasidan chiqqan “pedagoglar”dir. Ular yosh avlodga va yosh ota-onalarga o‘z nasihatlari va maslahatlari bilan ta’sir ko‘rsatganlar. Xalqning yuksak orzulari, maqsadlari, e’tiqod, fikrlarini o‘zlarida aks ettirishgan. Shunday qilib, tarbiyachi-enagalar xalq orasida eng yaxshi pedagoglar vazifasini o‘tagan.

Masalan, yozuvchi Sadriddin Ayniy o‘zining bolalikdagi tarbiyachi-enagasi To‘ti poshshani hikoyachilikdagi birinchi ustozi deb hisoblaydi. Abay Qo‘nonboyev enagasi Zeroni, Hamza o‘z onasi Oyshani, Po‘lkan baxshi tarbiyachi otaxoni Jassoq baxshini, L.N.Tolstoy enagasi Tatyana Filippovnani, Hamid Olimjon buvisini zo‘r ehtirom bilan eslashadi va ularning mashhur bo‘lib, elga tanilishlarida ular ko‘rsatgan ta’sirni, xizmatni bot-bot e’tirof etishadi. Xalq og‘zaki ijodining jozibadorligi bolalar e’tiborini o‘ziga shunday jalb etadiki, ular hatto o‘z o‘yinlarini ham unutadilar.

Xulosa tariqasida shuni aytish kerakki, o‘quv muassasalarida xalq pedagogikasidan foydalanish uchun uning tarbiyaviy va didaktik imkoniyatlarini bilish zarurligini aytish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ziyomuhamedov B., Abdullayeva Sh. “Pedagogika”–T., 2000.
2. Mirtursunov Z.“O‘zbek xalq pedagogikasi” –T.: Fan, 1973.
3. Volkov G.N., Baubekova G. D. “Etnopedagogika” –T.: Fan, 2000.
4. Sattorov M. “O‘zbek udumlari” –T.: Fan, 1998.
5. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. –T.: O‘qituvchi, 1996.
6. “Hikmatlarga to‘la bu dunyo” –T.: O‘qituvchi, 1997.

Laziz TURAQULOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti,
“Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

MEHRIBONLIK UYLARI TARBIYALANUVCHILARINING IJTIMOIYLASHUVINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqola mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoyilashuvi masalalariga qaratilgan. Muallif mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilarining ijtimoyilashuvining o‘ziga xos psixologik xususiyatlari bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Mehribonlik uylari, ijtimoiylashuv, psixologiya, ma’naviyat, intellektual rivojlanish, muloqot, ehtiyoj.

В статье рассматриваются вопросы социализации воспитанников детских домов. Автор изложил свои взгляды и комментарии на специфические психологические особенности социализации воспитанников детских домов.

Ключевые слова. Детские дома, социализация, психология, духовность, индивидуальное развитие, общение, потребность.

The article deals with the issues of socialization of children in orphanages. The author presented his views and comments on the specific psychological features of the socialization of children in orphanages.

Key words. Orphanages, socialization, psychology, spirituality, individual development, communication, need.

Bolani hissiy jihatdan qulay his qilishi uchun uning hayoti, jismoniy salomatligi, atrofidagi odamlar bilan muloqoti xususiyati va shaxsiy muvaffaqiyatlarini belgilaydigan maxsus sharoitlar zarur. Bolalar uylari va maktab-internatlarda yashadigan bolalar, odatda, anamnezida qiyin ko‘rsatkichlarga ega. Ular jismoniy va aqliy rivojlanishida nogironliklarga ega bo‘lishi mumkin. Ko‘pincha, aqliy zaiflik, shaxsiyat rivojlanishining buzilishi (emotsional sohadan hayot nuqtayi nazariga), jinsni identifikatsiyalashning buzilishi va h.k.

Bolaning yetarli darajada intellektual rivojlanishi zaiflashib yoki shakllanmagan, rivojlanmagan bilim jarayonlari, diqqatning beqarorligi, zaif xotira, kam rivojlangan fikrlash (vizual-majoziy, mavhum-mantiqiy, og‘zaki va boshqalar), past eruditsiya va boshqalardan iborat bo‘lishi mumkin. Intellektual rivojlanishning pastligi sabablari boshqacha bo‘lishi mumkin: miyaning normal faoliyatini buzilishidan tortib, normal ta’lim va tarbiya muhitining yo‘qligiga (pedagogik e’tiborsizlik).

Bolaning intellektual rivojlanishiga yetarlicha e’tibor berilmasa, ta’limning jiddiy nogironligi va aqliy qoloqlik tashxisi qo‘yilgan umumiy ta’lim maktabida o‘qishni davom ettirish mumkin emas. Va bu, o‘z navbatida, boshqalar bilan va butun dunyo bilan o‘zaro aloqada jiddiy to‘siq bo‘ladi.

Ijtimoiylashuv – bu shaxs tomonidan muloqot va faoliyatda amalga oshiriladigan ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish va faol qayta ishlab chiqarish jarayoni va natijasidir. Ijtimoiylashuv natijasida odam o‘zini tutadigan stereotiplarni, o‘zi yashaydigan muhit normalari va qadriyat yo‘nalishlarini o‘rganadi.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bilan ishlaydigan turli xil tuzilmalar va organlar: bolalar uylari, mehribonlik uylari, axloq tuzatish maktab-internatlari o‘rtasida o‘zaro aloqalar tizimini yaratishga urinishlariga qaramay, o‘zlarini qiyin hayotiy vaziyatga tushib qolgan bolalar va o‘spirinlar uchun ijtimoiy sharoitlar yaratilishi lozim.

Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni ijtimoiylashuviga to‘sqinlik qiladigan yoki to‘sqinlik qiladigan bir nechta muammolar mavjud:

1. Mehribonlik uylarida malakali mutaxassislarning yetishmasligi. Afsuski, bizning mamlakatimizda “bolalar uyi o‘qituvchisi” ixtisosligi yo‘qligi va ushbu turdagi bolalar muassasalarida ishlash uchun o‘qituvchilarni tayyorlaydigan muassasalar mavjud emasligini ta’kidlash kerak. Shu sababli, ko‘plab o‘qituvchilar ushbu mehnat sharoitlariga psixologik jihatdan tayyor emaslar va ko‘pincha tark etishadi. Bolalar atrofidagi kattalar doimiy ravishda o‘zgarib turadigan vaqtinchalik ishchilar ekanligiga odatlanib qolishga majbur bo‘lmoqdalar, bu esa bolaning rivojlanishi va ijtimoiylashuviga salbiy ta’sir ko‘rsatadigan omil.

2. Hissiy va shaxsiy deformatsiyalar. Bolaning umumiy rivojlanishiga onalik, kommunikativ, hissiy va hissiy mahrumlik bilan kuchaytirilgan ijtimoiy vaziyatning halokatli ta’siri, maktab-internatlar tarbiyalanuvchilarining ijtimoiy buzilishining muhim sabablaridan biridir. Hayoti oiladan tashqarida sodir bo‘lgan bolaning o‘ziga xos ijtimoiy-psixologik ko‘rinishi cheklangan ijtimoiy ta’sirlarning rivojlanishning noqulay biologik omili bilan birlashishi bilan bog‘liq. Mehribonlik uyidagi ma’lum bir bolaga nisbatan emotsional yuzaki munosabat uslubi bilan haqiqatan ham mavjud bo‘lgan keng muloqot doirasi hissiy iliqlikni yo‘q qila olmaydi. Muloqotning keng doirasi bilan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalarda katta qiyinchiliklar bilan yetarli xulq-atvor stereotiplari ishlab chiqilgan. Erta bolalik davrida bolaga g‘amxo‘rlik qilishga, keyinroq uni boshqarishga yo‘naltirilgan bir necha kattalarning g‘amxo‘rligi, tengdoshlari bilan ko‘plab aloqalar, bola ruhiyatini haddan tashqari yuklash va charchash, shaxsni shakllantirish va uning og‘riqsiz ijtimoiy moslashuvi uchun ijobiy ahamiyatga ega emas.

3. Mehribonlik uylarining “yopiq” maydoni. Bolalar muassasalarining sun’iy ravishda gullab-yashnayotgan sharoitida uzoq vaqt davomida davlat tomonidan to‘liq qo‘llab-quvvatlanishi sababli yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar ijtimoiylashuv qurbonlari. Bolalar uyi tarbiyalanuvchilari monotonlik va xatti-harakatlar uslublarini birlashtirishi bilan ajralib turadi, bu esa o‘ziga xos ijtimoiy vaziyatlarda ijtimoiylashuvning yetarli darajada rivojlanishiga olib keladi. Muassasa ijtimoiy makonining o‘ziga xos yaqinligi, yetim bolalarning cheklangan ijtimoiy aloqalari, ular o‘zlashtirgan ijtimoiy me’yorlar va ijtimoiy tajribani amalga oshirish sohasi, yagona ijtimoiy o‘rni mavqei – yetim bola pozitsiyasining shakllanishi, kelajakda bitiruvchilar – yetim bolalar o‘z hayotlarini qadrlamasliklari, ijtimoiy va jinoiy turmush tarzini olib borishlari yoki aksincha, birinchi navbatda, har xil turdagi jinoyatlar qurboniga aylanishlari bilan namoyon bo‘ladi.

4. Shaxslararo munosabatlar. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar tarbiyachilar, o‘qituvchilar, tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatlarni o‘rnatishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar, bu esa munosabatlarni “yomon” va “ancha yomon” deb tavsiflashda aks etadi. Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarga tez-tez familiyasi bilan murojaat qilishadi va ism-familiya bilan birgalikda ishlatishadi yoki murojaat uchun sabab buyruq, qoralash va sevgini namoyon etish maqsadida kamdan-kam qo‘llaniladi, buning natijasida bola o‘z ismiga salbiy munosabatda bo‘ladi. Ehtimol, shuning uchun ham mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari tez-tez muloqotda taxallus va taxalluslardan foydalanishadi va dunyo “biz” (bolalar uyi) va “begonalar” (oilalarda yashaydigan), “biz”

(bolalarning bir xil psixologik hodisasi bolalar uyi) va “ular”. Har qanday insonga xos bo‘lgan muhabbat, e’tirof va hurmatga bo‘lgan ehtiyoj bolalar uyi tarbiyalanuvchisidan xafa bo‘lib, ko‘pincha jismoniy kuch, tajovuzkorlik, xatti-harakatlarning boshqa ijtimoiy shakllari orqali amalga oshiriladi, shuning uchun bolalar uyidagi bolalar “begonalar” bilan “maxsus” munosabatlar hech qanday “yaxshi” narsani kutmang va ko‘pincha ular hech bo‘lmaganda foyda olishga intilishadi.

5. Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga salbiy munosabat. Ushbu muammo oldingisiga qarama-qarshi. Bolalar uyidagi ijtimoiylashuvning yana bir natijasi – bu yetimxonalar tarbiyalanuvchilariga nisbatan salbiy munosabatdir, bu sotsiologlar va ijtimoiy ishchilar tomonidan etiketkalash sifatida qabul qilinadi, jamiyatda insonni idrok etish uning tarbiyasi va tarbiya prizmasidan kelib chiqadi. Bundan tashqari, bola bunday munosabatni nafaqat mehribonlik uyidan chiqib ketgandan keyin qabul qiladi, balki u shunday muhitda o‘sadi va tarbiyalanadi.

6. Mehribonlik uyidagi bolalar uchun kasb-hunarga yo‘naltirish. Ijtimoiylashuvning yana bir muhim jihati – yetim o‘spirin yoki ota-ona qaramog‘isiz qolgan kishining kasbga yo‘naltirilganligi va uning kasb va ish tanlashga tayyorligi.

Mehribonlik uylari va maktab-internatlar bitiruvchilarining muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi, ularning jamiyat bilan birlashishini ta’minlash uchun hali ko‘p ishlar qilinishi kerak, masalan, me’yoriy-huquqiy bazan uyg‘unlashtirish, ushbu toifada ishlash uchun kasbiy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘yish va o‘zaro aloqalarni o‘rnatish.

Xulosa qilib aytganda, kasb-hunarga yo‘naltirish uchun muayyan o‘quvchini kasbga yo‘naltirish imkoniyatlarini aniqroq o‘rganish va shu bilan unga o‘z taqdirini belgilashda yordam berish uchun bolalarni parvarish qilish muassasalari va ularning kasbiy tuzilmasi o‘rtasida yaqin aloqa bo‘lishi kerak. Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar, shuningdek, maktab-internat bitiruvchilari yo‘nalishi bo‘yicha davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish uchun asos bu hodisa sabablarini – yetimlikni bartaraf etish bo‘yicha ishlarga asoslangan bo‘lishi va homiylik ostidagi oila institutini rivojlantirish va bolalarni ijtimoiylashtirish mexanizmlari tizimi – yetim bolalar va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar, bu internat muassasalari darajasida ushbu toifadagi ijtimoyilashuv dasturlarini yaratishda aks etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арамов И.А. Изучение ребенка в детском доме. // Детский дом, 2005, № 1.

2. Байбородова Л.В. Преодоление трудностей социализации детей-сирот. – Ярославль, 1997.

3. Божович Л.И. Проблемы формирования личности. // Под ред. Д.И. Фельдшейна. 2-е изд. М.: Воронеж, 1997.

4. Гербеев Ю.В. Воспитательная работа в учреждениях интернатного типа. М.: НИИ школ, 2004.

5. Детский дом и борьба с беспризорностью. // Под ред. С.С. Тизанова и др. М. Госиздат, 2005, № 3.

6. Раннее социальное сиротство: Учебно-метод. пособие (медико-социально-психологические проблемы). – М., 2005.

Gulnora XOLBOYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, dotsent,
"Boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedra mudiri p.f.n.,

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING MUTOLAA MADANIYATI ORQALI INTELLEKTUAL SALOHIYATINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mutolaa madaniyati orqali intellektual salohiyatini takomillashtirishda asosan maktab yoshidagi kichik bolalar kitobxonligi, o'rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi bo'yicha kerakli tavsiyalar berish orqali talabalarning ma'naviy olamini boyitish, kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish hamda kitob mutolaasi bo'yicha metodik tavsiyalarga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar. Oliy ta'lim, kitob, mutolaa, o'qituvchi, talaba, o'quvchi, vazifalar, madaniyat, ta'lim-tarbiya, kitob o'qish, tinglash, hikoya qilish, ifodali o'qish, metodika.

Данная статья посвящена повышению интеллектуального потенциала будущих учителей начальных классов через культуру чтения, обогащению духовного мира учащихся путем пропаганды культуры чтения, а также методическим рекомендациям по чтению, предоставля необходимые рекомендации для раннего детства, чтение, среднее и взрослое чтение.

Ключевые слова. Высшее образование, книга, чтение, учитель, студент, студент, задания, культура, образование, чтение книг, аудирование, рассказывание историй, выразительное чтение, методика.

This article focuses on improving the intellectual potential of future primary school teachers through the culture of reading, enriching the spiritual world of students by promoting the culture of reading, as well as methodological recommendations for reading, by providing the necessary recommendations for early childhood reading, middle and adult reading.

Key words. Higher education, book, reading, teacher, student, student, tasks, culture, education, reading, listening, storytelling, expressive reading, methodology.

Bugungi kunda mutolaaga qiziqish susayishi, o'z navbatida, aholi savodxonligi darajasi pasayishi jamiyat va davlatning barqaror rivojlanishi uchun katta tahdidlardan sanaladi. Shuning uchun ham ko'plab rivojlangan mamlakatlarda bu salbiy holatning oldini olishga qarshi qat'iy chora-tadbirlar ko'rilmoqda. Umummilliy kompleks dasturlar ishlab chiqilmoqda. Ularda davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlari, kutubxonalar, ta'lim muassasalari, ta'lim, ilm-fan va tadbirkorlik subyektlari, sohadagi fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari say-harakatlarini birlashtirish bo'yicha tizimli chora-tadbirlarni ko'rish ko'zda tutiladi. Bunda kitobxonlikning qadri va ahamiyati haqida ijtimoiy ongni shakllantirish, aholi turli qatlami o'rtasida mutolaa madaniyatini manzilli qo'llab-quvvatlash hamda rivojlantirish, noshirlik faoliyatini takomillashtirish, jamiyatning intellektual, ma'naviy va madaniy ehtiyojlariga to'liq javob beradigan kitob bozorini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Dunyo tajribasiga ko'ra, bunday maqsadli dasturlar hamda konsepsiyalar qabul qilinishi ijobiy natija bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmonida ham “Oliy ta’limni mazmun jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish” – deb alohida ta’kidlangan.

“Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasida “Yoshlarni ilm-fan va ilmiy faoliyatga jalb etish” – deb nomlanishi kitobxonlikka bo‘lgan e’tibordir. Undan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-oktabrda qabul qilingan qarordan kelib chiqib, 2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturini ishlab chiqilishi ham bu mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Respublikamizda kitobxonlikni rivojlantirish bo‘yicha qator muammolarni kompleks hal qilishga e’tibor qaratilishining o‘zi bugungi kunning dolzarb vazifalardan biri ekanligi bilan ahamiyatlidir. Hozirgi kunda kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonda kitobxonlikni ommalashtirish, unga bolalar va yoshlarni kitobga oshno qilish, respublikamiz kutubxonalarida mutolaani rag‘batlantirish, kitobxonlik va kitob savdosini rivojlantirish, soha uchun kadrlar tayyorlash hamda malakasini oshirish tizimini takomillashtirish, kitob o‘qish holatini monitoring qilish bo‘yicha alohida vazifalar berilmoqda.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash milliy dasturida ta’kidlanganidek, “aholi, avvalo, yoshlarning ma’naviy-ma’rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko‘maklashish, bolalarga mo‘ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo‘llab-quvvatlash” kabi masalalar aytib o‘tilgan. Bolalar yozuvchilarining eng yaxshi kitoblari yosh avlodni tabiatni sevishga, halol yashashga, ilm-fan cho‘qqilarini egallashga, xalq uchun foydali yangi kashfiyotlar qilishga o‘rgatadi. Kitob xalqimizning o‘tmishi, ilg‘or madaniyatimiz, fan va texnikamiz yutuqlari bilan tanishtiradi, faxr tuyg‘ularini o‘stiradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mutolaa madaniyati va intellektual salohiyatini takomillashtirishda asosiy e’tibor o‘rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligi ustida ishlashni taqozo etadi. O‘rta va katta yoshdagi bolalar kitobxonligini takomillashtirish uchun quyidagi tavsiyalar orqali amalga oshirilsa, kitobxonlik, mutolaa madaniyati bo‘yicha intellektual salohiyatni yanada oshishiga erishiladi.

1. Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda ijodkorlar, noshirlar va kitob tarqatuvchilar bilan doimiy hamkorlik ishlarini yo‘lga qo‘yish.

2. Talabalar o‘rtasida kitobxonlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash tizimini izchil va samarali tashkil etish.

3. Talabalar o‘rtasida faol kitobxonlar safini kengaytirish uchun haftaning bir kunini ARM bilan hamkorlikda ishlashni yo‘lga qo‘yish.

4. Talabalarning intellektual salohiyatini oshirishda kitobxonlikni rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlashning tarmoqlararo ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish.

5. Doimiy ravishda kitobxonlik, mutolaa madaniyatini rivojlantirish uchun kutubxonalar, axborot-resurs markazlari, kitob do‘konlarga sayohatlar uyushtirish, seminar-treninglar, mahorat darslarini tashkil etish.

6. Yangi chop etilgan kitob mahsulotlarini muntazam ravishda tarqatish tizimini yo‘lga qo‘yish, hamda yangi asarlarni targ‘ib qilishda reklama ommaviy axborot vositalari: televideniye, radio, jurnal va hokazolardan unumli foydalanish.

7. Oliy ta’lim muassasalarida noshirlik, matbaa, axborot-kutubxona, kitob savdosi tashkilotlarining samarali faoliyati yo‘lga qo‘yish va kitobxonlar uchun qulay sharoitlarni ta’minlash hamda ularga imtiyoz, rag‘batlar berishning iqtisodiy asoslarini ishlab chiqish va tatbiq etish.

8. ARM bilan hamkorlikda ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan kitoblarni, ayniqsa, bolalar adabiyoti, Brayl alifbosiga asoslangan adabiyotlar chop etilishi, elektron va audio kitoblar turlarini ko‘paytirishni yo‘lga qo‘yish.

9. Kitobxonlik madaniyatini qo‘llab-quvvatlashda xorijiy tashkilotlar tajribasini o‘rganish va milliy qadriyatlarimiz uyg‘unligini saqlagan holda amaliyotga tatbiq etish mexanizmini yo‘lga qo‘yish va h.k.

Oliy ta’lim tizimida eng asosiy va muhim ahamiyat kasb etuvchi funksiyalardan biri – pedagog kadrlarning dars o‘tish jarayonida kitob bilan ishlash bo‘lib, bu esa talabaning kitobxonlik madaniyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday ekan, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kitob mutolaasiga metodik tayyorgarligini takomillashtirishda dars jarayonida o‘qituvchi kitob bilan ishlashda yuqorida keltirilgan vazifalardan unumli foydalansa, dars samaradorligining ortishi, talabalar o‘zlashtirish darajasini oshishiga, esda saqlab qolishi va darslarning qiziqarli bo‘lishini ta’minlash orqali talabalarning kitobxonlik madaniyatiga bo‘lgan ehtiyojlarini qondiriladi, fanlarni puxta o‘zlashtirishlariga erishiladi hamda boshqa masalalar bo‘yicha nazariy, metodik va amaliy tajribalarga ega bo‘lishlarini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-oktabrda qabul qilingan “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli Qonunning 2-moddasi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 2-martdagi PF-5953-son Farmoni.

4. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fan va ilmiy faoliyat to‘g‘risida”gi O‘RQ-576-sonli qonuni // O‘zbekiston Respublikasi qonuni hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi / 30.10.2019-y, 03/19/576//3970-son.

Rohila ATAMURODOVA,
Pedagogika fanlari nomzodi, Jizzax davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchisi

TA’LIM JARAYONIDA O‘QUVCHILARNING TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH
(Adabiyot darslari misolida)

Annotatsiya

Maqolada adabiyot darslarida badiiy asar orqali o‘quvchilarning tafakkurini va insoniy tuyg‘ularni shakllashtirish va takomillashtirish yo‘llari xususida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Adabiyot, tafakkur, insoniy tuyg‘ular, ijobiy fazilatlar, ta’lim, tarbiya, badiiy asar, o‘quvchi, yozuvchi, shoir.

В этой статье обсуждаются способы формирования и улучшения мышления и человеческих чувств учащихся с помощью рисования на уроках литературы.

Ключевые слова. Литература, мышление, человеческие чувства, положительные качества, образование, воспитание, художественное произведение, читатель, писатель, поэт.

This article discusses ways to shape and improve students’ thinking and human feelings through art in literature lessons.

Key words. Literature, thinking, human feelings, positive qualities, education, upbringing, work of art, reader, writer, poet.

Ta’lim-tarbiya jarayonining har bosqichida o‘quvchilarda insoniy tuyg‘ularni shakllashtirish va takomillashtirish, estetik taraqqiyotini oqilona boshqarish nafaqat ularning badiiy asarlarni o‘zlashtirish xususiyatlarini bilishni, balki har bir o‘quvchining bu boradagi individual anglash, tafakkur qilish, his qilish, hukm-xulosa chiqarish xususiyatlarini hisobga olishni ham talab qiladi.

O‘quvchilarning har narsaga qiziqadigan, har narsaning mohiyatini bilishga bo‘lgan tabiiy intilishlaridan foydalanib, ta’lim-tarbiya sifati va samaradorligini ta’minlashga, ularda yuksak insoniy tuyg‘ular va ijobiy fazilatlarni shakllantirishga erishish mumkin. Zotan, millatimiz va davlatimiz kelajagini yaratuvchi yoshlar shu millat vakili sifatida shakllanadilar. O‘quvchilarda yuksak insoniy tuyg‘ularning shakllanganlik darajasi ularning tafakkuri, tasavvuri, nutqi, his-tuyg‘ulari, irodasi orqali belgilanadi va o‘rganiladi.

Tafakkur orqali o‘quvchilar badiiy asar haqida fikr yuritadilar. Buning uchun o‘qiyotganlarini tasavvur qilib, xayolan ko‘z oldiga keltiradilar: asar qahramonlari ham, ro‘y berayotgan voqea-hodisalar ham to‘qnashuvlar personajlar ham ilg‘ab olinganicha tasavvur qilinadi. O‘z tasavvuriga tayanib fikrlagan o‘quvchi mulohazalarini nutqi orqali bayon qiladi, his-tuyg‘ularining ko‘lami ham nutqidan seziladi. Demak, tasavvur ham, tafakkur ham boshqa psixologik jarayonlar bilan tabiiy ravishda aloqador. Insonning har qanday fikri, tuyg‘usi, harakatida tasavvur mavjud. O‘quvchi adabiy qahramonni o‘zicha tasavvur qiladi, unga bo‘lgan munosabati shakllanadi. O‘zgalarning tuyg‘ularini qo‘l bilan ushlab, ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi. Ularni o‘z qalbida tuyish, his qilib, tasavvur orqali anglash kerak bo‘ladi. O‘quvchi bu jarayonni o‘z intellektual imkoniyatlari doirasida kechiradi. Adabiy ta’limda o‘quvchilarning ayni shu holatlariga emotsional

ta’sir ko‘rsatiladi: xayolot olami, tasavvurlarini boyitishga; tafakkuri va mushohadalarini o‘stirishga; nutqining yanada takomillashuviga erishish uchun sharoit yaratiladi. Badiiy asarni tahlil qilish jarayoni o‘quvchi faolligini ta’minlash orqali uni insonlararo munosabatlarga aralashtiradi; hayotiy muammolar ildizini topishga, to‘qnashuvlar asosini aniqlashga undaydi; hayot haqida, inson to‘g‘risida o‘z xulosalari va muhokamalarini chiqarishga imkon yaratadi; nimalarnidir yoqlab, nimalarnidir rad etadi, tanqidiy ko‘z bilan qaraydi. Asar qahramoni uni odamlarga yaqinlashtiradi, uning qismati o‘zi va o‘zgalar taqdiriga befarq bo‘lmaslik tuyg‘usini uyg‘otadi. Bunday tuyg‘u umuminsoniy mohiyatga egaligi jihatidan o‘quvchilar ma’naviyatining yuksalishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Tabiat go‘zalligidan bahra olishni biladigan, tabiatni suyadigan, tabiat bilan til topishish istagida bo‘lgan inson ma’naviy qashshoqlikdan yiroqlashadi. Tabiat go‘zalliklarini sevgan kishi qalbi ezgulik nuri ila charog‘on bo‘ladi. Tabiat orqali olam sirlari ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi. Shoir Abdulla Oripov:

Faqat tabiat bor ilohiy makon,
Faqat o‘shanga sen bepisand boqma.
Loaqal uni sen tanigin, inson,
Yolg‘iz boshpanangni o‘t qo‘yib yoqma, −

deya xitob qilish orqali barchamizni ona tabiatga bepisand boqmaslikka, uni asrab-avaylashga undamoqda. Aks holda insoniyat boshiga og‘ir kulfatlar tushmog‘i aniq. Inson ona tabiatdan yiroqlashsa, o‘zini bilishdan uzoqlashadi va qalbi kambag‘allashadi. Demak, ilohiy boshpanamiz tabiatdagi har bir o‘zgarishlar quvonch yoki qayg‘u, alam, yo‘qotishlar tabiat fasllariga qiyosan ochib beriladi.

Insonni tabiatga yaqinlashtiradigan, uning ko‘nglini Ona Tabiat go‘zalliklariga oshno aylaydigan fasl – bahor fasli hisoblanadi. Shuning uchun qadim davrlardan boshlab olamni yoshartiradigan bu fasl shoirlarning ilhom manbai bo‘lib kelgan.

Haqiqatdan ham bahor va she’r o‘ziga xos egizak tushunchalardir. Bahorni go‘zalliklardan zavqlanish mavsumi deyish mumkin. Bunda tabiatning yashil ranglarga bo‘yanishidan boshlab, suvlarning sharqiroq ovozi, qushlarning qiy-chuvigacha barchasi sirli va jozibali. Bu sir va joziba esa insonni doimo o‘ziga maftun etadi. Ana shunda uyg‘onish zavqini yangidan his qilib, yana ilgariga intiladi. Bahor shu tarzda uning hayotiy intilishlarini quvvatlab yashashga, sevishga va yaratishga ishonchini mustahkamlahga undaydi. Shuningdek, bahor inson xotirasini ham bedor aylaydi. Shunda u o‘tgan umrini emas, bu dunyoni tark qilgan kishilar xotirasini ham yodga oladi. Bahor va ko‘klam manzaralarini odam o‘z qalbida his etganda ko‘ngliga ilohiy va hayotiy quvvat oqib kiradi. Mana shu sabablarga ko‘ra, Sharq shoirlari bahor faslini yangi orzu, umid, shodlik, ezgulik, bunyodkorlik fasli sifatida madh etib kelganlar. Masalan, Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” dostonining alohida bo‘limida bahorni madh etib shunday satrlarni bitgan:

Esa keldi Sharqdan bahorning yeli,
Olamga ochildi jannatning yo‘li.
Bu bo‘z yer iporlandi qorlar ketib,
Bezandi olam chiroy ko‘rsatib.
G‘olib keldi qishdan bahor chiroyi,
Qurildi yangidan bahorning yoyi…

Bu satrlarning davomini o‘qirkansiz, yashil, sariq, ko‘kdan liboslar kiygan daraxtlar, o‘zini erkin qo‘yib butunlay yashillikka burkangan “tog‘-u qir, dalalar”, yerdan shodon bosh ko‘targan “ming alvon chechaklar”, iforning hidiga ko‘milgan olam, o‘yinga berilgan

“g‘oz, oqqush-u o‘rdak” ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

Yusuf Xos Hojib tasvirlarida tog‘ aro “qizil og‘zi qondek, qoshi qop-qora” kaklik va uning bag‘rida quvnayotgan bulbul qo‘shiqlarini tinglagandek bo‘lasiz. Xuddi shunday manzara tasvirlarini “Devoni lug‘otit-turk”dagi she’rlarida ham uchratish mumkin.

Xullas, uzoq asrlardan e’tiboran bahor fasli mumtoz she’riyatimiz vakillariga mavzu, obraz, manzara, poetik tasvir vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. Lekin bularning barchasi insonning taqdiri, fikr-xayoli, orzu-umidlari va ichki kechinmalari bilan bevosita uyg‘un ravishda badiiy tadqiq etilgan. O‘tmish she’riyatimizda jumladan, bahor manzaralari ko‘pincha, simvolik xarakterda bo‘lib, real lavhadan ko‘ra ko‘proq kishi kayfiyatiga ko‘proq ko‘tarinki his-tuyg‘ular uyg‘otadi. Ammo, Lutfiy, Atoiy, Navoiy, Bobur, Munis, Ogahiy va boshqa iste’dodli shoirlarimizning she’rlarida tabiat manzaralari shartli simvollar emas, haqqoniy va jonli tabiat ko‘rinishlarini o‘quvchi ko‘z o‘ngida gavdalantiradi. Masalan, Navoiyning bahor madhiga bag‘ishlangan o‘nlab g‘azallari, Boburning “Bahor faslidurur may havosi boshimda”, “Bahor ayyomidur dag‘i yigitlikning avonidur”, “Yoz fasli, yor vasli do‘stlarning suhbati”, “Xotirni bahor faslida gasht oladur”, “Xush ulki bahor fasli bu dunyoda” satrlari bilan boshlanadigan she’rlari, Munisning “Chamanlar sayrig‘a kelki fasli navbahor o‘lmish”, Ogahiyning “Qilib oyini mehr og‘oz Navro‘z”, Furqatning “Fasli navbahor o‘lmish” deb boshlanuvchi va boshqa shoirlarning ko‘plab she’rlarini eslash mumkin. O‘quvchi ko‘nglida go‘zallikka intilish, ehtiyoj, uni asrab-avaylash, qadrlash tuyg‘ularini shakllantirishda A.Oripovning tabiat lirikasiga daxldor she’rlaridan foydalanish mumkin.

Abdulla Oripov kabi iste’dod egalarining ruhiy olami, e’tiqodi, shaxs sifatidagi xislat va fazilatlari, tafakkur tarzi, uslubi uning ijodkor sifatidagi qiyofasini namoyon etadi. Adabiyot darslari davomida shoir hayoti va ijodini o‘rgatish vositasida yaratuvchi shaxsga xos fazilatlar namuna tarbiyasini o‘taydi; shoir kechinmalariga o‘quvchilarni kechinmadosh, hamfikr, ham maslakka aylantirish natijasida, o‘quvchilarda ham insoniy sifatlar kurtak yoyishi; muayyan masalalarga o‘z nuqtayi nazariga tayanib fikr yurituvchi mustaqil tafakkur egalari shakllantiriladi. Yaratuvchilikka, ezgulikka, go‘zallikka intiluvchan yoshlarni tarbiyalash, ular ko‘nglida yetuk insonlarga nisbatan havas hissini uyg‘otish, el e’zoziga sazovor bo‘lgan so‘z san’atkorlari kabi qalbi uyg‘oq, fidoyi shaxslarni voyaga yetkazish mumkin. Shu yo‘l bilan o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy tuyg‘ularni shakllantirishga erishiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Husanboyeva Q. Adabiyot – ma’naviyat va mustaqil fikr shakllantirish omili. –T.: A.Navoiy nomli O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti., – 2009-y.

2. Abdulla O. Yillar armoni. She’rlar va dostonlar. –T.: G‘ofur G‘ulom nashriyoti, 1984-y.

3. Zunnunova A. Adabiyot o‘qitish metodikasi.– T.: O‘qituvchi, 1992-y.

Hamid SODIQOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi katta o‘qituvchisi

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV-NUTQ MADANIYATI XUSUSIYATLARINI NAZARDA TUTUVCHI BADIIY-ETIK MATNLARNI TANLASH MEZONLARI

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyati xususiyatlarini ko‘zda tutuvchi badiiy-etik matnlarni tanlash mezonlari haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar. Nutq, madaniyat, badiiy matn, axborot, etik matn, axloq, me’yor, faoliyat, kommunikatsiya, xususiyat, tafakkur.

В статье представлены взгляды будущих учителей на критерии отбора художественно-этических текстов, учитывающие особенности коммуникативно-речевой культуры.

Ключевые слова. Речь, культура, художественный текст, информация, этический текст, этика, норма, деятельность, общение, характеристика, мышления.

The article presents the views of future teachers on the criteria for the selection of artistic and ethical texts, taking into account the peculiarities of the communicative-speech culture.

Key words. Speech, culture, literary text, information, ethical text, ethics, norm, activity, communication, characteristic, thinking.

Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirishda badiiy-etik mantlarni to‘g‘ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuni inobatga olib quyidagi tushunchalar ustida ish olib borildi.

Badiiy matn – bu alohida badiiy nutqning oliy darajada aks ettirilgan yakka tartibdagi asari bo‘lib, u shu tilda yozilgan hamda shunga o‘xshash matnlar majmuasi hamdir.

Badiiy matn bajarishi kerak bo‘lgan vazifalar ham bor. Ular; axborotni yetkazish, yangi axborotlarni yaratish, axborotlarni saqlash kabi jihatlari bilan ajralib turadi.

Mavzuda ko‘tarilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyati xususiyatlarini ko‘zda tutuvchi badiiy-etik matnlar nima degan savolga javob berish o‘rinli ekanligini inobatga olib, etik, etik matn, badiiy-etik matn tushunchalariga ham to‘xtalib o‘tish o‘rinli deb bildik.

Etik matn – etik talablarga mos keladigan, axloq me’yorlariga javob beradigan axloqiy, ma’naviy g‘oyalarni targ‘ib qilishga yo‘naltirilgan asar.

Badiiy – etik matn – badiiy nutq aks ettirilgan yakka tartibdagi asar bo‘lib, u etik talablarga mos keladigan, axloq me’yorlariga javob beradigan axloqiy, ma’naviy g‘oyalarga boy axborotni yaratish, ularni kitobxonga yetkazish va mavjud axborotlarni saqlash vazifalarini bajaruvchi manba.

Yuqoridagi tushunchalar ustida ishlash va ta’lim-tarbiya jarayonida badiiy-etik matnlardan foydalanish inson faoliyatiga estetik zavq yoki hatto estetik mazmun bag‘ishlashi bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida ko‘p jihatdan umuminsoniy ahamiyat andozalariga mos kelishini ta’minlaydi. Bo‘lajak o‘qituvchilar kommunikativ-nutq madaniyatining rivojlanishida badiiy-etik matnlar muhimligi bilan xarakterlanadi. Uning mazmuni shundaki, muallif va ta’lim oluvchi o‘zaro aqliy-ijodiy munosabatlarini

amalga oshirish, ta’lim oluvchiga olamga ma’lum munosabatni, badiiy konsepsiyani, barqaror qadriyatli yo‘nalishlarni aks ettiruvchi badiiy axborotni yetkazish vazifasini bajaradi. Pedagogik faoliyatga jalb etilgan insonlarning gumanitar tafakkur xususiyatlari badiiy kommunikatsiyaning faol bo‘g‘ini bo‘lishlariga imkon beradi.

Badiiy kommunikatsiya badiiy matnni tanlash va uning keyingi auditoriyaga ta’sir etishi ijodiy jarayondan boshlanadi. Badiiy-etik matnlar badiiy asarning asosiy tuzilishini tashkil etadi. Badiiy asarlar – bu san’atning mavjudlik shakli, yagona bir butunni tashkil etuvchi obrazlar tizimi. Ma’lumki, badiiy asar doimo tarixiy o‘zgaradi, yangi hayotiy va badiiy tajriba bilan o‘zaro munosabatlarga kirishadi, shuningdek, yangi sifatlarni egallaydi. U har bir yangi avlod tomonidan yangicha idrok etish bilan o‘zgacha o‘qiladi.

Badiiy asarni turlicha o‘qish uni idrok etish va talqin qilishning dunyoqarashli xususiyati bilan bog‘liq va uning tarixiy zaruriyatini aniqlaydi. Buyuk ijodlar – bizning doimiy yo‘ldoshlarimiz va barcha davrlardagi zamondoshlarimiz. Badiiy asarlar insoniyat bilan birgalikda rivojlanadi, ular – moddiy va shu bilan birga ma’naviy hodisa. U madaniy maydonda o‘zining ma’naviy, badiiy sifatlarini aniqlashga va ijtimoiy ahamiyatli ta’sir ko‘rsatishga qodir bo‘lgan moddiy predmet. Badiiy asar axloqqa bo‘ysunadi va shu bilan bir vaqtda u zakovat predmeti. Aynan shunda mazmun va qadriyatning birligi sanaladi.

Badiiy asar – bu ijtimoiy mahsulot, chunki muallifning o‘z-o‘zini ifodalashi, u ijtimoiy psixologiya va mafkuraning ifodasi hisoblanadi, chunki badiiy asarda badiiy haqiqatni yaratuvchi g‘oyalar va plastik obrazlar birgalikda qo‘llaniladi. Unda ifodalanadigan olamning badiiy konsepsiyasi g‘oyaviy-hissiy tizim va olam haqiqatining manzarasidan tashkil topadi.

Badiiy asar olam shaxs munosabatlarining barcha murakkabliklari va uning butun etik boyliklari bilan birgalikda aks ettiradi. Masalan, “Umarxon mast holatda Nodirabegimga “kerakli narsalaringizni olib Andijonga keting” – deganda, Nodirabegim u uxlagach aravaga ortib olib ketadi. Bu ne hol desa: Siz amr qildingiz, men bajardim, – mana kerakli narsamni olib ketayapman!” yoki bo‘lmasa,” Folbin ayol Iskandarning qistoviga zo‘rg‘a rozi bo‘ladi: “Senga bas kelib bo‘lmaydi” deydi. Iskandar bu gapni eshitib: “Bo‘ldi, endi folning keragi yo‘q. Men xudodan niyat qilgan folimni olib bo‘ldim”, deganu, jo‘nab ketgan. Bunday matnlardan ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanish yoshlarning badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqishini orttiradi, ularning kommunikativ nutqini jilolaydi.

Masalan, Kaykovusning “Qobusnoma” asarida “Barcha hunardan so‘z hunari yaxshiroqdir, nedinkim, hamma maxluqotdan odam yaxshiroq yaraldi va o‘zga jonivorlardin odam o‘n daraja ziyodadir va bu o‘n daraja odamning badanida hamisha bordir. Beshi toshida zohirdur, beshi ichida pinhondir. Ul pinhon narsalar: biri bor narsani yod olmoq, biri hamisha esda saqlamoq, biri taxayyul, biri taxavvur, biri takallum. Ammo ul beshtakim toshida zoxirdur, bu – zavq, ya’ni eshitmoq, qo‘rqmoq, xid bilmoq, totmoq, siypalamoq, ya’ni sezuv. Bular garchi boshqa jonivorlarda bo‘lsa ham odamda bo‘lg‘andek emasdurlar. Bu sababdan odamzod o‘zga jonivorlarga podshoh manzalasidandur.

Buyuk alloma Kaykovusning ushbu asarida keltirilgan badiiy-etik matn inson faoliyatida so‘zning naqadar ahamiyatli ekanligini ko‘rsatib beradi. Bunda biz bo‘lajak o‘qituvchilarga insonning barcha tirik mavjudodlardan ulug‘ligini faqatgina so‘z orqali ifodalash mumkinligini isbotlab beramiz. Buni biz keyingi paragrafda ta’lim texnologiyasi sifatida ko‘rsatib o‘tamiz.

Badiiy matn tuzilishi badiiy obrazlardan tashkil topib, ijtimoiy borliq, madaniy kommunikatsiya jarayonida asar mavqeini egallaydi va u o‘z navbatida, madaniyat elementi sifatida xizmat qiladi. Badiiy madaniyat – o‘z o‘zgaruvchanligida madaniyatning eng

barqaror insonparvarlik hududidir. Badiiy madaniyat sohasi – bu kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi estetik qadriyatlarning oliy shaklini ifodalovchi badiiy qadriyatlar sohasi.

Masalan, Kaykovusning “Har so‘zni andisha bila boshlag‘il, toki aytg‘on so‘zingdin pushaymon bo‘lmag‘aysan”.

Hikoyat. “Ey, shayx, sen imom Shofeiy as’hobining imomlaridandursan. O‘zing bag‘oyat olim, qari va go‘rning labiga yovuq yetg‘on kishidursan. Ne uchun Rasul alayhissalomning farzandiga haromzoda dersan? Endi aytg‘on so‘zingni durust qil. Yo‘q ersa senga shundoq uqubat qilurmanki, barcha xaloyiq sendan ibrat olg‘aylar va bundan buyon hech kishi bundoq beadablik qilmag‘aylar”.

Shayx dedi: “Bu ishda adl qilg‘ilkim mening guvohim aloviyning o‘zidur va uning o‘ziga o‘zidan yaxshi guvoh talab qilmag‘il. Ammo mening so‘zim bila u haloezodadur”. Sohibi Abbod dedi: “Qaysi vajh bila?”

Shayx dedi: “Xalqning barchasi bilurlarki, uning onasining nikohini men qilmishman. Ul kursining ustida o‘tirib, meni “Kofir” debdur. Agar ul bu so‘zni e’tiqod yuzasidan aytg‘on bo‘lsa, unda kofirning nikohi durust bo‘lmag‘usidir. Agar ul bu so‘zni e’tiqod yuzasidan aytmag‘on bo‘lsa, ul yolg‘ondur” – deb aytgan fikrlari bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida muhim rol o‘ynaydi.

Yuqorida bildirilgan fikr mulohazalarni e’tiborga olib, badiiy matn estetik toifalardan biri sifatida kommunikativ-nutq madaniyat andozasining namoyishini ifodalashini ta’kidlash lozim. Estetik toifa oliy qadriyat sifatida namoyon bo‘lib, jamiyatda sodir bo‘layotgan voqelikni estetik idrok etishiga yordam berib u muloqotni uyg‘unlashtirishda ijodiy faollikni nazarda tutuvchi suhbatdoshlarni intellektual, hissiy va estetik jihatdan yaqinlashtirdi. Estetik jihatdan yoqimli, ixtiyoriy muloqot nafaqat axborot uzatishni, balki suhbatdoshni javoban nutq-fikrlash faoliyatiga ta’sir etish, undashni nazarda tutadi. Ideal tarzda ularning maqsadi – suhbatdoshlarning to‘liq yoki qisman tushunishlari, hissiy javoblari, hissiy uyg‘unliklari, ya’ni estetik zavq olishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997-y.

2. Катонова Е.М. Развитие языковой и речевой способности младших школьников // Пачатковая школа. 2004 г.

3. Монахов В.М. Введение в теорию педагогических технологий. – Монография. – Волгоград: Перемена, 2006 г.

4. Husanov B. G‘ulomov V. Muomala madaniyati. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2009-y.

5. Kaykovus “Qobusnoma” (Forschadan Muhammad-Rizo Ogahiy tarjimasi): S.Dolimov. O‘qituvchi nashriyot matbaa ijodiy uyi. –T., 2006-y.

6. Mahmudov N. M. O‘qituvchi nutq madaniyati. Darslik. – T.: O‘zbekiston milliy kutubxonasi, 2007-y.

7. Sodiqov H.M. Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati pedagoglarning kommunikativ nutq madaniyatiga bog‘liqligidadir. // Boshlang‘ich ta’limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Jizzax, 2019-y.

Dilshod HAYDAROV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, o‘qituvchisi

AXBOROT TA’LIM MUHITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINI LOYIHALASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada multimedia texnologiyalari inson faoliyatida, ya’ni biznes, ta’lim, tibbiyot, harbiy va boshqa sohalarda keng qo‘llash masalalariga qaratilgan. Shuningdek, muallif multimedia mahsulotlarini yaratish uchun keng ko‘lamdagi dasturiy vositalar bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini keltirib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Axborot, ta’lim, elektron axborot, majmua, loyihalash, multimedia, texnologiya, o‘quv, faoliyat.

В статье рассматриваются вопросы широкого применения мультимедийных технологий в деятельности человека, а именно в бизнесе, образовании, медицине, военной и других сферах. Также автор приводит свои мысли и замечания по широкому спектру программных средств для создания мультимедийных продуктов.

Ключевые слова. Информация, образование, электронная информация, комплекс, проектирование, мультимедиа, технология, обучение, деятельность.

The article deals with the wide application of multimedia technologies in human activities, namely in business, education, medicine, military and other fields. The author also gives his thoughts and comments on a wide range of software tools for creating multimedia products.

Key words. Information, education, electronic information, complex, design, multimedia, technology, training, activity.

Mamlakatimiz ta’lim tizimini xalqaro ta’lim standartlari bilan uyg‘unlashtirib, oliy ta’lim muassasalarida kadrlar tayyorlash sifati hamda raqobatbardoshligini ta’minlash, jahon amaliyotiga asoslangan oliy ta’lim tizimining sifat darajasini oshirish, uzluksiz ta’lim tizimiga pedagogik loyihalashtirish jarayonini keng tatbiq etish orqali ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali metodlarini ishlab chiqish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida ta’lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta’mirlash, ularni zamonaviy o‘quv-laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan ta’minlash bo‘yicha ishlarni amalga oshirish orqali ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash yuzasidan aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rish ustuvor vazifalardan biri sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Zamonaviy ta’lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, shu bilan bir qatorda bunday muhit ta’lim tizimini takomillashtirishga, ta’lim jarayoniga axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Ta’lim jarayonida multimedia texnologiyalaridan foydalanish mashg‘ulotlarni interfaol rejimda olib borishga imkon beradi.

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchisini tayyorlash mazmunini yangilash oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanayotgan mutaxassislar sifat darajasini ta’minlashga mas’ul bo‘lgan pedagog kadrlarning bilim va kasbiy malakalari darajasini yuqori bosqichga ko‘tarishga qaratilgan bo‘lib, ularning shaxsiy va pedagogik sifatlarini shakllantirish jarayonini innovatsion usullarda tashkil etish katta ahamiyat kasb etadi. Elektron axborot ta’lim muhitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini loyihalash kompetensiyasini rivojlantirish ana shunday innovatsion usullardan biri hisoblanadi. Innovatsion pedagogik loyihalashtirish konsepsiyasi o‘zida tizimli, faoliyat va informatsion yondashuvlar g‘oyalariga asoslangan nazariy-metodologik va metodologik-texnologik bilimlar tizimini namoyon etadi.

Ta’lim sohasida loyihalashtirish metodini qo‘llash 1990-yillarning ikkinchi yarmida ta’limni standartlashtirish g‘oyalarining rivojlanishi bilan bog‘liq holda faollashdi. Loyihalashtirish g‘oyalari pedagogik tizimlar, ta’lim muhiti, shaxs, ta’lim va tarbiya mazmuni, shaxs rivojlanishining taxmin qilinadigan natijalari darajalarida tarqaldi. Yangi o‘quv rejalarida bo‘lajak mutaxassislarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish maqsadida pedagogik bilim va ko‘nikmalarni puxta egallashga ustuvor ahamiyat berilgan, maxsus va umumkasbiy fanlarni zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari vositasida o‘qitishga alohida e’tibor qaratilgan. Bu esa boshlang‘ich ta’lim jarayonlarini loyihalash mazmuni va metodologik asoslarini aniq belgilashni taqozo etadi.

Pedagog olimlarning fikricha, ta’lim paradigmalari almashayotgan hozirgi vaqtda loyihalash-dasturlash borasida ilmiy qarashlar shakllanmoqda. Uning asosini ishlab chiqish, shakllantirish va yaratish bilan xarakterlanadigan, ta’lim tizimlari amaliyotida hali mavjud bo‘lmagan loyihalashtirish va dasturlash faoliyati tashkil etadi. Bunda mavjudlaridan farq qiladigan, prinsipial yangi ta’lim tizimlari va ularning fragmentlarini ilmiy asoslash va konstruktiv ishlab chiqish ta’minlanadi. Hozirgi sharoitda o‘qituvchi faoliyatining sifati uning pedagogik loyihalashtirish ko‘nikmalariga ko‘p jihatdan bog‘liq. Bundan kelib chiqadiki, pedagogik loyihalashtirish mohiyatini aniq va ravshan tushunib olish va uni pedagogik innovatika qonuniyatlari va tamoyillarini hisobga olgan holda amalga oshirish talab etiladi. Pedagogik loyihalashtirishning innovatsion loyihalarni yaratish bosqichi sifatida tadqiqotchilar quyidagi g‘oyalarga tayanib ish tutadi:

1. Pedagogik loyihalashtirish ta’lim jarayoniga kiritiladigan innovatsiyalarni yanada sifatli tayyorlashga xizmat qiladi.
2. Pedagogik loyihalashtirish boshqariladigan jarayon bo‘lib, uning asosini pedagogning ijodi tashkil qiladi va u murakkab ichki tuzilmaga ega bo‘lgan tizimdir.
3. Pedagogik loyihalashtirish variativ xarakterga ega bo‘lib, loyihalashtirilgan obyekt va pedagog o‘rtasida eksperimental harakatlar orqali amalga oshiriladigan qaytar (aks) aloqa bo‘lishini nazarda tutadi.
4. Pedagogik loyihalashtirish samaradorligiga tashqi muhit katta ta’sir ko‘rsatadi.

Pedagogik loyihalashtirish obyektlari sifatida pedagogik va o‘quv faoliyatining innovatsion metodlari va usullari, pedagogik texnologiyalar, ta’limning yangi texnologiyalari va tashkiliy-pedagogik jarayonlarni ko‘rish mumkin.

Loyihalashtirishning umumiy ta’rifiga muvofiq, pedagogik loyihalashtirishni faoliyat sifatida quyidagicha ta’riflash mumkin:

– samarali ta’lim jarayonlari va pedagogik faoliyat turlarini ishlab chiqish maqsadida amaliy yo‘naltirilgan faoliyat;

– zamonaviy bilimning rivojlanayotgan yangi sohasi, pedagogik voqelikni talqin qilish uslubi;

– pedagogikaning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish, o‘zgartirish, takomillashti-

rishga oid masalalarni hal qilish va mavjud pedagogik ziddiyatli holatlarni bartaraf etishga yo‘naltirilgan ilmiy amaliy yo‘nalishi va tashkil etiladigan amaliy faoliyat shakli.

Boshlang‘ich ta’lim jarayonlariga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarini pedagogik loyihalashtirish orqali tatbiq etishda asosiy vazifalar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

– yangi axborot texnologiyalarini boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tatbiq etishning zaruriy moddiy-texnik bazasini yaratish;

– boshlang‘ich ta’lim jarayoni uchun zamonaviy axborot texnologiyalarini loyihalash va qo‘llash;

– bo‘lajak o‘qituvchining zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish;

– zamonaviy texnologiyalar asosida boshlang‘ich ta’lim jarayonlarini loyihalab, samaradorlikka erishish.

Ishlab chiqilgan elektron ta’lim resurslarini loyihalash orqali boshlang‘ich ta’lim jarayonida qo‘llashda quyidagilarga tayangan tizim taklif etildi: boshlang‘ich ta’lim maqsadiga mosligi; o‘quv faoliyati bayoni; axborotlarni taqdim etish darajasi; manbaning mazmuni va tuzilishi; ko‘rinishi va dizayni.

Bu talablarni amaliyotga joriy qilish elektron axborot ta’lim muhitini yaratish va fan bo‘yicha o‘quv-metodik majmuaning shakllanganlik darajasiga ko‘ra, uni bosqichma-bosqich amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Elektron axborot ta’lim muhitida boshlang‘ich ta’lim jarayonlarini tashkil etish boshlang‘ich ta’limning elektron axborot ta’lim muhitini, integrallashgan axborot-ta’lim resurslarini yaratish ta’lim sifatini oshiruvchi omil sifatida tadqiq etishni taqozo etadi. Bunday muhitda boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini yanada oshirib borishga qaratilgan quyidagi ilmiy-metodik vazifalarni amalga oshirish lozim: oliy ta’lim muassasalarida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarini tayyorlashga nisbatan texnologik yondashuvga erishish; oliy ta’lim tizimida axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan boshlang‘ich ta’lim jarayonida foydalanish imkonini beruvchi elektron o‘quv-metodik ta’minot hamda undan foydalanish metodikasini ishlab chiqish; pedagogik loyihalashtirish asosida boshlang‘ich ta’lim jarayonlarining zamonaviy axborot-metodik ta’minotini amalga oshirish imkoniyatlarini elektron axborot ta’lim muhitida joriy etishga qaratilgan dasturiy ta’minot va ochiq ta’lim resurslarini ishlab chiqish.

Buning natijasida har bir bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari nafaqat o‘zining, balki umumiy “olam ko‘rinishi”; ular uchun tushunarli bo‘lgan matematik yoki til qonuniyatlari olami; jonli va jonsiz tabiat, tabiat va madaniyatning o‘zaro bog‘liqligi va o‘zaro tobeligi ko‘rinishi; turli folklor janrlarining birga mavjud bo‘lishi va o‘zaro ta’siri ko‘rinishi; turli texnik va amaliy ijod texnologiyalarining o‘zaro bog‘liqligi ko‘rinishini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda, 23-son, 448-modda.

2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiya yordamida ta’lim samaradorligini oshirish. –TDPU, 2004. –35-b.

Shoxida SIDDIQOVA,
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,
Jizzax davlat pedagogika instituti, o‘qituvchisi,
Osiyo NURALIYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Boshlang‘ich ta’lim” fakulteti talabasi

“FE’L” MAVZUSINI O‘TISHDA LUG‘ATLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada fe’l mavzusini o‘tishda lug‘atlarning ahamiyati xususida fikr yuritilan. Ona tili fani bolalarning tafakkur qilish qobiliyatlarini kengaytirishga, ularni erkin fikrlay olishlariga, o‘z fikrlarini to‘liq bayon qilishga, atrofdagi odamlar bilan muloqot chog‘ida qiynalmasliklariga yordam beradi.

Kalit so‘zlar. Fe’l so‘z turkumi, imlo lug‘at, orfoepik lug‘at, izohli lug‘at, lug‘atlardan foydalanish malakalari, o‘zbek tilining qo‘llanish doirasi.

В этой статье обсуждается важность словарей в передаче предмета глаголов. Наука на родном языке помогает детям развить свои мыслительные способности, научиться свободно мыслить полностью выражать свои мысли, не испытывая трудностей в общении с окружающими их людьми.

Ключевые слова. Глагольный словарь, орфографический словарь, орфоэпический словарь, толковый словарь, навыки использования словарья, объём узбекского языка.

This article discusses the importance of dictionaries in passing the subject of verbs. Mother tongue science helps childeren to expand their thinking skills, to be able to think freely, to express their thoughts fully, not to have difficulty in communicating with people around them.

Key words. Verb vocabulary, spelling dictionary, orthoepic dictionary, annotated dictionary, dictionary usage skills, scope of Uzbek language.

Mamlakatimizda mustaqillik davrida qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatlar, ilm va fan, adabiyot va san’at, madaniyat va ma’naviyat, ishlab chiqarish bilan bog‘liq sohalarda bo‘layotgan o‘zgarishlar, erishilgan yutuqlar ko‘lamini, mustaqillik g‘oyalarini yosh avlod shuuriga singdirish maqsadida mamlakatimizda ta’lim tizimiga alohida e’tibor kuchaytirildi.

Ona tili fani bolalarning tafakkur qilish qobiliyatlarini kengaytirishga, ularni erkin fikrlay olishlariga, o‘z fikrlarini to‘liq bayon qilishga, atrofdagi odamlar bilan muloqot chog‘ida qiynalmasliklariga yordam beradi. Shuning uchun ham fanlar ichida ona tili fani asos vazifasini o‘taydi.

Ona tili darsligida berilgan “So‘z turkumlari” mavzusini o‘quvchilarga tushuntirishda juda ehtiyotkorlik bilan ish ko‘rish lozim. Chunki kichik maktab yoshidanoq so‘zlar dastlab javob bo‘ladigan morfologik so‘roqlariga qarab guruhlanadi. Masalan, fe’l mavzusini oladigan bo‘lsak, o‘quvchilar dastlabki ma’lumotni 1-sinfda olishadi. Bu sinfda fe’l so‘z turkumi “So‘z turkumi” deb emas, balki harakatni bildirgan so‘zlar sifatida o‘rgatiladi. O‘quvchilar bordi, yugurdi, yozdi kabi fe’llarning harakat bildirishini yaxshi tushunsa ham, uxladi, yig‘ladi, qizardi, tingladi so‘zlarining holat bildirishini izohlashda qiynaladilar. Shuning uchun ularga, birinchi o‘rinda, so‘zlar ma’nosini tushuntirib berish kerak. O‘quvchilar har bir darsda ma’nosi ularga tushunarsiz so‘zlarni bilib olishlari,

lug‘at boyligini oshirishlari lozim. O‘qituvchi tingladi, mudradi kabi so‘zlarning ma’nosini o‘quvchilarning o‘zlari tushunadigan tilda izohlab beradi. Bu o‘z navbatida, so‘z turkumlarini o‘tishda lug‘atlarning qanchalik ahamiyatli ekanligini ko‘rsatadi. Shundan keyin o‘quvchilar harakat va holat tushunchasini aniqlash yo‘llarini o‘qituvchi orqali bilib oladilar. So‘z turkumlarini o‘rganishdagi asosiy vazifa o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, lug‘atini yangi ot, sifat, son, fe’llar bilan boyitish, ular shu paytgacha foydalanib kelayotgan so‘zlarning ma’nosini aniq tushunishiga erishish, bog‘lanishli nutqda u yoki bu so‘zlarni o‘rinli foydalanish malakasini o‘stirish hisoblanadi. O‘quvchilarda so‘z turkumlarini bilish ko‘nikmasi ularning belgilari yig‘indisini egallashlari asosida shakllantiriladi. Fe’l mavzusini tushuntirishda harakat va holatni bildirgan so‘zlarning to‘g‘ri yozilishiga ham jiddiy e’tibor qaratilgani maqsadga muvofiq. Bordi-yu so‘zdagi tovushlar o‘rniga boshqasi yozilsa yoki tushirib qoldirilsa, ma’nosi o‘zgarib ketishi mumkin. Bu esa orfografik lug‘at bilan ishlashni taqozo etadi.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun “Shaxs va narsalarning harakatini bildirgan so‘zlar” mavzusida berilgan 121-mashqni misol qilib keltirsak: “Bahor keldi. Bog‘larda gullar ochildi. Ariqlarda suvlar shildirab oqdi. Jamalak sochli Zumrad bog‘ga kirdi…” Ushbu mashqda harakatni bildirgan so‘zlarni so‘roqlar yordamida topish kerak. Bahor nima qildi? – keldi. Bog‘larda gullar nima qildi? – ochildi. Shu tariqa harakatni bildirgan so‘zlarga savol berib topiladi.

Fe’lga so‘roq berishga o‘rgatish yuzaki bo‘lmasligi, o‘quvchilar harakat bir kishi tomonidan bajarilsa, nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? so‘roqlarini, ikki va undan ortiq kishi tomonidan bajarilsa, nima qiladilar? nima qilmoqchilar? so‘roqlarini berishni bilishlari zarur. Bu tarzda o‘rgatish fe’l zamonlarini o‘rganishga zamin hozirlaydi.

Umuman, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarga so‘z turkumlarini o‘rgatishda darslikdagi qoidalarni yodlashdan ko‘ra ana shu qoidalarni o‘quvchilar bilan birgalikda ijod qilib yaratilsa, ular ongli o‘zlashtiradilar. Undan keyin esa darslikka murojaat qilish, mashqlar bajarish maqsadga muvofiqdir. Zero, kitob odamni bilag‘on, suhbat topqir qiladi, yozib olish odati esa uni aniqlikka o‘rgatadi.

O‘quvchilarning lug‘at boyligini oshirish, ularni yangi notanish bo‘lgan so‘zlar bilan tanishtirish ta’lim tizimidagi ona tili fanining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va ularni lug‘atlardagi so‘zlar bilan qurollantirishi va bu lug‘atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish, ayniqsa, muhim sanaladi. Lug‘at o‘quvchilarning imlo savodxonligini oshirish, so‘z boyligini kengaytirishning muhim manbai va asosiy maslahatchisidir. Negaki, o‘quvchilar dars jarayonida notanish, ma’nosi tushunarsiz so‘zlarga duch kelishsa, bunday vaqtda ular izohli lug‘atga murojaat qilishlari mumkin. Yoki bo‘lmasa, 3-sinf ona tili darsligining “Fe’l” mavzusida berilgan: “Inson ajoyib texnika yaratdi. Qudratli texnika uni koinotga ko‘tardi. Odam texnika tufayli dengiz tubiga ham tushdi. Texnika kishilar yumushini yengillashtirdi”. Ushbu mashqda ajratib ko‘rsatilgan yaratdi, ko‘tardi, tushdi va yengillashtirdi so‘zlari fe’l so‘z turkumiga kirgani bois alohida ajratib yozilgan. Bu so‘zlarning qanday yozilishini – imlo lug‘ati, qay tartibda talaffuz qilinishi – orfoepik lug‘at orqali, ularning ma’nolari – izohli lug‘at orqali va shu tartibda ularga aniqlik kiritish mumkin. Yuqoridagi mashqlar o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilardan diktant qilib olinsa, albatta, bu yerda lug‘atlarning qanchalik muhim ekanligi ko‘rinadi.

Lug‘atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish, avvalambor, o‘quvchilarda unga bo‘lgan ehtiyojni tarbiyalashdan boshlanadi. Chunki ehtiyoj, xohish bo‘lmagan narsaga hech qachon qo‘l urilmaydi, ehtiyoj sezilmasa, o‘quvchi lug‘atga murojaat qilmaydi. Ma’lum bir so‘zning imlosi, qanday ma’no anglatishi, uning qarama-qarshi ma’nosi

nima ekanligini bilish yoki uyadoshini aniqlash zaruriyati ehtiyojni vujudga keltiradi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, lug‘atlardan tez va to‘g‘ri foydalanish uchun, avvalo, o‘quvchilar zarur malakalarga ega bo‘lishlari talab etiladi. Bu malakalardan eng muhimi, ular alfavit tartibini yaxshi bilishlaridir. Alfavitni yoddan yaxshi o‘zlashtirmagan o‘quvchi lug‘atdan so‘zni qidirishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Shuning uchun boshlang‘ich sinflardayoq o‘quvchilarga alfavit tartibi yaxshi va izchil o‘rgatib boriladi, toki ular lug‘at bilan ishlaganlarida bemalol so‘zlarni topsin. Bundan tashqari, zarur malakalardan yana biri lug‘atlardan maqsadga muvofiq ravishda foydalanishdir. Masalan, yuz so‘zining sinonimlarini topish uchun omonimik lug‘atga murojaat etilmaydi. Shu kabi quyidagi mashqda: “Dunyodagi erksevar xalqlar bir so‘zni sevinib aytadilar. Bu tinchlik so‘zidir! Bu so‘z turli tillarda turlicha yangraydi. Odamlar bu so‘zni baralla aytadilar” misoli ham berilgan. Ya’ni ushbu mashqda o‘qituvchi tomonidan “erksevar” va “tinchlik” so‘zlarining sinonimlarini o‘quvchilardan so‘ralganda, ular darhol sinonimik lug‘atga murojaat etib, uning ma’nodoshlarini qidirib topishadi. Shu sabab, nafaqat, boshlang‘ich sinflarda, umuman, ona tili mashg‘ulotlarida lug‘atlarning o‘rni nihoyatda katta.

Biron bir xalqning milliy boyligi uning so‘zlari va turg‘un birikmalaridir. Negaki, xalqning boy merosi, ulug‘ ajdodlar qoldirgan yodgorliklari so‘z va birikmalar holidadir. So‘zlarni o‘z ichida jamlagan lug‘atlar esa insoniyatni turfa xil ma’nodoshlar, shakldoshlar bilan tanishtiradi. So‘z orqali odamlar dunyoni taniydilar. Shuning uchun so‘zlarni qamrab olgan lug‘atlarni asrab-avaylash ham farz, ham qarzdir.

Xulosa o‘rnida, Abu Rayhon Beruniyning quyidagi fikrlarini keltirishni joiz topdik: “Vaqt pillapoyasi cheksizdir, bir-birining o‘rnini egallab boradigan avlodlar zinadan zinagagina ko‘tariladilar, xolos. Jamlangan tajribani har bir avlod o‘zidan keyin kelayotgan, o‘zidan keyin uni taraqqiy ettiradigan va boyitadigan navbatdagi avlodga yetkazib beradi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Siddiqova Sh.I. O‘zga gap sintaksisi va lingvopoetikasi. Dis. avtoref. –T. 2019, 5-bet.

2. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi o‘quv dasturi. –T., 2010.

3. G‘afurova T., Shodmonov E., G‘ulomova X. “Ona tili” darslik, 1-sinf, –T., 2019-y, 64-bet.

4. Fuzailov S., Xudoyberganova M. “Ona tili” darslik. O‘qituvchi, nashriyot-manbai ijodiy uyi, –T., 2008, 107-bet.

Sobir TEMUROV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchisi
Dilorom NUSRATOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchisi

KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHDA INDIVIDUAL TA’LIM METODINING AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining salohiyatini oshirishga oid tavsiyalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Kredit-modul, registrator ofisi, edvayzer, lektor, tyutor, kombinatorika, xarakteristik xossa, munosabat, Eyler-Veyn diagrammasi, natural son, haqiqiy son, TMI, ORTMI, PDF, bo‘sh to‘plam, birlashma, kesishma.

В этом документе представлены рекомендации по повышению потенциала будущих учителей начальной школы.

Ключевые слова. Кредитный модуль, регистратор, консультант, преподаватель, наставник, комбинаторика, характеристическое свойство, отношение, диаграмма Эйлера-Уэйна, натуральное число, действительное число, TMI, ORTMI, PDF, пустая сумма, комбинация, пересечение.

This paper provides recommendations for building the capacity of future primary school teachers.

Key words. Credit module, registrar’s office, advisor, lecturer, tutor, combinatorics, characteristic property, relation, Euler-Wayne diagram, natural number, real number, TMI, ORTMI, PDF, blank sum, combination, intersection.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’lim tizimini isloh qilish o‘qituvchi mavqeini oshirish masalasini bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri deb hisoblamoqda. Shu jumladan, Prezidentimiz xalq ta’limini rivojlantirishning dolzarb jihatlariga alohida e’tibor qaratib, “Yangi O‘zbekiston – maktab ostonasidan boshlanadi” – degan g‘oyani ilgari surdi. “Agar biz maktabgacha ta’lim va maktab ta’limini joy-joyiga qo‘ymas ekanmiz, biz aytgan rejalarga erisha olmaymiz. Buning uchun biz muallim, ustoz, murabbiy va ilmiy xodimlarni obro‘sini, bir so‘z bilan aytganda, ziyolilarning obro‘sini birinchi darajaga ko‘tarmas ekanmiz, biz qo‘ygan maqsadlarga erisha olmaymiz.”

Oliy o‘quv yurtining har bir talabasi ertangi kunning ijodkorlari, mamlakatimiz oldida turgan ulug‘vor vazifalarni amalga oshirishga tayyorlanayotgan bo‘lajak mutaxassisdir. Boshlang‘ich ta’lim fakultetining talabalari kelajagimiz bo‘lgan bolalarimizga dastlab ruchka tutishni, o‘qish va hisoblashni o‘rgatuvchi boshlang‘ich ziyo tarqatuvchilardir. Ular o‘z faoliyatlarida mustaqil o‘z ustida ishlashi, talabalik davrida mustaqil ishlash malakalarining shakllangan bo‘lishi o‘ta muhim.

Ammo, ko‘pchilik fanlardan 1 ta topshiriq 50-100 lab talabada bir xil. Buning sabablaridan biri mavzular bo‘yicha variantlarning ko‘p miqdorda ishlanmaganligi, har bir talabaga individual topshiriqlar ishlanmalarining malakali tekshiruvdan o‘tgan o‘quv – uslubiy qo‘llanmalarning yetarli darajada emasligidir. Shularni hisobga olgan

holda Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi fanidan har bir mavzu bo‘yicha 30-40 tadan topshiriqlarni qiyinlik darajasi bir-biriga yaqin bo‘lgan holatda o‘quv-uslubiy qo‘llanma sifatida tayyorlashni, hamda ushbu ishda 1 ta mavzu bo‘yicha topshiriqlar ketma-ketligini namuna sifatida keltirishni maqsad qilib qo‘ydik.

Ushbu fanning 1-mavzusi to‘plamlar va ular ustida amallar. Rejada ushbu mavzuga 6 soat maruza va 6 soat amaliy mashg‘ulot darsi ajratilgan. Darsda yechish uchun D. Nusratova va A. Shamsiyev tomonidan nashr qilingan darslikda yetarlicha masala va misollar mavjud. Ammo darsda o‘qituvchi rahbarligida masalalar yechishning o‘zi barcha talabalarning mavzuni chuqur o‘zlashtirishi uchun yetarli emas, qolaversa, o‘qituvchi topshiriq berishi, to‘g‘ri bajargan talabani baholashi, talabani kreditlarini topshirishini to‘g‘ri hisobga olishi masalasi ham borligini hisobga olsak, darslikda mustaqil ish uchun berilgan masalalar ommaviy holda beriladi va uni 2, 3 talaba yechadi boshqalar ko‘chiradi, lekin biz hammasiga mutaxassislik diplomini beramiz. Sifat va samaraning past bo‘lishiga asoslar yaratiladi. Ko‘chirmachilikni yo‘qotmasdan kadrlar sifati haqida gapirishning foydasi yo‘q. Agar har bir talabaga alohida topshiriqlar berilsa, talaba o‘z variantini o‘zi ishlashga majbur bo‘ladi. Topshiriqlar individuallashtirilsa o‘qituvchining hemis platformasiga soladigan topshiriqlari, kitobning nomi va masalaning tartib raqamidangina iborat bo‘lib ish hajmi qisqaradi.

Namuna: 1-topshiriq umumiy, chunki mavzuning ta’rif va qoidalarini yod bilmagan talaba uni misol yechishga tatbiq eta olmaydi. Ma’ruza matni oxirida munozara uchun debat savollari keltiriladi. Bu savollarning javobini matndan topib yozish va yod olishdan iborat topshiriq bo‘ladi.

Ushbu savollarning javoblari amaliy mashg‘ulot darslarida munozarali holatda guruhlar musobaqasi tarzida muhokama qilinishi bilan birga talabaning mustaqil ish topshiriqlarini bajarishida qo‘l keladi.

2-topshiriq qoidalarni tatbiq etadigan holda har bir talabaning tartib raqamiga mos holda bajaradigan misol va masalalardan iborat bo‘ladi. Masalan:

Dastlab, barcha talabalarning masalalarni bajarishlari uchun umumiy savol qismi yoritiladi. Berilgan A, B, C to‘plamlar uchun Eyler-Veyn diagrammalarini chizing hamda

a) $A \cap B' / C$ b) $A \cup B' / C$ v) $A' \cap B \cup / C$ g) $A \cup (B' / C)$ formulalarni ifodalovchi sohani shtrixlab ko‘rsating. Har bir holat uchun alohida chizma chizing va topilgan to‘plamlarning xarakteristik xossasini aniqlang. Bu umumiy savol barcha variantlar uchun bo‘lib, keyin har bir talabaga alohida turli matematik tushunchalar munosabati turlicha bo‘ladigan variantlar keltiriladi. Har bir talaba o‘z variantidagi turli munosabatlarda bo‘lgan har xil matematik tushunchalardan iborat to‘plamlarni yuqoridagi formulalarga tatbiq etib so‘ralgan savollar bo‘yicha chizmalarni chizadi, hamda har bir formula bo‘yicha hosil bo‘lgan to‘plam qanaqa elementlardan iboratligini ya’ni xarakteristik xossasini aniqlaydi.

1-variant. A-to‘rtburchaklar to‘plami, B-ko‘pburchaklar to‘plami, C-teng yonli uchburchaklar to‘plami.

2-variant. A-uchburchaklar to‘plami, B-kvadratlar to‘plami, C-teng tomonli uchburchaklar to‘plami.

3-variant. A-fakultet qizlari to‘plami B-fakultet sportchilari to‘plami, C-institut a’lochi talabalari to‘plami.

4-variant. A-48 ning bo‘luvchilari to‘plami, B-5 ga karrali sonlar to‘plami, C-Juft sonlar to‘plami.

5-variant. A-“1 va 12 sonlari va ular orasidagi haqiqiy sonlar to‘plami”.

B ={x| x ϵ N, 0 ≤ x ≤ 8}, C-7 ga karrali toq sonlar to‘plami.

6-variant. A – “toq natural sonlar to‘plami”; B – “10 va 20 sonlari va ular orasidagi haqiqiy sonlar to‘plami”, C-5 ga karrali toq sonlar to‘plami.

7-variant. A ={x| x ϵ N, $x^2 = 16$} B ={x| x ϵ Z, $x^2 \leq 9$}

C = {x| x ϵ N, 3 ≤ x ≤ 9},

8-variant. 12- variant. A-2ga karrali sonlar to‘plami, B-3ga karrali sonlar to‘plami, C-5ga karrali sonlar to‘plami.

9-variant. A = {x| x ϵ Z, $x^2 \leq -1 = 8$} B= {1; 2; 3; 4; 5; 7; 8; 9}

C = {x| x ϵ R, 5 ≤ x ≤ 8}.

10-variant. A-5-sinf sportchilari to‘plami B-Boshlang‘ich sinfdagi a’lochilar to‘plami, C-Maktabdagi olimpiada g‘olibi bo‘lgan o‘quvchilar to‘plami.

11-variant. A={2;3;4;5;7;10}, B={3;5;7;9}, C={4;9;11} variantlarni shu tarzda barcha talabalar soniga qarab davom ettirish mumkin bo‘lib topshiriqlarni individuallashtirishda qo‘l keladi.

Shu holatda har bir talabaning topshirig‘i turlicha bo‘lishi ko‘chiruvchi talaba o‘z ishini hal qilishi uchun o‘rtog‘i ishidan foydalanganda ham uni shu holatida ko‘chirmay uning yechish usulini o‘z misolida qo‘llash orqali barcha talabani mustaqil o‘rganishga jalb qilish, ijodiy yondashuvini tashkil etish mumkin. Barcha mavzular bo‘yicha guruh talabalari soniga yetarli darajada topshiriqlarning mavjud bo‘lishi baholashda adolatli yondashuv bo‘lishini ta’minlaydi hamda o‘qitish sifatini oshirishga ijobiy ta’sir etadi. Hemis tizimida kunlik baholashning o‘z vaqtida bajarilishi o‘qituvchini ham talabani ham o‘z ustida tinmay ishlashga majbur qiladi hamda talaba kunlik topshiriqlarni o‘z vaqtida topshirmaslik oqibatlarini sekin-asta his etadi va kadrlar salohiyatini oshishiga erishiladi degan xulosalarga keldik. Ayniqsa, boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi fani mavzularida formulalar, chizmalar, tasvirlarsiz mavzu mazmunini tushinish qiyin jarayon bo‘lib, uni o‘z qo‘li bilan tayyorlayotgan professor-o‘qituvchining barchasi ham kompyuterda uzoq ishlash imkoniyatiga ega emas. Kotiba esa fanning mutaxassisi emas, shuningdek, hemis platformasiga soladigan ma’lumotlar megabayti cheklanganligini hisobga olgan holda ularni pdf varianti joylanadi. Natijada, platformaga solinayotgan ma’lumotlarda kamchiliklar bo‘lishi formulalar va chizmalarning buzilishi yuz berishi mumkin. Undan foydalangan talabaning salohiyati yuksalish o‘rniga vaqti bekorga ketadi, tushunmaganligidan o‘ziga ustoziga ishonchi yo‘qoladi, fanga qiziqmaslik hosil bo‘ladi. Shularni hisobga olgan holda bugungi kredit – sinov guruhi talabalarining jahon andozalariga mos va xos salohiyatli kadrlar darajasiga yetishtirishda mutaxassislar tekshiruvidan o‘tgan mashqlar ketma-ketligi, masala va misollar to‘plami kabi uslubiy qo‘llanmalarning nufuzli nashriyotlarda chop etilgan variantlarining bo‘lishi o‘ta zarur.

Talaba reja asosida qisqacha mavzu matnini keltiriladi. Shuningdek, mavzuning boshlang‘ich sinf matematika kursiga tatbig‘ini o‘rganish hamda mavzuga oid boshlang‘ich sinf darsligidan masala misollarni tanlab namunalar keltirish bo‘yicha topshiriqlar berish muhim. Boshlang‘ich sinf darsligidan tanlangan masala va misollarni berilishi, tushuntirilishi va yechilishini ajratib yozish bo‘yicha vazifalar berilishi maqsadga muvofiq. Bu kabi mustaqil ishlarni bajartirish orqali talabalarga o‘rgatilayotgan mavzuning dolzarbligini his qildirish bilan birgalikda ularni kelgusi pedagogik faoliyatga tayyorlashimizda qo‘l keladi.

Talabalar orasida bu kabi murakkab misollarni biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ishlatmaymiz-ku, ularga o‘rgatadigan ma’lumotlardan yechim topishni o‘rganishimiz kerak degan savollar uchrab turadi. Talaba o‘rganayotgan ma’lumotining zarurligini his

etishi hamda uni vaqt sarflab o‘z ustida va mavzu ustida ishlashi uchun amaliyotga bog‘liq tomonlarini his etdirishga oid mustaqil ish topshiriqlarini bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar berish lozim. Masalan: qo‘shish amaliga to‘plamlar nazariyasi asosida quyidagicha ta’rif berilgan.

Butun nomanfiy a va b sonlar yig‘indisi deb, n(A)=a, n(B)=b bo‘lib, kesishmaydigan A va B to‘plamlar birlashmasidagi elementlar soniga aytiladi. a+b = n(A U B), bu yerda, , n(A)=a, n(B)=b va A ∩ B= □.

To‘plamlar birlashmasi, kombinatorikaning yig‘indi qoidasi mavzularining o‘rgatgan o‘qituvchi talabaga shu qoidalarning maktab boshlang‘ich sinf darsliklaridagi qo‘shish amalini o‘rgatishga oid masala va misollaridan o‘z mustaqil ishida 10-20 tasini yozishi, yechishi, tushuntirilishini ajratgan holda mustaqil ishida o‘z fikrlari bilan boyitib yozishi haqida, hamda ularni o‘rgatishda o‘quvchilarga tarbiyaviy tomonlarini ham yoritishi haqida tushuncha berishi lozim. Bu usul talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda qo‘l keladi va yurtimiz kelajagi bo‘lgan talabalarni izlanuvchanlikka o‘rgatadi, amaliy faoliyatlarida ilmiy tadqiqot ishlariga tayyorlaydi.

Barcha fanlardan ushbu shaklda darsliklarga qo‘shimcha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarning tekshiruvdan o‘tgan variantlarining mavjud bo‘lishi quyidagi afzalliklarga ega bo‘ladi:

– talabalarning o‘z ustida mustaqil ishlash ko‘nikmalarini oshishiga;

– professor-o‘qituvchining platformaga joylaydigan ma’lumotlarining soddalashuviga, hamda kamchiligi bo‘lgan topshiriqlar berilish holatlari bo‘lmasligiga;

– talabaning fanga qiziqishi kuchayishi va ko‘p marta takrorlash, darsda yechgan 1 ta masalaga o‘xshash 9-10 ta masalani mustaqil yechish natijasida bu fanni o‘zlashtirish samaradorligiga;

– kredit-modul tizimida ishlash faoliyatining soddalashuviga, dars samaradorligiga, hamda kadrlar sifati, salohiyatining oshishiga erishiladi degan xulosalarga keldik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xalq so‘zi” gazetasi, Prezidentimizning bayram tabrigi № 207, 01.10.2020.

2. Usmonov B.SH., Habibullayev P. A. Oliy o‘quv yurtlarida o‘quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil etish. –T., 2020-yil, –120-b.

3. Abdullayeva B.C., Sadikova A.V., Xamedova N.A., Muxitdinova M.N., Toshpulatova M.I. Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi. Tafakkur bo‘stoni. – T., 2018, – 496-b.

4. Nusratova D., Shamsiyev A. “Boshlang‘ich matematika kursi nazariyasi” (Boshlang‘ich ta’lim va sport-tarbiyaviy ish bakalavriyat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun amaliy mashg‘ulotlar darsligi). “VNESHINVESTPROM” Navoiy ko‘chasi,30. –T., 2021, –347-b.

5. Nusratova D.N. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining matematikadan mustaqil ishlarini tashkil qilish. “Fan, ta’lim va amaliyot” majmuasining dolzarb muammolari (JDPI professor-o‘qituvchilarining ilmiy maqolalari to‘plami) Fan va texnologiya nashriyoti, 2011-yil,189-192-betlar.

Halima SHUKUROVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchi

KASBIY FAOLIYATDA METODIK YONDASHUVNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada oliy ta’limda nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni sistemali tashkil etishda metodik sistemani amalga oshirish yo‘llari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, kasbiy faoliyat, metodika, sistema, binar, umumiylik, eksperiment, “ta’lim berish”, ta’lim mazmuni, fan-texnika, o‘quv-bilim, o‘qituvchi, o‘quvchi.

В статье показаны пути внедрения методической системы в систематическую организацию теоретической и практической подготовки в высшей школе.

Ключевые слова. Образование, профессиональная деятельность, методика, система, бинарность, общность, эксперимент, “обучение”, содержание образования, наука и технология, обучение, учитель, студент.

This article shows the ways to implement a methodological system in the systematic organization of theoretical and practical training in higher education.

Key words. Education, professional activity, methodology, system, binary, generality, experiment, “teaching”, educational content, science and technology, teaching, teacher, student.

O‘qitishning metodik sistemasini takomillashtirish sistemali ravishda amalga oshirilganda uzluksiz ta’limni to‘g‘ri tashkil etish mumkin. Ma’lumki, sistema yunoncha, “SYSTEMA” so‘zidan olingan bo‘lib, o‘zbekcha “yaxlit”, “birikma” degan ma’nolarni bildiradi. Sistema – bu muayyan holatda bir-birlari bilan o‘zaro mustahkamlash aloqada, bog‘lanishda bo‘lgan va barchasi birgalikda bir butunlikni, yaxlitlikni tashkil etuvchi element (komponent)lar mavjud.

Masalan, ta’lim jarayonini o‘qituvchi bilan o‘quvchi o‘rtasida faol munosabatlarini tashkil etuvchi, ikki tamonlama, ya’ni binar (lotincha so‘z bo‘lib, ikki degan ma’noni bildiradi) sistemadir. Uning komponentlari o‘qituvchi va o‘quvchi. Ta’lim jarayonidagi o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini quyidagicha izhor etiladi:

O‘qituvchi – o‘quvchi

Ya’ni ta’lim jarayonida o‘qituvchi faol ishtirok etmasdan, balki o‘quvchi (talaba) ham faol ishtirok etsa, hamda o‘qitishda ko‘zda tutilgan natija samarali bo‘ladi. Shuning uchun didaktlar dars (mashg‘ulot)ning monologik shaklidan ko‘ra dialogik shaklini ko‘proq afzal ko‘radilar.

Har bir o‘quv predmeti fanni o‘qitish va o‘rgatishning metodik sistemasida umumiylik va o‘ziga xoslik mavjud. Masalan, fanlarni o‘qitishda eksperiment, namoyish qilish ustun tursa, ba’zi fanlarda esa olingan bilimlarga asoslanib, mantiq qonun-qoidalariga suyangan hamda yangi bilimlar qo‘lga kiritiladi, yana shunday fanlar borki, unda hodisa, voqea, dalillarga suyanib u yoki bu davr ijtimoiy hayot tarzi haqida xulosa chiqariladi.

Umumiy sistemasi shundan iboratki, har qanday metodik sistemaning komponentlari asosida quyidagi beshta asosga tayanadi:

1.Ta’lim maqsadi;
2.Ta’lim mazmuni;
3.Ta’lim shakllari;
4.Ta’lim metodlari;
5.Ta’lim vositalari.

Metodik sistemani komponentlari orasida yetakchi rolni “ta’minlash maqsadlari” o‘ynaydi. Ta’lim maqsadlaridan kelib chiqqan holda metodik sistemaning qolgan komponentlari aniqlanadi. Bunda dastlabki e’tibor, “ta’lim mazmuni”ga qaratiladi. Ta’lim maqsadlarining tub mohiyatini bilimli, ma’naviyatli, aqlli yoshlarni kamol toptirishni tashkil etadi.

Odatda, “ta’lim berish” deganda, bir-birlari bilan uzviy bog‘langan “ta’lim – bilim (ma’lumot) berish, tarbiyalash; “aqliy jihatdan rivojlantirish” kabi uchqirrali, uch yoqlama, lekin yaxlit sistemani tashkil qiluvchi jarayon tushuniladi.

Darhaqiqat, o‘qituvchi darsga – sinfga kirib, “Bolalar kecha sizlarga ta’lim berdim”, bugun esa tarbiyalayman; uchinchi kun esa, “Bugun aqllaringizni rivojlantiraman” deb aytmaydi.

Xuddi et bilan tirnoqni bir-biridan ajratib bo‘lmagani kabi, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq, bir vaqtda amalga oshiriladigan jarayondir.

Bas shunday ekan, ta’lim mazmunini tanlashda nimalarga e’tibor berish kerak, degan savol tug‘ilishi tabiiy.

1. Kishilik jamiyati, insoniyat qo‘lga kiritgan, kashf qilgan ilm durdonalari ichidan shundaylarni tanlab olish kerakki, bu mazmun yoshlarni bilimdon, ma’lumotli bo‘limlarini ta’minlashi bilan bir qatorda ularning ma’naviy boyishlari va aqlan teran insonlar bo‘lib yetishishlari uchun mumkin qadar ko‘proq sistemali ravishda “ta’lim-tarbiyani rivojlan tirish” sistemasining yaxlitligini ta’minlanishi izchil ravishda amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga, o‘quv materiali o‘quvchilarning o‘quv-bilish imkoniyatlariga mos kelishi shart.

2. Ta’lim mazmunining qo‘llanishlilik chegarasi, me’zoni kengroq bo‘lishi lozim, ya’ni o‘rganiladigan o‘quv materiali;


– birinchidan, keyingi bilimlarini o‘zlashtirishda qo‘llanilishiga ega bo‘lsin;

– ikkinchidan, qo‘shni o‘quv predmetlarini (fanlarni) o‘rganishda qo‘llanishiga ega bo‘lsin;

Shundagina bilim ko‘nikmaga, ko‘nikma esa malakaga aylanadi, ya’ni ko‘nikma qayta-qayta qo‘llanilishi natijasida avtomatlashgan tusga kiradi malakaga aylanadi.

Ta’lim jarayonida ko‘proq umumlashgan malakalar hosil qilish ustida ishlash lozim. Masalan, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi “Ot” so‘z turkumini bolalarga o‘rgatar ekan 4-sinfni bitirgunga qadar “Ot” so‘z turkumi yuzasidan qoidalarni, mashqlarni va gaplarni avtomatik tarzda amalga oshiradigan bilimga ega bo‘lsa izchil, yaxlit sistemali ravishda o‘zlashtirgan hisoblanadi.

3. Hozirgi davrda fan-texnika jadal sur’atlar bilan o‘sib borayapti. O‘qish ta’lim berish muddati esa ta’lim maskanlari (umumta’lim maktablari, yangi turdagi maktablar, oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari)da cheklangan, boz ustiga darslarning hajmi ham cheklangan.



Darslarni tashkil etishda metodik sistemani to‘g‘ri amalda qo‘llash bolalar bilimining, dars mashg‘ulotlari sifati yanada oshirilishiga zamin yaratadi.

Xulosa qlib aytganda, o‘quvchi yoki talaba qaysi sinfda yoki qaysi kursda qanday hajm va mazmundagi ilmiy bilish metodlari, priyomlari va operatsiyalariga doir bilimlar bilan qurollanishlari lozim degan savol tug‘iladi. Bu savolga javob berish har bir oliy ta’lim sohasida ishlovchi pedagoglarning oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyevning. Oliy majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi 19.12.2020-yil.

2. Shavkat Mirziyoyev . “Saylov oldi dasturi” – T.: O‘zbekiston, 2016-yil – 13-bob.

3. G‘oziyev E.E. O‘quvchilarni o‘quv faoliyatini boshqarish. – T., 1988-yil.

4. Ishmuhammedo R., Abduqodirov A., Pardayev A.Ta’limda innovatsion texnologiyalar.– T., 2008.

5. Hasanbayev J. va boshqalar Pedagogika. – T.: Fan va texnologiya. 2007-yil.

Dildora MUSTAFAQULOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, o‘qituvchi
Otabek ISMATULLAYEV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, 4-kurs tolibi

BIOLOGIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TIZIMLI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada muallif biologiya fanining mazmuni sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalari asosida individual uslubni tarkib toptirishning pedagogik tadqiq etilishi haqida bir qator tavsiyalar bergan. Shuningdek, pedagoglarning tayyorgarligini oshirish maqsadida “Salomatlik” daftaridan foydalanish yo‘llarini metodik ko‘rsatma sifatida bayon etgan.

Kalit so‘zlar. Biologiya ta’limi, pedagogik texnologiyalar, tadqiqot, integratsiyalashgan o‘quv dasturi, sog‘lom turmush tarzi.

В статье раскрывается проблема формирования у обучаемых навыков здорового образа жизни с помощью предмета биологии. Для решения этой проблемы автор предлагает вкчить необходимые факторы в тетрадь “Здоровья” а также, пути использования тетради в учебно – воспитательном процессе.

Ключевые слова. Биология, тетрадь “Здоровья” педагогическая технология, исследование, учебная программа, здоровый образ жизни.

In article the formation problem at trained skills of healthy lifestyle by means of a biology subject reveals. For the solution of this problem the author suggests to include necessary factors in a writing – book of “Health ”and also, ways of use of a writing – book in teaching and educational process.

Key words. Biology, notebook “Health”, educational technology, research, skills of a healthy way of life.

Ta’lim islohotlari, shuningdek, ta’lim va tarbiya konsepsiyasi ma’naviy yetuk, jismonan barkamol, jamiyat hayotidagi turli o‘zgarishlarga tayyor, o‘z kuchi va bilimlariga ishongan, tub islohotlarni amalga oshirishga tayyor yoshlarni, ya’ni “komil shaxs”ni shakllantirishga qaratildi. Sog‘lom turmush va salomatlikni saqlash me’yorlari komil inson tarbiyasining uzviy omillaridan hisoblanib, sivilizatsiyalar, jamiyatlar, davlatlar tarixida har bir avlod salomatlik va sog‘lom turmush tarzi qadriyatlariga katta ahamiyat berib qaragan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilish natijasida to‘plangan tajribalar, chiqarilgan bir qator qonunlar biologiya fanini o‘qitishni yanada takomillashtirdi.

Umum, o‘rta ta’lim maktablarida biologiya fanini o‘qitishning asosiy vazifalari quyidagilar:

– o‘quvchlarini asosiy biologik tushunchalar, yetakchi g‘oyalar, ilmiy dalillar, qonunlar, organik olamning manzarasini shakllantirishga oid bilimlar bilan tanishtirish;

– tirik tabiat va uning taraqqiyoti jarayonida vujudga kelgan moslashish mexanizmlari haqida ma’lumot berish;

– o‘quvchilarni o‘z salomatliklarini saqlashga, sog‘lom turmush tarzining ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirish;

– biologiya ta’limi mazmunining hozirgi ijtimoiy hayot va fan-texnika taraqqiyoti bilan mustahkam bog‘lanishni ta’minlash asosida o‘quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashga yo‘naltirish;

– tabiatga, uning barcha boyliklariga oqilona munosabatda bo‘lish fazilatlarini yosh avlod ongiga singdirish;

– biologiya ta’limi mazmunini o‘lkaga oid ma’lumorlar bilan boyitish, biologik bilimlar zamirida mahalliy o‘simlik va hayvon turlari, seleksiya yutuqlari, qadimda yashab ijod etgan buyuk allomalarimiz va hozirgi olimlarimizning biologiyaga oid tadqiqot ishlari bilan tanishtirish orqali o‘quvchilarni milliy istiqlol go‘yalariga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat.


Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tiladigan barcha o‘quv fanlari kabi biologiya fanini o‘qitishda o‘quvchilarda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonini tizimga keltirishni taqozo etadi. Biologiya o‘quv fanining mazmunida sog‘lom turmush ko‘nikmalari asosida individual uslubni tarkib topdirishning pedagogik tadqiq etilishi, o‘quvchilarda kundalik hayot davomida o‘z hayoti faoliyatini to‘g‘ri tahlil qilish va baholash ko‘nikmalarini shakllantirib borish hamda bu borada pedagoglarning tayyorgarligini oshirish maqsadida metodik ko‘rsatmalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan sanaladi.

Biologiya fani turkumi botanika – o‘simliklar, zoologiya – hayvonlar, odam va uning salomatligi, umumiy biologiya fanlaridan tashkil topgan bo‘lib, mikrobiologiya – mikroorganizmlar, mikologiya – zamburug‘lar, gidrobiologiya – suv muhitidagi organizmlar, palentologiya – qazilma holdagi organizmlar, ekologiya esa organizm va muhit orasidagi munosabat to‘g‘risidagi fan hisoblanadi. Biologiya tirik organizmlarning ayrim jihatlarini tekshirish bo‘yicha ham turli fanlarga ajraladi. Anatomiya – organizmlar organlari tuzilishini, fiziologiya esa funksiyasini, embriologiya – murtak (embrion) rivojlanishini, sistematika – organizmlarning sistematik guruhlarini, o‘zaro qarindoshlik munosabatlarini, etologiya – hayvonot olamining xulq-atvorini tadqiq etadi. Biologiya faniga uzviylashtirilgan holda “Hayot havfsizligi asoslari”, ‘‘Salomatlik darsi” kurslarining integratsiyalashgan o‘quv dasturi bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu dasturda berilgan mavzularni integratsiyalashtirishda o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirgan qo‘shimcha materiallar tanlash, biologik ta’lim jarayonida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalari tarkib toptirish mazmuni, shakli, metod va vositalarini ishlab chiqishi talab etiladi.

Ma’lumki, biologiya fani mazmuni gigiyenik tushunchalardan iborat. Ushbu tushunchalar asosida sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirish imkonyati mavjud, ya’ni o‘qitishning barcha shakllarida: dars, darsdan tashqari ishlar va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda hozirgi kunning dolzarb muammosiga aylanib borayotgan turli xil salbiy illatlar (giyohvandlik, ichkilikbozlik, tamaki chekish, kun tartibiga rioya qilmaslik, noo‘rin jinsiy aloqalarning salbiy oqibatlari) oldini olish choralari haqida to‘xtalib o‘tiladi. Jumladan, o‘qituvchi fanni o‘qitish davomida dars maqsadini optimal tanlash, umumiy biologik va xususiy tushunchalar bilan birgalikda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish maqsadida qo‘shimcha o‘quv materiallarini saralash, saralangan o‘quv materiali va topshiriqlarining mazmunini e’tiborga olgan holda pedagogik texnologiyalardan foydalanib dars strukturasini aniqlash va ishlanmasini shakllantirishdan borat. Darsda foydalanilgan pedagogik texnologiyalar asosida esa o‘quvchilarni bilish faoliyati tashkil etiladi.

“Salomatlik” daftariga boblar yuzasidan test topshiriqlari, salomatlikni saqlashga oid turli savollar, chizmalar, rasmlar, biologik diktant, qiziqarli masalalar va mavzuga oid qo‘shimcha ma’lumotlar kiritilgan.

Quyida salomatlik daftaridagi “Ovqat hazm qilish sistemasi” mavzusida didaktik materiallar tayyorlash:



1. Ovqat hazm qilish organlarini belgilang.

2. Quyidagi jarayonlarni yoriting:
– Fizik o‘zgarishlar… amalga oshadi.
– Kimyoviy o‘zgarishlar… dir
– Basov tajribasi bu – ….
– Pavlov tajribasining afzalliklari … dir.



– “Kichik me’da” ...maqsadda hosil qilingan

3. Tish qismlarini belgilang.

4. Tish kasalliklarini ajrating va tagiga chizing: pielonefrit, pulpit, nevrit, nekros, plevrit, gastrit, nevroz, kariyes, enterit, kolit, polimiyelit, singa.


5. Sut tishlari va doimiy tishlarning formulasi va umumiy sonini yozing.
Sut tishi … ta.
Doimiy tish … ta.

6. Quyidagi jadvalni to‘ldiring.

№	Organ	Ferment	Gormon	Ovqatning saqlanish vaqti
1	Og‘iz bo‘shlig‘i			
2	Oshqozon			
3	O‘n ikki bamoq ichak			
4	Ingichka ichak			
5	Yo‘g‘on ichak			


7. Rasmda qaysi organ berilgan? Raqamlarni nomlang.
8. Tushib qolgan so‘zlarni to‘ldiring.
Tirik organizmning normal faoliyati uchun … zarur.
So‘lakning 99 foizini suv tashkil etadi va u … muhitga ega.
So‘lak fermenti hisobiga kraxmal … parchalanadi.
Qizil o‘ngach devor … qavat bo‘lib …
Ozuqa qizil o‘ngachdan … tufayli so‘riladi.
Katta odamda me’da hajmi … bo‘ladi.
Me’dadagi xlorid kislota vazifasi … iborat.

Tanamizdagi eng yirik bez … hisoblanadi.
Chuvalchangsimon o‘simta … da joylashgan.



9. Vorsinka joylashuvi va raqamlarini aniqlang.

10. Fermentlar nomini yozing.



Oqsilni parchalovchi ____ .
Yog‘ni parchalovchi ____ .
Uglevodlarni parchalovchi ____ .

11. Rasmda qaysi organ ifodalangan? Tuzilishi, hujayrasining nomlanishi va vazifalarini yozing.

12. Savollarga javob yozing.
Qanday so‘lak bezlarini bilasiz?
Til qismlarini yozing.
Langergans orolchasi qayerda joylashgan?
Me’da osti bezi qanday qismlardan tashkil topgan?
Nima uchun aralash bez deyiladi?
Me’da ostidan qanday gormonlar ajraladi?
Bu gormonlar qanday fermentlar ajratadi?
Me’da ostidan qanday fermentlar ajraladi?
Nima uchun yoz kunlari ishtaxa pasayadi?

13. So‘ralgan miqdorni belgilang.
Me’dada shilliq qavatidagi bezlar soni ____ .
O‘n ikki barmoqli ichak uzunligi ____ .
Ingichka ichak uzunligi ____ sm.
O‘n ikki barmoqli ichakka quyiladigan o‘t suyuqligi miqdori ____ ni tashkil etadi.
O‘n ikki barmoqli ichakka quyiladigan me’da osti bezi suyuqligi ____ hisoblanadi.
Appendiks uzunligi ____ sm.
Ichakdagi vorsinkalar soni ____ ta.
Yo‘g‘on ichakda so‘riladigan oqsillar foizi ____ ni tashkil etadi.
Oshqozon osti bezi og‘irligi ____ ni tashkil etadi.
Qalinligi ____ ni tashkil etadi.
Bo‘yi ____ ni tashkil etadi.


14. Ovqat hazm qilishining boshqarilishi sxemasini to‘ldiring.

15. To‘g‘ri fikr berilgan raqamni doira ichiga oling.
1) Oziq moddalar faqat suyuq holda qon va limfaga solinadi.
2) Odam organizmi quyosh energiyasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zlashtira oladi.
3) Fermentlar oziq moddalar bilan birga o‘zgarishlarga uchraydi.
4) Qizilo‘ngachdan boshlab kraxmal parchalana boshlaydi.
5) Oqsillar peptidaza fermenti ishtirokida amino kislotalargacha parchalanadi.
6) Odamda 32 ta sut tishlari mavjud.

7) Fermentlar bir vaqtning o‘zida bir qancha moddalarga ta’sir ko‘rsata oladi.
8) Ovqat oshqozondan to‘g‘ri ichakka tushadi.
9) Og‘iz bo‘shlig‘iga uchta so‘lak bezi o‘z yo‘lini ochadi.
10) Til – suyaksiz organ
11) Jigar o‘t suyuqligini ishlab chiqaradi.
12) Oshqozon ishqoriy muhitga ega.

16. Quyidagi kasallik belgilarini yozing.

Botulizm bu – ____ Appenditsit bu – ____
Pankreatit bu – ____ Salmonellyoz bu – ____
Kolit bu – ____ Dizenteriya bu – ____
Gepatit bu – ____ Enterit bu – ____
Gastrit bu – …
Sirroz bu – ____
Qandli diabet bu – ____



17. Rasmda qanday tajriba ifodalangan? Izoh bering!

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, biologiya darslarida o‘quvchilarning tizimli tafakkurini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish qayd etilgan tarzda tashkil etilishi o‘quvchilarning fan asoslarini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari, mustaqil adabiyotlar ustida ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish bilan birga sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini tarkib toptirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimidagi Davlat ta’lim standarti. –T.,1997.
2. Tolipova J.O. Biologiya ta’limi texnologiyalari. Metodik-qo‘llanma. O‘qituvchi, –T.: 2002. -128-b.
3. Isabayeva M. M. “Salomatlik” daftari. –T.: Tafakkur, 2012.
4. Isabayeva M. M. Biologiya o‘qitishda sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi. –T.: Fan va texnologiya, 2012.

Murod USMONOV,
Baxtiyor SUVANKULOV,
Jizzax davlat pedagogika instituti, katta o'qituvchilari

TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA INTERFAOL ELEKTRON O'QUV KURSLARNI YARATISH AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada interfaol elektron o'quv kurslarini yaratish texnologiyasi muammolari keltirilgan. Shuningdek, o'quv multimedia vositalarini yaratish bosqichlari, dastur ta'minoti va ulardan foydalanish yo'llari aniqlangan. Shuningdek, interfaol o'quv kurslarni yaratishni avtomatlashtirish dasturlari hamda WEB tahrirlagichlaridan foydalanish samaradorligini keltirilgan.

Kalit so'zlar. Multimedia, interfaol, elektron o'quv kursi, dastur ta'minoti, axborot texnologiyasi, bosqichlar, HTML, WEB.

В статье рассмотрена проблема разработки технологии создания интерактивных электронных учебных курсов. Потребовалась определить, программное обеспечение, с помощью которого будут изучены основные этапы создания учебного мультимедиа средства, сформированы умения и способы деятельности по их создания. Также показана эффективность использование автоматизированного программирование и WEB редактора.

Ключевые слова. Мультимедиа, информационная технология, интерактив, электронные учебники, программное обеспечения, этапы, HTML, WEB.

Article is about a technology issue of elaborating interactive electron teaching courses (IETC). Software was identified with the help of which main principles of creating teaching multimedia means will be studied, and skills and means of activities on their elaboration were formed. These software programs ease the knowledge transfer process and reaching the goal before teaching process. Moreover, after finishing the development of IETC, it can be handed over for general use.

Key words. Multimedia, informational technology, interactive, electronic teaching, software, steps, HTML, WEB.

Interfaol elektron o'quv kursi (IEO'K)ni yaratish uchun yaxshi yozilgan darsliklarning mavjud bo'lishi yetarli emas, ya'ni uni gipermatnlar bilan ta'minlash va illyustrativ materiallar bilan boyitish va kompyuter ekranida jozibali ko'rinishlarda akslantirishlarga erishish kerak. Ammo IEO'K matnli ma'lumotnomaga aylanib qolmasligi kerak. IEO'K eng muhim bo'lgan tushunchalarni, fikrlarni va keltirilgan misollarni va jarayonlarni tushunish va eslab qolishni maksimal osonlashtirish, an'anaviy darsliklarga qaraganda o'quv jarayoniga boshqacha ta'sirda, ya'ni kompyuterli tushuntirishlar orqali kirib borishi kerak.

IEO'Klarni yaratishda quyidagi bosqichlarga amal qilish tavsiya etiladi:

1. Fanga oid manbalarni tanlab olish.
2. Manbalardan foydalanish va qayta ishlash huquqi to'g'risida shartnomalar tuzish.
3. Mundarija va tushunchalar ro'yxatini ishlab chiqish.
4. Mavzulardagi matnlarni qayta ishlash va yordam berish bo'limini tuzish.

5. Gipermatnni elektron shaklda amalga oshirish.

Kompyuterli qo‘llab-quvvatlanishini ishlab chiqish.

6. Materiallarni multimediali obyektlarga keltirish uchun tanlab olish.

7. Tovush jo‘rligida amalga oshishini ishlab chiqish va tatbiq etish.

8. Materialni vizuallashtirish uchun tayyorlash.

9. IEO‘Klarni yaratish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda – shunday chop etilgan va elektron nashrlarni manbalar sifatida tanlab olish maqsadga muvofiq bo‘ladi, agar ular:

– davlat ta’lim standartlari bo‘yicha tuzilgan dasturlarga to‘la mos kelsa;

– mukammallashgan va gipermatnlar yaratish uchun qulay bo‘lsa;

– ko‘p sondagi amaliy mashq va topshiriqlardan tashkil topgan bo‘lsa;

– qulay bir tizimga keltirilgan bo‘lsa.

Ikkinchi bosqichda – to‘plangan manbalardan narx va sifat nisbati optimal bo‘lganlari tanlab olinadi.

Uchinchi bosqichda – IEO‘Kning mundarijasi ishlab chiqiladi, ya’ni: materialni hajmi bo‘yicha kichik (minimal) bo‘lgan mavzulardan tashkil topgan bo‘limlarga ajratib chiqiladi, ammo mazmuni bo‘yicha mujassamlashgan, hamda fanni o‘zlashtirish uchun zarur va yetarli bo‘lgan tushunchalarning ro‘yxati tuzib chiqiladi.

To‘rtinchi bosqichda – manbalarning matni tuzilgan mundarijaga, indeksga va bo‘lim tuzilmasiga mos ravishda qayta ishlashdan o‘tkaziladi; ro‘yxatga kiritilmagan matnlar olib tashlanadi, mavzular o‘rtasidagi aloqalar va boshqa gipermatnli bog‘lanishlar aniqlanadi. Shunday qilib, gipermatnning loyihasi kompyuterli amalga oshirilishi uchun tayyorlanadi.

Beshinchi bosqichda – gipermatnlar elektron shaklda amalga oshiriladi. Natijada, o‘quv maqsadlariga erishish uchun foydalanishga mo‘ljallangan oddiy elektron nashr yaratiladi. Ko‘pchilik aynan shunday oddiy elektron nashrlarni IEO‘K deb ham yuritishadi. U amalda hech qachon IEO‘K talablariga to‘liq javob bermaydi.

Oltinchi bosqichda – kompyuterli qo‘llab-quvvatlanishi ishlab chiqiladi ya’ni har bir alohida hol uchun har qanday matematik amallar kompyuterga yuklanishi va undan javob qanday shaklda olinishi kerakligi aniqlanadi; IEO‘Kning intellektual yadrosi loyihalanadi; foydalanuvchi uchun IEO‘K intellektual yadrosini qo‘llash bo‘yicha ko‘rsatma ishlab chiqiladi.

Natijada, o‘quvchilar uchun zaruriy vositaga aylantiruvchi xossalarga ega bo‘lgan, auditoriya mashg‘ulotlari uchun foydali bo‘lgan va o‘qituvchilar uchun qulay foydalanishga tayyor bo‘lgan IEO‘K yaratiladi. Demak, IEO‘K multimedia vositalari yordamida yanada takomillashtirish (ovoz berish va vizuallashtirish) uchun tayyor bo‘ladi.

Yettinchi bosqichda – alohida tushunchalar va fikrlarni tushuntirish yo‘llari o‘zgartiriladi va multimediali obyektlar bilan almashtirish uchun matnlar tanlab olinadi.

Sakkizinchi bosqichda – alohida mavzulardagi matnlarni ekranda matnli axborotlar tig‘izligidan xalos ettirish maqsadida ularni ovoz bilan jo‘r ettirish orqali ta’lim oluvchilarning o‘rganilayotgan materiallarni tushunishini yengillashtiradi.

To‘qqizinchi bosqichda – ovoz jo‘rligida ishlab chiqilgan matnlar diktofonga yozib olinadi va kompyuterda amalga oshiriladi.

O‘ninchi bosqichda – mavzularni vizuallashtirish ssenariyalari ishlab chiqiladi. Yanada ko‘rgazmali bo‘lishiga erishish uchun, ekranni matnli ma’lumotlardan maksimal tozalash va ta’lim oluvchilarning emotsional xotiralaridan o‘rganilayotgan materiallarni tushunishini yengillashtirish uchun eshitish xotiralarini ishlatish kerak bo‘ladi.

O‘n birinchi bosqichda – matnlarni vizuallashtirish, ya’ni yaratilgan ssenariyalarni

rasmlar, grafiklar va animatsiyalar bilan kompyuterli gavdalantirish ishlari bajariladi.

Shu bilan IEO‘Kni ishlab chiqish jarayoni tugaydi va uni foydalanishga tayyorlash boshlanadi. Shuni ta’kidlash joizki, IEO‘K foydalanishga tayyorlash uning tarkibiy va multimediali tashkil etuvchi hadlariga ba’zi bir o‘zgartirishlar kiritishni ko‘zda tutishi mumkin. IEO‘Kni foydalanishga tayyorlash.

IEO‘Kni foydalanishga tayyorlash jarayonida bajariladigan ishlarning tarkibi quyidagilardan iborat bo‘lishi kerak:

1. Sinovdan o‘tkazish.
2. Undan foydalanish bo‘yicha uslubiy-qo‘llanma yozish.
3. Uslubiy ta’minotini ishlab chiqish.
4. IEO‘Kni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish.
5. Patent idorasiga rasmiy qayd ettirish uchun kerakli hujjatlar to‘plamini tayyorlash.

Darchaning ko‘rinishi xuddi Word matn muharririga o‘xshash tuzilgan va u quyidagilardan iborat:

• darchaning yuqorisida – bosh qismi satri;
• tavsiyanoma satri;
• asboblar paneli – standart va formatlash elementlaridan tarkib topgan, bularda qo‘shimcha boshqa muharrirlardan farqli ravishda “Forma” maydoni ham mavjud;
• vertikal va gorizontal yo‘lak bo‘yicha harakatlantirgichlar;
• darcha pastida – holat satri joylashgan.

Asosiy ish maydoni uch xil ko‘rinishda bo‘lishi mumkin:

• Normal (oddiy holat) – tahrirlashda, obyektlar bilan ishlash uchun qulay;
• HTML – HTML tilida tahrirlashga qulay;
• Preview – natijani ko‘rish holati.

Bunda FrontPage ixtiyoriy formatdagi fayllarni avtomatik ravishda NTML formatiga o‘tkazadi. Avtomatlashtirilgan ta’lim tizimini talaba uchun o‘quv metodik dasturiy ta’minoti, masofaviy texnologiya orqali ta’lim berish tizimi va Web orqali onlayn tarzida ko‘rsatma olish imkonini beruvchi vositalar to‘plamidan iborat deb qarash mumkin. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan dasturiy vositalarni tanlash, dasturga qo‘yiladigan talablar, dastur strukturasi va shu asosiy xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtirgan dasturiy ta’minot yaratish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, IEO‘Kni yaratishda bir qancha maxsus dasturiy ta’minotlardan, Web sahifalaridan foydalaniladi. Hozirgi vaqtda elektron o‘quv kurslarni yaratishni avtomatlashtirish dasturlari, prezentatsiya mavjudligi mutaxassis, muallif, o‘qituvchi, talabalarga ma’ruza paytida qulay sharoit yaratadi va ularni o‘z maqsadiga erishishida yordamlashdi. Shu bilan IEO‘Kni ishlab chiqish jarayoni tugab uni foydalanishga topshirish mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov S., Usmonov M. Multimedia muhitida o‘qitish kurslarini ishlab chiqish. JizPI. “Yoshlar va zamonaviy texnika texnologiyalari” Respublika ilmiy-amaliy konferensiya. 28-29-mart 2008-y. – Jizzax. 2008.– 322-324-betlar.

2. Усманов М. Проблемы создания интерактивных электронных учебных курсов на основе мультимедийных технологий. Педагогических наук №6 (51) 2011 ISBN 1728-8894 – Россия. Спутник. 2011. – С.138-140.

3. Usmonov M. Interaktiv elektron o‘quv kurslarini loyihalashtirish va yaratish algoritmini ishlab chiqish. Fizika, matematika, informatika. №1. 2012. 47-52-betlar.

Shoxida SIDDIQOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, Jizzax davlat pedagogika instituti, o'qituvchisi
Sabina NURIDDINOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, "Boshlang'ich ta'lim" fakulteti talabasi

NAVOIY BADIIY OLAMI XUSUSIDA MUXTASAR FIKRLAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada Alisher Navoiy badiiy olami xususida muxtasar fikrlar bildirib o'tilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy lirik merosida qadim turkiy she'riyat hamda fors-tojik adabiyoti tajribalari uyg'un ravishda mujassamlashgan.

Kalit so'zlar. O'rta asrlar o'zbek lirikasi, g'oya, vazn va badiiy uslub, lirik meros, turkiy she'riyat, fors-tojik adabiyoti tajribalari.

Статья представляет собой краткий обзор художественного мира Навои. В частности, творчество Алишера Навои – это высшая ступень средневековой узбекской лирики. Лирическое наследие Алишера Навои сочетает в себе переживания древнетюркской поезии и персидско-таджикской литературы.

Ключевые слова. Средновековая узбекская лирика, идеи, вес и художественный стиль, лирическое наследие турецкая поезия опыт персидскотаджикской литературы.

This article provides a brief overview of the Navoi art world. In particular, the work of Alisher Navoi is the highest stage of medieval Uzbek lyrics. Alisher Navoi's lyrical heritage combines the experiences of ancient Turkic poetry and Persian- Tajik literature.

Key words. Medieval Uzbek lyrics, ideas, weight and artistic style, lyrical heritage, Turkish poetry, experiences of Persian-Tajik literature.

Alisher Navoiy ijodi o'rta asrlar o'zbek lirikasining eng yuksak bosqichini tashkil etadi. Shoir musulmon Sharqning deyarli barcha janrlarida o'z qalamini sinab ko'radi va o'z ovozi, o'z uslubi borligini ko'rsata oldi. Ulug' shoir o'zigacha bo'lgan she'riyatni mavzu, g'oya, vazn va badiiy uslub jihatlarini ulkan mehnat va mahorat bilan misli ko'rilmagan darajada takomillashtirdi. Alisher Navoiy lirik merosida qadim turkiy she'riyat hamda fors-tojik adabiyoti tajribalari uyg'un ravishda mujassamlashgan. Navoiy turkiy va forsiy tillarda birday mahorat bilan qalam tebratgan zabardast zullisonayn shoir edi. U o'z she'riyati orqali o'zbek (chig'atoy) adabiyotini yangi darajaga olib chiqdi. Navoiyning nazmi mavzusining kengligi hamda janrining xilma-xilligi jihatidan tahsinga loyiqdir. Ammo turkiy tilda she'r bitishda hech kim Navoiydek shuhrat qozonmagan. Navoiy so'z san'ati borasida tug'ma daho ekanligini o'zi ham e'tirof etardi. Buni u ustozi Sayid Hasan Ardasherga yozgan she'riy maktubida shunday ifodalagan:

Falak ko'rmadi men kibi nodire,
Nizomiy kibi nazm aro qodire.
Ne nazme der ersam meni dardnok,
Ki har harfi bo'lg'ay ani durri pok.
Yetar tengridin oncha quvvat manga,
Ki bo'lmas bitiriga fursat manga.

"Muhokamat ul-lug'atayn" ("Ikki til muhokamasi") 1498-1499-yillarda yaratilgan

Alisher Navoiyning tilshunoslikka oid asarlaridan biri. Shoir “Muhokamat ul-lug‘atayn”da o‘zbek tilining boyligini, qudratini, o‘sha davrning adabiy tillari qatoridan o‘rin olishga qodir va haqli ekanligini ilmiy tomondan isbotladi. Asarda o‘zbek (turkiy) va fors tillari unli tovushlari, leksika va morfologiya doirasida o‘zaro qiyoslanadi. Dastlab, har ikki tildagi unlilar qiyoslanganda, shoir fors tilida unlilar soni cheklanganligi, o‘zbek tilida esa unlilar bir qancha ma’no farqlovchi variantlarga ega ekanligi va ular o‘zaro uzun qisqaligi bilan ajralib turishini dalillar orqali ko‘rsatib bergan. Navoiy grammatik jihatdan ham o‘zbek tili fors tiliga nisbatan ba’zi imkoniyatlarga ega ekanligini tahlil etadi. Ma’lumki, qaysi til ma’noni qisqa yo‘l bilan ifodalay olsa, shu til rivojlangan til ekanligini shoir zaruriy misollar bilan ko‘rsatib beradi. Navoiy o‘zbek tilining boyligi va qudratini, ifodaviy imkoniyatini asosli tahlil etib, quyidagi xulosaga keladi: O‘zbek tilida bu xildagi nozik ma’noli so‘z va iboralar ko‘p, ammo “…bu kunga degincha hech kishi haqiqatig‘a mulohaza qilmog‘on jihatidan bu yashurun qolibdur... hunarsiz turkning sitam zarif yigitlari osonliqqa bo‘la forsiy alfoz bila nazm ayturg‘a mashg‘ul bo‘libturlar”. Shuning uchun Navoiy o‘zbek shoirlarini o‘z tilida ijod qilishga da’vat etadi. So‘z, hazrat Navoiy nazdida, ilohiy ne’mat. Tangri taolo o‘z sirlarining xazinasi bo‘lgan insonni yaralmishlar ichida so‘z tufayli mumtoz etdi. Hatto olamning yaratilishi ham so‘z sharofatidan. Shuning uchun “Xazoyin ul-maoniy”dagi lirik she’rlarida ham, nasriy va adabiy-ilmiy asarlarida ham ulug‘ mutafakkir so‘z qadri, so‘z mas’uliyati masalalariga alohida diqqat qaratadi. “Xamsa”ning har bir dostonida so‘z ta’rifiga alohida boblar bag‘ishlaydi. “Nazm ul-javohir” asarida, jumladan, so‘zga mana bunday ta’rif beriladi:

So‘zdurki nishon berur o‘lukka jondin,
So‘zdurki berur jong‘a xabar jonondin.
Insonni so‘z ayladi judo hayvondin,
Bilkim, guhare sharifroq yo‘q ondin.

Ulug‘ mutafakkirning so‘zga bu qadar ehtirom bilan munosabatda bo‘lishi zamirida, birinchidan, inson uchun so‘zning nechog‘liq ulug‘ ne’mat ekani, uni qadrlash zarurati ifodalangan bo‘lsa, ikkinchidan, ijod ahli zimmasidagi ulkan mas’uliyatni ta’kidlash maqsadi yotadi. So‘z, hazrat Navoiy nazdida, ilohiy ne’mat. Tangri taolo o‘z sirlarining xazinasi bo‘lgan insonni yaralmishlar ichida so‘z tufayli mumtoz etdi. Hatto olamning yaratilishi ham so‘z sharofatidan. Shuning uchun “Xazoyin ul-maoniy”dagi lirik she’rlarida ham, nasriy va adabiy-ilmiy asarlarida ham ulug‘ mutafakkir so‘z qadri, so‘z mas’uliyati masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tarbiyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. Besh asrdan oshibdiki, buyuk mutafakkirning ijodi yuksak gumanizm ruhi bilan yo‘g‘rilgan she’riyati, yuksak axloqiy fazilatlar targ‘ib etilgan dostonlari va nasriy asarlari millionlab muxlislarni o‘ziga rom etib, ibratli hayot yo‘li tillarda doston bo‘lib kelmoqda.

Alisher Navoiyning fikricha, inson uchun toj, davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir. Alisher Navoiy xalqqa ish bilan ham, so‘z bilan ham foyda keltirish kerakligini aytadi. U xalq manfaati uchun ishlaydigan, xalqning baxt-saodati uchun kurashadigan kishilarni haqiqiy odam deb biladi:

Odami ersang demagil odami,
Onikim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Xalqqa yordam berishni istamaydigan, xudbin, qora ko‘ngil odamlarni Navoiy eng yomon odam, xalqqa zarar yetkazadi deb ta’riflaydi.

El qochsa birovdin el yomoni bil oni,
Ahvolida idbor nishoni bil oni.

Fe’l ichra ulus bolam joni bil oni,
Olam elining yomoni yomon bil oni.

Insonlar bir-birlari bilan do‘st-inoq va hamjihat bo‘lib yashamas ekanlar, o‘z orzu-niyatlariga yeta olmaydilar, yakkalik, yolg‘izlik bilan hech qanday ish qilib bo‘lmaydi, shuning uchun ham u hamma insonlarni do‘st bo‘lib yashashga chorlaydi. Alisher Navoiy do‘stlikni ulug‘laydi, shu bilan birga soxta, g‘araz bilan do‘st bo‘luvchi kishilarni qoralaydi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan mazkur soha yechimiga qaratilgan qator qonun hujjatlari imzolanib, farmon, qaror, va farmoyishlar qabul qilinmoqda. Ma’nan yetuk, dunyoqarashi teran, mustaqil fikrlovchi, e’tiqodi mustahkam, siyosiy-ma’naviy saviyasi hozirgi davr talablariga to‘la javob beradigan barkamol avlodni kamol toptirishga xizmat qilmoqda. Bugungi davrda, erishilgan ilmiy, ijodiy erkinlik navoiyshunoslik oldida ham yangi talablarni, vazifalarni qo‘ymoqda. Navoiyshunoslarni tayyorlashga jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Navoiyshunoslar avlodini tarbiyalash uchun oliy maktablarda maxsus kurslar, amaliy, nazariy saboqlar berilmoqda, undan tashqari turli xil kurslar tashkil etilib ta’lim berish jarayonlari olib borilmoqda.

Yurtimizda yangi davr navoiyshunoslar avlodi uchun ko‘plab zamonaviy ta’lim tarbiya berish jarayonlari yo‘lga qo‘yilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalari imkoni-yatlardan, vositalardan samarali foydalanib, oliy o‘quv yurtlarida Navoiy ijodi chuqur o‘rgatilmog‘i, o‘quv rejalarida navoiyshunoslik, ulug‘ mutafakkir yozma merosi bilan bog‘liq darslar kompleksi o‘rin olmog‘i kerak. Umuman, jamiyatda kechayotgan tub o‘zgarishlar, ma’naviy tiklanishlar davrida Alisher Navoiy ijodini, ajdodlarimiz merosini yangicha ilmiy qarashlar, yondashuvlar asosida tahlil qilish va targ‘ib etish yangi o‘zbek navoiyshunosligining bosh vazifasidir. Alisher Navoiyning barcha asarlari yoshlar tar-biyasi uchun muhim xazina hisoblanadi. U o‘z asarlarida har bir so‘zdan unumli va o‘rinli foydalana olgan. Har bir hikmati biz uchun ibratlidir. Alisher Navoiyning hayoti va merosi yoshlarda umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda har tomonlama namuna bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Siddiqova Sh.I. Buyuk inson, benazir ijodkor. Yangilanayotgan O‘zbekiston olimasi: muammolar, tadqiqotlar, yechimlar. Respublika konf. Jizzax, 2021-yil, fevral.
2. Navoiy Mukammal asarlar to‘plami. – T.,1967.
3. Hoshimov K. Pedagogika tarixi. –T.: O‘qituvchi, 1996.
4. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. 20-tomlik. –T.: Fan, 1990.
5. Zunnunov A. O‘zbek pedagogikasi tarixi. –T.: O‘qituvchi, 1997.

Navbahor XASANOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, "Musiqiy ta'lim" kafedrasi, katta o'qituvchisi

MUSIQA FANINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TA'LIMDA SAMARADORLIGI

Annotatsiya

Maqolada musiqa fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning ta'limda samaradorligining o'ziga xos jihatlari axborotlarni o'zlashtirish, ulardan amalda foydalanish, ulardagi yangi ma'no-mazmunni hamda axborotlar orasidagi turli bog'liqliklarni ochish orqali yangi axborotlar o'rgatishda ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar. Musiqa, innovatsion, texnologiya, o'quv muassasa, oliy o'quv yurti, pedagogik mahorati, bilim darajasi.

Особенности эффективности инновационных технологий в обучении данной музыкальной дисциплине в образовании освещены на основе научных подходов к усвоению информации, ее практическому использованию, раскрытию в ней нового смысла и различных связей между информацией.

Ключевые слова. Музыка, инновацион, технология, учебное заведение, высшее учебное заведение, педагогическое мастерство, уровень знаний.

The features of the effectiveness of innovative technologies in teaching this musical discipline in education are highlighted on the basis of scientific approaches to the assimilation of information, its practical use, the disclosure of a new meaning in it and various connections between information.

Key words. Music, innovation, technology, educational institution, higher education institution, pedagogical skills, level of knowledge.

Hozirgi kunda respublikamizning barcha ta'lim tizimida, ayniqsa, oliy pedagogik ta'lim tizimida pedagog-kadrlar tayyorlashning sifat va samaradorligini yuqori ko'tarishga katta ahamiyat berilmoqda va bu borada turli pedagogik izlanishlar olib borilmoqda. Bu izlanishlarning aksariyati o'qitish maqsadi va uning yuqori natijalariga erishishida ta'limga ilg'or innovatsion texnologiyalarni kiritish orqali ta'lim samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan bo'lib, ta'limni texnologiyalashtirish eng muhim vazifalardan biri bo'lib turibdi.

O'qituvchining yuksak pedagogik mahorati, bilim darajasi shubhasiz ta'lim-tarbiyaning muhim omillaridan biridir. Pedagogik mahorati yuqori, tajribali o'qituvchi darsni shunchaki bayon qilib bermaydi. Buni musiqa darslari misolida izohlaydigan bo'lsak, o'qituvchi avvalo, o'zining so'z mahorati, cholg'u asbobida chalish, qo'shiq kuylash, turli ko'rgazmali, texnik vositalardan foydalanishi darsni qiziqarli va mazmunli kechishida katta rol o'ynaydi.

Musiqa darslarida aksariyat o'quvchilar o'qituvchiga taqlid qilib kuylashadi, unga ergashadi, andoza oladi, o'qituvchining shaxsiy "namunasi" muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki darsda amaliy ijrochilik yetakchi o'rin tutadi, quruq bayonchilik uslubi bilan hech qanday maqsadga erishib bo'lmaydi.

Puxta tashkillashtirilgan ilmiy-pedagogik tayyorgarlik ta'lim samaradorligini

ta’minlaydigan asosiy omillardan biri sanaladi. Ushbu jarayonda faol ishtirok etuvchi o‘qituvchilar muntazam ravishda o‘zlarining pedagogik mahoratlarini orttirib boradilar hamda ta’lim – tarbiya samaradorligini ta’minlashda, kelajak uchun mas’ul barkamol avlodni kamolga yetkazishda boshqalarga o‘rnak bo‘lib xizmat qiladilar. Demak, har bir ta’lim bo‘g‘inida shu jumladan, umumta’lim maktablarida “Musiqa madaniyati” darslarini olib boruvchi ilg‘or pedagoglarning innovatsion faoliyatlari va tajribalarini doimiy takomillashtirib, rag‘batlantirib borish orqali yaxshi natijalarga erishish mumkin.

Talabalarni innovatsion faoliyatga tayyorlash va unga oid ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun avvalo, o‘quv – biluv faoliyatidan unumli foydalana bilish, talabalarni har bir fan o‘qitilishida pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish mahoratlarini egallab borishlariga erishish zarur. Masalan, dirijyorlik mashg‘ulotlari jarayonida “Talaba treningi”, “Men dirijyor”, “Klaster”, Musiqa nazariyasi fanini o‘tishda “Aqliy hujum”, “Skarabey”, “Bahs-munozara”, “Muloqot”, “Guruh bo‘lib ishlash”, Xor va xorshunoslik asoslari mashg‘ulotlarida “Kichik guruhlar holida ishlash”, “Individual ishlash”, “Differensial guruhlarga bo‘lish”, “Multimedia texnologiyasi”, “Konsert darsi”, musiqa tarixi fanini o‘tishda “Muammoli vaziyat”, “Viktorina darsi”, “Savol-javob”, cholg‘u ijrochiligi darsini o‘qitishda “Kuyni davom ettir”, “Dars sayohat”, “Konkurs darslar” texnologiyalarini qo‘llash talabalarni bunday faoliyatga tayyorlab borish mumkin.

Pedagogika oliy o‘quv yurtlarida bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash bo‘yicha quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

1. Texnologik yondashuv asosida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning yangicha va samarali ish tajribalarini o‘rganish.

2. Pedagoglarning texnologik yondashuv faolligini oshirish va aksincha unda to‘sqinlik qilayotgan muammolar sabablarini aniqlash texnologik yondashuv asosida ishlashning yanada samaraliroq yo‘llarini izlash.

3. Tajribali o‘qituvchilarning darslarini ilg‘or innovatsion texnologiyalarini qo‘llab o‘tish borasidagi o‘ziga xos usullari, ularni farqli va o‘xshash jihatlarini kamchilik va yutuqlarini aniqlab o‘z faoliyatida tatbiq etishga o‘rganish.

Hozirgi davrda har bir o‘qituvchi egallashi lozim bo‘lgan ko‘nikmalardan biri – darslarni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish va o‘tkaza olish ko‘nikmasidir. O‘z tarkibiga ko‘ra bu ko‘nikma ham serqirra va murakkabdir. Ushbu yo‘nalishdagi kuzatuvchilarimiz, tajribali pedagog o‘qituvchilar bilan suhbat va mavzuga oid o‘quv uslubiy va ilmiy manbalarni o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga keldik. Darslarni innovatsion texnologiya asosida tashkil etish uchun, avvalo, o‘quv mashg‘ulotlari jarayonidan unumli foydalanish darsga nazariy va amaliy tomondan puxta tayyorgarlik ko‘rish lozim:

– o‘qituvchi o‘quv mashg‘ulotlari davomida egallagan va yanada mustahkamlab borishi lozim bo‘lgan nazariy, pedagogik-psixologik va metodik bilimlarni amaliyotga ongli va samarali qo‘llay olish;

– innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish va aniq maqsad, loyiha asosida tizimli olib borilishiga erishish.

O‘quv mashg‘ulotlarining mazmuni, mohiyati va musiqiy faoliyatlarning o‘ziga xoslik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularga mos texnologiya va pedagogik metodlardan o‘z o‘rnida foydalaniladi. Interfaol metodlardan “Aqliy hujum”, “Klaster” (tarmoqlash), “Blits so‘rov”, “Piramida”, “Bumerang”, “Skarabey”, “Bahs – munozara”, “Doira stol atrofida”, “O‘yla, izla, top”, “Kuyni top”, “Men dirijyor”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Konsert dars”, “Viktorina darslari”, amaliy metodlardan “Savol-javob”, “Suhbat”, “Hikoya”,

“Tushuntirish”, “Uqtirish” va ko‘rgazmali, texnik vositalar yordamida namoyish qilish, ko‘rsatish kabi uslublarga keng o‘rin berildi.

“Tarmoqlar” metodi (Klaster) fikrlarning tarmoqlanishi – bu pedagogik strategiya (o‘yinning umumiy rejasi) bo‘lib, u o‘quvchilarni biron bir mavzuni chuqur o‘rganishlariga yordam berib, o‘quvchilarni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrni erkin va ochiq ravishda ketma-ketlik bilan uzviy bog‘langan holda tarmoqlashlariga o‘rgatadi. Bu metod biron bir mavzuni chuqur o‘rganishdan avval o‘quvchilarning fikrlash faoliyatini jadallashtirish hamda kengaytirish uchun xizmat qilishi mumkin. Shuningdek, o‘tilgan mavzuni mustahkamlash, yaxshi o‘zlashtirish, umumlashtirish hamda o‘quvchilarni shu mavzu bo‘yicha tasavvurlarini chizma shaklida ifodalashga undaydi.

Klasterni tuzish qoidasi

1. Aqlingizga nima kelsa, barchasini yozing. G‘oyalar sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing.

2. Xatni to‘xtatadigan imlo xatolariga va boshqa omillarga e’tibor bermang.

3. Ajratilgan vaqt tugaguncha yozishni to‘xtatmang. Agarda, aqlingizda g‘oyalar kelishi birdan to‘xtasa, u holda qachonki yangi g‘oyalar kelmaguncha qog‘ozga rasm chizib turing.

“Nima uchun” metodi chizmasi qoidalari

1. Aylana yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shakllardan foydalanishni o‘zingiz tanlaysiz.

2. Chizmaning ko‘rinishini – mulohazalar zanjirini to‘g‘ri chiziqlimi, to‘g‘ri chiziqli emasligini o‘zingiz tanlaysiz.

3. Yo‘nalish ko‘rsatkichlari sizning qidiruvlaringizni: dastlabki holatdan izlanishgacha bo‘lgan yo‘nalishingizni belgilaydi.

Xullas, innovatsion texnologiya – ta’lim usuli, ma’lum ma’noda ta’lim jarayoni, vositalari shakl va metodlari majmuasi. O‘quv materiallarini tanlash, qayta ishlab, o‘quvchilarni kuchi imkoniyatlari, fanni o‘zlashtirish darajasi fanni spesifik tuzilishi xususiyatiga moslab shakli va hajmini o‘zgartirish ham ta’lim texnologiyasiga daxldor. O‘qituvchining ta’lim jarayoni texnologik metodlar asosida tashkil etishi ko‘p jihatdan uning o‘ziga bog‘liqligi, bilimi ularni har birini tashkiliy tuzilishi xususiyatlarini yaxshi bilishi ta’lim samaradorligi ta’minlashning muhim kafolati bo‘ladi. Demak, innovatsion texnologiya insonga oldindan belgilangan maqsad bo‘yicha ta’sir o‘tkazish faoliyatidan iborat. Shuningdek, o‘quvchini mustaqil fikrlash, mushohada qilish, bilim olish, darsning faol ishtirokchisiga aylanishini o‘rgatishni kafolatlaydigan jarayondir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramova X. (2020). Zamonaviy multimedia vositalaridan foydalanish – muvaffaqiyat garovi. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(12), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3162

2. Akramova X. (2020). Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat texnologiyasi. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-5. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/3994

3. Akramova X. (2020). Didactic Foundations of Labor Activity for Children with Intellectual Disabilities. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/682

Elnoza ABDUKARIMOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Musiqiy ta’lim” kafedrasi, o‘qituvchisi

OLIY PEDAGOGIK TA’LIMDA BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARINI MUMTOZ MUSIQA VOSITASIDA AMALIY FAOLIYATGA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada o‘zbek mumtoz musiqa asarlarining shaxs tarbiyasida muhim pedagogik omil ekanligi, oliy pedagogik ta’lim tizimida ulardan foydalanish orqali bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish usul va vositalarini qayd etilgan holda tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so‘zlar. Mumtoz musiqa, ta’lim-tarbiya, faoliyat, mashg‘ulot, kasbga tayyorlash, qadriyat, metodika, shakl, usul, vositalar.

В статье даны рекомендации о значении узбекской классической музыки как важного педагогического фактора в личностном развитии, методы и средства совершенствования системы профессиональной подготовки будущих учителей музыки через их использование в системе высшего педагогического образования.

Ключевые слова. Классическая музыка, воспитание, деятельность, обучение, профессиональная ориентация, ценность, методика, форма, методы, средства.

The article gives recommendations on the importance of Uzbek classical music as an important pedagogical factor in personal development, methods and means of improving the system of professional training of future music teachers through their use in the system of higher pedagogical education.

Key words. Classical music, education, activity, training, professional orientation, Gazelle, value, form, methods, means.

Hozirda o‘sib kelayotgan yoshlarni milliy, sharqona, tarixiy shakllangan qadriyatlarni hisobga olgan holda, zamonaviy ruhda tarbiyalash hamda ijobiy insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan kasb egalarini tayyorlash muammosi davlat miqyosidagi dolzarb masalalardan hisoblanadi. Shu bois ham bugungi kunda respublikamizda ta’lim-tarbiya ishlari mazmunida umummilliy va milliy qadriyatlar, milliy san’at namunalaridan keng foydalanish, ta’lim tizimiga ilg‘or pedagogik texnologiyalarni keng tatbiq etish, shu o‘rinda xorijiy mamlakatlardagi o‘qitishning eng zamonaviy, fan-texnika yutuqlariga asoslangan tajribalaridan unumli va o‘rinli foydalanishga katta ahamiyat berilmoqda.

Har bir san’at turining o‘ziga xos ifodaviylik xususiyatlari bo‘lgani kabi mumtoz asarlardagi obraz, voqelik, inson his-tuyg‘ularini emosional – ta’sirchan musiqiy shakl, usullarda ijro etilishi, she’riyat va musiqaning sinxron uyg‘unligi, o‘zbek millatiga tushunarli va ruhiyatiga g‘oyatda yaqin ohanglarni nafis, lirik va birmuncha kishi qalbini tebratuvchi hazinlikka moyil ohanglari, xushovoz xonandaning yoqimli, shirador ovozi va mahoratli uyg‘un ijrosi bilan inson qalbining yorqin va ajib ifodasiga aylangan so‘z go‘zalligini ham namoyon etadi. Bunday asarlar tinglovchining ongi, irodasi sezgisi, hissiy, musiqiy idrokiga ta’siri murakkab psixologik jarayon bo‘lib, buni ko‘p jihatdan

o‘zbek musiqa san’atida, aynan mumtoz kuy-qo‘shiqlar ana shunday san’atlar sirasiga kiradi. Mumtoz ashulalar, kuylar haqiqiy o‘zining milliylik va yuqori darajadagi ijod namunasi, ya’ni mumtozlik mohiyatini milliy cholg‘ular jo‘rligida namoyon eta oladi.

Maqom va mumtoz (klassik) asarlarni tadqiq qilishda Yevropa va Sharq mamlakatlarida turli mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari aynan bir xil bo‘lmasada, bir-biriga o‘xshash masalalar bo‘yicha amalga oshirilgan umumiy tushunchalarni anglashda yordam beradi.

“Bugun bizlar mug‘omlar, maqomlar va mumtoz asarlarni ijro etish san’atining butun chuqurligi va murakkabligini namoyish qila oladigan yoshlarni yetishtira olamizmi? Hozir yoshlarimizni san'atning mazkur shakllarini qat’iy va jiddiy idrok etishga yetarli darajada tarbiyalayapmizmi? Agar hozir ana shu klassik an’analarni qayta tiklamasak va rivojlantirmasak, badgumon hamda safsatabozlarning yoppasiga yevropalashtirish, qadimiy sharq musiqasining haqiqiyligi va mukammalligini yo‘qqa chiqarmoqda degan da’volariga keng yo‘l ochib qo‘ygan bo‘lamiz” – deb yozadi musiqashunos I.Nestyev.

Mumtoz musiqa to‘g‘risida nazariy bilim va amaliy ijrochilik malakasiga ega bo‘lish, ularning badiiy qimmatini baholay olish, g‘oyaviy hamda tarbiyaviy mazmunini anglash, shuningdek, mumtoz musiqaning maktab dasturiga kiritilgan namunalarini muayyan darajada ijro eta olish va ularni amaliy faoliyatda o‘quvchi-yoshlarga o‘rgata olishga layoqatli kasb egasi bo‘lishlarini talab etadi.

Bu o‘rinda, bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini ushbu fanni o‘rganish davomida eng avvalo quyidagilarga diqqat e’tiborini qaratish lozim:

1. Musiqiy asarning jonli, g‘oyaviy-badiiy mazmuni, kuyning qaysi paytda yozilganligi, usuli (ritmini) va asar mazmunida aks etgan badiiy obrazlar haqida aniq tasavvurga ega bo‘lish.

2. Musiqiy asar g‘oyaviy mazmunini, ohanglarda ifoda etilgan matnning o‘zaro mutanosiblik va sinxronligini anglay olish.

3. Kuy va ohangni mukammallashtiruvchi – nola, qochirim, forshlak, tremola, mordent, salmoqlash, siltovlash kabi bezaklarni o‘rni, ahamiyatini va ularni muayyan darajada ijro etish va ularni farqiga yetish, kerakli o‘rinlarda baholay olish. Mumtoz asarni ijro etishda ijrochining ijro mahorati va ovozining musiqa kuyiga mutanosibligini seza olish, unga munosabat bildira olish.

Mumtoz kuy-qo‘shiqlarni mohir ijrochilari haqida qiziqarli ma’lumotlarni bilish ta’limni muvaffaqiyatli tashkil etilishini muhim omili hisoblanadi. Shuningdek, mumtoz musiqa asarlarini ijro etish uchun talabalar muayyan darajada ashulachilik ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ham zaruriy shartlardan bo‘lib, bu o‘rinda:

1. Asarni ijro etishdan oldin diqqat bilan tinglash.

2. Mumtoz asarlarni kuylash va chalishga nisbatan muayyan ehtiyoj paydo qilish.

3. Asar matn mazmunini to‘la idrok etilishiga erishish.

4. Asarni jamoa bo‘lib o‘rganish.

5. Asarlardagi nozik qochirim, nolalarni ijro etish ustida maxsus mashqlar bilan ishlash.

6. Harflar, bo‘g‘inlar, so‘zlar talaffuzi ustida ishlash.

7. Ijro uslubiga qat’iy rioya qilish, kamchiliklarni to‘g‘irlab borish.

8. Asarlarni ularning mazmuniga mos ravishda ijro etishga erishish, ijroda dinamika, temp, sozlar jo‘rligiga erishish.

9. Yuksak mahorat bilan chalish va kuylash ko‘nikmalarini egallash.

10. Chalish va kuylashda o‘z xatti-harakatlariga e’tibor berish, sahna madaniyati

qoidalarini egallash.

Musiqa mashg‘ulotlari jarayonida o‘quvchilar tomonidan zoxir bo‘ladigan o‘ziga xos psixologik holatlar ularni badiiy tafakkurini yanada kengayib borishi uchun muhim imkoniyat yaratadi. Mumtoz asarlarning g‘oyaviy-badiiy mazmuni va ohang tuzilishini tahlil qilish, matn va ohang tuzilmalarini jarangdorligini, nozik elementlarini his qilish, murakkab va o‘ziga xos nola va qochirimlarni anglash, mumtoz asarga xos barcha jihatlarni umumlashgan holatda idrok etishlariga erishish ta’limni muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi. Bu o‘rinda, musiqa o‘qituvchisining pedagogik mahorati va mumtoz musiqa bo‘yicha kasbiy tayyorgarligi hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Oliy pedagogik ta’lim jarayonida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining maktab ta’limiga tayyorlash jarayonida quyidagi bilim va vazifalarni egallab borishlari va bular bevosita ularni kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik darajalarini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi.

1. O‘quvchi shaxsining mumtoz musiqaga bo‘lgan munosabatlari qiziqishi, tinglash, o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojini qunt bilan o‘rganish.

2. O‘quvchilarni yosh, psixologik, fiziologik xususiyatlari hamda musiqiy diqqat, xotira, eshituv, fikrlash, tasavvur qilish, shaxsiy imkoniyatlari (cholg‘uda ijro etish, qo‘shiq kuylash) va alohida iqtidorlari haqidagi ma’lumotlarga ega bo‘lish.

3. O‘quvchilarni san’atning alohida turlariga bo‘lgan qiziqishi, mustaqil bilim olishga ishtiyoqi, qobiliyati, bilim va malakalariga mos mumtoz namunalar repertuarini shakllantirish.

4. O‘quvchilar bilan ishlashning qulay, samarali, ish usul, shakl, vositalariga ega bo‘lish.

5. Dars jarayonida ko‘rgazmali, texnik vositalar hamda zamonaviy o‘qitish texnologiyalaridan o‘rinli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lish.

6. O‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan mumtoz musiqa san’atiga oid nazariy va amaliy ijrochilik bilan bog‘liq bilimlarni obyektiv baholash tizimlariga ega bo‘lish.

Oliy o‘quv yurtlarida “Mumtoz va maqom ijrochiligi” bo‘yicha fanlarning o‘tilishini tubdan qayta tizimlashtirish, eng avvalo, u yerda faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilarning kasbiy malakaviy tayyorgarliklarini takomillashtirish, mumtoz asarlar bilan ishlash uslublarini yaxlit ilmiy asosida ishlab chiqish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumta’lim maktablarida musiqa ta’limi va tarbiyasi konsepsiyasi. –T.: XTV, 1995-yil.

2. Umumiy o‘rta ta’limning musiqa fani bo‘yicha davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. –T.: Ta’lim taraqqiyoti. 1997-yil.

3. Romanova S.E. Qoraqalpoq milliy musiqiy an’analari asosida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarini ma’naviy tarbiyalashning pedagogik asoslari. Pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan Afto.referat. –T., 2005-yil. 3-bet.

Muqaddas MO‘MINOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Musiqiy ta'lim’’ kafedrasi o‘qituvchisi

BOLALAR FOLKLORIDAGI AXLOQIY TARBIYA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Bolalar folkloridagi axloqiy tarbiya xususiyatlaridan xalq qo‘shiqlarini tanlab o‘rgatishda bolalarni endigina rivojlanayotgan ovoz xususiyati, ularning musiqiy qobiliyati darajasi, shuningdek, badiiy didini to‘g‘ri tarbiyalashda ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Musiqa, tarbiya, axloqiy tarbiya, alla, folklor, “Olmajon”, “Zuv-zuv borag‘ay”, “Kichkinajon kichkina”.

Из особенностей нравственного воспитания в детском фольклоре выделяются научные подходы к избирательному обучению народных песен на основе только что сформировавшейся звуковой характеристики детей, уровня их музыкальных способностей, а также правильного воспитания их художественного вкуса.

Ключевые слова. Музыка, воспитание, нравственное воспитание, Алла, фольклор, “Олмажон”, “Зув-зув борагай”, “Кичкинажон кичкина”.

Among the features of moral education in this children’s folklore, the newly developed sound characteristics of children during selective training in folk songs, the level of their musical abilities, as well as scientific approaches to the correct education of their artistic taste are highlighted.

Key words. Music, education, moral education, music, folklore, “Olmajon”, “Zuv-zuv boragay”, “Kichkinajon kichkina”.

Musiqiy tarbiyada qo‘shiq aytish faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Milliy ruhni o‘zida aks ettirgan xalq qo‘shiqlari va o‘yinlari bolalarni olamni badiiy his va idrok etishlariga, zavqlanishlariga yordam beradi. Jumladan, boshlang‘ich sinf bolalariga bolalar folklor qo‘shiqlaridan “Oymomo tilla”, “Olmajon”, “Zuv-zuv borag‘ay”, “Kichkinajon kichkina” asarlarini, yuqori sinf o‘quvchilariga esa “Oshxo‘r akam kaptar”, “Besh tosh”, “O‘ynaylik omon”, “Bu bog‘chada olcha”, “Oq sholi, ko‘k sholi”, “Dasta-dasta”, “Boychechak”, “Qaldirg‘och” kabi asarlarni yil davomida o‘rganish tavsiya qilinadi.

Xalq qo‘shiqlarini tanlab o‘rgatishda bolalarni endigina rivojlanayotgan ovoz xususiyati, ularning musiqiy qobiliyati darajasi, shuningdek, badiiy didini to‘g‘ri tarbiyalash va ularning musiqaga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish zarurligini hisobga olish kerak.

“Qo‘shiq” – keng ma’noda she’riy musiqiy janr, vakal musiqasining eng ommalashgan, ko‘proq band shakliga asoslangan turi, shuningdek, kuylashga mo‘ljallab to‘qilgan she’riy asarlarning umumiy ifodasidir.

Bolalarning qo‘shiqni tez va yaxshi o‘zlashtirishlari musiqa o‘qituvchisining qo‘shiq o‘rgatish metodini to‘g‘ri tanlashiga bog‘liqdir. O‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab bu metod har xil bo‘lishi mumkin. Odatda, qo‘shiq o‘rgatishning quyidagi bos-

qichlariga amal qilinadi:

1. Kirish suhbati; bu qo‘shiq o‘rgatishni boshlash oldidan o‘tkaziladigan kichik suhbat. Kirish suhbatida o‘rganiladigan qo‘shiqning mazmunini oldindan aytib bermay, suhbat mavzusiga bolalar e’tiborini jalb qilish uchun ularga: “Qo‘shiqni tinglab, uning nima haqida kuylanishini aytib bering” yoki “Qo‘shiqni tinglang va uning necha kupletdan iborat ekanligini aniqlang” kabi savol hamda topshiriqlarni berishni puxta o‘ylab ko‘rmoq kerak.

2. Bolalarni qo‘shiq bilan tanishtirish; bolalarga qo‘shiq o‘rgatish asosiy ish bo‘lib, bolalar asar bilan birinchi marta tanishgandayoq asar ularda yorqin taassurot qoldirishi lozim. Qo‘shiq bolalarga yoqib qolsa, ular bu qo‘shiqqa qiziqib qoladilar va uni oson o‘rganadi. Musiqa o‘qituvchisi qo‘shiqni kuylayotganda o‘zini bolalar auditoriyasida emas, balki tomosha zalida qo‘shiq kuylayotgan artistdek his qilib, bu ishga jiddiy yondashishi zarur. Chunki o‘quvchilar har qanday soxtalikni darrov sezadilar.

3. Eshittirilgan qo‘shiq haqida suhbat; musiqa o‘qituvchisi ikkinchi suhbatni bolalar qo‘shiqni tinglaganlaridan so‘ng o‘tkazadi. Bu suhbatda qo‘shiq to‘liq tahlil qilinib uning tuzilishidagi o‘ziga xos tomonlari bolalarning nazariy bilimlari doirasida tushuntiriladi.

4. Qo‘shiqning ohangini o‘rgatish; o‘qituvchi avval qo‘shiq matnini to‘liq ifodali o‘qiydi va o‘quvchilarga notanish so‘zlarning ma’nosini tushuntiradi. Qo‘shiq kuyini o‘rgatayotganda bolalarning diqqat bilan eshitib turishlari talab etiladi va shu asosda o‘rgatiladi.

5. Qo‘shiqning badiiy ijrosi ustida ishlash; qo‘shiqning badiiy ijrosini yaxshilash ishi qo‘shiqni o‘rgatish vaqtidan boshlanadi. Ohang hosil qilish, nafas olish va chiqarish, yaxshi ansambl, aniq talaffuz qo‘shiqni badiiy ijro etish unsurlaridandir.

Bolalar og‘zaki ijodiga mansub xilma-xil o‘yinlar va rang-barang janrdagi qo‘shiqlarda bolalikning qalb tebranishlari, qiziqish va ehtiroslari, voqelikka munosabatidagi o‘ziga xosliklari, ruhiyati balqib turadi. Bolalar shular bilangina cheklanmagan. Ular ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot taqozosi bilan kattalar repertuariga daxldor ayrim janrdagi asarlarni o‘zlashtirib “o‘zlariniki” qilib borishgan. Bugungi kunda topishmoqlar, tez aytishlar va qo‘g‘irchoq teatrining tom ma’noda bolalarniki bo‘lib qolgani hech kimda shubha uyg‘otmaydi. O‘yinlar, qo‘shiqlar, og‘zaki nasr, muqallid yoki og‘zaki teatr tarzida tarmoqlangan va o‘zaro chambarchas bog‘lanib, yaxlit bir tizimga aylangan o‘zbek bolalar ijodi shu tariqa shakllangan. Bu yaxlit tizimni tashkil etgan asarlar xilma-xil janrlardan iborat bo‘lib, ularni uch guruhga bo‘lish mumkin.

1. Kattalar hamisha o‘z farzandlarini o‘ylab yashab, mehnat va ijod qilgan. Bu jarayon ularda bola va uning taqdiri to‘g‘risida qayg‘urish majburiyatining tobora chuqurlashuvi tarzida kechib, talay qo‘shiqlarning to‘qilishiga sabab bo‘lgan. Ayniqsa, chaqaloqni parvarish qilish mas’uliyati behad katta bo‘lgan. Onalar ana shu murakkab mas’uliyatni zimmalariga olgan va o‘tkir zakovat, tadbirkorlik, beqiyos insoniy mehribonlik evaziga o‘zlari goho tushunib, goho tushunmay bolalarni tarbiyalab, o‘stirish bilan mamlakatning kelajak tarixini va demak, dunyo tarixini ham tarbiyalab yetishtirgan. Bu yo‘lda qo‘shiq ularga madadkor bo‘lgan: bolalarni qo‘shiq bilan uxlatib, yig‘lasa kuylab ovutgan, erkalatgan, hatto, qo‘shiq bilan chaqaloqqa daxldor marosim, rasm-rusmlarni bajargan. Shu tariqa allalar, ovutmachoqlar, erkalatmalar, qiziqmachoqlar yuzaga kelgan.

O‘z navbatida, erkalash poeziyasiga mansub namunalar ijro maqsadi, o‘rni va bola yoshi, saviyasiga ko‘ra ikki guruhga ajraladi:

Birinchi guruhga mansub qo‘shiqlar bolaning beshikdaligi davri bilan chambarchas bog‘liq. Shu vajdan ularni beshik qo‘shiqlari deyishadi. Beshik qo‘shiqlari bola uch

yoshga to‘lgunigacha aytiladi.

Ikkinchi guruhga mansub qo‘shiqlar bola tug‘ilganidan to 10-11 yoshga to‘lgunigacha ijro etilsada, aslida beshik bilan bog‘lanmagan onalik mehri tarovatidan yuzaga kelgan ijod namunalaridir. Bular suyush qo‘shiqlari bo‘lib, erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlardan tarkib topgan.

2. Yana shunday qo‘shiqlar silsilasi borki, ularni kattalar qachonlardir u yoki bu munosabat bilan to‘qigan. Bular marosim va mavsum taronalari bo‘lib, davr o‘tgani sayin yangicha sotsial o‘zgarishlar taqozosiga ko‘ra, ijtimoiy-estetik mohiyati va mavqei o‘zgarib turgan, aniqrog‘i, ijtimoiy-ma’naviy ehtiyojga ko‘ra, kattalar repertuaridan bolalar repertuariga o‘tgan. “Boychechak”, “Chittigul”, “Yo ramazon” kabi asarlar bunga misol bo‘la oladi. Natijada, bolalar ijodiyotida mavsum va marosim qo‘shiqlariga asos solingan. Shu bilan birga, kattalar safida marosimlarga qatnashgan bolalarning o‘zlari ham talay taqlidiy qo‘shiqlar ijod etgan. Shu tariqa kattalar rahnamoligida, aniqrog‘i, ular bilan bevosita hamkorlikda bolalarning o‘z mavsum va marosim taronalari yuzaga kelgan.

3. Ulg‘ayish ehtiroslari, o‘yinlar, kattalar bilan munosabatlar, hayotda o‘z mavjudligini anglab borish shavq-u zavqlari murg‘ak qalblardagi tebranishlarni rang-barang ohanglarda tovlantirib, bolalarning o‘zlarini ham qo‘shiqchiga aylantirib qo‘ygan. Shu yo‘sinda bolalar ham ijod eta boshlaganlar va aytish mumkinki, ular yaratgan qo‘shiqlar o‘zbek bolalar ijodining xilma-xil janrlarga boy eng katta tarkibiy qismini tashkil etadi. Binobarin, ularga bolalik qo‘shiqlari sifatida qarash tabiiydir.

Bolalik qo‘shiqlari ijro o‘rni, ijtimoiy-estetik mohiyati jihatidan xilma-xil bo‘lib, to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganish tavsiya etiladi:

4. O‘yin komponentlari bilan bog‘liq qo‘shiqlar. Ma’lumki, bolalar o‘yinlarining asosini harakat tashkil etadi va ular harakatli o‘yinlar deb yuritiladi. Biroq, bolalar ijrochiligida shunday qo‘shiqlar ham borki, ular harakatdan iborat ana shu o‘yinlarning qaysidir qismi mazmundorligini to‘ldirishga xizmat qiladi: yo o‘yinga chorlaydi, yo o‘yinga zamin bo‘ladi, yo o‘yin uchun shart vazifasini o‘taydi. Bunday vaziyatda o‘yinga muqaddimalik funksiyasini bajaradi; yo o‘yindagi harakatning yo‘nalishini belgilab dramatik holatini yuzaga keltiradi; yo o‘yinga yakun yasab, ishtirokchilarni tarqalishga da’vat etadi. Chorlamalar, cheklashmoqlar, guldir-guplar, sanamlar, o‘yin qo‘shiqlari va tarqalish qo‘shiqlari ana shunday xarakterga ega.

II. So‘z o‘yinlar. Bolalar so‘z bilan o‘ynab, ma’naviy kamolot pog‘onalaridan ildamlaydi. Bola o‘z kamolotining ilk bosqichida so‘z ma’nosini anglashdan yiroq turadi. Biroq, so‘zning sehrli olamiga u bilan o‘ynab turib kira oladi. Onalar allalarining nazokatli ohangi bilan tanglayi ko‘tarilgan bolakay endi tovushlarning mo‘jizakor ohanglaridan huzurlana boshlaydi. Eng muhimi, shunday huzurlanish zavqini o‘zi uchun o‘zi kashf etishga intilib, asta-sekin so‘zlar hosilasidan tug‘ilgan ritmlarning harakatga yoki fikr omuxta tarovatidan ma’no o‘qishga mayli kuchaya boradi. Kattalar bolalardagi bu ma’naviy ehtiyojni qondirishni ko‘zlab, qachonlardir topishmoq, tez aytish singari so‘z o‘yinlarini o‘ylab topgan. Bolalarga bular g‘oyat maqbul tushgan va ularni chinakamiga o‘zlashtirib, hatto “o‘zlariniki” qilib olgan. Ayni paytda o‘zlari bir-birlarini so‘zda chandishni chinakam ma’naviy o‘yin darajasiga ko‘targanlar. Misol: Tarqalish o‘yini.

Biz edik, biz edik,
O‘ttiz ikki qiz edik.
Shu o‘yinni bilolmay,
To‘rt tomonga to‘zidik.

Tor kostyum tavo bo‘ldi,
Marjonim shado bo‘ldi.
Xush kelibsiz o‘rtoqlar,
O‘yinimiz ado bo‘ldi.

III. Qo‘shiqlar – onalar allasidan ritmik uquvi shakllana boshlagan kichkintoylarda 2-5 yoshlardayoq o‘z xatti-harakatlari, o‘yinlarini ritmik jihatdan baholash mayllari tug‘iladi. Bu shunchaki baholash bo‘lmay, ularning o‘sha harakatlari, o‘yinlaridagi hayotiy mazmunni ritmga solishdan iborat ko‘tarinkilik hisoblanadi. Shu sababli ular shovqin solib aytiladi va ko‘p hollarda ikki misradan oshmaydi.

Turli yoshdagi bolalarning voqelikka poetik munosabatlari chuqurlashgani sayin qo‘shiqlar ham shakl, ham mazmun jihatdan teranlashib, takomillashib boradi. Shu tariqa uchlik, to‘rtlik, beshlik, oltilik va sakkizlik shakldagi namunalar yuzaga kelgan. Ayniqsa, to‘rtlik shakli bolalar repertuarida keng tarqalgan.

IV. Bolalar ham hazil-mutoyibaga alohida rag‘bat bilan qarashadi. Bir-birlaridan tabiiy yoki ma’naviy kamchiliklarni payqashgan zahotiyoq tap tortmasdan, ayashmay, avvaliga nomga qofiyadosh laqab topib, keyinroq – jarayon chuqurlashgani sari shu laqabning ohangdoshligiga omuxta ritmga uyg‘unlashgan hazilni chuqurlashtirib mazax qilishadi, tegishishadi; hatto, ota-onalaridagi nojo‘ya xatti-harakatlarni ham boplab yuzlariga solishadi.

Shunday qilib, bolalar ijodkorligi xalq ijodkorligining tarkibiy qismi sifatida qadim zamonlarda yuzaga kelgan va asrlar davomida yangi-yangi bo‘yoqlar va shakllarda rivojlanishda davom etgan hamda boyib borayotgan yaxlit bir tizimdirki, bunda janrlar rang-barangligi, asarlar xilma-xilligi muhim o‘rin tutadi. O‘zbek xalqi qadimdan o‘zining odobi, xulqi, madaniyati bilan boshqa xalqlardan ajralib turgan. Shuning uchun bizning xalqimiz yoshlariga odobsizlik, dangasalik, xoinlik xislatlari yarashmaydi. Butun jamoatchilikning maqsadi hozirda o‘sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga kuchli e’tibor berishdan iborat. Shunday ekan, maktablarda, kollejlarda musiqa madaniyati o‘qituvchilari ham qo‘l qovushtirib o‘tirmay, bor imkoniyatlarini ishga solib, ushbu jarayonga o‘z hissalarini qo‘shmoqlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akramova, X. Methods of developing general work skills in mentally retarded students through information programs. Архив Научных Публикаций JSPI, 7(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/697

2. Akramova, X. (2020). Peculiarities of the labor activity of mentally retarded pupils. Архив Научных Публикаций JSPI, 15(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/897

3. Akbarov. Musiqa lug‘ati. –T. 2002-y.

4. Nurmatov H, Norxo‘jayev N. Musiqa alifbosi. 1 – sinf uchun darslik. –T., G‘. G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi. 2011-yil.

Xafiza AKRAMOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, dotsenti, "Maxsus pedagogika" kafedrasi mudiri v.v.b.
Iroda ARALOVA,
Maxsus pedagogika, Defektologiya (Logopediya) mutaxassisligi 1-kurs magistri

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI NUTQ NUQSONLARINI KORREKSIYALASHDA TASVIRIY FAOLIYATDAN FOYDALANISH METODLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni nutq nuqsonlarini korreksiyalashda tasviriy faoliyatdan foydalanish metodlariga kichik va o'rta guruhlarda ko'pincha mashg'ulot boshida alohida predmetlar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Nutq nuqsonlarini korreksiyalash, tasviriy faoliyat, predmetining birlamchi tahlili, tasvirni naturaga nisbatan taqqoslash, taqqoslash yo'li bilan baholash.

В статье рассматривается использование зрительной деятельности при коррекции дефектов речи у дошкольников в малых и средних группах, чаще всего в начале урока.

Ключевые слова. Исправление дефектов речи, зрительной активности, первичный анализ предмета, сравнение изображения с природой, оценка путем сравнения.

This article shows the methods of using visual activity in the correction of speech defects in preschool children in small and medium groups, often with separate subjects at the beginning of the lesson.

Key words. Correction of speech defects, visual activity, primary analysis of the subject, comparison of the image with nature, evaluation of the result with the help of pictures and nature, comparison.

To'g'ri talaffuz, so'z boyligi, tinglash, muvofiq so'zlarni va intonatsiyani yig'ish – bularning barchasi nafaqat yuksak ma'naviy madaniyatga, aqlli, bilimdon kishilarga xosdir. Shunday emasmi, har bir ona bolasini ko'rishni orzu qiladimi? Shu bilan birga, bolaning muvaffaqiyatlaridan mamnun bo'lishini ta'minlash uchun, avvalo, maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishga alohida e'tibor berish kerak, xususan, nutqni rivojlantirishga e'tibor qaratish lozim.

Hayotning birinchi yilida chaqaloqlarning vokal apparatining asosiy yutuqlari ma'lum ma'noli so'zlarni chalg'itish va talaffuz qilishning ko'rinishi hisoblanadi. Ularning kattaligi kichikroqdir, ularda buzilib qolgan odamlarning soni tushuniladi. 1-3 yoshda maktabgacha yoshdagi bolalar ehtiyojlari kengayishi tufayli faol rivojlanadi. Ushbu bosqichda chaqaloqlar kattalar bilan muloqotga muhtoj. Asosan, bu so'zlashuvni oshirishga yordam beradi, chaqaloqni ko'plik va intonatsiya kabi tushunchalar bilan tanishtiradi. Uch yildan so'ng, ko'plab bolalar tovushlarni talaffuz qilishda muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechirishadi. Ayniqsa, parchalar qattiq ovozlarni yumshatadi,

“p” harfini yo‘qotadi, ‘‘s’’ bilan ‘‘t’’ni boshqa tovushlar bilan almashtiradi.

Odatda, pastki jag‘, til, lablar yoki yumshoq tomoqning nomutanosibligi bilan bog‘liq talaffuzning bunday kamchiliklari maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishning uchinchi bosqichiga xosdir. Shunga qaramay, 3-7 yoshdagi o‘g‘il-qizlar yetarlicha boy so‘z birikmalariga, kontekstli so‘zlar bilan yaratilgan murakkab jumlalarni yaratish qobiliyatiga ega.

Asosan, bolalar o‘z ota-onalarini o‘rganadilar va unga taqlid qilishadi, ular tezda yangi so‘zlarni yodlashadi, so‘zlarini sinonimlar, sifatlar va navbatlar bilan boyitadi. Shu sababli, ota-onalarga:

– og‘zaki so‘zlar va jumlalarni diqqat bilan kuzatib borih;

– farzandi bilan doimo ranglar bilan ishlah;

– nutq paytida suhbatdoshga qarash odatini rivojlantirish, bolaning til va lablar harakatlarini kuzatishi uchun;

– chaqaloqning gorizontini kengaytiradigan, noma’lum faktlarga va hodisalarga tanish bo‘lgan hikoyalarni o‘qih. Aytgancha, ertaklar nafaqat nutqning rivojlanishiga, balki xayollarga ham hissa qo‘shadi. Vaqt o‘tishi bilan asosiy belgilar bolaning xayoliy do‘stlari bo‘ladi va eshitadigan hikoyalar o‘yinning skriptidir.

Shuningdek, muloqot jarayonida tasviriy faoliyatdan foydalanishga doir eshitgan so‘zlar, har doim, lug‘atda madaniy shaxsning borligiga huquqli shaxslarga murojaat qilmaydi.

O‘rgatish metodlari – pedagogikada qabul qilingan ta’rifga ko‘ra qo‘yilgan masalani yechish uchun tanlangan yagona yo‘l sifatida ta’riflanadi. U mashg‘ulotdagi bolaning va tarbiyachining butun faoliyatini o‘rgatish usullari ayrim yordamchi vosita bo‘lib, mashg‘ulotdagi faoliyatning xususiyatini aniqlamaydi, u ta’limda tor ma’nodagi ahamiyatga ega. Ayrim metodlar mashg‘ulot ishining umumiy yo‘nalishini aniqlamay, balki usul sifatida namoyon bo‘ladi.

Mashg‘ulotda predmetlarni ko‘rib chiqish. Kichik va o‘rta guruhlarda ko‘pincha mashg‘ulot boshida alohida predmetlar ko‘rsatiladi. Bolalar diqqatini topshiriqqa qaratish va tasavvurlarini jonlantirish maqsadida bolalarga koptok, lenta (tasma), belkurak va shu kabilar ko‘rsatiladi. Mashg‘ulotning qolgan vaqti mobaynida esa, bolalar o‘z tasavvurlari asosida chizadilar. Ular rasmlarini ko‘rgan predmetlariga nisbatan taqqoslay olmaydilar va predmetlarni idrok qilishlariga qaytib murojaat qilmaydilar. Katta guruhda ham predmetlarni ko‘rib chiqish uchun imkon bo‘ladi. Masalan: “Uch ayiq” ertagi mavzusi bo‘yicha rasm chizishdan yoki buyum yasashdan avval, tarbiyachi bolalarga o‘yinchoq ayiqni ko‘rib chiqishni, predmet shaklining asosiy xususiyatlarini va ayrim qismlarning proporsiya nisbatlarini aniqlashni, so‘ng predmetning burilishiga nisbatan shu ayrim qismlarning o‘zgarishini kuzatishni taklif qiladi. Bolalar rasm chizishda ertakning qaysi epizodini tanlasalar, ayiqni ham shu epizodga nisbatan mos holatda tasvirlaydi.

Rasmlardan foydalanish. Rasmlar asosan, bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini aniqlash uchun va tasviriy usullar, vositalarni tushuntirish uchun xizmat qiladi. Pedagog va psixologlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, 2 yoshdagi bolalar rasmni predmet tasviri sifatida tushunib yetadilar. Lekin rasmdagi qahramonlarning o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ya’ni harakatlarni tushunish kechroq, 4-5 yoshlarda yuzaga keladi.

Tarbiyachi tomonidan ishlash usulini ko‘rsatib berish. Maktabgacha ta’lim muassasasida ta’lim jarayonida bolalar o‘rganishi kerak bo‘lgan tasvirlash ko‘nikma va malakalarni o‘lchamini aniqlab beradi. Keng bo‘lmagan doiradagi malakalarni o‘lchamini aniqlab beradi. Keng bo‘lmagan doiradagi malakaga ega bo‘lgan bola turli xil predmetlarni

tasvirlay oladi. Masalan, uyni chizish uchun to‘g‘ri to‘rtburchak shaklini chizishni bilish, ya’ni chiziqlarni to‘g‘ri burchak ostida birlashtirishni bilish kerak. Ana shu chizish usullari mashina, poezd va boshqa to‘g‘ri to‘rtburchakli predmetlarni chizishda qo‘llaniladi. Tarbiyachi tasvirlash vositalarini ko‘rsatib berishi ko‘rgazmali amaliy usul bo‘lib, bu usul bolalarni kerakli shaklni aniq tajriba asosida ongli ravishda chizishga o‘rgatadi. Ko‘rsatma 2 xil turda bo‘ladi:

– imo-ishora bilan ko‘rsatish;

– chizish usuli bilan ko‘rsatish.

Agar predmetni tasvirlayotganda uning qismlarini aniq ketma-ketlikda chizish kerak bo‘lsa, tarbiyachi predmetni boshidan yakuniga qadar chizib ko‘rsatadi. Faqat bunda bolalarning diqqatini jalb qilish uchun tarbiyachi bolalarga “Endi nimani chizish kerak?” degan savolni beradi. Katta guruhdagi bolalar ko‘pincha qisman ko‘rsatmalar berish o‘rinli bo‘ladi. Bolalar hali chizishni bilmaydigan predmetning biror qismini yoki alohida elementini chizishda ko‘rsatmalar beriladi. Masalan, 4-5 yoshli bolalar daraxtning tanasini uchburchak shaklida, keng asos bilan chizadilar. Bu ko‘pincha tarbiyachining og‘zaki tushuntirishidan kelib chiqadigan kamchilikdir.

“Daraxtning tanasini yuqori qismida tor, quyi qismida esa keng bo‘ladi”. Og‘zaki aytib berish bilan birga qo‘l harakatlari bilan chizib ko‘rsatish lozim. Katta guruhda esa, “Chiroyli uy” mavzusida bolalar rasm chizayotganlarida, tarbiyachi doskada uyning oyna-eshiklari turli xil shaklda bo‘lishini ko‘rsatib beradi. Bunday ko‘rsatma bolaning rasmini umumiy chizmada hech ham chegaralamaydi. Malakalarni mustahkamlash uchun qaytarilayotgan mashqlarda, so‘ng ulardan mustaqil ravishda foydalanishda ko‘rsatma faqatgina individual ravishda, ma’lum bir ko‘nikmaga ega bo‘lmagan bolalarga beriladi. Doimiy ravishda ko‘rsatma berish bolalarning passivlashishiga, hamda fikrlash jarayonlarini tormozlanishiga olib keladi. Chunki, bolalar tarbiyachining ko‘rsatmasini va yordamini kutib, o‘rganib qoladi. Tarbiyachining ko‘rsatmasi yangi texnik usullarni tushuntirishdagina kerak.

Bolalar ishlarini tahlil qilish. Bolalar o‘zlari bajargan yoki do‘stlari bajargan ishni mustaqil ravishda tahlil qilib, baho berishlari 5 yoshga borib to‘la shakllanadi. Kichik guruhdagi bolalar o‘z harakatlarini va ularning natijalarini nazorat qila olmaydi, shuning uchun ular o‘z ishlarini bajarayotgan vaqtda mamnun bo‘lgan bo‘lsalar, ularning natijasidan ham mamnun bo‘lishi uchun tarbiyachidan maqtov eshitishni kutadi. Kichik guruhda tarbiyachi bolalarning ishlarini baholayotganda tahlil qilmaydi, balki 4-5 ta yaxshi bajarilgan ishlarni bolalarga ko‘rsatadi. Shu bilan birga qolgan bolalar ishlarini ham maqtaydi chunki maqtov bolalarning ushbu mashg‘ulotga nisbatan qiziqishini saqlab qolishga yordam beradi. Rasmlarni ko‘rsatishning maqsadi esa, bolalarning o‘z ishlarini natijasiga jalb qilishdir. O‘rta va katta guruhlarda tarbiyachi bolalarning ishlarini ko‘rsatadi va kamchiliklarini aytib o‘tadi. Bolalar kamchiliklarini qanchalik ko‘ra olsalar, shunchalik keyingi rasmlarini ongli ravishda chizib boradilar. Mashg‘ulot yakunida tarbiyachi bolalar ishlaridan birini olib, ijobiy tomonlarini ko‘rsatadi. Masalan: “Ranglarini yaxshi tanlaganini – och rang bilan to‘q rang yonma-yon yaxshi ko‘rinishi, chiziqlarning ozoda va aniq chizilganligini” va hokazo. Agarda, kamchiliklar ko‘pchilik bolalarda uchrasa, shu kamchilikni bartaraf qilish uchun bolalarga savol beradi va diqqatini qaratadi. Agarda bir bolaning kamchiligi bo‘lsa, u holda yakkama-yakka tushuntirish munosibdir, chunki jamoa oldida birgina bolaning ishini tahlil qilish, faqatgina shu bolaning o‘zi uchungina tushunarli bo‘ladi.

Katta guruhda tahlilga barcha bolalarni jalb qilmoq zarur. Ba’zida esa, tarbiyachining

o‘zi baho beradi. Masalan, yaxshi chizmaydigan bolaning ishidagi kamchiliklarni boshqa bolalar aytishlarini tarbiyachi oldindan bila turib, o‘zi avval shu bola bajargan ishining ijobiy tomonlarini aytib o‘tadi. Vaqtni tejash maqsadida tarbiyachi 5-6 ta bolaning ishini olib, tahlil qiladi, faqat har mashg‘ulotda bir xil bolalarning ishlarini olib baholash yaramaydi. Chunki doimiy maqtov asosida o‘sha bolalarda haddan tashqari ishonch, boshqalardan ajralib turish rivojlanadi. O‘ta qobiliyatli bolalar bilan ularning layoqatlarini hisobga olgan holda, alohida ish olib boriladi.

Ba’zida tarbiyachi tahlil qilish uchun bajarilgan ishlarni bolalarning o‘zlariga topshiradi. Bunda barcha bolalarning ishlari stolga yoyiladi yoki stendga mahkamlanadi va bolalar o‘zlari eng yaxshi bajarilgan ishlarini tanlaydilar. So‘ng tarbiyachi tahlil qiladi. Ko‘proq bolalarga (6 yoshda) o‘z ishini naturaga nisbatan o‘zi baholashga imkon berish kerak. Chunki bola o‘z ishiga, hamda do‘stlarining ishlariga tanqidiy tomondan baho berishga o‘rganadi:

– mashg‘ulot mazmuniga va mashg‘ulot oldida turgan maqsadga, shu bilan birga, tasviriy faoliyatning vazifalariga;

– bolalarning yoshi va rivojlanish darajasiga.

Bolalar foydalanadigan tasvirlash materiallariga bog‘liqdir. Atrof-olam haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash maqsadidagi mashg‘ulotlarda, asosan, og‘zaki metodlar qo‘llaniladi: suhbatlar, bolalarning ko‘rganlarini xotiradan qayta eslash uchun yordam beradigan savollar beriladi. Tasviriy faoliyatning turli ko‘rinishlarida o‘rgatish usullari turlichadir, chunki bir obraz turli vositalar yordamida vujudga keltiriladi. Masalan: mazmunli mavzularda kompozitsiyaga o‘rgatish vazifasini rasmda illyustratsiyalarga qarab tushuntiriladi, uzoqlashayotgan predmetlar yuqoriroqda, yaqindagilari esa pastroqda chiziladi. Bu masala loydan buyum yasaganda shakllarning ularning holatiga qarab joylashtiriladi; yonma-yon yoki ketma-ket va hokazo. Bu yerda alohida tushuncha yoki ko‘rsatma berish shart emas. Har bir usuldan o‘ylab, mashg‘ulot oldida turgan vazifalarga nisbatan, dasturda berilgan mashg‘ulotning mazmuniga nisbatan va asosan ushbu guruh bolalarining qay darajada rivojlanganligini hisobga olgan holda foydalanish kerak.

Mashg‘ulotda alohida metod va usullar ko‘rgazmali va og‘zakilari – o‘zaro qo‘shilib, mujassamlashtiriladi va bir-biriga umumiy ta’lim jarayonida bog‘lanadi. Ko‘rgazmalilik bolalar tasviriy faoliyatining moddiy hissiy asosini yangilaydi, so‘z esa to‘g‘ri tasavvurni, tahlilni, idrok qilinganlarni va tasvirlayotganlarini umumlashtirishni shakllanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Комарова Т. С. Методика обучения изобразительной деятелности и конструктированию. (ред.). — 1991 г.

2. Ayupova M.Y. Logopediya. T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007-y.

Go‘zal DAVUROVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, ‘‘Pedagogika ta'limi nazariyasi’’
kafedrasi o‘qituvchisi

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MAKTABGA – HAYOTGA TAYYORLOVCHI KO‘NIKMALAR

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga va hayotga tayyorlashda zarur bo‘lgan asosiy 8 ta ko‘nikmalar va ularni bola hayotidagi ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Qobiliyat, xususiyat, nutq, xotira, ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, muloqot qobiliyati, fazoviy fikrlash, tassavur.

В этой статье обсуждаются 8 основных навыков, необходимых для подготовки дошкольников к школе и жизни, и их важность в жизни ребенка.

Ключевые слова. Способности, особенности, речь, память, творческое мышление, логическое мышление, коммуникативные навыки, пространственное мышление, воображение.

This article discusses the 8 basic skills needed to prepare preschoolers for school and life and their importance in a child’s life.

Key words. Ability, feature, speech, memory, creative thinking, logical thinking, communication skills, spatial thinking, imagination.

Ko‘p yillik ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, inson o‘z umri davomida oladigan barcha axborotning 7 foizini 5 yoshgacha bo‘lgan vaqt oralig‘ida olar ekan. Bolaning ongi asosan, 5-7 yoshda shakllanishini inobatga oladigan bo‘lsak, aynan ana shu davrda uning qalbida, ongida shakllanishi lozim bo‘lgan hayotga va maktab o‘quv faoliyatida zarur bo‘ladigan ma’lumotlar va ko‘nikmalarni shakllantirish lozimdir.

Maktabga tayyorlov guruhlardagi bolalar uchun zarur bo‘lgan 8 asosiy ko‘nikmalar:

1. O‘rganish qobiliyati va tayyorligi: bilim qobiliyati va o‘rganishga qiziqish.

Idrok, diqqat, xotira, tasavvur, nutq, tafakkur bu o‘rganish qobiliyatini va istagini tashkil etadigan aqliy bilim jarayonlari. Ko‘pgina bolalar uchun kognitiv qiziqishni rivojlantirish tabiat tomonidan yaratilgan tabiiy jarayondir. Maktabgacha yoshda, qiziquvchan bolalar, eng avvalo, o‘zlari uchun yangi narsalarni kashf etishni xohlashadi.

5-7 yoshgacha bo‘lgan bola, endi ma’lumotni shunchaki tugatilgan shaklda avvalgi kabi qabul qilmaydi. Qiziquvchan ong o‘z-o‘zidan savollarga javob izlashga intiladi. Qiziquvchan maktabgacha yoshdagi bola turli xil tushunchalarni bitta tizimga kiritishni o‘rganadi, ularni tahlil qilib, taqqoslaydi, naqshlarni izlaydi va xulosalar chiqaradi. O‘tkir zehn va qiziqish maktabgacha yoshdagi va birinchi sinf o‘quvchilarining o‘qishga bo‘lgan mustaqil motivatsiyasining asosidir.

Boshlang‘ich maktab o‘quv dasturida bilim qobiliyatini rivojlantirishga bag‘ishlangan alohida darslar mavjud emas. Shu sababli, bolani o‘rganishga o‘rgatish vazifasi asosan, ota-onalarga to‘g‘ri keladi. Yuqori kognitiv qiziqish va rivojlangan e’tibor, xotira, fikrlash va boshqa kognitiv qobiliyatlar sizga stressiz maktabga ko‘nikishingizga, mustaqil bo‘lishga, faol bo‘lishingizga va surunkali o‘quv yetishmovchiligining oldini

olishga yordam beradi.

O‘z-o‘zidan o‘rganish qobiliyatini ta’kidlab bo‘lmaydi. Texnologiyalar 20 yil oldingi ko‘rsatkichlardan bir necha marotaba tezroq rivojlanmoqda va har qanday kasb egalari yangi bilimlar poygasida. Yana 20 yil ichida nima bo‘lishini tasavvur qilishga harakat qiling.

2. Ijodiy fikrlash: stereotiplardan farqli o‘laroq, hech qanday chegaralarni bilmasdan fikrlash qobiliyati.

G‘ayrioddiy narsalarni yaratish qobiliyati – klassik psixologiya “ijodiy fikrlash” tushunchasini shunday belgilaydi. Siz uni faqat san’at bilan bog‘lamasligingiz kerak: har qanday faoliyat sohasida, masalan, aktyorlik yoki mobil dastur ishlab chiqarishda g‘ayrioddiy yechimlar qabul qilinadi.

5-7 yoshda tafakkur stereotiplar bilan cheklanmaydi va bolada “ijodkor” bo‘lishni o‘rganish osonroq. Bu kelajakda shunchaki ijodiy fikrlashni bog‘lash orqali har qanday qiyin vaziyatlardan chiqib ketishga yordam beradi.

3. Mantiqiy fikrlash qobiliyati: biz mantiqiy va matematik aqlni rivojlantiramiz.

Ba’zi kundalik va ta’lim vazifalarini ijodiy hal qilish mumkin. Ammo, aksariyat hollarda obyektiv, muvozanatli yondashuv zarur bo‘lganda, ijodkorlik yetarli emas. Mantiqiy fikrlash yordamga keladi:

- fikrlash qobiliyati;
- hukmlarning haqiqati yoki yolg‘onligini isbotlash;
- asosli qarorlar qabul qilish;
- o‘z pozitsiyangizni o‘zingizga va boshqalarga tushuntiring.

Bola mantiqiy fikrlash va matematik qobiliyatlarni rivojlantirganda, u aniq tushunchalardan foydalanishni, variantlarni “tortish”ni va qaror qabul qilishni o‘rganadi. Ko‘ngilochar mantiqiy muammolarni hal qilish – bu maktabgacha yoshdagi bolalar va kichik o‘quvchilarda mantiqni rivojlantirishning tasdiqlangan usulidir. Farzandingiz 5-7 yoshdami? Bu boshlash uchun eng yaxshi vaqt.

Mantiqiy va matematik intellekti rivojlangan bolalar maktab matematikasini osonlikcha yengishadi. 3-4-sinflarda ular matematik olimpiadalarda g‘olib bo‘lishadi va umuman, intellektual rivojlanishda katta yutuqlarga erishish imkoniyati ko‘proq bo‘ladi.

4. Fazoviy fikrlash va tasavvur: vizual-fazoviy intellektni rivojlantirish

Boshingizda 3D rasmlarni yarating, ularni eng kichik detallariga qarab ko‘ring va ularni fazoviy fikrlash va xayolot yordamida xohlagancha aylantiring. Ushbu qobiliyatlarni rivojlantirib, bola kosmosda harakatlanishni, harakat yo‘nalishlarini tan olishni, ufqning tomonlarini aniqlashni, kosmosdagi narsalarning o‘rnini tushunishni va ularning shakllarini idrok etishni o‘rganadi.

Insonning turli xil faoliyatdagi muvaffaqiyatini nima belgilashi mumkin? Umumiy, “moslashuvchan” ko‘nikmalar (yumshoq ko‘nikmalar): o‘rganish qobiliyati, maydon tashqarisida fikrlash, chiroyli va to‘g‘ri gapirish, vaqtni to‘g‘ri ajratish va h.k. Bu maktabda, ishda va shaxsiy ishlarda bir xil darajada foydalidir. “Yumshoq” ko‘nikmalar har qanday narsada maxsus ko‘nikmalar va inson samaradorligini rivojlantirish uchun asosdir.

5. Muloqot qobiliyatlari: muloqot qilish va omma oldida so‘zlash qobiliyati.

Dialogni olib borish, muzokara olib borish, qayerdadir ishontirish va qayerdadir kelishish qobiliyati jamoaga qo‘shilishga va har qanday odam bilan til topishishga yordam beradi. Muloqotda siqilib qolgan odamga qaraganda, do‘stona odam o‘z qobiliyatini ochib berishi va muvaffaqiyatga erishishi ehtimoli ko‘proq.

6. Axborot bilan ishlash qobiliyati:

Agar sizning farzandingizning boshidagi ma’lumotlar javonlarga joylashtirilmagan,

buyumlardek yig‘ilsa, qimmatbaho narsalarni topish va ulardan foydalanish ancha qiyin bo‘ladi.

Samarali ishlash va o‘qish uchun quyidagilarga ega bo‘lish muhimdir:

• ma’lumotni aniqligi va ishonchliligi uchun baholash;
• keraksiz va bo‘sh joyni begona o‘tlardan tozalash, asosiy narsani ajratib ko‘rsatish;
• elementlarni semantik guruhlarga birlashtirish;
• eslab qoling va kerakli ma’lumotlarni o‘z vaqtida toping.

7. O‘z-o‘zini tashkil qilish, vaqtni boshqarish:

Ba’zan vaziyatlar odamni hayotda tartibga soladiganga o‘xshaydi. Maktab 45 daqiqali darslarni ramkaga kiritadi, ish 8-10 soatlik ish kunining chegaralarini yaratadi. Ammo, narsalarni rejalashtirish va vaqtingizni boshqarish qobiliyatisiz, samarali ishlash qiyin. “Men vaqtni qanday o‘ldirish haqida bir necha bor o‘ylab qoldim!” – deydi Lyuis Kerolning ertakidagi Xetter Elis. U unga javob berdi:

“Qanday qilib u (vaqt) bu kabi bo‘lishi mumkin edi? Agar siz u bilan janjallash-maganingizda, siz undan xohlagan narsani so‘rashingiz mumkin edi.”

8. Shaxsiy fazilatlar: yetakchilik, iroda, qat’iyatlilik.

Maqsadli, stressga chidamli, mas’uliyatli, tashabbuskor, mehnatsevar, odatdagi vazifalarni uddalay oladigan – yuqori mutaxassisning rezyumeidan uzilgan chiziq kabi, shunday emasmi? Ushbu fazilatlarning barchasi umumiy qobiliyatlar deb ataladi. Ular ma’lum bir kasb bilan bog‘liq emas, ammo ularsiz biron bir ish qiyin.

Demak, shaxsiy xususiyatlar bolalik davrida shakllanadi va tarbiyaga bog‘liq. Bu borada maktab va ota-onalar o‘rtasida to‘g‘ri “vazifalarni taqsimlash” muhimdir. Qobiliyat va ko‘nikmalar bola uchun imkoniyatlar dunyosini ochib beradi. Hamma narsa tabiatga xos bo‘lgan, qobiliyatlarni rivojlantirishda eng oson bo‘lgan moyillikni aniqlashdan boshlanadi. Ammo, kuch sarf qilmasdan, hatto boy moyilliklar ham unib chiqmaydigan donalar bosqichida qolish xavfi mavjud. Har qanday yoshda, u erta yoki kech emas! Bolalikda potensial uzoq kelajak uchun yaratiladi. Ammo bu shuni anglatadiki, kattalar o‘z qobiliyatlarini rivojlantirish uchun juda kechmi?

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davurova, G. (2020). Pedagogika oliy o‘quv yurti talabalarining ijodiy faoliyatini shakllantirishda psixologik xizmatni tashkil etish. Архив Научных Публикаций JSPI.

2. Davurova, G. (2020). СЕМЕЙНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ИХ РЕШЕНИЕ. Архив Научных Публикаций JSPI.

3. Davurova, G. (2020). Komil inson masalasining psixologiyada tadqiq etilishi. Архив Научных Публикаций JSPI.

4. Rasulova, D. (2020). Yosh ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirishning ahamiyati. Архив Научных Публикаций JSPI.

Nazira ABDUQODIROVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Pedagogika ta’limi nazariyasi” kafedrasi, katta o‘qituvchisi

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARDA MADANIY-MA’RIFIY TADBIRLAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida madaniy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish masalalari keltirilgan. Muallif maktabgacha ta’lim tashkilotlarida madaniy-ma’rifiy ishlarni samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘z fikr va mulohazalarini berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Milliy istiqlol g‘oyasi, madaniy-ma’rifiy ishlar, tarbiya ahamiyati, ma’naviyat, globallashuv, jarayon.

В статье рассматриваются вопросы организации культурно-воспитательной работы в дошкольных организациях. Автор высказал свои взгляды и замечания на эффективность культурно-воспитательной работы в дошкольных организациях.

Ключевые слова. Идея национальной независимости, культурно-просветительская работа, значение образования, духовность, глобализм, процесс.

The article deals with the organization of cultural and educational work in preschool organizations. The author expressed his views and comments on the effectiveness of cultural and educational work in preschool organizations.

Key words. The idea of national independence, cultural and educational work, the meaning of education, spirituality, globalism, process.

Milliy istiqlol g‘oyasi bajaradigan yana bir muhim funksiya tarbiyaviy funksiyadir. Milliy g‘oyaning bu funksiyasi globallashuv jarayonlari tezlashib borayotgan hozirgi kunlarda yana ham dolzarbroq ahamiyat kasb etadi. Globallashuv faqat iqtisod va siyosat sohasida emas, balki ma’naviyat va mafkura sohasida ham jadallashib bormoqda. Aytish mumkinki, ma’naviyat va mafkura sohasidagi globallashuv boshqa sohalarga nisbatan jadalroq yuz bermoqda. Sababi, o‘z manfaatlarini ko‘zlayotgan ba’zi davlatlar mamlakatimizga mafkuraviy jihatdan zararli va vayronkor ta’sir o‘tkazishga urinayotganligi sir emas.

Har qanday xalqning ma’naviyati boshqa xalqlar ma’naviyatidan ihotalangan holda rivojlanmaydi. Milliy ma’naviyatlar bir-birlarini boyitadi va to‘ldiradi. Mamlakatimiz Sharq va G‘arbni tutashtirgan karvon yo‘llarida joylashgani sababli, ma’naviyati ham Sharq va G‘arb ma’naviyatlaridan bir xilda bahramand bo‘lib kelgan. Xalqimiz G‘arb va Sharq xalqlari ma’naviyatidagi ijobiy tomonlarni o‘zlashtirish bilan cheklanib qolmadi, balki ularga ijodiy yondashdi va yanada yuksaltirdi.

Afsuski, ma’naviyat va mafkura sohasidagi o‘zaro ta’sir, ijobiy tomonlarni o‘zlashtirish bilangina cheklanmas ekan. Bu jarayonda salbiy va vayronkor g‘oyalar ham ma’naviyatimizga ta’sir o‘tkazishga kirishar ekan. Shuning uchun ham milliy ma’naviyatimizni tahdidlardan himoya qilish uchun milliy istiqlol g‘oyasidan kuchliroq va samaraliroq vosita yo‘q. Bu haqda “Milliy istiqlol g‘oyasi” darsligida quyidagi fikr bildirilgan: “Ma’naviyatni bir uyga to‘plangan boylikka qiyoslasak, tashqaridan kirayot-

gan shamol uy ichidagi narsalarni ostin-ustin qilib tashlashini hech bir xonadon sohibi istamaydi. Xuddi shu kabi, biz ham yot g‘oyalar, oqimlar va mafkuralar ma’naviyatimizga vayronkor ta’sir o‘tkazishiga qarshi himoya choralari ko‘rishimiz tabiiy”. Shu o‘rinda milliy istiqlol g‘oyasining yoshlarni tarbiyalash, milliy va ma’naviy o‘zlikni himoyalash kabi muhim funksiyasi namoyon bo‘ladi. Milliy istiqlol g‘oyasi ana shu funksiyasini bajarishida madaniy-ma’rifiy tadbirlar muhim o‘rin tutadi.

Madaniy-ma’rifiy tadbirlarning tarbiyaviy ahamiyati milliy istiqlol g‘oyasini targ‘ib qilishda ham ko‘rinadi. Milliy istiqlol g‘oyasining muhim funksiyalaridan biri yoshlarni tarbiyalash ekan, madaniy-ma’rifiy tadbirlar ana shu g‘oyani targ‘ib qilish orqali yoshlarga o‘tkazadigan o‘zining tarbiyaviy ta’sirini yana ham kuchaytiradi. Ismoilova Z.K. milliy qadriyatlar, urf-odatlar, marosim va bayramlarni jamoatchilikka milliy istiqlol mafkurasini singdirishning pedagogik omil va vositalari jumlasiga kiritadi.

Maktabgacha tarbiya tashkilotlari tarbiyalanuvchilari ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirish ta’lim tizimida olib borilayotgan tarbiyaviy ishlarning markazida turibdi. Bu maqsadga erishish yo‘lida ta’lim-tarbiyaning turli usul va vositalaridan foydalanilmoqda. Kuzatuvlarimiz ba’zi oliy o‘quv yurtlarida milliy istiqlol g‘oyasi bo‘yicha ma’ruzalar, seminarlar, kollokviumlarga ko‘proq e’tibor berilib, darslardan so‘ng o‘tkaziladigan madaniy-ma’rifiy tadbirlarga yetarli ahamiyat berilmayotganini ko‘rsatdi. Holbuki, bunday tadbirlar yoshlarni tarbiyalashda va ular ongiga milliy istiqlol g‘oyasini singdirishda ulkan ahamiyatga ega.

Mashg‘ulotlar davomida madaniy-ma’rifiy tadbirlar elementlaridan foydalanish muayyan metodika asosida amalga oshiriladi. Bu holat mazkur tadbirlarni o‘tkazishning umumiy xususiyatlari bilan bog‘liq. Shuni hisobga olib, milliy istiqlol g‘oyasini targ‘ib qilishda madaniy-ma’rifiy tadbirlardan foydalanish metodikasi to‘g‘risida ba’zi mulohazalarni va o‘tkazgan kuzatuvlarimiz natijalarini bayon qilmoqchimiz.

Madaniy-ma’rifiy tadbirlar kechalar, tomosha va teatrlashtirilgan konsertlar, ko‘rik-tanlovlar, ko‘rgazma, badiiy kompozitsiya, quvnoqlar va zukkolar tanlovlari kabi shakllarda o‘tkaziladi. Ularning har biri o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib, shunga monand ravishda, ularni o‘tkazish metodikasi ham bir-biridan farq qiladi. Madaniy-ma’rifiy tadbirlar orasida eng ko‘p qo‘llanayotgan shakllardan biri mavzuli kechalardir.

“Mavzuli kecha” atamasi dastlab muayyan bir mavzuga bag‘ishlangan va oqshom paytlari o‘tkaziladigan tadbirlarni anglatgan. Bunday tadbirlar jumlasiga uchrashuv kechalari, xotira kechalari, she’riyat kechalari, vatanparvarlik mavzusidagi kechalar, qo‘shiq kechalari, raqs kechalari va boshqalarni kiritish mumkin.

Mavzuli kechalarni tayyorlash bosqichi juda muhim ahamiyatga ega. Chunki, ana shu bosqichda kechani tayyorlash bo‘yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirishga bo‘lg‘usi tomoshabinlar keng miqyosda jalb etiladi. Bu holat mavzuli kecha ishtirokchi-tomoshabinlarining passiv kuzatuvchi emas, balki tadbirning faol qatnashchilariga aylanishini ta’minlaydi.

Mavzuli kechalarni o‘tkaziladigan joylarga qarab turlarga bo‘lish sababi shundaki, yuqorida sanab o‘tilgan joylarda o‘tkaziladigan kechalar ishtirokchilarning tarkibi, yoshi, kasbi, jinsi, ijtimoiy mavqei va boshqalarga ko‘ra farqlanadi. Bu farqlar faqatgina tashqi tafovut bo‘lmasdan, ular kechalarning o‘tish jarayoniga, sahnadagi ijrochilar bilan tomoshabinlar o‘rtasidagi hissiy-emotsional aloqaning xususiyatlariga jiddiy ta’sir o‘tkazadi. Masalan, kasb-hunar kollejida vatanparvarlik mavzusida o‘tkaziladigan mavzuli kecha istirohat bog‘ida o‘tkaziladigan tadbirdan jiddiy farq qiladi. Kasb-hunar kollejidagi tadbir ishtirokchilarining aksariyati shu kollej o‘quvchilaridan iborat bo‘lsa, istirohat bog‘idagi

mavzuli kechaning tomoshabinlari turli yosh, jins, kasbga mansub odamlardan iborat bo‘ladi. Kollejdagi kecha tomoshabinlari sahnadagi ijrochilar, ya’ni o‘zlarining kursdoshlari, guruhdoshlari bilan hissiy-emotsional aloqa o‘rnatishlari oson kechadi. Ular sahnadagi do‘stlarining muvaffaqiyatini o‘zlarining muvaffaqiyati, nuqsonlarini o‘zlarining nuqsoni singari qabul qiladilar. Bunday holat ijrochilar bilan tomoshabinlar o‘rtasidagi hissiy-emotsional uyg‘unlikni ta’minlaydi. Ana shu uyg‘unlik tadbirning tarbiyaviy ahamiyati yuqori darajada bo‘lishini ta’minlaydigan eng muhim omillardan biridir.

Milliy istiqlol g‘oyasini yoshlar ongiga singdirishda madaniy-ma’rifiy va ta’lim muassasalarining hamkorligi ularning oldiga qo‘yilgan vazifalar umumiyligidan kelib chiqadi. Yoshlarni tarbiyalash, ular ongiga milliy qadriyatlarni, xalqimiz orzu-umid, intilish va maqsadlarini, demakki, milliy istiqlol g‘oyasini singdirish ham madaniy-ma’rifiy, ham ta’lim muassasalari oldidagi eng asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, bir hududda joylashgan madaniyat va ta’lim muassasalari milliy istiqlol g‘oyasini yoshlar ongiga singdirish bo‘yicha uzoq muddatli hamkorlik rejasini ishlab chiqishi maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Bu rejada ularning shu yo‘nalishda olib borayotgan ishlari bir-birini to‘ldirishi, ular faoliyatining uyg‘unlashtirilishi o‘z aksini topishi kerak.

Bu hamkorlik milliy istiqlol g‘oyasini targ‘ib qilish bo‘yicha har ikki turdagi muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirish, ba’zi hollarda imkoniyatlarni birlashtirish, ba’zan bir-birlari faoliyatini o‘zaro to‘ldirish kabi shakllarda olib borilishi mumkin.

Ta’lim va madaniyat muassasalarining hamkorligini rejalashtirishda, avvalo, hamkorlik o‘rnatilishini lozim bo‘lgan obyektlarni aniq belgilab olish lozim. Buning muhimligi shundaki, muayyan qishloq, ovul, shaharcha yoki qo‘rg‘ondagi ta’lim va madaniyat muassasalarining har biri faoliyat yo‘nalishi, xodimlar soni, to‘garaklar, kitoblar miqdori kabi ko‘rsatkichlarga qarab turli imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Bu muassasalar faoliyatini muvofiqlashtirganda mana shu imkoniyatlarni hisobga olish yaxshi natija beradi.

Mamlakatimiz tumanlarida madaniy-ma’rifiy va ta’lim muassasalarining joylashish geografiyasiga nazar tashlasak, quyidagicha holat ko‘zga tashlanadi: tumanlardagi katta qishloqlar va ular atrofidagi qishloqlar turkumiga bitta, ba’zi hollarda esa ikkita umumiy o‘rta ta’lim maktabi, bitta madaniyat uyi yoki klub, bitta akademik litsey yoki kasb-hunar kolleji va bitta axborot-resurs markazi to‘g‘ri keladi. Bu muassasalarning faoliyat yo‘nalishlari va imkoniyatlari turlicha.

Ana shu faoliyat va imkoniyatlarni umumiy vazifa – milliy istiqlol g‘oyasini targ‘ib qilish atrofida birlashtirilsa, bundan umumiy ish ham, ayni paytda, barcha tomonlar ham yutadi. Madaniy-ma’rifiy va ta’lim muassasalarining hamkorligi muayyan tadbirlar o‘tkazishni rejalashtirish va birgalikda o‘tkazishda namoyon bo‘ladi. Bu tadbirlarning har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy istiqlol g‘oyasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim bakalavrlik bosqichi uchun darslik. –T.: Akademiya, 2005.

2. “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgust Qarori. / Xalq so‘zi gazetasi, 2006-yil 26-avgust.

3. Munavvarov A.K. Pedagogika. –T.: O‘qituvchi, 1996. – 200-b.

4. Musurmonova O. O‘quvchilarning ma’naviy madaniyatini shakllantirish. –T.: Fan, 1993. –112-b.

Nasiba BOYTO‘RAYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, ‘‘Pedagogika ta'limi nazariyasi’’ kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHISINING IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA QADRIYATLAR MOTIVATSIYASI

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy kompetentligini rivojlantirishda qadriyatlar asosi, mezonlari hamda motivatsiyalarini rivojlantirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar. Qadriyatlar motivatsiyasi, ijodiy kompetentlik, rivojlantirish, pedagogik faoliyat, tizimli-faoliyat yondashuvi, umuminsoniy qadriyatlar, mezonlar.

Данная статья посвящена разработке ценностных основ, критериев и мотивации в развитии творческой компетентности учителя начальных классов.

Ключевые слова. Ценностная мотивация, творческая компетентность, развитие, педагогическая деятельность, системно-деятельностный подход, общечеловеческие ценности, критерии.

This article focuses on the development of the basis, criteria and motivation of values in the development of creative competence of the primary school teacher.

Key words. Value motivation, creative competence, development, pedagogical activity, system-activity approach, universal values, criteria.

Kasbiy malaka o‘z tarkibiga kasbiy tajriba, rag‘batlanganlik, shaxsiy sifatlar va boshqa kasbiy xususiyatlarni qamrab olgan integral ta’limdir. Kasbiy kvalifikatsiya xodim faoliyatining sifati va samaradorligiga bevosita ta’sir etadi, turli kasbiy vazifalarni bajarish uchun tayyorligi va qobiliyatini ta’minlaydi. Pedagogik faoliyatning kasbiy standartiga quyidagi sohalar bo‘yicha kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni ta’minlovchi kompetensiyalar kiradi: pedagogik faoliyatning maqsad va vazifalarini belgilab qo‘yish; o‘quv faoliyatini asoslash orqali motivlashtirish; pedagogik faoliyat uchun ma’lumotlarning axborot asosini ta’minlash; pedagogik dasturlar ishlab chiqish va pedagogik qarorlar qabul qilindi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlarini tanlashda rahbarlar, mutaxassislar va xodimlar lavozimlarining yagona kvalifikatsion katalogida belgilangan pedagog kadrlar uchun belgilangan talablar hisobga olinadi.

Tanlangan pedagogik kompetensiyalar va pedagogik faoliyatning umumiy muvaffaqiyat darajasi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni tekshirish barcha kompetensiyalar bevosita muhim aloqalar tizimi va pedagogik faoliyatning umumiy muvaffaqiyat darajasi bilan yuqori ishonch darajasida bog‘langanligini ko‘rsatdi. Aniqlangan qonuniyatlar barqaror xususiyatlarga ega bo‘lib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy kompetentligining shakllanganlik darajasini aniqlashning mezonlar bazasini yaratish asoslari pedagogik faoliyatni tahlil qilish asosida ishlab chiqilgan pedagogik faoliyatning kasbiy standarti belgilaydi.

Tizimli-faoliyat yondashuvi nuqtayi nazaridan ishlab chiqilgan pedagogik faoliyatning kasbiy standarti pedagogik faoliyatning asosiy funksional vazifalarini hal etishni ta’minlovchi kompetensiyalar yig‘indisini o‘z ichiga oladi. Pedagogning kompetensiyasiga qo‘yiladigan talablar u o‘z faoliyatida amalga oshiradigan funksional vazifalar bilan ham belgilanadi. Pedagogik faoliyatning kasbiy standarti pedagogning kompetentligiga qo‘yiladigan talablar tizimini o‘z ichiga olib, ular o‘z yaxlitligida uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga tayyorligini belgilaydi va uni amalga oshirishning muvaffaqiyatini belgilaydi.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligi tuzilmasini aniqlashda biz pedagogik faoliyatning kasbiy standartining asosiy qoidalarini, ijodiy kompetentlikning asosiy funksiyalarini va ijodiy kompetentlikni rivojlantirishda turli yosh toifalariga mansub o‘qituvchilarning afzal ko‘rgan tomonlarini hisobga olamiz.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining pedagogik modeldagi ijodiy kompetentligining tarkibiy qismlari sifatida qadriyat-motivatsion, kognitiv-konstruktiv va refleksiv-maqsadli komponentlarni ajratamiz. Mustaqil ta’lim faoliyatida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirish mezonlari va ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun esa boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari ijodiy kompetentligining tarkibiy qismlarining mazmunini batafsilroq o‘rganib chiqamiz.

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining ijodiy kompetentligining kognitiv-konstruktiv komponentiga bilish, ta’limiy va mustaqil ta’lim faoliyatlari kiradi va bilimlar tizimi, ularni ijodiy qo‘llash texnologiyasi bilan tavsiflanadi. Zamonaviy pedagogik nazariya tizimida bilim, ilm-fan funksiyalaridan kelib chiqib aytilganda, o‘quv fani yaratilishi asosida yotgan asos bo‘lib, metodologik, nazariy va amaliy bilimlar o‘rtasidagi munosabatlarni, ilmiy-nazariy va amaliy-amaliy, yoki normativ-huquqiy bilimning kombinatsiyasini (birga kelishini), asosiy va instrumental bilimlar, nazariy va amaliy bilimlarni o‘z ichiga oladi. Har bir alohida o‘quv vaziyatini yoki vazifasini yechish va tahlil qilish texnologiyasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining bilimlar tizimini faolllashtiradi va tahlil, sintez, mavhumlashtirish (abstraksiya), umumlashtirish kabi tafakkur-mantiqiy operatsiyalarni bajarishni talab qiladi va shu bilan birga ijodiy kompetentlikni shakllantiradi. Vaziyatga nostandart yondashuvlarni qo‘llash asosida o‘quv predmetlari va darsdan tashqari mashg‘ulotlar mazmunining mantiqiy tuzilishini (qurishni) loyihalashga katta ahamiyat beriladi.

O‘qituvchining kasbiy faoliyatida ijodkorlikka yo‘naltirilganlik mezoni shaxsning ijodiy yo‘naltirilganligi; shaxsning ijodiy imkoniyatlari; qadriyat orientatsiyalari kabi ko‘rsatkichlar bilan ifodalanadi. Qadriyatlar shaxsning butun hayotiga, shuningdek, alohida harakat va harakatlariga baho berishning mezonlari bo‘lib xizmat qiladi, chunki ular harakat muqobil usullarini tanlash, ushbu muqobillarni saralab olish va baholash uchun asos yaratadi. Shaxs ushbu baholash faoliyatini foydalilik va ahamiyatlilik (muhimlik) nuqtayi nazaridan amalga oshiradi. Qadriyatlar atrofdagi voqelikni baholash mezoni hamdir: shaxs qabul qiladigan va qayta ishlaydigan barcha ma’lumotlar qadriyatlar tizimi orqali “filtrlanadi” (elakdan o‘tkaziladi).

‘‘Qadriyat’’ tushunchasini tahlil qilishda, biz aksariyat zamonaviy tadqiqotchilar - faylasuflar, psixologlar va pedagoglarning fikrida qolamiz. Ular qadriyat subyekt-obyekt kategoriyasi bo‘lib, uning tabiatiga ko‘ra obyektivdir deb hisoblaydilar. Predmetlarning qadriyat funksiyalari bu funksiyani anglash va uning voqelik predmetlariga yo‘naltirilganligining vositasi bo‘lib xizmat qiladigan subyektiv omillar – istaklar, ehtiyojlar, emotsiyalar, hissiyotlar bilan aloqador bo‘lib, bog‘liqlik hisoblanadi. Munosabatlarning subyektiv tomoni

mukammal motivasion kuchlardan, faoliyat motivlaridan iborat bo‘lib, inson munosabatini motivatsion-qadriyatli deb hisoblanadi. Tadqiqotchi G.I. Shkolnikning fikriga ko‘ra, qadriyatlar shaxsning qarorlari, uning fikriga ko‘ra, o‘zi muhim va to‘g‘ri deb hisoblaydigan narsalarni tanlash haqida qarorlaridir. O‘tmishda qabul qilingan va insonning bugungi kundagi xulq-atvorini belgilovchi bu qarorlar uning butun hayotiga, boshqalar bilan bo‘lgan munosabatlariga, qanday inson bo‘lib etishishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. "Qadriyatlar ko‘rish mumkin narsalar emas, va shuning uchun tushunish chegarasidan chiqib keta olmadilar. Ularni faqat individning javob reaksiyalarini va uning xulq-atvorini asoslaydigan yondashuvlarni o‘rganish orqali tanish bo‘lishi mumkin. Shu asnoda, qadriyatlarda shaxsning yangi narsalarni mustaqil o‘rganishga qat’iyatining, tayyorligining o‘lchovi darajasini ifoda etilishi bizning tadqiqotlarimiz uchun eng muhim holatdir. Shu ma’noda inson xulq-atvorini belgilovchi ko‘rsatmalarni qadriyatli ko‘rsatmalar mo‘ljali deyiladi. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy kompetentligini rivojlantirishga yordam beruvchi qadriyatlar tabiat va inson xususiyatlari bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlab o‘tamiz. Inson ijodiy kompetentlikni qadriyat deb hisoblash yoki unday deb hisoblamaslikda tanlashda erkindir. Bunday faoliyat muayyan shaxs uchun qadriyatga aylangani sari ushbu ijodiy faoliyatga qiziqish ortadi – ‘‘qadriyat’’ va ‘‘motivatsiya’’ (rag‘batlanganlik, asos) tushunchalari bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ch.A. Shakeeva to‘g‘ri ta‘kidlab o‘tganidek, qadriyat ko‘rsatmalari (orientirlari) asosan, qadriyat tanlash motivlarining shakllanishini belgilaydi. Motivatsiya (lotin tilida. ‘‘dvigatel’’, harakatga soluvchi) ta’lim oluvchilarni faol bilish va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullanishga undovchi (turtki beruvchi) jarayonlar, usullar va vositalarni belgilaydi. Eng umumiy ma’noda motiv (turtki, asos) – insonni shu motiv (asos) bilan belgilangan faoliyatni amalga oshiruvchi harakatni belgilaydigan, rag‘batlantiradigan va bajarishga da’vat etadigan narsa. Qadriyatlar, ehtiyojlar, intilishlar, qiziqishlar, munosabat va ideallar o‘zaro aloqadorlikda motivlar sifatida amal qiladi. Qadriyatlarda insonning butun hayotiy tajribasi, shaxs tuzilishining (strukturasining) ushbu tarkibiy qismi, olimlar nuqtayi nazaridan, umumlashtiriladi, va “ongning atrofida insonning niyatlari (fikrlari) va tuyg‘ulariga aylanadigan va uning nuqtayi nazaridan ko‘p hayotiy masalalar hal qilinadigan ma’lum bir o‘qini ifodalaydi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko‘tarish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-sonli Qarori. –T., 2017y. 28-iyul.

2. Barkamol avlod orzusi //Tuzuvchilar: Qurbonov Sh., Saidov H., Ahliddinov R. – To‘ldirilgan 2-nashri. –T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi.–2000-y.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 25-avgustdagi PQ-451-sonli “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi Qarori. // Xalq so‘zi gazetasi 2006-yil 26-avgust soni.

4. Мардонов Ш., Зокирова У. Духовно-эстетическое воспитание педагогических кадров на художественном наследии Academic research in educational sciences volume 1 | issue 4 | 2020 issn: 2181-1385scientific journal impact factor (sjif) 2020: 4.804 p. 3

5. Scientific and theoretical issues of formation of intellectual and creative qualities of the person. Oripova Feruza Meliyevna. The International journal of analytical and experimental modal analysis. 2020. (80-81).

Dilfuza SODIQOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi, o‘qituvchisi

TALABALARDA IJODIY MUNOSABATLAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS AFZALLIKLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirishning o‘ziga xos afzalliklari to‘g‘risidagi fikrlar asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar. Ijod, munosabat, tafakkur, bilim, ko‘nikma, rivojlantirish, faoliyat, qobiliyat.

Статья основана на идеях об уникальных преимуществах развития творческого мышления в отношениях у студентов.

Ключевые слова. Творчество, отношение, мышление, знания, навыки, развитие, активность, умение.

This article is based on ideas about the unique benefits of developing creative relationship thinking in students.

Key words. Creation, attitude, thinking, knowledge, skill, development, activity, ability.

Bugungi kunda bo‘lajak o‘qituvchilarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishda ularning mustaqil fikrlay olish qobiliyatiga ega bo‘lishlari muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ta’lim tizimida talabalarni fikrlashga o‘zlashtirilgan bilimlarni mushohada qilishga o‘rgatish zarurdir. Ijodiy fikrlashga o‘rgatish birinchidan, ma’lumotlarni, axborotlarni o‘zlashtirish, ularni o‘zaro qiyoslash va umumlashtirishni, ikkinchidan o‘zlashtirilgan bilimlarni turli vaziyatlarda faoliyatni tashkil etishda qo‘llay olish tajribasini nazarda tutadi.

Ijod – bu inson tabiat boyliklarini ongli ravishda o‘zlashtirishi jarayonida yangi moddiy va ma’naviy boyliklar yaratish, shuningdek, insonning qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonidir. Ijod deganda, keng ma’noda shaxs yoki jamiyatning tabiiy, ijtimoiy va ma’naviy olamini insonning maqsad va vazifalariga, uning ehtiyojlari, istaklari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda o‘zgartirish borasidagi bunyodkor faolligi tushuniladi. Subyektning borliqda faol va izchil tarzda yangilik yaratish irodasining ta’siri ijodiy faoliyatda o‘z aksini topadi. Odamlar ongli ijod orqali bizni qurshagan olamni kuzatibgina qolmay, balki uni faol yaratadi. Shaxs erkinligi, ijod izlanishlar va ijod natijalarining tanqid uchun ochiqligi, ijod atrofida fikrlar va g‘oyalar kurashi ilmiy, badiiy, texnikaviy ijod rivojlanishining zarur shartidir.

Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalardagi yashirin iste’dodlarni yuzaga chiqarish, bolalik davridan boshlab o‘z faoliyatini namoyon qilishi uchun imkoniyat yaratish, ulardagi ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish – kelajakda yuksak salohiyatli, ijtimoiy faol, o‘tkir zehnli, kashfiyotchilik qobiliyatini namoyon eta oladigan raqobatbardosh kadrlarni voyaga yetkazish garovi sanaladi.

Insonning biluvchi tafakkurining ijodga intilishi, ijodiy faolligi ilmiy tadqiqot maqsadini qo‘yishda, ilmiy ijod natijalarini bashorat qilishda ongning faolligini nazarda tutadi. Immanual Kant ijodiy-bilish faolligini “aqlning xavf-xatarli” deb ta’riflagan edi. Insonning o‘zini qurshagan olamni teran va mukammal bilishga intilishida jasorat va matonat

ko‘rsatishi ong ijodiy faoliyatining yorqin ifodasidir.

Insonning fikrlash jarayoni tahlil qilinganda uning qanday shakllarda kechishi ahamiyatli bo‘lib, bu uning turlari va shunga ko‘ra fikrlashdagi individuallik masalasidir.

Fikrlash ko‘nikmasi o‘quvchilarda o‘z-o‘zini anglash, kelgusi hayot yo‘lini to‘g‘ri belgilash, ma’naviy va axloqiy qadriyatlar mohiyatini to‘g‘ri anglashga, turli muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Bolalar o‘qituvchi rahbarligida ishlaganda tez mushohada qiladi. Bu hol esa, insonda faqat shaxsiy manfaatlar doirasida faoliyat yuritish bilan cheklanish, ijtimoiy muammolarni tushunmaslik va ularni hal qilishga layoqatsizlik kabi salbiy xususiyatlarning shakllanishiga va oqibatda fikriy qaramlikka olib keladi.

Hayot mobaynida o‘qiganlarimiz, ma’lum shart-sharoitlarda aniq dalillar va nazariy bilimlar asosida mushohada qilgan bilim va g‘oyalarimiz asosida yuritgan fikrlash jarayoni nazariy tafakkurdir. Undan farqli amaliy tafakkur bevosita hayotda va harakatlarimiz mobaynida hosil bo‘lgan fikrlarimizga asoslanadigan tafakkurimizdir. Ko‘rgazmali – harakat tafakkurining xususiyati shundaki, u ham odamning real predmetlar bilan ish qilayotgan paytdagi fikrlash jarayonini nazarda tutadi.

Ko‘rgazmali – obrazli tafakkur esa ko‘rgan-kechirgan narsalar va hodisalarning aniq obrazlari ko‘z oldimizda gavdalangan chog‘ida ularning mohiyatini umumlashtirib, bilvosita aks ettirishimizdir. Manqiy tafakkur – bu mavhum tafakkur bo‘lib, so‘zlar, so‘zda ifodalangan bilim, g‘oya va tushunchalarga tayangan holda bevosita idrokimiz doirasida bo‘lmagan narsalar yuzasidan chiqarilgan hukmlarimiz, mulohazamiz bu – tafakkurga misol bo‘la oladi. Masalan, olam, uning noyob va murakkab hodisalarini falsafiy o‘rganish faqat mavhum, abstrakt tafakkur yordamida mumkin bo‘ladi.

Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini yuritish ko‘nikmasi – bu olim, tadqiqotchi, yaratuvchining qobiliyatlari va mahoratining, irodasi, tirishqoqligi va qat’iyatning yakuniy maqsadi – yangi haqqoniy ilmiy bilim olishga intilishning ifodasidir.

Ijodiy faoliyat – tafakkur, fikrlash shakllari bo‘lib, ular qobiliyat, layoqat, havasni tarbiyalash yo‘li bilan rivojlantiriladi, yangilik, ijodkorlik ijodiy faoliyat belgilari hisoblanadi. Talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirish o‘z navbatida o‘rganuvchilarni:

– mustaqil va ongli ravishda bilim olish;

– doimo olg‘a intilish;

– turli ziddiyatli va muammoli vaziyatlarni oqilona hal etish;

– noan’anaviy va yangicha fikr yuritishga o‘rgatadi.

Talabalar faoliyatiga ko‘ra, talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishda ijodiy topshiriqlar uch guruhga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq. Ular:

– ijodiy mustaqil ish;

– ijodiy mashq;

– o‘quv muammolari.

Ijodiy mustaqil ish ijodiy topshiriqlarning boshqa turlaridan ikki jihati bilan farq qiladi: operativ tashkil etish va o‘quv-biluv faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga egaligi. Ijodiy mustaqil ish ta’limining shunday vositasiki, uni ta’limga tatbiq etish yo‘li bilan – o‘qish, o‘rganishga ishtiyoq davom ettiriladi, dars doirasida hosil qilingan motivlarning davom etishi ta’minlanadi; o‘rganuvchining bilishga, bilim, malakalar doirasini kengaytirishga olib keladi; o‘rganilayotgan o‘quv materiali ustida o‘rganuvchining o‘z faoliyatlarini mustaqil davom ettirishga zamin tayyorlaydi; o‘rganuvchilar faoliyatiga rahbarlik qilishni ma’lum darajada osonlashtiradi.

Ijodiy mashq. Har doim bilimlarni esga tushirib, mashq qildirish ta’limda o‘rganuvchilarning

zerikishiga sabab bo‘ladi. Mashq qilish jarayonida o‘rganuvchilarning zerikishini bartaraf etish uchun ijodiy mashqlardan foydalaniladi. Ijodiy mashqlar ikki xil xususiyatga ko‘ra farqlanadi: o‘rganilayotgan bilimlar doirasini kengaytiradi – bunda o‘rganuvchi oldin o‘rganilgan o‘quv materialiga takroriy qaytib kelganda, o‘z tushunchasi doirasini keng bilimlar, tasavvurlar, faktlar bilan yanada boyitiladi. Ijodiy mashqlar doimiy shug‘ullanishiga mo‘ljallanishga mashqlardan farqli ravishda ham xotiraga, ham tafakkurga moslab tuziladi.

O‘quv muammolari “o‘quv topshiriqlar majmui” bo‘lib, ularni ijodiy topshiriqlar tizimi shaklida tasavvur qilish mumkin. Talabalarni ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishda, avvalo, ularning o‘zlari ushbu faoliyatga mas’ul ekanliklarini anglatish lozim.

Ta’lim oluvchilarning ijodiy munosabatlar tafakkurini shakllantirishda muammoli ta’lim boshqa ta’lim turlaridan farqli ravishda o‘rganuvchilarda bilim, ko‘nikma va malakalar tizimini tarkib toptirish bilan birga, ularda yuqori aqliy faoliyat, o‘z-o‘zini rivojlantirishni shakllantiradi. Muammoli topshiriq o‘rganuvchini mustaqil ijodiy izlanishga yo‘llashdan iboratdir. Masalan, insho, referat yozish, biron narsa ixtiro qilish, tajribadan o‘tkazish kabilar muammoli topshiriq asosida amalga oshiriladi, bu esa o‘z navbatida, interfaol ta’lim muhitini yaratadi.

Tafakkur jarayonining o‘zi ham bilish jarayonining o‘zi ham muttasil har xil savollar tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Odam qanchalik ko‘p bilaversa, uning oldida noma’lum narsalar shu qadar ko‘p paydo bo‘laveradi, unda shu qadar ko‘p savollar tug‘ilaveradi va uning o‘zi shu qadar ko‘p savol beraveradi. Bilishga qiziqish savollar qo‘yishda katta rol o‘ynaydi. Kundalik hayotda shunday ham bo‘ladiki, savol berilishi bilan darrov uni javobi ham topiladi. Masalan, “Bugun nima kun?”, “Bugun shanba”, “Ikki marta uch qancha bo‘ladi?”,‘‘Ikki marta uch – olti”. Shunday qilib, bunday tafakkur jarayonida savolga javobni idrok qilinayotgan yaqin vaziyatning o‘zi beradi yoki hammaga ma’lum ochiq-oydin haqiqatlar javob bo‘lib xizmat qiladi. Kundalik hayotimizdagi nutqni bevosita tushunishning o‘zi ham oddiy tafakkurga taalluqlidir. Bu – tafakkurning oddiy, elementar jarayonlaridir. Bu ayrim hukmlar bizning idrokimizda ifodalanadi hamda tasavvurlar va tushunchalar tariqasida xotiramizda mustahkam o‘rin oladi. Ijodiy tafakkur to‘g‘risida gapirganimizda, biz murakkab aqliy jarayonni nazarda tutamiz. Ijodiy tafakkur murakkab jarayon bo‘lib, bu murakkab jarayonda qo‘yilgan savol ketidan (shu savolning murakkabligiga qarab) – dastlab vazifa ifodalangach, so‘ngra esa vazifani, masalani yechish jarayoni, ya’ni qo‘yilgan savollarga javob qidirish jarayoni boshlanadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, talabalarda ijodiy munosabatlar tafakkurini rivojlantirishning o‘ziga xos afzalliklarida muhim rol o‘ynaguvchi pedagogik shartlar va uni mustaqil bilim olish va ijodiy fikrlashga yo‘naltirishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kushvaktov N. Talabalarni milliy – ma’naviy qadriyatlarni o‘rganishga tayyorlashning pedagogik va kompyuterli asoslari. 13.00.01 – Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo‘yicha pedagogika fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2006-y.

2. Sodiqova D. (2019). PECULIARITIES OF FORMING CREATIVE ATTITUDE TO THOUGHTS OF STUDENTS. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12)

Xafiza AKRAMOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, dotsenti, "Maxsus pedagogika" kafedra mudiri

AQLI ZAIF O'QUVCHILAR MEHNAT KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH YO'LLARI

Annotatsiya

Maqolada aqli zaif o'quvchilar mehnat ko'nikmalarini shakllantirishda axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yo'llarining o'ziga xos jihatlari ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar. Aqli zaiflik, axborot va kommunikatsiya texnologiya, mehnat ko'nikmalar, o'quv jarayon.

В статье освещены особенности эффективных факторов использования информационно-коммуникационных технологий в формировании трудовых навыков умственно отсталых студентов на основе научных подходов.

Ключевые слова. Умственная отсталость, информационно-коммуникационные технология, рабочие навыки, процесс обучения.

This article highlights the specific aspects of effective factors in the use of information and communication technologies in the formation of work skills of mentally retarded students on the basis of scientific approaches.

Key words. Mental retardation, information and communication technology, work skills, learning process.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF 4947-son Farmoni, "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3151 sonli qarori, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 2909-sonli qarori, 30-iyun 2017-yil "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" PF-5099-sonli farmoni ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash. Axborot obyektlar, hodisalar, jarayonlar haqidagi xabarlar to'plamidir. Olingan axborotlar belgili, matnli va grafikli ko'rinishda ifodalanadi. Belgili ko'rinishdagi axborot asosan, harflar, raqamlar, belgilar ko'rinishidan iborat bo'ladi. Undan turli hodisalar haqida murakkab bo'lmagan signallarni uzatish uchun foydalaniladi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari mohiyatan bilim va til kabi fundamental tushunchalar chegaralarini kengaytirdi. Tilning muhim funksiyasi to'g'risidagi tasavvur – uning yordamida bilimlarni egallash va yetkazish – tarixan shakllangan: til – aloqa yoki kommunikatsiyaning o'ziga xos tizimidir. Inson tildan tashqari, bilimlarni izlash va egallash, ularni saqlash va yetkazish uchun jamiyat hayotiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatgan qo'shimcha vositalarni izlagan va topib borgan. Yozuv, bosma stanok, tele-

fon, televideniye va nihoyat Internet tarmog‘i – bilimlarni yetkazish evolyutsiyasining eng ahamiyatli bosqichlaridir.

“Biz axborot va kommunikatsiyalar asrida yashayapmiz” degan fikr to‘la haqli emas, chunki axborot va kommunikatsiya doim bo‘lgan, ammo, axborot jamiyati shunisi bilan ajralib turadiki, unga axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi xosdir, ularning imkoniyatlari esa insoniyat taraqqiyoti uchun, ko‘pgina kasbiy, iqtisodiy, ijtimoiy va maishiy muammolarni samarali hal qilish uchun ahamiyatli bo‘lib sanaladi. Mazkur imkoniyatlardan yangi axborot muhitida mo‘ljal olish imkonini beradigan zarur bilimlarga ega bo‘lgan jamiyat a’zolari oqilona foydalana oladi.

Mehnatni har bir individ uchun ochiq va maqsadga muvofiq faoliyatga cheklovlarni bartaraf etuvchi faoliyat sohasi sifatida tushunish dolzarb hisoblanadi, korreksion imkoniyat va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun maxsus ta’lim tizimining mohiyatini aynan shunday mazmunda tushunish lozim. Shu tariqa, ijtimoiy, kommunikativ, axborot, kognitiv va maxsus singari asosiy kompetentsiyalarni egallash bilan bog‘liq axborot va kommunikatsion texnologiyalar bilan boyitilgan ta’lim mazmuni quyidagi shartlar bajarilganida yanada chuqurroq va ongliroq bo‘ladi:

– hamkorlikdagi loyihalar, jumladan, telekommunikatsion loyihalarni bajarish imkoniyatiga ko‘ra, pedagoglar va o‘quvchilarning kasbiy va umuminsoniy o‘zaro munosabatlari darajasining sezilarli oshirilishi;

– an’anaviy kutubxonalar va maktab laboratoriyalarining imkoniyatlarini elektron kutubxonalar va virtual laboratoriyalardan foydalanish, Internet tarmog‘ining ilmiy, o‘quv va boshqa madaniy hamda ijtimoiy ahamiyatli resurslari hisobiga kengaytirish orqali o‘quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun yangi sifatli sharoitlarning yuzaga kelishi;

– o‘z-o‘zini nazarot qilish va o‘qituvchi bilan qayta aloqani qo‘llab-quvvatlash rivojlangan tizimlari orqali o‘quvchilarning an’anaviy va elektron resurslar bilan mustaqil ishlashlari samaradorligini oshirish.

Sanab o‘tilgan shartlarning bajarilishi ta’limni modernlashtirishlashning asosiy maqsadi – ta’lim sifatini yaxshilash, ta’lim olish imkoniyatini kengaytirish, alohida shaxsning hamda umuman axborot jamiyatining barkamol rivojlanish ehtiyojlarini ta’minlashga erishishga yordam beradi. Yordamchi maktab internat doirasida korreksion ta’limni rivojlantirishning istiqbolli yo‘nalishi yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish hisoblanadi. Mamlakatimizda umumta’lim maktablarida kompyuterlar ancha yillardan oldin paydo bo‘lgan. Albatta, axborot texnologiyalari imkoniyati cheklangan bolaning kasalligidan xalos etmaydi va shu tufayli yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etmaydi. Ammo unga avval noma’lum bo‘lgan bilim, ko‘nikmalar, muloqot shakllari, o‘yinlar, uni o‘rab turgan muhitni boshqarishni anglashi orqali uning o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchini uyg‘otadi.

Texnologiya – ta’lim tizimida mualliflik konsepsiyalarining xilma-xilligi to‘g‘risidagi umumlashtirilgan tasavvurlar sifatida pedagogiklarning lug‘atda yangi tushunchadir.

Axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi quyidagi asosiy vazifalarni hal qilish asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonni intensifikatsiyalash va faollashtirishni ta’minlaydi:

– o‘quvchi shaxsining turiga ko‘ra, tanladigan turli axborot texnologiyalarini qo‘llash orqali bilish faoliyatini qo‘zg‘atuvchilarni aniqlash va foydalanish;

– kompyuterli modellash, tarmoq baza ma’lumotlari va bilimlar texnologiyalari kabi axborotni qayta ishlashning zamonaviy vositalaridan foydalanish hisobiga turli fan sohalaridagi vazifalarni hal qilishda fanlararo aloqadorlikni chuqurlashtirish;

– o‘quvchilarning ta’lim yo‘nalishini loyihalash va kelgusi aktuallashtirishda faol ishtiroki, bu o‘z navbatida, ta’lim jarayonini tashkil etishda shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi.

Yengil darajadagi aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalarni texnologiya dars jarayonini moslashtirish:

1. Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar diqqatining tarqoqligini hisobga olib partada ortiqcha narsalar bo‘lmasligi kerak.

2. Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalar tez charchab qolishini hisobga olgan holda, ular harakatda bo‘lish imkonini beruvchi topshiriqlar berib turish (“daftarlarni yig‘”, “doskani tozala” kabi).

3. Har bir darsda jismoniy daqiqa o‘tkazishni unutmaslik.

4. Sinfda yetakchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan o‘quvchini aniqlab, “sinf boshqaruvchisi” (imkoniyati cheklangan o‘quvchi) etib tayinlash (bu o‘quvchidan o‘qituvchi aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bola bilan ishlayotganda ko‘proq foydalanadi).

5. Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolalarni sinfdagi eng a’lochi o‘quvchi bilan birga o‘tkazish.

6. Darsda asosiy ko‘rgazmalikka tayanish.

7. Aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolaga topshiriqlarni qismlarga bo‘lib berish.

8. Bolani rag‘batlantirishni unutmaslik.

9. Usullarning xilma-xilligidan doimiy ravishda foydalanish.

10. O‘yin metodlariga maksimal darajada tayanish.

11. Bola topshiriqni bajarayotganda unga qo‘shimcha yoki amaliy ko‘rsatma ham berish.

12. Sinf jamoasiga aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolaning ham hissasi qo‘shiladigan topshiriqlar berish.

13. Doimiy ravishda aqliy rivojlanishida muammosi bo‘lgan bolani nazorat ostiga olish.

Mehnat faoliyati doimo rivojlanadi. Uning har bir tarkibiy komponentlarining yuzaga kelishi malakalar, maqsadni belgilash, motivatsiya, ishni rejalashtirish, natijaga erishish va uni baholashlarni o‘z xususiyatlariga ega. Demak, mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish jarayoni aqli zaif bolalar uchun axborot texnologiyalaridan foydalangan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Катаева А.А., Давыдова С.И. Обучение умственно отсталых школьников в игровой форме с использованием образца и словесной инструкции. // Дефектология. – 2015. – № 1/

2. Катаева А.А., Стребелева Е.А. Роль дидактической игры в коррекционно-воспитательном процессе. // В кн. Дидактические игры и упражнения в обучении умственно отсталых дошкольников.– М., 2016, – С. 36.

Gulchehra TEMUROVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Maxsus pedagogika” kafedrasi, o‘qituvchisi

ESHITISHIDA NUQSONI BOR NUTQIY BO‘LMAGAN TOVUSHLAR ORQALI ESHITISH IDROKINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada nutqiy bo‘lmagan tovushlarni farqlanmagan idrokini rivojlantirish, past chastotali nutqdan tashqari tovushlarga shartli vosita reaksiyasini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Tovush chastotasi, verbal-noverbal, intensivlik, konditsioner, individual eshitish vositasi, reaksiya.

Развивать недифференцированное восприятие неречевых звуков в речи, освещаются вопросы формирования условной двигательной реакции на звуки, отличные от низкочастотных речевых.

Ключевые слова. Частота звука, словесно-новербальный, интенсивность, обусловленность, индивидуальный слуховой аппарат, реакция.

Develop indistinguishable perception of non-verbal sounds, formation of a conditioned motor response to sounds other than low-frequency speech: on the basis of auditory-visual; based on hearing.

Key words. Erequency of sound, slovesno-noverbalnыy, intensivnost, obuslovlennost, individualnyy sluxovoy apparatus, reaction.

Atrofdagi dunyo tovushlariga qiziqishni uyg‘otish va qo‘llab-quvvatlash (o‘z-o‘zidan va kattalar tomonidan yaratilgan). Nutqiy bo‘lmagan tovushlarni farqlanmagan idrokini rivojlantirish. Past chastotali nutqdan tashqari tovushlarga shartli vosita reaksiyasini shakllantirish: eshitish-ko‘rish asosida; eshitish asosida. Ovoz borligi va yo‘qligiga javobni ishlab chiqish.

Vizual va eshitish orqali qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish, (individual eshitish vositasidan foydalangan holda), har bir tovushga mos keladigan o‘yin harakatlarini rivojlantirish.

Ikkitadan birini tanlashda tovush bilan tanish bo‘lgan musiqiy o‘yinchoqlarni quloq orqali (individual eshitish vositasidan foydalangan holda) bilish qobiliyatini rivojlantirish; tegishli o‘yin harakati bilan reaksiyaga kirish.

Ovozni yaxshi biladigan musiqiy o‘yinchoqlarni tovushni kuchaytiruvchi uskuna holda quloq bilan farqlash qobiliyatini rivojlantirish. Musiqiy o‘yinchoqlar tovushining boshi va oxiriga javob berish qobiliyatini eshitish-ko‘rish va eshitish asosida (individual eshitish vositasidan foydalangan holda) shakllantirish (tovush bor – bolalar harakat qiladi, ovoz yo‘q – bolalar to‘xtab qolishdi).

Ovoz borligi / yo‘qligiga javobni ishlab chiqish.

Vizual, vizual va eshitish vositalarida (individual eshitish vositasi yordamida) turli chastotali musiqiy o‘yinchoqlarning ovozini sezish qobiliyatini rivojlantirish, har bir tovush uchun muayyan o‘yin harakatlari bilan bog'liq (masalan, ayiq baraban ovoziga javoban qadam tashlaydi; akkordeon ovoziga javoban qo'g'irchoq raqsga tushadi),

trubaning ovoziga qush uchadi va hokazo).

Taxminan ovoz manbalari: baraban, dafna, bochka organi, akkordeon, truba, hushtak, pianino va boshqalar.

Ikkitadan (baraban – quvur; baraban – hushtak; quvur – hushtak, akkordeon – quvur va boshqalar) tanlashda turli chastotali musiqiy o'yinchoqlarning tovushlarini quloq bilan farqlash qobiliyatini shakllantirish (individual eshitish vositasi yordamida). Masofa asta-sekin o'sib bormoqda.

Uchtadan (baraban – akkordeon – trubka va boshqalar) tanlashda turli chastotali musiqiy o'yinchoqlarning tovushlarini quloq bilan farqlash qobiliyatini shakllantirish (individual eshitish vositasi yordamida). Masofa asta-sekin o'sib bormoqda.

Ikki yoki uchtasini tanlashda tovush bilan tanish bo'lgan musiqiy o‘yinchoqlarni quloq orqali (individual eshitish vositasidan foydalangan holda) bilish qobiliyatini rivojlantirish; tegishli o'yin harakati bilan reaksiyaga kirish. Masofa asta-sekin o‘sib bormoqda.

Ovozni yaxshi biladigan musiqiy o‘yinchoqlarni tovushni kuchaytiruvchi uskuna holda quloq bilan farqlash qobiliyatini rivojlantirish.

Eshitish-ko‘rish va eshitish asosida musiqiy o‘yinchoqlar ovozining boshi va oxiriga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish (tovush bor – bolalar harakat qiladi, tovush yo‘q – bolalar to‘xtadi).

Ikkitadan birini tanlashda turli xil intensivlikdagi nutqqa xos bo‘lmagan tovushlarni quloq bilan farqlash qobiliyatini shakllantirish: baland va sokin tovushlar (tovush manbai tanish musiqiy o‘yinchoqlar, shuningdek, har xil yormalar bilan qutilar: no‘xat, grechka, irmik) bo‘lishi mumkin. Tegishli o‘lchamdagi o‘yinchoqlar bilan aloqada bo‘ling (baland ovoz – katta avtomobil haydash, jim ovoz – kichik avtomobil haydash).

Ikkitasini tanlashda quloqqa qarab (individual eshitish vositasidan foydalangan holda) har xil intensivlikdagi nutqiy bo‘lmagan tovushlarni ajratish qobiliyatini shakllantirish: baland va sokin tovushlar (tovush manbai tanish musiqiy o‘yinchoqlar, shuningdek, turli xil donli donalar bilan qutilar: no‘xat, grechka). Ovoz ma’lumotlarini mos o‘lchamdagi o‘yinchoqlar bilan o‘zaro bog‘lab qo‘ying (baland ovoz – katta avtomobil haydash, jim ovoz – kichik avtoulov haydash).

Ikkitadan birini tanlashda (ovoz manbai musiqa asboblari) nutqiy bo‘lmagan tovushlarning balandligini quloq bilan farqlash qobiliyatini shakllantirish (individual eshitish vositasidan foydalangan holda). Bolalar tovushga turli xil o‘yin harakatlari bilan munosabatda bo‘lishadi: past ovoz – ayiq yuribdi, baland ovoz – sichqon yugurmoqda.

Nutq orqali eshitish idrokini rivojlantirish.

Chastotali spektri bolaning eshitish holatiga mos keladigan nutq stimullariga shartli vosita reaksiyasini ishlab chiqish uchun: uch martalik nutq signali ostida (‘‘PA-PA-PA’’, ‘‘TU-TU-TU’’, ‘‘PI-PI-PI’’) ma’lum bir harakatni (mag‘lubiyatni) bajaring. piramida halqasi, toshlarni, tugmachalarni, chig‘anoqlarni bankaga, qutiga va boshqalarga tashlang). Og‘zaki ovoz va pichirlash nutqi ishlatiladi. Masofa asta-sekin o‘sib bormoqda.

Bolaning o‘z ismiga bo‘lgan munosabatini rivojlantirish.

Nutq tovushlarining kuchini sezish va quloq bilan farqlash qobiliyatini shakllantirish (jimgina – baland ovozda). O‘yin harakatlarini bajaradigan har xil o‘lchamdagi o‘yinchoqlar bilan taqqoslang: “U-U-U” (baland ovoz) – katta mashina ketmoqda.

“Oo-oo-oo” (sokin ovoz) – kichik mashina haydab ketmoqda; “OP-OP-OP” (baland ovoz) – katta quyon sakrab chiqmoqda, “op-op-op” (sokin ovoz) – kichkina quyon sakrab tushmoqda va hokazo.

Ovoz balandligini quloq bilan farqlash qobiliyatini rivojlantirish (baland ovoz – past

ovoz). Bola o‘yinchoqni ko‘rsatib, tovushga munosabat bildiradi va agar iloji bo‘lsa, bu o‘yinchoq uchun eshitiladigan va xos bo‘lgan bo‘g‘inni aytadi (ayiq – “tepadan tepaga”, qush –“pee-pee’’; poyezd – “_____ da”, mashina – “bbc” va boshqalar).

Ikkitadan (“av-av” – it; “mu__” – sigir; “tu-tu__” – poyezd; “miyov-miyov” – mushuk va boshqalarni tanlayotganda eshitish-ko‘rish va eshitish orqali onomatopoyani sezish va farqlash qobiliyatini shakllantirish). Onomatopeya ro‘yxati bolaning shaxsiy tajribasi bilan belgilanadi.

Ovozni yaxshi biladigan musiqiy o‘yinchoqlarni tovushni kuchaytiruvchi uskuna holda quloq bilan farqlash qobiliyatini rivojlantirish.

Eshitish-ko‘rish va eshitish asosida musiqiy o‘yinchoqlar ovozining boshi va oxiriga munosabat bildirish qobiliyatini shakllantirish (tovush bor – bolalar harakat qiladi, tovush yo‘q – bolalar to‘xtadi).

Ikkitadan birini tanlashda turli xil intensivlikdagi nutqqa xos bo‘lmagan tovushlarni quloq bilan farqlash qobiliyatini shakllantirish: baland va sokin tovushlar (tovush manbai tanish musiqiy o‘yinchoqlar, shuningdek, har xil yormalar bilan qutilar: no‘xat, grechka, irmik) bo‘lishi mumkin. Tegishli o‘lchamdagi o‘yinchoqlar bilan aloqada bo‘ling (baland ovoz – katta avtomobil haydash, jim ovoz – kichik avtomobil haydash).

Ikkitadan birini tanlashda nutqsiz tovushlarning balandligini quloq bilan farqlash qobiliyatini shakllantirish (tovush manbai musiqa asboblari). Bolalar tovushga turli xil o‘yin harakatlari bilan munosabatda bo‘lishadi: past ovoz – ayiq yuribdi, baland ovoz – sichqon yugurmoqda. Gapirmaydigan tovushlarning davomiyligini quloq bilan farqlash qobiliyatini shakllantirish (uzun tovush – qisqa tovush). Bolalar tovushlarga turli xil o‘yin harakatlari bilan munosabatda bo‘lishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Новиковская О.А. “Логоритмика для дошкольников в играх и упражнениях”. – М. 2005.

2. Муминова Л.Р. “Воспитание и обучение детей 5 – 6 лет. С общим недоразвитием речи в условиях двуязычия”. – Т., 1990.

3. Muzaffarova, X. (2020). Identification of mentally retarded children: Identification of mentally retarded children. Архив Научных Публикаций JSPI, 5(1). извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/556

Xafiza AKRAMOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, dotsenti, “Maxsus pedagogika” kafedrasi mudiri v.v.b.
Dilshoda ROPIJONOVA,
Maxsus pedagogika, Defektologiya (Logopediya) mutaxassisligi 1-kurs magistri

AQLI ZAIF BOLALAR NUTQIDAGI KAMCHILIKLARNI BARTARAF ETISHDA OILA VA MAKTAB HAMKORLIGINI AMALGA OSHIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Maqola aqli zaif bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda oila va maktab hamkorligini amalga oshirish yo‘llarida ota-onalar nuqsonli bolaga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirish va korreksiyalash va oilaviy hayotga tayyorlash vazifasini yuklaydi. Nutqida nuqsoni bor bolalarga ta’lim-tarbiya berish va ularni hayotga moslashtirish maxsus bilim va bu bolalarning xususiyatlari ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Aqli zaif bolalar, korreksiya, oila va maktab hamkorligi, ta’lim-tarbiya, tafakkuri, fonematik eshitishi, analiz va sintez, oilaviy hayotga tayyorlash.

Статья на пути реализации сотрудничества семьи и школы в преодолении речевых недостатков умственно отсталых детей родителями возлагается задача воспитания, развития и коррекции дефектного ребенка и подготовки его к семейной жизни. Воспитание и адаптация детей с нарушениями речи к жизни в условиях специальных знаний и особенностей этих детей освещаются на основе научных подходов.

Ключевые слова. Умственно отсталые дети, коррекция, семейное и школьное сотрудничество, воспитание и воспитание, мышление, фонематический слух, анализ и синтез, подготовка к семейной жизни.

This article sets the task of educating, developing and correcting a child with a disability and preparing him or her for family life in ways that family and school can work together to address speech defects in children with intellectual disabilities. The education and adaptation of children with speech disabilities is based on specialized knowledge and scientific approaches to the characteristics of these children.

Key words. Mentally retarded children, correction, parenting, family and school collaboration, education, thinking, phonemic hearing, analysis and synthesis, preparation for family life.

Yordamga muhtoj bolalardagi nuqsonlarni bartaraf etish, korreksiyalash va rivojlantirish ishlarini amalga oshirishda oila bilan hamkorlikda bo‘lish va ularga yordam berish katta ahamiyatga egadir. Oilada nuqsonli bolaga ta’lim-tarbiya berish, rivojlantirish va korreksiyalash va oilaviy hayotga tayyorlash vazifasini yuklaydi. Ushbu talablarga tayangan holda nutqida nuqsoni bor bolalarga ta’lim-tarbiya berish va ularni hayotga moslashtirish maxsus bilim va bu bolalarning xususiyatlarini bilgan holda yondashishini talab etadi.

Bolalar nutqidagi kamchiliklar bartaraf etilgach, ular o‘qishlarini ommaviy maktabda davom ettiradi. Shuning uchun I bo‘limning IV–VI sinflari u yoki bu sabab bilan maxsus maktabiga kira olmagan bolalar bilan to‘ldirib boriladi.

Maxsus maktabining u yoki bu sinflariga qabul qilishda birinchi navbatda quyidagilar,

ya’ni:

– matematika va umumta’lim maktabining boshqa fanlari bo‘yicha bolaga bilim va malakalar qaysi sinf talabiga javob berishi;

– og‘zaki va yozma nutq kamchiliklarini bartaraf etishda qanday tuzatish ishlariga muhtojligi;

– bu ishlar aynan shu sinfda amalga oshirilishi mumkinligi hisobga olinadi.

Sinflarda o‘quvchilar soni yetarli bo‘lgach, o‘qitishning birinchi boshlang‘ich davrida nutq buzilishlarining xarakteri va tabiatiga ko‘ra, bolalarni differensial o‘qitish, parallel sinflarni tashkil etish yo‘li bilan amalga oshirishni nazarda tutish lozimdir.

Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar bilan mashg‘ulotlar tashkil qilish va ularni o‘tkazishda kamchiliklarini to‘g‘irlash yuzasidan olib boriladigan ishlar bolalarning yosh xususiyatlarini, nutq defekti xususiyatlarini, ona tilidan maktab dasturini hisobga olgan holda tashkil qilinadi. Defektologik mashg‘ulotlarga dars mashg‘ulotlaridan bo‘sh va sinfdan tashqari vaqtda mashg‘ulotlar o‘tkaziladi. Maktab ma’muriyati va sinf o‘qituvchilari bilan kelishgan holda defektolog o‘quvchilarni o‘qish darslaridan chaqirib olishi mumkin.

Nutq tafakkur quroli va muloqot vositasi hisoblanadi. Bolaning har tomonlama shakllanishida hamda rivojlanishida nutqning to‘liq rivojlanishi katta ahamiyatga ega. Nutq bolalarda asta-sekinlik bilan rivojlanadi. Bolalar o‘sib rivojlangan sari ularning nutqi ham takomillashadi.

Nutqni o‘z vaqtida egallash bolaga atrofdagi odamlar bilan erkin muloqot imkonini beradi, o‘z xulqini boshqarishga yordam beradi, maktabda ta’lim-tarbiya berish jarayoni ancha yengillashtiradi.

Aqli zaif bolalar o‘zlarining me’yorda rivojlangan tengdoshlariga qaraganda birmuncha kech tilga kiradi, birinchi so‘zni aytish muddati uch bazan besh yoshgacha kechikadi.

M.F. Gnezdilov, V.G. Petrova, O.V. Kashe, E.V. Orlova, V.V. Voronkova, V.S.Raxmanova va boshqa olimlarning bergan ma’lumotlariga ko‘ra birinchi sinf aqli zaif bolalarning 60 foizida talaffuz kamchiliklari uchraydi. Aksariyat bolalarda fonematik eshitish qobiliyati buzilgan nutq a’zolari va ularning harakatidagi nuqsonlari ko‘plab uchraydi. Lug‘at boyligini egallashda jiddiy qiyinchiliklar kuzatiladi. Mavhum xususiyatdagi, umumlashtiruvchi tushunchalarni ifodalovchi so‘zlarni tushunmaydi, ko‘chma ma’noda ifodalangan tushunchalarni anglashda qiynalib, ular aynan idrok etadi.

Aqli zaif bolalarda bilish faoliyatida hamda nutqning rivojlanishida kuzatiladigan nuqsonlar grammatika va imloning o‘zlashtirilishini ancha qiyinlashtiradi. Shuni hisobga olib, maxsus muassasalardagi mashg‘ulotlarda tovush va harflarni tahlil qilish, lug‘at ustidagi ishlarga juda katta e’tibor beriladi. Bolalar tovushlarni idrok etish va talaffuz qilishga, bir-biridan ajratish, analiz, sintez qilishga, tovushlarni bir-biridan farqlash, pauzalarni ajratishga o‘rganadi.

Defektologik mashg‘ulotlarda aqli zaif bola shaxsini har tomonlama shakllantirish, ularni orqada qolishlikka olib keluvchi ruhiy va jismoniy rivojlanishidagi turli xil nuqsonlarni tuzatish, yengillashtirish, korreksiya qilishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan. Maxsus muassasalarda o‘tkaziladigan har bir mashg‘ulot aqli zaif bolalarning nutqini, bilish jarayonini, atrof-olam haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga va rivojlantirishga qaratilgan bo‘ladi.

Aqli zaif o‘quvchilarda nutq kamchiliklarini tuzatish maxsus, defektologik ishlarning tashkil qilinishini talab qiladi. Ixtisoslashtirilgan yordamchi maktablarning o‘quv rejasida o‘qituvchi-defektolog tomonidan o‘tkaziladigan defektologik mashg‘ulotlar soati ko‘zda tutilgan. O‘qituvchi defektolog tibbiy pedagogik komissiyaning a’zosi hisoblanadi. Maxsus

tekshirish yo‘li bilan u bolaning nutqida kamchiligi bor-yo‘qligini va uning xarakterini aniqlay olishi kerak.

O‘quv yilining boshida defektolog maktabga qabul qilingan barcha o‘quvchilarni tekshiradi. O‘quvchilar og‘zaki nutqining dastlabki tekshirilishi darslar vaqtida o‘tkaziladi. Yozuv malakalari diktant orqali tekshiriladi.

Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalar bilan mashg‘ulotlar tashkil qilish va ularni o‘tkazishda kamchiliklarini to‘g‘irlash yuzasidan olib boriladigan ishlar bolalarning yosh xususiyatlarini, nutq defekti xususiyatlarini, ona tilidan maktab dasturini hisobga olgan holda tashkil qilinadi. Defektologik mashg‘ulotlarga dars mashg‘ulotlaridan bo‘sh va sinfdan tashqari vaqtda 5-6 dars ajratiladi. Maktab ma’muriyati va sinf o‘qituvchilari bilan kelishgan holda defektolog o‘quvchilarni o‘qish darslaridan nutq o‘stirish, odobnoma darslariga chaqirib olishi mumkin.

I – IV sinf o‘quvchilari bilan individual va guruh tarzidagi mashg‘ulotlar haftasiga 4 marta va V – VI sinflarda haftasiga 3 marta o‘tkaziladi.

Har bir o‘quvchi bilan olib boriladigan individual mashg‘ulotga, odatda, 15 daqiqa ajratiladi. Guruh mashg‘ulotlarining davomiyligi – 40 daqiqa. Kichik guruhchalar bilan 20-25 daqiqa mashg‘ulotlar o‘tkazishga yo‘l qo‘yiladi.

Odatda, individual mashg‘ulotlar tovushlarni nutqqa qo‘yish yoki korreksiya qilishga muhtoj bolalar bilan o‘tkaziladi.

Defektolog bitta nutqiy nuqson bo‘yicha 4-6 kishidan iborat guruhni komplektlashtiradi.

2 – 9 o‘quvchidan iborat kichik guruhlar bir xil o‘quvchilar bilan, o‘ziga xos reja bo‘yicha ishlash talab qilingandagina komplektlashtiriladi. O‘qituvchi va defektolog, sinf rahbari, tarbiyachi o‘quvchilarni defektologik mashg‘ulotlarda qatnashishlarini nazorat qilib turishlari kerak.

Defektolog:

– mashg‘ulotga qatnashish jurnalini tutib, unda mashg‘ulotda o‘tilgan materialning mazmunini qisqacha aks ettiradi (har kuni);

– ishni o‘qituvchilar va tarbiyachilar bilan yaqin hamkorlikda tashkil qiladi, ular dars vaqtida, uy vazifasini tayyorlash nizomida, turmushda o‘quvchilarning defektologik mashg‘ulotlar jarayonida egallangan nutqiy malakalarining mustahkamlanishiga yordam berishlari kerak.

– dars vaqtida va darsdan tashqari vaqtda bolalar nutqiga to‘g‘ri talablar qo‘yilishi uchun o‘qituvchi va tarbiyachilarga o‘quvchilarning yutuq va kamchiliklari haqida muntazam axborot berib boradi;

– bola bilan olib borilgan defektologik mashg‘ulotlar yakunlangandan so‘ng o‘qituvchi va tarbiyachiga qo‘lga kiritilgan malakalarni sinf sharoitida va darsdan tashqari vaqtda to‘liq avtomatlashtirish usullari haqida tavsiyalar beradi;

– nutqiy nuqsoni bor bo‘lgan o‘quvchilarning nutq imkoniyatlarini tekshirish uchun ona tili, nutq o‘stirish, o‘qish va boshqa darslarni kuzatadi (defektologik mashg‘ulotlardan bo‘sh vaqtda). O‘z navbatida, o‘qituvchi va tarbiyachilar ham mazkur sinf o‘quvchilari bilan olib borilayotgan ishlardan xabardor bo‘lishlari uchun vaqt-vaqti bilan defektologik mashg‘ulotlarda qatnashishlari kerak;

– dastur talablarini, ona tilini o‘qitish metodi va usullarini yaxshi bilishi, ularni o‘z ishida hisobga olishi, darsda o‘rganilayotgan mavzuga mos didaktik materialdan foydalanishi kerak;

– o‘quvchilar bilan olib boriladigan nutq o‘stirish ishlarini tashkil qilishda tarbiyachilarga yordam beradi;

– o‘quv yilining oxirida tantanali ertalik o‘tkaziladi. Unda defektologik mashg‘ulotlarga qatnashgan bolalar o‘z yutuqlarini namoyish qiladi.

Aqli zaif bolalarda nutq kamchiliklarni tekshirishning maqsad va vazifalari:

1. O‘quvchilarning anamnestik ma’lumotlarini o‘rganish va tahlil etish.

2. Boshlang‘ich 1-4-sinf o‘quvchilaridagi og‘zaki va yozma nutq kamchiliklarini aniqlash, korreksiyalash va bartaraf etish.

3. Nutq kamchiligining sabablari, mexanizmlari, strukturasi va belgilarini aniqlash.

4. Nutq buzilishlarining turlariga binoan o‘quvchilarni guruhlarga taqsimlash.

5. Yozma nutq kamchiliklarini turlarini aniqlash, o‘quvchilarni guruhlarga ajratish.

6. Har bir o‘quvchi va guruh uchun individual va guruhli ish rejalarini tuzish.

7. Har bir o‘quvchi uchun individual nutq kartasini tuzish va to‘ldirib borish.

8. Nutq nuqsoni murakkab bo‘lgan o‘quvchilarga defektologik yordamni tashkil etish bilan birgalikda tibbiy hamda psixologik yordamni uyg‘unlashtirish.

Aqli zaif bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishda defektologik ishlarning ahamiyati oila va maktabning hamkorligi bosqichma-bosqich amalga oshirilishi va uning vazifasiga ota-onalarning faol pedagogik pozitsiyasini shakllantirish kirishi lozim. To‘g‘ri tashkil etilgan ish ta’limiy xarakterga ega bo‘ladi. Defektolog oilada tarbiyaning ijobiy tajribalariga tayanishi, uni yoyishi kerak. Hamkorlikning eng birinchi va hal qiluvchi sharti pedagog va ota-onalar o‘rtasidagi ishonchli munosabatlardir. Aloqa shunday bo‘lishi kerakki, ota-onalarda tarbiyaviy va tahliliy jarayonga nisbatan qiziqish uyg‘onsin.

Ikkinchi, yanada ahamiyatli bo‘lgan vazifa – oilani pedagogik ko‘nikma va bilimlar bilan qurollantirishdir. Pedagogik hamkorlik jarayonini bunday tarzda tashkil etish natijasida ota-onalarning faqatgina o‘zining farzandini tarbiyalashdagina emas, balki butun sinfning tarbiyaviy ishlarida faol ishtirokchiga aylanishini ko‘rish mumkin. Pedagoglar va ota-onalar hamkor sifatida bir-birlarini to‘ldirib boradilar. Hamkorlik munosabatlari ikkala tomonning tengligini, o‘zaro iliq munosabat va hurmatni nazarda tutadi.

Ota-onalarning kuchli tomonlari va ijobiy sifatlari e’tiborga olish ishning muvaffaqiyatli bo‘lishini ta’minlaydi. O‘zaro munosabatlarning rivojlanib borishi bilan ishonch mustahkamlanadi, ota-onalar rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolani tarbiyalashda ma’lum bir mas'uliyatga ega bo‘ladilar.

Bolani har tomonlama rivojlantirishda maktab va oila hamkorligining mazmuni, shakl va metodlarini takomillashtirish juda muhim. Maxsus muassasa pedagogi bu vaziyatda bolalarning tarbiyachisi va ota-onalarning hamkor sifatida ish ko‘radi. Pedagoglar va oila a’zolari o‘rtasidagi aloqaning xarakteri va samaraliligi maktabning oila bilan hamkorligidagi ishning metodlarini to‘g‘ri tanlashiga ham bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Волкова Г.А. Методика психолого-логопедического обследования детей с нарушениями речи. Вопросы дифференциальной диагностики: Учебно методическое пособие. – СПб, 2003.

2. Ayupova M.Y. Logopediya. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2007-y.

3. Akramova, X. (2020). Aqli zaif o‘quvchilarni kompyuter texnologiyalari asosida mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish. Архив Научных Публикаций JSPI, 1(16), 1-9. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/4013

Xafiza AKRAMOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, dotsenti, “Maxsus pedagogika” kafedrasi mudiri v.v.b.
Dilafruz ZOKIROVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Maxsus pedagogika, Defektologiya (Logopediya)” mutaxassisligi 1-kurs magistri

PROFESSIONAL TA’LIMDA AQLI ZAIF BOLALARNING NUTQINI O‘STIRISH BO‘YICHA KORREKSION-PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALADAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqola mehnat ta’limida aqli zaif bolalarning nutqini o‘stirish bo‘yicha korreksion-pedagogik texnologiyaladan foydalanishda korreksion-pedagogik jarayonda aqli zaif bolalarning o‘z-o‘ziga xizmati va maishiy xo‘jalikdagi mehnatiga katta o‘rin ajratiladi va aqli zaif bolalarning ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiyasi rejasida muhim ahamiyatining ilmiy yondashuvlar asosida yoritilgan.
Kalit so‘zlar. Aqli zaif bolalar, korreksion-pedagogik, texnologiya, ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiya, mehnat, o‘yin, ta’lim-tarbiya, tafakkur, fonematik eshitish.

В статье уделено большое место самообслуживанию и бытовому труду умственно отсталых детей в коррекционно-педагогическом процессе с использованием коррекционно-педагогической технологии речевого развития умственно отсталых детей в трудовом воспитании и освещено на основе научных подходов его существенное значение в плане социальной адаптации и реабилитации умственно отсталых детей.
Ключевые слова. Умственно отсталые дети, коррекционно-педагогическая, технологическая, социальная адаптация и реабилитация, трудовая, игровая, учебно-воспитательная, мышление, фонематический слух.

This article focuses on the use of correctional and pedagogical technologies for speech development of mentally retarded children in labor education. its importance in the plan of social adaptation and rehabilitation of children is highlighted on the basis of scientific approaches.
Key words. Mentally retarded children, correction-pedagogy, technology, social adaptation and rehabilitation, labor, play, education, thinking, phonemic hearing, analysis and synthesis, teaching.

Bolalarni so‘z boyligini oshirishda faoliyat va muloqot zarur shart-sharoitlardan hisoblanadi. Kichik yoshda muloqotning rivojlanishi faoliyatning shakllanishi bilan o‘zaro bog‘liqdir. (mehnat, o‘yin, tasviriy faoliyat) nutqiy faoliyat so‘z boyligini oshirishga qaratilgan maxsus mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Muloqot va mehnat faoliyat ko‘rinishlarini rivojlantirish o‘qituvchi rahbarligida maxsus darslarda davom ettiriladi. Bolalar muloqotini mehnat faoliyatlarida tashkil qilish kerakki, ular yangi so‘zlarni o‘zining faol nutqlarida doimo qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Korreksion-pedagogik jarayonda aqli zaif bolalarning o‘z-o‘ziga xizmati va maishiy xo‘jalikdagi mehnatiga katta o‘rin ajratiladi. Bu aqli zaif bolalarning ijtimoiy adaptatsiya va reabilitatsiyasi rejasida muhim ahamiyatga ega.

O‘z-o‘ziga xizmat qilishni shakllantirish, ma’naviyatning barcha sohalarida mustaqillikni oshirish, o‘ziga ishonch, emotsiya, iroda sohalarini va shaxsdagi kam-

chiliklarni korreksiyalash imkonini beradi. Mehnatga oid so‘z boyligini oshirish uchun maishiy ijtimoiy faoliyatning turli usullaridan foydalaniladi. Mehnatga oid predmet va harakatlarni nomlash, ularni tasvirlab berish, predmetning sharoitini aniqlash, predmetlarni taqqoslash, ularning qismlarini aytish, amalga oshirilgan faoliyat usullari bo‘yicha hisobot berish va boshqalar shular jumlasidandir.

O‘qituvchi bolalar harakatlarini izohlab turishlari lozim, savollarni tushunarli berishlari, o‘z savollari va bolalar javoblari orasida pauzalar qilishlari kerak. Jumladan, bolalar qiynalib yechinayotganlarida ular nimani yechib kiyayotganligi, kiyimini rangi, qanday matodan tikilgani va boshqa sifatlari, ya’ni yumshoq, xurpaygan, dag‘al, uzun, issiq yangi, quruq va shu kabilar haqida gapirib turishlari kerak bo‘ladi.

Masalan: bolalar so‘zlashmay sayr oldidan kiyinmoqda. O‘qituvchi ular kiyayotgan barcha kiyimlarni so‘zlab turadi: Bolalar avval shimlarini kiyadi. Ular har xil. Rustamda yashil rang. Shohruxda ko‘k rang. Feruzada esa jigarrang. Shahnozaning poyafzali ipli, Hilolaniki kamarchali.

O‘z-o‘ziga xizmat qilish jarayonida gapga e’tiborni rivojlantira borib katta odam, ishlashga ko‘rsatma beradi va albatta uni to‘g‘ri bajarilishini kuzatadi.

Aqli zaif bolalarning umumiy va so‘zlashuv qobiliyati o‘quvlarini mustahkamlash ham lozim bo‘ladi. Bunda ular bajarilgan ishlarni gapirib bera olishlari, yoki savollarga javob berishlari, bajarilishi lozim bo‘lgan ishlarni ayta olishlari, ya’ni kiyinamiz, sho‘rva ichamiz, baliqlarga ovqat beramiz, gullarga suv quyamiz.

Bolalar yuvinish paytlarida ular qaysi qismlarini (yuz, qo‘l, quloq, tana) yuvayotganlari, nima bilan (suv, sovun, cho‘tka bilan) yuvayotganlari, qanday suv (qaynoq, iliq, sovuq), qanday sovun bilan (oq, pushti, xushbo‘y), nima bilan (oq, toza, dazmollangan, darg‘il sochiq) artinganlarini gapirib berishlari kerak.

Sayr va ekskursiya davrida kattalar qilayotgan mehnatni kuzatishni to‘g‘ri tashkil qila bilish muhim. Bu bilan kuzatilayotgan obyektlarni so‘zlashuvning turli jihatlarini rivojlantirishga maksimal yo‘naltiriladi.

Barcha hollarda ham har bir bolaning o‘ziga xos so‘zlashuv imkoniyatlaridan kelib chiqib savollar berilmog‘i lozim. To‘g‘ri va tez aytilgan javoblar alohida maqtalishi lozim va barcha bolalar e’tiborini bunga jalb qilinishi kerak. Ijobiy namunalar boshqa bolalarda so‘zlashuvning faollashuviga olib keladi.

Korreksion-pedagogik ish shakli turli-tumanligiga, o‘yin elementlariga, darslarning emotsional boyligiga, bolalar fikrlashtirish faoliyatini faollashtirishga qaratilgan bo‘lishi zarur.

Darslar yordamida bolalar u yoki bu mehnat turini, mehnat jarayonini, uning natijalarini o‘z ko‘zlari bilan kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Mehnat tarkibini va bolalar nutqini rivojlantirishning umumiy tomonlaridan yana biri bu mavzuli ekskursiyadir.

Mehnat faoliyati aqli zaif bolalarga muloqot qilishni rivojlanishiga yordam beradi. Shu sababli, o‘qituvchi nutqni o‘stirish va faollashtirish maqsadida turli yo‘llarni tashkil qilishi kerak.

Aqli zaif bolalarda bunday faoliyat orqali amalga oshirish mumkin. Bunda bilimlarni mustahkamlash maqsadida syujetli rollarga bo‘lingan o‘yinlarda, shu o‘yinga, mavzuga mos asbob-anjomlar va jihozlardan foydalanish samaradorligini oshiradi.

O‘yin davomida bolalar boshqa vaqtda ko‘p kuch va vaqt talab etgan narsalarga yengil va jon dillari bilan erisha oladi. O‘yin aqli zaif bolada nutq muloqotiga psixologik muhitni yaratishga, mustaqil bir necha bor o‘tilgan materiallarni sharoitga qarab takrorlashga yordam beradi.

Aqli zaif bolalar nutqiy rivojlanishi uchun syujetli-rolli o‘yinlar tanlab olinadi (shifoxonaga, oshxonaga, dalaga...)

Bu o‘yinlarning barchasi, elementar muloqot taqlid, kattalar nazorati ostida, shu bilan bolalarda muloqotni talab etadigan, ko‘tarinki kayfiyatli qilib tashkil etilishi lozim. O‘yin davomida bolalar turli kasb egalari etib tayinlanadi, faol nutq faoliyatiga sharoit tug‘iladi, savollar beriladi, boshqalarni harakatga chaqiradi, bo‘layotgan ishlar to‘g‘risida qisqacha gapiriladi, qilishi kerak bo‘lgan ishlar to‘g‘risida gapiriladi. Kattalar tomonidan dialoglarda ishtirok etgan bolalarni barcha harakatlari ijobiy qo‘llab-quvvatlanib turilishi kerak.

Mehnat jarayoni boshqa jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, mehnat darslarida aqli zaif bolalar nutqni rivojlantiruvchi ulkan aniq materiallar oladi. Bola bajargan aniq ish yuzasidan so‘zma-so‘z hisobot berganda, texnologik jarayonlarni aniq ketma-ketligi, nutqning ketma-ketligi va aniqligini tarbiyalaydi. Va shu bilan bolaning lug‘at boyligi oshadi. Asboblarning nomi, materiallar, texnik operatsiyalar, buyum qismlari va hokazo. Shuni aytish joizki, mehnat haqida gapirganda biz qo‘l mehnatini nazarda tutamiz. Qo‘l bu, odamni umumiy rivojlanish xarakteriga katta ta’sir qiluvchi mexanizmdir.

Mehnat darslarida aqli zaif o‘quvchining psixik faoliyatining asosiy shakllari rivojlanib, shaxsga xos bo‘lgan xususiyatlar shakllanadi. Mehnat korreksion tarbiyaviy xarakterga ega bo‘lib, bu yerda ularning asosiy kamchiliklari bartaraf etiladi.

Agar mehnat, aqli zaif bolalarga ma’lum bir sistema sifatida berilsa, ya’ni mehnatning yengil shakllari asta sekin murakkabroq shakllar bilan almashsa, mehnatni rivojlantiruvchi va korreksion tarbiyaviy roli samara beradi.

Mehnat jarayoni aqli zaif bolani faqat psixik rivojlantirish bilan chegaralanmaydi uning jismonan rivojlanishiga ham olib keladi. Bunda ikkita asosiy xislat rivojlanadi: aqli zaif bola hayot tonusini umumiy ko‘tarilishi va o‘ziga xos nuqsonlarni maxsus korreksiyasidir. Misol uchun barmoq mushaklari yaxshi rivojlanmaganda plastilindan shakllar yasash ushbu kamchilikni bartaraf etishga olib keladi.

Aqli zaif bolalardagi kamchiliklarini bartaraf etishda mehnatni individual yondashuvining roli katta, ya’ni har bir bolaning imkoniyati va kamchiligidan kelib chiqqan holda, mehnat topshirig‘ini berish lozim.

Grammatik darslar predmetli, syujetli, rasmlar, mehnat qurollari, bolalar tomonidan yasalgan turli narsalar orqali olib borilishi mumkin. Olingan bilimlarni tekshirish turli variantlar orqali bajariladi. (savollarga javob, o‘yinlar rasmlarga qarab hikoyalar tuzish, eshitganini so‘zlab berish). Mehnat mavzusiga bag‘ishlangan qator dars ishlanmalari ishlab chiqilgan: (adabiy asar asosida, maxsus tayyorlangan albom, ko‘rgazmali materiallar). Bularning bari ishning asosiy maqsadi – aqli zaif bolalar nutqini rivojlantirish, ularning so‘z boyligini oshirish, nutqiy faoliyatini ko‘tarish, so‘zlar yig‘imidan keraklilarini ajratib olish, gaplar tuzish, qisqa bog‘langan hikoyalar tuzish, turli sharoitlarda nutqdan foydalanishga qaratilishi zarur. Shu tarzda aqli zaif bolalarda sanoatdagi mehnat, qishloq xo‘jaligi, maishiy hayotdagi tasavvurlar shakllanadi. Har bir darslarda nutqning grammatik tuzilishi ustida ish olib borilishi kerak.

Nutq rivojining eng muhim vazifalaridan yana biri – bu situativ nutq formasidan foydalanishni bilishdir. Mehnat faoliyati bunga to‘liq mos keladi. Yordamchi maktabda mehnat faoliyati bir vaqtning o‘zida bir necha aspektda olib boriladi. Aqli zaif bolalar o‘z-o‘ziga xizmat, xo‘jalik ishlari, kattalar mehnati haqida tushunchaga ega bo‘ladilar.

Xuddi shu faoliyat turidan bolalarning mehnatga oid so‘z boyligini kengaytirish va aniqlashda hamda ilgari o‘rganilganlarni mustahkamlashda foydalaniladi. Notanish

sharoitlarda tanish so‘zlardan foydalanish bilimlarni oshiradi. O‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash maqsadida mavzuviy kechalar tayyorlash mumkin. Shunday ishlar boshqa mehnat faoliyatlari davomida ham o‘tkaziladi. Xo‘jalik maishiy mehnat, tabiat qo‘ynidagi mehnat. Bu xildagi faoliyat boshqa xarakterdagi masalalarni hal qilishda ham foydalaniladi. Nutqiy xarakterga da’vat etuvchi sharoit yaratiladi. Bolalar, mehnat uchun kerak bo‘ladigan predmetlar nomlarini aniq aytib murojat etishga majbur bo‘ladilar. Bundan tashqari shu jarayon davomida eng muhimlaridan biri bu nutqni rejalash va psixologik munosabat shakllanadi. Bu vazifada bolalar nimani va qay tariqa qaysi ishni bajarishlarini so‘zlab berishlari kerak bo‘ladi. Sharoitni so‘zlab berish jarayonida, bir voqelikni ikkinchisiga o‘tishdagi ketma-ketlik natijasida keng qamrovdagi dialog, monolog strukturalariga o‘ta boshlanadi.

Natijada, aqli zaif bolalar fikr yuritish, tasavvuri, monologik nutqlarida yangi leksik grammatik tuzilishlari mustahkamlanadi. Shunday qilib, aqli zaif bolalar mehnat jarayoni davomida ularni o‘rab turgan predmetlar, narsalar turli harakatlar bilan tanishadilar. Aqli zaif bolalar mehnat jarayonida qatnashishini, kuzatish natijasida, predmetlar, narsalar, turli holatlar, harakatlar bilan tanishadi. Aqli zaif bolalar mehnat jarayonida qatnashishini kuzatish natijasida predmetlar va borliqning borligi, undagi insonlarning tutgan o‘rni haqida tasavvurga ega bo‘ladi. Ularda kattalar va tengdoshlar bilan muloqot qilish zaruriyati uyg‘onadi. Shu bilan birga mehnatga, insonlar mehnatiga ijobiy munosabat yuzaga keladi.

Aqli zaif bolalarni mehnatga o‘rgatish jarayonida quyidagi nutqiy asoslarga suyaniladi:

a) mehnat darslarida dasturda berilgan materiallarni tushunib mustahkam o‘zlashtirish:

b) o‘z harakatlarini elementar rejalashtirib tushuntirib bera olish:

v) dars jarayonida o‘qituvchi bergan yuriqnomalarni to‘g‘ri tushunib qo‘llay olish.

Xulosa qilib aytganda, maktabda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatishga o‘rgatish, o‘quvchilarni uyda o‘z mehnat majburiyatlarini bajarishi bilan birga olib borilishi kerak. Bolalar ko‘pgina topshiriqlarni ro‘znomalarni olish, oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish, ovqat pishirish, uyni tozalash aynan oilada bajarilishini boshlaydi. Shu topshiriqlarning doirasi juda katta va har doim ham maktabda ta’minlana olmaydi. Ota-onalarning o‘z bolasi mehnat imkoniyatlarini haqqoniy baholashga o‘rgatish juda muhim. Ko‘pincha ota-onalar aqli zaif bola bajara olmaydigan topshiriqlarni beradi. Bu ularda o‘z kuchiga ishonmaslikka olib keladi, hissiyotlarni yuzaga keltiradi boshqa jihatdan bolani qandaydir uy topshiriqlarini bajarilishidan ozod qilish, ya’ni bunday xudbinlik va tayyorga o‘rganib qolish rivojlanishga yordam beradi. Maktab ota-onalar bilan doimiy aloqada bo‘lishi, ularni bolalarning maktabda o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish tayyorgarligi haqida xabardor qilib turishi oilada bolalar uchun aniq topshiriqlarni tavsiya qilish o‘quvchilarni oilaviy mexnat majburiyatlarini bajarishi haqida haqiqiy ma’lumotga ega bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Катаева А.А., Давыдова С.И. Обучение умственно отсталых школьников в игровой форме с использованием образца и словесной инструкции. // Дефектология. - 2015. -№ 1

2. Катаева А.А., Стребелева Е.А. Роль дидактической игры в коррекционно-воспитательном процессе. // В кн. Дидактические игры и упражнения в обучении умственно отсталых дошкольников.-М., 2016, С. 36

Dilafruz FARSAXONOVA,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Jizzax davlat pedagogika instituti, katta o'qituvchisi

BOSHLANG'ICH SINF "TARBIYA" FANINI O'QITISHDA AJDODLAR MEROSIDAN FOYDALANISH MASALALARI

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilar yosh davrlarini hisobga olgan holda boshlang'ich sinflar uchun mo'ljallangan "Tarbiya" fanini o'qitishda buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosidan unumli foydalanish usullari, uning yoshlarni ota-bobolariga munosib avlod etib, o'zligini anglatib, vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi o'rni xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Ta'lim, tarbiya, o'quvchi, mutafakkir, ajdod, avlod, Vatan, "Tarbiya" fani, darslik, metod, odob, axloqiy tarbiya.

В статье рассматривается эффективное использование богатого духовного наследия наших великих предков в преподавании предмета "Воспитание" для начальной школы с учетом возраста учащихся, его роли в воспитании молодежи в духе патриотизма.

Ключевые слова. Образование, воспитание, ученик, мыслитель, предок, поколение, Родина, предмет "Воспитание", учебник, методика, этикет, этика, нравственное воспитание.

This article discusses the effective use of the rich spiritual heritage of our great ancestors in the teaching of the subject "Education" for primary school, taking into account the age of students, its role in educating young people in the spirit of patriotism.

Key words. Education, upbringing, student, thinker, ancestor, generation, Motherland, the subject of "Education", textbook, method, etiquette, ethics, moral education.

Yosh avlodni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashga oid davlat siyosatini amalga oshirishni ma'naviy-axloqiy tarbiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Zero, uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, xususan, umumta'lim maktablarida o'quvchilarning ongi, tafakkuri va dunyoqarashini jamiyatning maqsad va vazifalarini amalga oshiruvchi kuchga aylantirishda ma'naviy-axloqiy tarbiya alohida o'rin tutadi.

"Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq. Bugun zamon shiddat bilan o'zgaryapti. Bu o'zgarishlarni hammadan ham ko'proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin. Lekin ayni paytda o'zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan", deya ta'kidlaydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Mazkur vazifalar maktab, oila, mahalla, butun jamoatchilikka katta mas'uliyat yuklaydi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasining barcha bo'g'inlari – maktabgacha ta'lim, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimini takomillashtirish, ta'lim mazmunini milliy merosimiz asosida boyitish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoshlar kamolotida o'z samarasini beradi. Bu o'rinda ta'lim muassasalarida ta'limni tarbiyalovchilik prinsipiga

alohida e’tibor berib, ta’lim bilan tarbiyani uyg‘un holda olib borish talab etiladi. Zero, ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib tasavvur etib bo‘lmaydi.

Xalq ta’limi vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yilning 23-avgust kuni xalq ta’limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minlash yuzasidan Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish choralari to‘g‘risida”gi qaror loyihasi ishlab chiqildi.

2020-yil 6-iyulda “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 422-sonli qaror qabul qilindi.

Qarorga muvofiq, umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Odobnoma”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda “Tarbiya” fani 1–9-sinflarda – 2020-2021-o‘quv yilidan, 10-11-sinflarda esa 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiy soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etiladi.

Qaror bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani konsepsiyasi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son qaroriga asosan, Ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqildi. Mazkur dasturda 1-9-sinflar uchun yaratilgan “Tarbiya” fani darsligini davriylik asosida qayta nashr etishda buyuk bobolarimiz asarlaridan keng foydalangan holda to‘ldirib borish vazifasi belgilab berilgan.

Bugungi kunda ta’lim tizimiga joriy etilgan “Tarbiya” fanida ham buyuk mutafakkirlarning asarlaridan, hikmatli fikrlaridan unumli foydalanilsa, albatta, yoshlar ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta’sir etadi. Buning uchun, avvalo, mutafakkirlar asarlaridagi ta’lim-tarbiyaga oid bo‘lgan qarashlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yoshiga hamda mavzuning mazmuniga moslarini tanlab olib, darslarda o‘quvchilarga tushunarli va qiziqarli etib foydalanish, buyuk ajdodlarimiz shaxsi haqida ma’lumotlar berib o‘tilishi lozim. 2020-2021-o‘quv yilida boshlang‘ich sinflarda amaldagi “Tarbiya” darsliklarida buyuk bobolarimiz asarlaridan keltirilgan ma’lumotlar tahlilini keltirib o‘tamiz.

1-sinf darsligi (N.Ismatova va b. Tarbiya: 1-sinf uchun darslik. 1-nashr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 64 b.) muqovasida Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” fikri keltirilgan ammo darslikning ichida bironta mutafakkir haqida ham yoki ularning fikrlaridan ham ma’lumot keltirilmagan. Bu o‘rinda, o‘qituvchi dars jarayonida bevosita mavzuga bog‘lab buyuk bobolarimiz fikrlaridan foydalanib o‘tishi maqsadga muvofiq.

Masalan, “Salomlashish odobi” nomli 2-mavzu (6-9-sahifa) da Alisher Navoiy bobomizning odob haqidagi juda chiroyli fikrlarini keltirib o‘tish mumkin: “Odob kichiklarni ulug‘lar mehriga sazovor qiladi” (“Mahbub ul-qulub”dan). Mazkur hikmatli so‘zlarni keltirish asosida Navoiy shaxsi haqida qisqacha ma’lumot berib va odob haqidagi fikrlarini o‘quvchi yoshiga mos ravishda izohlab o‘tilishi lozim.

Yoki “Sog‘ tanda sog‘lom aql” deb nomlangan 25-26-mavzu (55-57-sahifa) da tibbiyotga asos solgan, ta’lim nazariyasi va metodikasiga dastlab jismoniy tarbiyani kiritgan alloma Abu Ali ibn Sinoning salomatlik haqidagi fikrlaridan keltirib o‘tilib, alloma haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tilsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Masalan,

“O‘z vaqtida, me’yori bilan badantarbiya qilgan odamga dard yaqin yo‘lamaydi”. Ushbu fikrni izohlash orqali kichik yoshdagi o‘quvchida badantarbiya inson salomatligi uchun naqadar foydali ekanligi tushuntiriladi.

2-sinf darsligi (N.Ismatova va b. Tarbiya: 2-sinf uchun darslik. 1-nashr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 80 b.) dagi 1-mavzu “Olamni mahliyo aylagan diyor”, deb nomlangan bo‘lib, ushbu mavzuda 5-sahifada buyuk bobolarimiz (Alisher Navoiy, Ibn Sino, Amir Temur) ni suratlari keltirilib suratlarga mos matn tuzish topshirig‘i berilgan hamda 7-sahifada Abu Ali ibn Sino haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tilgan. Mazkur mavzu asosida o‘qituvchi o‘quvchilarga Vatan to‘g‘risidagi fikrlarni buyuk bobolarimizning Vatan uchun olib borgan faoliyati bilan hamohang holda tushuntirishi o‘quvchilarda Vatanga muhabbat hamda milliy g‘urur hissini shakllantiradi.

2-sinf darsligida bundan tashqari boshqa biron joyda ajdodlarimiz haqida yoki ularning fikrlari keltirib o‘tilmagan. Ammo o‘qituvchi mavzularning mazmunidan kelib chiqib ham boy ham ma’naviy meroslarimizdan unumli foydalanishi mumkin. Masalan, “Kim bo‘lsam ekan?” nomli 10-mavzuda ham kasblar haqida ma’lumot berib, kasblarning tarixida shu sohaning butun dunyo tan olgan asoschilari haqida ma’lumot berish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Xususan, Amir Temur – sarkarda, habiy, Alisher Navoiy – yozuvchi, shoir, Abu Ali ibn Sino – shifokor, Al-Xorazmiy – matematik, Abu Rayhon Beruniy – geograf kabi ma’lumotlarni o‘quvchilarga mos ravishda yetkazish lozim.

3-sinf darsligi (D.Ro‘ziyeva va b. Tarbiya: 3-sinf uchun darslik. 1-nashr. – T.: “Sano standart”, 2020. – 96 b.) muqovasida Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi mashhur fikri “Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir” keltirilgan, ammo darslikdagi mavzularda bironta mutafakkir haqida yoki ularning asarlaridan ma’lumot keltirilmagan. Ammo darslikda hikmatli so‘zlar, hikoya va rivoyatlar, maqollar keltirilgan bo‘lib, bular albatta o‘quvchi-yoshlarni milliy ruhda tarbiyalashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

4-sinf darsligi (S.Shermuxamedova va b. Tarbiya: 4-sinf uchun darslik. 1-nashr. – T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 96 b.) da “Bobolarimizning bebaho merosi” nomli 4-mavzuda Ahmad al-Farg‘oniy hamda Imom Ismoil al-Buxoriy haqida ma’lumot berilib, ularning hikmatlaridan keltirilgan. 4-sinf o‘quvchisi boshqa fanlardan ham ko‘plab allomalarning hati, faoliyati, asarlari, hikmatlari bilan tanishib o‘tganligini inobatga olib, ushbu mavzuda boshqa allomalarni ham misol keltirib, o‘quvchilarga yana bir eslatib o‘tish maqsadga muvofiq.

Darslikdagi 9-mavzu “Vatan bayrog‘ini baland tutaylik” deb nomlanib, unda “Tarix tilga kirganda” bo‘limida bobomiz sohibqiron Amir Temur haqida ma’lumot berib, buning Vatan uchun olib borgan faoliyati xususida so‘z yuritilgan. Bu esa albatta o‘quvchilarda faxr-iftixor tuyg‘usini uyg‘otadi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘tiladigan “Tarbiya” fanida o‘qituvchi mavzularning mazmuniga hamda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab juda ko‘plab mutafakkirlarimizning fikrlaridan unumli foydalanishi mumkin, chunki har bir mavzuga albatta boy m’naviy merosimizda namunalar ko‘plab topiladi. Bu o‘rinda o‘qituvchining mahorati hamda ajdodlarimiz ma’naviy merosini qay darajada o‘rganganligi hamda ularni qo‘llay oliy usullarini bilishi muhim o‘rin tutadi.

Masalan, Abu Ali ibn Sino muhim axloqiy sifatlarni tahlil qiladi va har biriga ta’rif beradi. Insondagi ijobiy axloqiy xislatlarga saxiylik, chidamlilik, kamtarlik, muhabbat, mo’tadillik, aqllilik, sadoqat, intilish, qat’iyatlilik, uyatchanlik va boshqalarni kiritadi. Ibn Sino axloqiy xislatlarni quyidagicha ta’riflagan: mo‘tadillik – tan uchun zaruriy oziq va

xulq me’yorlariga to‘g‘ri kelmaydigan ishlarni qilmaslik; saxiylik – yordamga muhtoj kishilarga ko‘maklashuvchi insoniy quvvat; g‘azab – biror ishni bajarishda jasurlik; aqllilik – biror ishni bajarishda shoshma-shosharlikdan saqlovchi quvvat; ziyraklik – narsalar va xatti-harakatlarning haqiqiy ma’nosini tezlik bilan tushunishga yordam beruvchi quvvat; kamtarlik – xudbin ishlar bilan shug‘ullanishdan to‘xtatuvchi kuch.

Alisher Navoiyning hikmatlaridan quyidagilarni keltirish mumkin:

1. Til shirinligi — ko‘ngilga yoqimlidir; muloyimligi esa — foydali. Chuchuk til achchiqqa aylansa ko‘pchilikka zarari tegadi; qanddan may tayyorlansa harom bo‘ladi. Shirin so‘z sof ko‘ngillar uchun asal kabi totlidir; bolalar uchun muloyim tabiatli odam — halvofurush kabi sevimlidir.

2. Yolg‘on gapirish bilan o‘z vaqtini o‘tkazuvchi odam, bu qilig‘i yomon tuyulish o‘rniga, kishilarni aldagani bilan faxrlanadi ham. Yolg‘onchi o‘z gapiga go‘llik bilan quloq soluvchini topsa, ularga yolg‘onni chinga o‘tkazsa, murodiga etgan bo‘ladi. Yolg‘onchi – haq qoshida gunohkor; xalq oldida sharmanda. Bunday nahsning beor yuzi yomonlikka o‘girilgan bo‘ladi; bunday nahsga botgan odam qutlug‘ uydan nari bo‘lg‘ay.

3. Kimki, yolg‘on so‘zni birovga to‘nkagay, o‘z qora yuzini yog‘ga bulaydi. Ozgina yolg‘on ham ulug‘ gunohdir; ozgina zahar ham halok qiluvchidir.

4. Naf’ing agar xalqqa beshakdurur
Bilki, bu naf’ o‘zungga ko‘prakdurur.

5. Ilmni kim vositayi joh etar,
O‘ziniyu xalqni gumroh etar.

6. Ko‘p demak birla bo‘lmag‘il nodon,
Ko‘p emak birla bo‘lmag‘il hayvon.

Mazkur asarlarning barchasi o‘quvchilarga axloqiy tarbiya berish jarayonida muhim didaktik asos bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarga axloqiy tarbiya berishda “Tarbiya” fanida ajdodlarimiz ma’naviy merosidanhikmatlar tanlash jarayonida ushbu pand-nasihat tarzida yaratilgan asrlardan unumli foydalana olsak, har bir mavzuga mos, o‘quvchilarning axloqiy tarbiyalanganlik darajasini oshiradigan hikmatlarni olib, o‘z o‘rnida qo‘llay olsak, ko‘zlagan maqsadimizga erishish imkoni yaratiladi. Chunki, ushbu donishmandlarning pand-nasihatlarida mehnatga, el-yurtga muhabbat, poklik, halollik, to‘g‘rilik, rostgo‘ylik, sahiylik, mehr-muruvvat, xushmuomalalik kabi ezgu insoniy sifat va xislatlar targ‘ib qilinadi hamda dilozorlik xudbinlik, johillik, yalqovlik, tanballik, egrilik, baxillik, shafqatsizlik, badxulqlik kabi salbiy xislatlar qoralanadi, beayov tanqid qilinadi. Bu esa o‘quvchilarda ijobiy axloqiy sifatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz (1-jild). – T.: O‘zbekiston. NMIU, 2017. 592-b.

2. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – T.: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 160-b.

3. Imom Ismoil al-Buxoriy. Al-adab al-mufrad (Odob durdonalari). – T.: O‘zbekiston, 1990. – 258-b.

4. Ismatova N. va b. Tarbiya: 2-sinf uchun darslik. 1-nashr. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 80-b.

Muqaddas SOIBNAZAROVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, katta o‘qituvchisi

ABDULLA AVLONIY QARASHLARI ASOSIDA YOSHLARDA IJOBIY SIFATLARNI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada Abdulla Avloniyning komil inson to‘g‘risidagi ta’limotlaridan namunalar keltirish asosida bugungi kunda qilinayotgan ishlarimizning mazmun mohiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar. Komil inson tarbiyasi, ma’naviy meros, ma’naviy omillar.

В статье рассматриваются взгляды и отношения Абдуллы Авлони на воспитание гармонично развитого человека в тестной связи с современностью.

Ключевые слова. Воспитание гармонично развитого человека, духовная наследия, духовные факторы.

The article considers viewsand attitudes of our ancerstors towards the updringing of the harmoniousiy developed personality in close relation with contemporary life.

Key words. Education of a harmoniously developed person, spiritual heritage, spiritual factors.

O‘rta Osiyoda komil inson tarbiyasiga bo‘lgan e’tibor qadimdan ilmiy, falsafiy, amaliy masala bo‘lib kelgan. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagi” “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning Harakatlar strategiyasi to‘g‘risidagi” farmoni mazmun mohiyati mavzusidagi 2017-yil “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturi va unda ta’lim va fan sohasini rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni belgilab berdilar.[1]

Abdulla Avloniyning fikricha, Vatan tuyg‘usi eng insoniy, eng mo‘tabar tuyg‘udir. Vatan dardi bilan yashamoq, uning baxtidan quvonmoq, u bilan faxrlanmoq kerak. Vatan Onadek muqaddas. Uni qadrlash, e’zozlash, uning shodlik va quvonchiga sherik bo‘lish, g‘am-hasratini baham ko‘rish – farzandning muqaddas burchidir. Avloniy deydiki: “Har bir kishining tug‘ilib o‘sgan shahri va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug‘ilgan, o‘sgan yerini jonidan ortiq suyar. Hatto, bu vatan hissi – tuyg‘usi hayvonlarda ham bor. Agar bir hayvon o‘z vatanidan – uyuridan ayrilsa, har vaqt dilining bir go‘shasida o‘z vatanining muhabbati turar”.

Farzandlar ham har xil bo‘ladi. Onaning baxtiga sherik bo‘lib, baxtsizligida yolg‘iz tashlab ketuvchi farzandlar ham topiladi. Vatanning ham faqat fusunkor tabiatini, bog‘-rog‘larini xush ko‘radigan, lekin tashvish va g‘amlarini o‘ylamaydigan farzandlari yo‘q emas.

Abdulla Avloniyning fikricha, axloq – bu xulqlar majmuidir. Xulq esa, kishida o‘z – o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Ularning shakllanishi uchun ma’lum bir sharoit, tarbiya kerak. Kishilar tug‘ilishida yomon bo‘lib tug‘ilmaydilar, ularni muayyan sharoit yomon qiladi.

Avloniyning ta’kidlashicha, axloq tarbiyasi xususiy ish emas. Bu tarbiya ijtimoiy

[1]O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017–2021-yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakat strategiyasi. 7-fevral, 2017-yil.

ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo‘lishi avlodlar tarbiyasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Avloniy yaxshilikni ulug‘ fazilat hisoblaydi, insonlarni bir – biriga yaxshilik qilishga da’vat etadi. U deydi:

Yaxshilik qilsang, bo‘lur joning omon,
Yaxshilikdan hech kishi qilmas ziyon.
Yaxshi so‘z birlan ilon indan chiqar,
So‘z yomon bo‘lsa, pichoq qindan chiqar.[2]

Avloniy saxiylik, rahm – shafqat, xushfe’llik, xushmuomalalikni ham eng yaxshi insoniy fazilatlar hisoblaydi. Saxiylikni olqishlab, bu xislat insonga olqish musharraf etishini quyidagi voqea misolida bayon etadi: Said maktabga ketayotganda yo‘lda bir kishini uchratadi. U kishi deydiki: “O‘g‘lim, ikki kundan beri ochman, taom olib yey desam, ustimdagi yirtiq chakmondan boshqa hech narsam yo‘q”, – deydi. Said faqirning...holiga rahmi kelub, atosi bergan o‘n tiyin pulni faqirga berdi. Faqir... ofarin qilub yig‘lay-yig‘lay duolar qilub ketdi. Said... uyiga borgan zamon qilg‘on ishini otasiga so‘zladi. Otasi ham “saxiy Saidim”, deb xursand bo‘lib, duo qildi bundan so‘ng Saidga har kuni yigirma tiyindan berurga va’da qildi, uni olqishladi.

Avloniy takabburlik, manmanlikni inson boshiga yomon oqibatlar keltiruvchi illat sifatida qoralaydi. Bunga “Janjalchilik zarari” hikoyasida ikki echki voqeasi misolida bayon etadi.

Abdulla Avloniyning vijdon haqidagi mulohazalari ham diqqatga sazovor. “Vijdon deb ruhimizga, fikrimizga ta’sir qiladurg‘on hissiyot, ya’ni sezuv, tuymakdan iborat ma’naviy quvvatni aytilur. Biz har vaqt af’ol va harakatimizning yaxshi va yomonligini, foyda va zararligini ondak vijdonimiz ila bilurmiz. Vijdon insonning aql va fikrini haqiqiy mezonidurki, bu torazu ila o‘z kamchiliklarni o‘lchab, bilmak ila barobar, boshqalarning ham af’ol va harakotini sezur. Agar ishlagon kishi shariat, aql va hikmatga muvofiq bo‘lsa, muhabbat qilur. Qabohat va yomon ishlarni qilsa, nafrat qilur.

Vijdon yaxshi xulqlarning manbai o‘ldig‘indin vijdon sohiblari har bir ishni bag‘araz, xolis niyat ila ishlar. Shul sababli har kim nazarida maqbul va suyukli bo‘lur...”.

Avloniy so‘zining inson qadr-qiymatini belgilashdek mavqeiga umuminsoniy nuqtayi nazardan baho berdi. Til va so‘z odobi haqidagi fikrlarini shunday ifodaladi: “...so‘z insonning daraja va kamolini, ilm va fazlini o‘lchab ko‘rsatadurg‘on tarozisidur. Aql sohiblari kishining fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so‘zlagan so‘zidan bilurlar”.[3]

Avloniy rostgo‘ylik va to‘g‘riso‘zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri sifatida baholadi.

U deydi: “Haqqoniyat deb ishda to‘g‘rilik, so‘zda rostlikni aytilur. Inson bo‘stoni salomatga, gulzori saodatiga haqqoniyat yo‘li ila chiqar. Insoniyatning ildizi o‘lan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onosi haqqoniyatdur...”[4]

Kishilarni yaxshilikka undash, yomonlikdan qaytarish, dunyodagi barcha insonlarga ezgulik istagi bilan yashash chinakam oliyjanoblikdir. Odamlar umr bo‘yi bir – birlari bilan aloqada bo‘ladilar. O‘zaro yordamga, hamkorlikka hojat sezadilar. Shunday ekan, rostgo‘ylik, to‘g‘riso‘zlik insonlar hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Avloniyning fikricha, insonni kamolotga yetkazishda bosh omil bo‘lgan aql

[2]Abdulla Avloniy. Birinchi muallim. T., 1915, 37-bet.
[3]A.Avloniy. Birinchi muallim. T., 1915
[4]O‘sha manbaa, 260–261-betlar.

ilm va tajriba tufayli rivojlanadi. Ilm olish riyozat chekishni, sa'y-g'ayratni talab qiladi.

Adib ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham u, yoshlarni ilm sirlarini bilishga, hodisalar mohiyatini anglashga chorlaydi. U ayniqsa, kitob mutolaa qilishning foydasi katta ekanligini, unda hikmat ko'pligini zavq-shavq bilan gapiradi. Abdulla Avloniyning fikricha, dunyoda kitobdan yaxshi do'st yo'q.

Abdulla Avloniy kishining ilm olishini eng yuksak fazilat hisoblaydi. Uning aytishicha, ilm agar jamiyat manfaatiga xizmat qilmasa, ilm xalq farovonligi yo'lida qo'llanilmasa, u o'likdir. Shuning uchun ham, adib xalqqa ko'proq nafi tegadigan ilm-hunar bilan shug'ullanishni taklif etadi.

Adib ilmning amaliy ahamiyatini chuqur tahlil etadi. Uning fikricha, har bir kishi biror ilm, hunarni egallar ekan, uni hayotda qo'llay bilishi darkor, ana shundagina ilm-hunarning jamiyatga nafi tegishi mumkin. Avloniy o'z ilmini amalda qo'llay oladigan kishilarni dono insonlar, deb hisoblaydi.

Abdulla Avloniy pedagogik qarashlarining ahamiyati Abdulla Avloniy atoqli pedagog, murabbiy sifatida butun hayotini ma'rifat rivojiga baxsh etdi. U o'z ilmiy asarlari, darsliklarida Vatan, vatanparvarlik, ilm-hunar, axloq-odob, ma'rifat, inson kamoloti, jamiyat rivoji haqida fikrlar bayon qiladi.

Abdulla Avloniy kishilarni yaxshilikka undash, dunyodagi barcha insonlarga nisbatan ezgulik istagi bilan yashashni chinakam oliyjanoblik hisoblaydi. Uning bu pedagogik fikri – ta'limoti milliy pedagogika tarixi rivojiga muhim hissa bo'lib qo'shildi. Avloniy bayon etgan fikrlar hozirgi davr ta'lim rivojiga ham xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021-yillarda. O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakat strategiyasi. 7-fevral. 2017-yil.

2. Shavkat Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017-y. 22-bet.

3. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017-y.

4. Shavkat Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016-y.

5. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. –T.: O'qituvchi, 1972.

6. Hoshimov. K., Nishonova S.. Pedagogika.–T.: O'zbekiston, Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2005-y.

Komila PARDAYEVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, “Umumiy pedagogika” kafedrasi, katta o‘qituvchisi

ABDULLA AVLONIY FAOLIYATINING IJTIMOIY-MA’RIFIY JIHATLARI

Annotatsiya

Maqolada jamiyatimizda ma’naviy-ma’rifiy masalalarning ustuvorligini ta’minlashda buyuk allomalarning ijtimoiy-ma’rifiy merosidan foydalanish masalalari ulug‘ ma’rifatparvar adib Abdulla Avloniy misolida yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Badiiy ijod, milliy matbuot, she’riyat, ijtimoiy mavzu, pedagogik faoliyat, teatr truppasi, maktab darsliklari, axloqiy tarbiya, ma’naviy mezon.

В статье рассматривается использование социально-просветительского наследия великих ученых для обеспечения приоритетности духовно-просветительских проблем в нашем обществе на примере великого просвещенного писателя Абдуллы Авлони.

Ключевые слова. Искусство, национальная пресса, поэзия, социальные проблемы, педагогическая деятельность, театральная труппа, школьные учебники, нравственное воспитание, духовные критерии.

The article examines the use of the social and educational heritage of great scientists to ensure the priority of spiritual and educational problems in our society on the example of the great enlightened writer Abdullah Avloni.

Key words. Art, national press, poetry, social problems, pedagogical activity, theater troupe, school textbooks, moral education, spiritual criteria.

O‘zbek xalqi madaniy-ma’rifiy jihatdan nihoyatda boy va beqiyos xazinaga egaki, bugun biz ana shu cheksiz ummondan munosib bahramand bo‘lib, o‘z hayotimizni har jihatdan farovon etmog‘imiz, kelajak avlod uchun munosib shart-sharoitlarni yaratib bermog‘imiz lozim. Buni davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan joriy yilning 19-yanvar kuni ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida ilgari surilgan quyidagi fikrlarda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin: “Yangi O‘zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz:

Birinchisi – bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot.

Ikkinchisi – ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma’naviyat”.

Shu ma’noda, so‘nggi yillarda yurtimizda milliy ma’naviyat va ma’rifat, ta’lim-tarbiya yo‘nalishlarida keng ko‘lamli islohotlar olib borilmoqda, o‘sish-o‘zgarishlar yuzaga kelmoqda. Jumladan, davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasi, O‘zbekiston yoshlarining birinchi forumi hamda Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig‘ilishida ham ma’naviyat yo‘nalishidagi dolzarb vazifalar belgilab berilgan edi. Zero, bu soha inson shaxsiyati, jamiyat mohiyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, har doim diqqat-e’tiborga, rivojlanishga ehtiyoji balanddir.

Tarixdan ma’lumki har bir jamiyatning milliy manfaatlarini himoya qiluvchi, axloqiy-ma’naviy mezonlarni, shaxsiy kamolotni targ‘ib etuvchi o‘z rahnamolari, ma’rifat pesh-

volari bo‘ladi. Ularning sa’y-harakati, izlanish va tashabbusi, ilmiy-ijodiy merosi bilan jamiyat ijtimoiy-ma’rifiy hayotida tub burilishlar, o‘sish-o‘zgarishlar sodir bo‘libboradi. O‘zbek xalqining bu jihatdan har qancha faxr etsa arzigulik buyuk siymolari, ulug‘ allomalari borki, ular yaratib qoldirgan beqiyos xazina butun insoniyatning ma’naviy-ma’rifiy barkamolligini ta’minlashga munosib hissa qo‘shadi. Jumladan, iste’dodli adib Abdulla Avloniy ham ana shunday ma’rifatparvar siymolardandir. O‘zbek adabiyoti, nashriyoti, teatr san’ati, maktab-maorifini, pedagogikasini shakllantirish va rivojlantirish yo‘lida serqirra faoliyat olib borgan allomaning boy ilmiy-ijodiy xazinasini o‘rganish va targ‘ib etish har doim o‘z dolzarbligini saqlab turadi.

Abdulla Avloniy qaysi sohada faoliyat olib bormasin, u asosiy maqsadini xalqni ma’rifatli qilish, ma’naviy dunyosini boyitishga qaratdi. Pedagogik va teatrchilik faoliyatida bu borada qanchalik muhim amaliy ishlarni olib borgan bo‘lsa, adabiy ijodda ham shu darajada faol va samarali mehnat qildi. Alloma o‘zi ochgan maktablar uchun darsliklar, teatrlar uchun sahna asarlari yaratish bilan bir qatorda she’riyatda ham keng shuhrat topdi.

Alloma “avval o‘yla, keyin so‘yla” xalq maqoliga hamohang bu she’riy parchada yaxshi fikrlarni o‘yla, yaxshi so‘zlarni so‘zla; agar yaxshi so‘z ayta olmasang, jim turganing, so‘zlamaganing ma’quldir, deya insonlarga o‘y-u fikri toza bo‘lishi, faqat yaxshi so‘zlarni so‘zlashi lozimligini uqtiradi. Shuningdek, ish-u amali ham yaxshi bo‘lishi, aksincha, bo‘lsa, bekor o‘tirgani afzalligini tushuntiradi. Yomon va xato ishlar qilib, o‘zgalarga zarar keltirgandan ko‘ra, shu ishni qilmagan ma’qul, deydi shoir.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asaridan olingan navbatdagi she’riy parchada esa adib insoniylikning muhim mezoni bo‘lmish “vijdon” haqida so‘z yuritadi.

Sof vijdon kabi hech komila mezon o‘lmaz,
Kishi o‘z aybini bilmak kabi urfon o‘lmaz.
Shod-masrur o‘lur insof ila vijdonli kishi,
Kimki vijdonsiz esa, to‘g‘ri, chin inson o‘lmaz.

Alloma talqinicha, insoniylik uchun sof vijdon kabi komil mezon yo‘q. Kishining o‘z aybini bilgani va tan olgani eng katta bilimdir. Insof va vijdonli kishi har doim shod-xurram yashaydi, vijdonsiz esa chin inson bo‘lolmaydi.

Abdulla Avloniy she’riyati o‘ziga xos: bir qarasang sodda va ravon, bir qarasang murakkab va rangin. Chunki u o‘z she’rlarida davrning ijtimoiy muhiti, xalq dardi, alam-iztiroblari, inson ruhiyatidagi turli tovlanishlarni qalamga oladi. Adibning dastlabki poetik asarlari “Adabiyot yoxud milliy she’rlar” (I, II, III, IV juzlar), “Maktab gulistoni”, “Mardikorlar ashulasi” kitoblarida va “Sabzavor” tazkirasi hamda vaqtli matbuot sahifalarida chop etilgan asarlardan tashkil topgan. Mazkur manzumalarda ilm-ma’rifat targ‘ib qilingan, jaholat va nodonlik, eski tuzumning ijtimoiy-axloqiy asoslari qoralangan, ozod va baxtiyor zamon haqida fikr yuritilgan. Shu jihatdan Avloniyning bu davrdagi she’rlari Hamza, Anbar otin poeziyasiga ohangdosh sanaladi. Avloniy zamonaviy she’riyatga xos barmoq vaznini sermahsul ijod qilib, uning keng qo‘llanilishiga zamin yaratgan. Milliy kuylarga moslab she’rlar yozgan va poeziyaning imkoniyatlarini boyitgan.

Shoir she’riyati bilan tanishar ekansiz, unda birorta ishqiy mavzudagi she’rni uchrata olmaysiz. U ijtimoiy muammolarni, el-yurt g‘amini muhimroq biladi. Xalq va Vatan baxtsizligi oddida har qanday muhabbatni rad etadi. O‘z ona-diyorini bamisoli “yor kabi sevadi”. Butun mehrini shunga bag‘ishlaydi. Asrimiz boshlari Turkiston taqdirida g‘oyat mas’uliyatli bo‘lgan, uning hayot-mamot masalasi hal qilinayotgan bir payt edi.

Buni Avloniy davrning peshqadam ziyolisi, yirik ma’rifatparvar, jadidlar ta’limotining faol tarafdori sifatida tezda ilg‘ab oladi.

Avloniyning adabiyot oldidagi muhim xizmatlaridan biri mardikorlik she’riyati deb atalgan yangi adabiy hodisani yaratganligi bilan belgilanadi. Alloma 1916-yilda sodir bo‘lgan mudhish mardikorlik voqyealarini ifodalovchi “Bir mardikorning otasi o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “Onasining o‘g‘liga aytgan so‘zlari”, “Afsus” kabi she’rlarni yozib, xalq qayg‘usiga sherikligini ochiq ko‘rsatadi. Ona yurtdan uzoq shimolning qorli-muzli yerlariga, front orqasidagi qora xizmatga olib ketilgan mardikorlarning xayrlashuv manzaralarini, haqsizlikni yoritadi. Bu she’rlarning ohang va uslubi xalq qo‘shiqlariga g‘oyat yaqin bo‘lib, ular xalqimizning milliy uyg‘onishida muhim o‘rin tutdi.

Darhaqiqat, shoir she’riyatining bosh yo‘nalishini millatda milliy ongni shakllantirish tashkil etdi. Buning uchun u Turkiston turmushini boshqa xalqlar hayoti bilan qiyoslab ko‘rsatadi.

“Bobolarimizning “bo‘lsa bo‘lar, bo‘lmasa g‘ovlab ketar” zamonlari o‘tub, o‘rniga “bilg‘on bitar, bilmag‘on yitar” zamoni keldi. Amerikaliklar bir dona bug‘doy ekub, yigirma qadoq bug‘doy olurlar. Ovrupoliklar o‘zimizdan olgan besh tiyinlik paxtamizni kelturub, o‘zimizga 25 tiyinga soturlar!”

Avloniyning ijtimoiy-pedagogik faoliyati uning teatr truppalarini tashkil qilishi, nashriyotlar ochishi, yangi usuldagi maktablarga asos solishi va ushbu maktablar uchun darsliklar yaratishi bilan belgilanadi. Jadidchilik harakatining yetuk namoyondalaridan bo‘lgan Avloniy faoliyatining asosiy yo‘nalishi ana shu ikki ish-maktab-maorifni taraqqiy ettirish va xalq orasida ma’rifat tarqatishdan iborat bo‘lgan. U bu yo‘lda bor kuch va iqtidorini, moddiy-ma’naviy imkoniyatlarini sarflab, unutilmas fidoyilik ko‘rsatadi. Shoirning Mirobodda katta qiyinchiliklar bilan ochgan maktabi butun Toshkentda keng shuhrat qozonadi. Ammo ko‘p o‘tmay, 1908-yilda ushbu maktab ham yopiladi. Barcha qarshiliklarni yengishga harakat qilgan adib 1909-yilda Degrez mahallasida yana yangi maktab ochadi.

Yuqoridagi mulohazalardan ko‘rinadiki, Abdulla Avloniy XX asr o‘zbek adabiyoti va pedagogikasining yirik namoyondasi sifatida xalqni yetuk ma’rifatli etishga qaratilgan jadidchilik harakatining keng quloch yoyishi, zamonaviy ta’lim-tarbiyaning rivojlanishi uchun nihoyatda muhim ilmiy-ijodiy, ijtimoiy-ma’rifiy faoliyatlarni amalga oshiradi, o‘z hayotini xavfga qo‘yib bo‘lsa ham natijali amaliy ishlarga qo‘l uradi. Ularni o‘rganish va targ‘ib etish hamisha dolzarb bo‘lib, ma’naviy-ma’rifiy yuksalishning, ushbu yo‘nalishdagi tadqiqotlarning muhim tayanchi sifatida qimmatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Milliy uyg‘onish davri o‘zbek adabiyoti. – T.: Ma’naviyat, 2004.

2. A. Zunnunov. Pedagogika tarixi. –T.: Sharq, 2004.

3. B. Qosimov, Sh. Rizayev. Abdulla Avloniy. – T., 2016.

4. M. Rahmonov. O‘zbek teatri tarixi (XVIII asr oxiri XX asr avvaligacha), Fan, –T., 1968.

Umida UKTAMOVA,
Jizzax davlat pedagogika instituti, ‘‘Pedagogika ta'limi nazariyasi‘‘
kafedrasi o‘qituvchisi

TALABA QIZLARDA TAZYIQ VA TAJOVUZGA QARSHI DUNYOQARASHNI RIVOJLANTIRISHNING TARIXIY ASOSLARI

Annotatsiya

Maqolada talaba qizlarda tazyiq va tajovuzga qarshi dunyoqarashni rivojlanishining tarixiy asoslari hamda xotin-qizlarning siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barcha bosqichlarida ishtirok etishlarini ta’minlash borasida olib borilayotgan ishlar mazmuni yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Tarixiy taraqqiyot, gender tenglik, jinsi bo‘yicha kamsitish, oilaviy munosabatlar, ayollar huquq va erkinliklari, ayollarga nisbatan diskrimitatsiya, urf-odatlar, oilada tenglik, oiladagi psixologik muhit.

В статье освещены исторические основы развития мировоззрения против притеснений и агрессии у девочек, а также содержание проводимой работы по обеспечению участия женщин на всех этапах политической, экономической и социальной жизни.

Ключевые слова. Исторический прогресс, гендерное равенство, дискриминация по признаку пола, семейные отношения, права и свободы женщин, дискриминация женщин, традиции, равенство в семье, психологический климат в семье.

The article highlights the historical foundations of the development of the worldview against harassment and aggression among girls, as well as the content of the ongoing work to ensure the participation of women at all stages of political, economic and social life.

Key words. Historical progress, gender equality, gender discrimination, family relations, womens rights and freedoms, discrimination against women, traditions, equality in the family, the psychological climate in the family.

Bizga ma’lumki hozirgi kunga kelib, talaba qizlarda tazyiq va tajovuzga qarshi dunyoqarashini shakllantirish lozim. Xo‘sh, dunyoqarash deganda, biz nimani tushunamiz? Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e’tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari. Dunyoqarash kishining yoshi, hayotiy tajribasi, bilimi, mafkurasi bilan bog‘liq. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o‘z aksini topadi. Shaxsning dunyoqarashi ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘langan. Dunyoqarash insonning o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi.

